

15
581

NARZULLA BOYMURODOV

AMALIY PSIXOLOGIYA



15
58
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

NARZULLA BOYMURODOV

AMALIY PSIXOLOGIYA

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi
o'quv muassasalarida ishlaydigan amaliy psixologlar,
o'qituvchilar va talabalar uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etiladi

60644

Toshkent
«Yangi asr avlodii»
2009

O'quvchiga taqdim etilayotgan ushb'u o'quv qo'llanma psixologlar, psixologiya fakulteti talabalari, aspirantlar hamda amaliy psixologiyani mustaqil o'r ganuvchilar uchun mo'ljallangan. Risola shuningdek, psixologiyadan ma'ruza o'qish, amaliy mashg'ulotlar o'tish jarayonida murakkab psixologik vaziyatlarda o'qituvchi qanday amaliy ish tutish zarurligi to'g'risida mukammal, takomillashgan tavsiyalar va maslahatlar berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bularga hozirgi zamon yangi innovatsion texnologiyalar, ta'lim-tarbiyaning samaradorligi, ta'lim jarayonini demokratlashtirish, ta'limda o'quvchilarning bilish faoliyati, muammoli, ta'lim, interfaol metodlar yordamida o'qitish, ta'lim jarayoniga tizimli yondashish masalalari kiradi. Ta'lim jarayoni o'qituvchilar va o'quvchilar oldiga murakkab talablar qo'ymoqda. O'quvchilarning vazifasi o'qish, o'rganishdan iborat bo'lsa, o'qituvchilarning vazifasi o'quvchilarni aql-idrok bilan mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. O'yaymizki, qo'lingizdagi mazkur o'quv qo'llanma ana shu jihatlariga ko'ra qimmatlidir

Mas'ul muharrir:

A.JABBOROV,

QDU psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya
fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

T. NAFASOV,

QDU tilshunoslik kafedrasi professori
X.KARIMOV,

QDU psixologiya kafedrasi
dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

O'quv qo'llanma Qarshi Davlat universiteti ilmiy kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-08-271-7

© Narzulla Boymurodov. "Amaliy psixologiya". "Yangi asr avlod'i",
2009-yil

SO'ZBOSHI

Amaliy psixologiya fani ijtimoiy-siyosiy, tabiiy va pedagogik fanlar bilan hamkorlikda inson tabiatiga xos bo'lgan bir qancha muammolarni o'rganadi. Psixologiyani o'rganish insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni, jamiyatdagi ilg'or g'oyalar va ta'limotlarni ta'lim-tarbiya, falsafa, huquq, nafosat, adabiyot, shuningdek, o'quvchi yoshlarning kasbiy, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idroki, xullas, insonparvar psixologiyaning barcha qonuniyatlarini o'z ichiga oladi. Mustabid tuzum rahbarlari uzoq yillar davomida insonning haq-huquqlarini cheklashga, eski andozalarga asoslangan ijtimoiy tarbiya – milliy psixologiyamizni so'zsiz itoatkorlikka moyillik ruhida totalitar mafkuraning ta'siri bilan yashashga odatlantirib keldi. Shuning uchun ham ular milliy psixologiya va umumpsixologik qonuniyatlarni jamiyat a'zolaridan muttasil sir tutishga harakat qildilar. Shunga qaramasdan istiqlol sharofati bilan Respublikamizning yetakchi psixolog olimlari E.G'oziyev, G'.Shoumarov, V.Karimova, B.Qodirov, M.Davletshin, A.Jabborovlar amaliy psixologiyani keng ko'lamda rivojlantirishga munosib hissa qo'shdilar. Prezidentimiz Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblarida millatimizga xos qarashlarga ularning nuqtai nazariga shunday oydinlik kiritdi: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtida shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnni aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'prik bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat g'oyasi deb bilaman»¹

Bugun amaliy psixologiya fani oldida butunlay boshqa mas'uliyatli vazifa – o'sayotgan barkamol avlodni o'zining mustaqillik mafkurasi orqali shakllantirish, tarbiyalashdek

¹ "Tafakkur" jurnali. 4-son, 1999-yil 14'bet

buyuk ustuvor vazifa turibdi. «Inson psixologiyasidagi umidsizlik, o‘z erki va ijtimoiy adolat uchun kurashish ruhining zaiflashuvi nazariya bilan turmush nomutanosibligining mas’ulidir. Odamlarda e’tiqod, dunyoqarash, eng yuksak maqsad, muomala, muloqot, milliy va mustaqil xulq-atvorni dadil shakllantirish ko‘proq psixologik omillarga bog‘liqidir»¹ Shaxsning yetuk ruhiy amali tafakkur erkinligi, jamiyat taraqqiyoti salohiyatini ko‘rsatuvchi bosh vositadir. Chunki unda ijtimoiy ong, ruhiyat o‘z ifodasini topgan. Xo‘s, bu ehtiyojni zamon talablari darajasida shakllantirish uchun nima qilimog‘imiz kerak?

Buning uchun ta’lim jarayonining barcha turlari va bosqichlarida uning samaradorligini oshirish, umumpsixologik qonuniyatlarga suyanmoq lozim. Qo‘lingizdagি o‘quv qo‘llanma mакtab, o‘rta maxsus kasb-hunar o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida yozilgan bo‘lib, risola shu sohadagi dastlabki tajribadir. Shuning uchun o‘quv qo‘llanma yoritish jarayonida qiyinchilikka duch kelish tamomila tabiiydir. Muallif o‘z oldiga amaliy psixologiya kursini mumkin qadar qisqartirmasdan, soddalashtirmasdan hozirgi zamon ehtiyojiga xos ravishda yoritib berishdek murakkab vazifani qo‘ygan. Bu fanning shu vaqtga qadar umumiy o‘rta ta’lim mакtablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv muassasalari o‘quv rejasiga kiritilmay kelganini hisobga olsak, muallif oldida yanada mas’uliyatli vazifa turganligini tushunamiz.

O‘quv qo‘llanmaning asosiy vazifasi, amaliy psixologiya fanining tub mohiyatini yoritib berishdir. Shuningdek, ushbu kitobda psixologiyaning amaliyatga oid bir qancha masalalarini chunonchi, ta’lim samaradorligini oshirishning yangi bosqichida o‘qitishning pedagogik-psixologik texnologiyalaridan foydalanish muammolari, psixologik tashxis, o‘qituvchi psixologiyasi, o‘qituvchining ma’naviy-siyosiy e’tiqodi kabi psixologik talablar tushuntirib berilgan. O‘quv qo‘llanma amaliy psixologiyaning qonuniyatlari bilan tanishtirishdan tashqari, o‘quvchi tasavvurida maxsus bilimlarni ham

¹ “Tafakkur” jurnali. 4-son, 1999-yil, 16-bet.

kengaytirish va takomillashtirish uchun imkon beradi. O'quvchilar o'z bilimlarini yanada kengaytirish imkoniga ega bo'lishlari uchun amaliy psixologiyaga oid zaruriy adabiyotlar, savol va topshiriqlar har bir bobning oxirida ko'rsatib o'tildi. Ushbu o'quv qo'llanma istiqlolning xalqimizga yaratgan cheksiz imkoniyatlari, mustaqil ijod va erkin fikrlashning dastlabki talablaridan kelib chiqib, hayotimizning yangilanish davrida yoshlarimiz ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning psixologik tabiatini chuqurroq o'rganishga, milliy istiqlol g'oyalarining mohiyatini kengroq yaratib berishga xizmat qiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma bo'yicha o'z fikr va mulohazalar-
ingizni quyidagi manzilga yuborishingizni so'raymiz.

Manzilgoh:

Qarshi, Ko'chabog'-17,
Qarshi Davlat universiteti
psixologiya kafedrasи.

BIRINCHI BOB

AMALIY PSIXOLOGIYANING PREDMETI, VAZIFALARI VA ILMIY-TADQIQOD METODLARI

1.1. Amaliy psixologiya haqida umumiy tushuncha

Psixologiya fani inson shaxsi, uning ichki dunyosi haqidagi bilimlarning murakkab sohasidir. Psixologiya har kimga o'z tajribasidan ma'lum bo'lgan sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, his-tuyg'u va insonning qobiliyati, iste'dodi, temperamenti, xarakteriga xos ruhiy hodisalar haqidagi bilimlarni o'z ichiga olgan sohadir.

Psixik jarayonlar ham boshqa hodisalar kabi o'z qonunlariga ega. Idrok qilish, his qilish va tafakkur jarayonlari qanday namoyon bo'ladi? Odamning qobiliyati qanday o'sib boradi va xarakteri qanday tarkib topadi? Psixologiya ilmi ana shunday nozik masalalar bilan shug'ullanadi. Psixologiya juda qadimgi fanlardan bo'lib, bundan taxminan ikki yarim ming yillar muqaddam maydonga kelgan. «Psixologiya» yunoncha «psyux» - «jon» umumiy holatda ruh va «logos» – ilm, ta'limot degan ikki so'zdan iborat bo'lib, «jon yoki ruh haqidagi ta'limot» degan ma'noni anglatadi. Qadim zamonlarda tashqi olamdan ta'sir qilayotgan narsalarning nerv sistemasi yordamida miyada aks ettirilishini odamlarning tushunishi qiyin bo'lgan. Shuning uchun ular murakkab aks ettirish hodisalarini jon bilan bog'lab tushuntirganlar. Shu tufayli psixologiya fani qadim zamonlarda jon haqidagi ta'limot sifatida maydonga kelgan. Hozirgi kunda psixologiya fani o'zining qadimgi nomini saqlab qolgan bo'lsa ham mazmunan batamom o'zgarib ketgan. Agar biz psixologiyaning mazmunini hozirgi davr talabidan kelib, tushuntiradigan bo'lsak, shunday ta'rif berishimiz mumkin: «Psixologiya fani psixik jarayonlar va inson shaxsining psixologik xususiyatlari haqidagi fandir».

Davrimizning yetuk psixologi, professor V.Karimova hozirgi zamon psixologiyasining taraqqiy etib borishiga shunday ta'rif keltiradi: «Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila

boshlangan davrga salkam 160 yil bo'ldi. Shu davr ichida juda ko'plab ilmiy tadqiqot natijalarini o'z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar qo'llanmalar yozildi. Lekin bu bilan fan o'zining jamiyat oldidagi vazifalarini to'laqonli bajara oldi, degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko'rsatgan barcha olimlar ko'proq diqqatlarini mavhum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'siri masalasi o'tgan asr oxiriga kelib o'ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi.

XX asrda erishilgan yutuqlardan eng muhimi shu bo'ldiki, inson o'z aql-idroki, tafakkuri va ijobiy salohiyati bilan murakkab texnika, elektronika va boshqa shunga o'xshash global texnologiyalarni kashf etdi». XXI asr bo'sag'asida barcha fanlar qatori Milliy psixologiyamiz yangicha mazmun kashf etdi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, xalqimiz psixologiyasining zamon va makondagi o'rnini, nasl-nasabini, o'zligini, kelib chiqishini, insoniyat tarixida tutgan o'rnini, uning rivojiga qo'shgan hissasini, milliy iftixorini, g'ururini mustaqil va xolisona anglab olishidir. Agar xalqimiz o'zining milliy psixologiyasiga, boy tarixiga ega bo'lsa, u o'zi kechirgan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni chuqurroq tushunadi. Psixologiya sohasidagi bu izlanishlar yetakchi psixolog olimlarimiz ilmiy faoliyatida mujassamlangan va ular tomonidan jamiyat, inson psixologiyasi va ma'naviyati ilmiy-nazariy tahlil qilinadi.

Shuni hisobga olish kerakki, odamdag'i barcha psixik jarayonlar va shaxsiy xususiyatlar o'z-o'zicha yuzaga kelmaydi. Psixik jarayonlar (ya'ni sezish, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq va shu kabilar) ham, shaxsning psixik xususiyatlari (ya'ni ehtiyojlari, qiziqishlari, malaka va odatlari, xarakteri qobiliyatları,) ham odamning mavjud faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi. Shuning uchun psixologiya fani insonni turli faoliyatlarda o'rghanadi. Shu sababli inson shaxsining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan iboratdir.

¹ V Karimova. Psixologiya. -Toshkent: 2002-yil, 5-bet.

Shunday qilib, psixologiya fani qandaydir jon, ruh xaqidagi fan bo'lib qolmay, balki aniq psixologik jarayonlar, ya'ni aks ettirish jarayonlari va inson shaxsining psixologik xususiyatlari haqidagi fan hamdir. Kengroq ma'noda oladigan bo'lsak, psixologiya fani psixik jarayonlarning va shaxs psixologik xususiyatlarining namoyon bo'lishi va taraqqiyot qonunlarini o'rganadigan fandir. Psixologiyani o'rganishda shuni alohida hisobga olish kerakki, insonning butun ongli hayoti ikkita fiziologik-organik hayat va psixik hayatdan iboratdir.

Psixo-fizik o'zaro ta'sir nazariyasi asoschilarining fikricha, psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalar o'z mohiyatlari jihatdan har xil hodisalar bo'lsa-da, bir-birlariga o'zaro ta'sir etib turadilar. Natijada fiziologik hodisalar psixik hodisalarni yuzaga keltiradi. Odamning kundalik hayat faoliyati ana shu tarzda davom etaveradi.

Shunday qilib, biz hayat qonunlariga asoslangan psixologiyani, uning mohiyati va taraqqiy etish tizimlarini o'rganar ekanmiz, psixikani inson miyasining mavjud vogelikni aks ettirish xossasi deb biliшимиз zarur.

M.Vohidovning ta'kidicha, buning uchun psixikaning nerv fiziologik asoslaridan ham ozmi-ko'pmi xabardor bo'lishimiz lozim¹.

Atoqli rus fiziologi I.M. Sechenov o'zining «Bosh miya reflekslari» nomli asarida psixik hodisalar inson organizmidagi boshqa hamma funktsiyalar kabi tabiiy hodisa ekanligini, psixik hodisalar nerv tuzilishi reflekslari, ya'ni aks ettirish faoliyatining natijasi ekanligini ko'rsatib berdi.

I.M. Sechenovning ilg'or g'oyalari I.P.Pavlovning ilmiy eksperimental ishlari uchun asos bo'ldi. I. P. Pavlov o'zining ko'p yillik ilmiy faoliyati o'laroq shartli reflekslar haqidagi mashhur ta'limotni yaratdi. I. P. Pavlovning Oliy nerv faoliyati va xususan, shartli reflekslar haqidagi ta'limoti haqli ravishda psixologiyaning tabiiy-ilmiy asosini tashkil etdi. I. P. Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta'limoti organizmning tashqi muhitga

¹ M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil, 7-bet.

muvofiglashuvini va juda ko'p murakkab psixik jarayonlarning fiziologik mexanizmlarini tushunish imkonini beradi.

Psixikaning eng yuksak bosqichi bo'lmish ong masalasiga kelsak, ong uzoq evolyutsion taraqqiyot natijasi sifatida faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoy-tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishi hamda til yordamida boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lishi natijasidir. Ongning yashash usuli va ong uchun nimaningdir borligi bilimdir. Demak, *ongning birinchi ta'rifi* uning turli bilimlar yig'indisidan iborat ekanligidir. *Ongning ikkinchi ta'rifi* odamning o'z-o'zini anglash jarayonida namoyon bo'ladi. Odam tirik mavjudotlar tarixida birinchi bo'lib obyektiv olamdan ajralib chiqdi va o'zini tevarak atrofdagi muhitga qarama-qarshi qilib qo'ydi. Odam «Men» degan tushunchani «Men emas» degan tushunchadan ajratadigan bo'ldi. Shu tariqa odam ongli mavjudot sifatida o'zini-o'zi anglay boshladi. Shunday qilib, psixologiya fani inson shaxsiga xos bo'lgan ana shu xususiyatlarning yuzaga kelishi va namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishni maqsad qiladi.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odamning aqliy faoliyatini ham o'stirishga yordam beradi, yangi bilimlar, ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini shakllantiradi, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, fan bilan shug'ullanish, ilm olish, izlanish insonni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rinn tutadi. Inson psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat e'tibor beradi. Aql faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga zamin hozirlaydi. Bundan ko'rindaniki, o'quv muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog, maorif ishining rahbari psixologiyani bilishi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarida, mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiya yetakchi o'rinn tutmoqda. Yoshlar tanlagan kasbning har bir turi odamdan

tegishli bilim va mahorat talab qilishi bilan birga maxsus psixologik sifatlarga ega bo'lish kerakligini ham taqozo etadi. Shu sababli tanlangan ixtisosga qarab murakkab va mas'uliyatli kasb turlarini bajarishga to'g'ri keladigan kishilar maxsus psixologik tekshirishdan o'tkaziladi. Masalan, kosmonavtlarni, uchuvchilarni, katta va kichik mashina haydovchilarni, paxtaning qator oralariga ishlov beruvchi mexanizatorlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda o'tkir, diqqat faoliyati turg'un va murakkab harakatlarni tez bajara oladigan, tafakkur jarayonlari ancha shakllangan yoshlarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko'rildi. Korxonalar va boshqa xo'jalik, madaniy va ma'muriy muassasalarning hamda tashkilotlarning rahbarlari kadrlarni tanlay bilish, ularni joy-joyiga qo'ya bilishi, ularga odilona rahbarlik qila olishi kerak. Buning uchun esa ularning qobiliyati, xarakteri, muomala madaniyati, ma'naviy-axloqiy tuyg'ulari, mehnatga munosabati va boshqa shu kabi sifatlarning mohiyatini bilishi kerak.

Psixologiya tibbiyot sohasi bilan ham qadimdan bog'lanib kelgan. Kasalliklar orasida turli xildagilari uchraydi, bunday kasalliklarni ham asosan psixologik tadbirlar yordamida davolash katta samara beradi. Vrach kasalliklarni bir-biridan yaxshiroq ajrata olishi uchun odamning psixologik xususiyatlarini, holatini ham bilishi kerak. Vrach bemorga psixik ta'sir ko'rsatish vositalarini ishontirish, maslahat berish va boshqa kabilarning ahamiyatini bilishi zarur.

Psixologiya fani sud, prokuratura, militsiya, harbiy ishlarda ham muhim rol o'ynaydi. Sud hay'ati yoki tergovchi ayblanuvchining ruhiy holatini, guvohlarning so'roqda aytgan gaplarini psixologik jihatdan tahlil qila bilishi zarur. Aybdorlarning individual emotsional xususiyatlarini ham bilib olishga to'g'ri keladi. Bularning hammasidan o'rinli foydalanish uchun insonni psixikasini bilish, psixologiyani o'rganishning ahamiyati benihoya katta. Shuningdek, psixologiyani bilish kundalik turmush uchun ham ahamiyatlidir. Hamma doimo boshqa kishilar davrasida bo'ladi, muayyan munosabatlar tanish-bilishlik, oshna-og'aynigarchilik va boshqa shu kabilar tufayli o'zgalar bilan muomalada bo'ladi. Albatta, shunday

sharoitda insonlarning bir-birlari haqidagi tasavvurlari boyib boradi.

Psixologiyaning tarmoqlari juda ko‘p. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, san’at psixologiyasi, sport psixologiyasi, sud psixologiyasi, tibbiyot psixologiyasi va boshqalar shular jumlasidandir. Mazkur sohalar o‘zining alohida tekshirish obyekti va vazifalariga ega hamda o‘z navbatida ularning har biri o‘zining tekshirish metodlaridan foydalanadi¹.

1.2. Amaliy psixologiya fanining muhim vazifalari

Amaliy psixologiyaning muhim vazifalari davr va zamon talablaridan kelib chiqadi. Mustaqillikni qo‘lga kiritgan xalqimiz o‘z oldiga shunday vazifalarni qo‘ydiki, bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish uning taraqqiyoti uchun dasturilamal bo‘ldi. Bu vazifalarning *birinchisi* islohotlarni yanada chuqurlashtirish, Mustaqil O‘zbekistonimizning iqtisodiy-siyosiy bazasini mustahkamlash; *ikkinchisi* ma’naviy ijtimoiy, madaniy munosabatlarni yanada rivojlantirish; *uchinchisi* Demokratik jamiyat quruvchi yangi avlodni tarbiyalab kamolotga yetishtirishdan iboratdir. Bu ulkan vazifalarni amalga oshirishda faqat tor doiragina emas, balki o‘zini mas’ul deb bilgan har bir O‘zbekiston fuqarosi o‘zining salohiyatini namoyon etishi kerak.

Boshqa fanlar qatori kabi istiqlolimiz psixologiya fanining asosiy maqsadi ana shu uchta ulkan vazifani amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shishdir. Bundan tashqari amaliy psixologiya fani MDH xalqlari o‘rtasida turli ma’naviy-ijtimoiy siyosiy munosabatlarni atroflicha chuqur o‘rganib, do‘slik va birodarlik munosabatlarini yanada yuksak darajaga ko‘tarishga yordam beradi. Nihoyat, zamonaviy odamni tarbiyalash masalasiga kelsak bu vazifa dastavval psixologiya fanining oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Shuning uchun ham

¹ I. P. Pavlovning shartli reflekslar haqidagi ta’limoti va psixologiya uchun ahamiyati ustida keyingi boblarda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

psixologiyadagi barcha muammolarning markazida shaxs va uning faoliyati turadi. Istiqlol yaratgan imkoniyatlar sharoitida shaxsning ijtimoiy taraqqiyotdagi roli oshib borgan sari psixologiyaning fanlar tizimidagi vazifasi ham orta boradi. Hozirgi sharoitda inson va jamiyat manfaatlariiga mos keladigan to‘g‘ri yo‘nalish kasb etadigan ilmiy-texnik, inqilobiy jarayon, shaxsga, uning psixik xususiyatlari va jarayonlariga talabni tubdan oshiradi. Ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarish tarmoqlarida texnologiyaning roli oshib borishi natijasida psixologiya fanining, muhandis va texnik xodimlarning hamda malakali ishchilarning, psixologik, boshqaruv va ishlab chiqarish faoliyatining asosini tashkil etuvchi psixologik qonuniyatlarning tobora yangilari va juda muhimlari bilan boyituvchi tadqiqotlarning soni o‘sib boradi. Psixologiya fani fanning turli tarmoqlariga oid shunchalik ko‘p material to‘pladiki, undan mustaqil psixologik fanlarga aylanib qolgan bir qancha bo‘limlar ajralib chiqdi. Ularning hammasi negizida barcha xususiy psixologik fan tayanadigan, psixikaning umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi umumiy psixologiya yotadi. Umumiy psixologiyaning yana muhim vazifalaridan biri insonning har tomonlama rivojlangan, ijodkor shaxs sifatida shakllanishining psixologik qonuniyatlarini o‘rganuvchi psixologiya yotadi.

Amaliy psixologiyaning *ikkinchi vazifasi* inson faoliyatining psixologik mohiyatini o‘rganishdir. Shunday qilib, istiqlol yaratgan imkoniyatlar tufayli psixologik ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, davr talabiga mos keladigan o‘quv dasturlari, darsliklar yaratish, psixologik ta’lim tizimini chuqur isloh qilish, uni amaliy ishlab chiqish amaliy psixologiyaning muhim vazifalaridan biridir. Bugun o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida psixologik ta’limni takomillashtirish ishi davlat siyosati darajasida hal qilinmoqda. Oldimizda turgan maqsadlarimizga erishish, yangi demokratik jamiyatni qurish, islohotlarning taqdiri Prezidentimiz ta’kidlaganidek, qanday intellektual kuchlarga egaligimizga, yoshlarimizning qanday madaniy, professional saviyaga erishganligiga, qanday mafkuraga e’tiqod qilishiga ma’naviy jihatdan qanchalar boy ekanliklariga bog‘liqdir.

«Hozir biz tafakkurga, fikr musobaqasiga ehtiyoj har qachongidan ham kuchaygan bir davrda yashamoqdamiz. Binobarin, yoshlar ongi va tafakkurida keskin burilish yasash orqali mamlakat intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish, milliy rivojlantirish g'oyasini izchillik bilan amalgalash oshirish kabi murakkab vazifalarни bajarish, insonlar ongida yillar davomida shakllangan fikrlashni, tushunchani tezgina o'zgartirish oson ish emas. Buning uchun Respublikamizdagi o'rta maktablar, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimiga psixologiya o'qitish, talabalar va o'quvchilar uchun psixologik ta'limni samarali o'tishni ta'minlash zarur. Tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday yangilik, islohot eng avvalo inson ongi, qalbi murakkab psixologik jarayonlari orqali o'tgandagina samarali natija berishini anglatmoqda. Shuning uchun umumiy psixologiya fani zimmasiga qo'yilayotgan vazifa juda og'ir va ma'suliyatlidir»¹.

1.3. Amaliy psixologiyaning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni

Shunday qilib, XXI asrning boshlanishida hamma insonlar oldida turgan muhim, yechimini kutayotgan global muammolardan biri bu inson muammosidir. Psixologiya insonning ichki kechinmalarini, ruhiy holatlarini, xarakteri va boshqa psixik xususiyatlarini o'rganadigan fan bo'lgani uchun ham uning amaliy qiymati g'oyat kattadir.

Yuqorida aytganimizdek, amaliy psixologiya ruhiy hodisalarning asil tabiatini, ularning paydo bo'lib, qanday sabablarga binoan o'zgarishlarini mavjud hayotiy misollar asosida tushuntirib beradi. Kishining umumiy ma'lumotlarini kengaytiradi, bilim saviyasini oshiradi, insonning biologik va ijtimoiy mohiyati bilan bog'liq bo'lgan fanlar (biologiya, fiziologiya, falsafa, antropologiya, tibbiyot, pedagogika) kabi fanlarning ham muhim obyekti hisoblanadi. Hozirgi kunda mustaqil davlatimizning buyuk qudratini tiklash to'g'risida

¹ Abdullajonova M.A. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyalarning materiallari. 28-29 beltar. –Toshkent, 2000-yil.

jiddiy ma'naviy harakat boshlangan ekan, bunday qudratli jamiyatda yashayotgan fuqarolarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalab yetishtirish vazifasi kun tartibida turibdi. Bu vazifani to'g'ri hal qilish uchun, avvalo istiqlolimiz yoshlariini, ularning ruhiy qudratini har tomonlama o'rghanishimiz zarur. Milliy psixologiyamizni o'rghanishda o'zining samarali faoliyatini olib borayotgan yetakchi olimlarimiz professorlar G' Shoumarov, E.G'oziyev, V.Karimova, M.G. Davletshin, A. Jabborov, B. Qodirovlar bugungi kunda inson shaxsini (kompleks) atroficha o'rghanish zarur degan ilmiy amaliy muammoni ilgari surmoqdalar (Bu muammoni dastlab rus psixologi akademik B.G. Ananev boshlab bergen edi). Buning ma'nosi shundan iboratki, ijtimoiy hayotda shaxs kamolotini bitta yoki bir nechtagina fan emas balki bir qator fanlar baravariga sistemali ravishda o'rghanishi kerak. Ana shunda inson shaxsiyatining haqiqiy faoliyatini bilish, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, milliy psixologiyasini tushuntirib berish mumkin bo'ladi. Odamni atroficha o'rghanishda boshqa fanlarga nisbatan psixologiya fanining roli kattadir. Masalan, biologiya inson organizmidagi biologik va fiziologik hodisalarni o'rghanadi. Falsafa odam ongingin borliqqa bo'lgan munosabati masalasini o'rghanadi, tibbiyot odam organizmidagi turli kasalliklarni paydo bo'lishini va davolashni, pedagogika odamga beriladigan ta'limtarbiyaning qonuniyatlarini o'rghanadi. Psixologiya esa insondagi murakkab aks ettirishni, ya'ni psixik jarayonlarni, ularning namoyon bo'lishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rghanadi hamda inson ongi va shaxsining tarkib topishi, shakllanib borishi masalalari bilan ham shug'ullanadi. Inson psixikasi qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot formalari qanday taraqqiy etgan, inson psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir inson tug'ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi kabi masalalarni o'rghanish psixologiya fani oldida turgan vazifadir. Xarakter, temperament qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatları, iste'dodi qanday shakllanadi, psixologiyaning ilmiy va ijtimoiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi. Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, uni qanday esda

saqlab qoladi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'ngidan kechiradi, odam tevarak atrofdagi dunyonи o'z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko'radi kabi savollarga javob topish orqali psixologiyani va shunga o'xshash muammolarni chuqrarroq tushunib olamiz.

Psixologiyani o'rganish insonning psixologiya haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari, yo'nalishlari, xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay uning aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida psixologiya fani borgan sari alohida sohalarga bo'linib bormoqda. Jumladan, bolalar psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, psixofiziologiya, tibbiyot psixologiyasi, mehnat psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, injenerlik psixologiyasi, yuridik psixologiya, harbiy psixologiya, san'at psixologiyasi, parapsixologiya va boshqalar shular jumlasidandir. Psixologiya fani qanchalik ko'p sohalarga bo'linsa, u o'z predmetini shunchalik chuqr va atroficha o'rganadi, tadqiq etadi.

1.4. Amaliy psixologiya fanining asosiy qonuniyatları va ulardan foydalanish

Psixologiya fanining yuzaga kelish sabablari to'g'risida V.Karimova olib borgan tadqiqotlar bizga ancha ko'p ma'lumotlar bera oladi. Uning ta'kidlashicha, agar psixologik fikr tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning qadim o'tmishlarga borib taqalishini kuzatish mumkin. Chunki odamzod o'zini o'zgalardan, atrof-muhitdan ayri anglay boshlagan davrdan boshlab, unda o'ziga xos ruhiy holatlar va jarayonlar to'g'risida tasavvurlar shakllana boshlagan. Lekin ana shu tasavvurlar va tushunchalarini yaxlit tizimga solib, uning qonuniyatları to'g'risidagi dastlabki urinishlar uning san sifatida shakllanishining ibtidosiga to'g'ri keladi.

Umuman ruh haqidagi g'oyalar qadimdayoq Suqrot, Platon, Arastularning falsafiy qarashlarida shakllangan. Demak, birlamchi psixologik qarashlar falsafa negizida paydo bo'lgan edi. Buyuk allomalar asarlarida jon va ruh haqidagi qarashlardan

ta'sirlangan boshqa olimlar, birinchi navbatda, faylasuf olimlar tabiat, jamiyat va inson tafakkuri xususida asarlar yaratganda, inson ruhiyatiga ham e'tibor qaratishni o'zlariga odat qilib oldilar. Shu bois ham psixologiyani haqli ravishda falsafa negizida shakllangan fan deyish mumkin.

Keyinchalik boshqa fan sohalari, ayniqsa, tibbiy-biologik izlanishlarda inson va uning murakkab tuzilishi, ruhiy hayotiga qiziqish ortib borgan sari sekin-asta psixik jarayonlarning ham yaxlit bir tizimi bo'lishi va uni ham fanning yutuqlaridan foydalangan holda o'rganish mumkinligi g'oyasi paydo bo'ldi. Qolaversa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson ruhiyati to'g'risidagi psixologik hamda falsafiy qarashlar bilan tabiiy-ilmiy (anatomik, fiziologik, biologik, bioximik va boshqa) qarashlar o'rtasida tafovutlar chiqqani sari uning alohida fan sifatida shakllanishi zarurati ortib bordi. Olimlar orasida aynan inson ruhiy olamini izchil va tizimli o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi¹.

O'qituvchining o'quvchilar bilan bo'lgan mashg'ulotlardagi butun faoliyati ularning psixikasiiga sezgisi, idroki, xotirasi, tafakkuri, his-tuyg'usi va irodasi hamda qobiliyati, xarakteri, umuman shaxsiyatiga uzlucksiz va nihoyatda xilma-xil ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Lekin bu ta'sirning qandayligi hamda uning o'quvchilar tomonidan qanday qabul qilinishi, ularning o'qish va tarbiya ishida foydaliligi yoki foydasizligi, zararligiga bog'liq. Har bir o'qituvchi o'quvchiga samarali ta'sir ko'rsatishga intiladi, lekin hamma vaqt ham bunga erishavermaydi. Ba'zan bir qaraganda foydali bo'lib ko'ringan ta'sir amalda zararli natijalarga olib keladi. Odatda, qandaydir psixologik qonuniyat hisobga olinmaganda yoki unga amal qilinmaganda shunday hol sodir bo'ladi.

Agar psixika real voqelikni miyada aks ettirishdan iborat bo'lsa, reflektor xalqaning markaziy qismida informatsiyani aqliy va qayta ishlash, o'qitishda o'quvchilarning xotirasini yodlash hamda buyurilgan harakatlarni mexanik tarzda bajarish

¹ V. Karimova. Psixologiya. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 2002-yil, 9-bet.

bilan yuklab tashlamasdan, balki eng avvalo ularning tafakkurini faollashtirish lozim. Har qanday o'quv harakatlari o'quvchining o'zi tomonidan anglanishi va doimiy nazorat qilinishi kerak. O'z-o'zini nazorat qilish bilan amalgamoshiriladigan tezkari aloqa bo'lmasa, o'qitish muvaffaqiyatli bormaydi. Mushohada va teskari aloqa qanchalik yaxshi bo'lsa, o'quv materialini o'zlashtirish shunchalik muvaffaqiyatli boradi. *O'zlashtirish bu axborotni tushunish, uni esda olib qolish va undan foydalanish imkoniyatidan iboratdir.*

Agar o'quvchiga bo'lgan tashqi ta'sir hamisha ularning shaxsiyati orqali sodir bo'lsa hamda ularning har birining psixik xossalari, holatlari va jarayonlari turli-tuman bo'lsa, demak o'qituvchi o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini bilish hamda mashg'ulotlar jarayonida ularning reaktsiyasini doimo kuzatib borishi kerak, maqsad shuki toki ularga o'zining pedagogik harakati qanday ta'sir ko'rsatayotganligini bilsin va shu asosda bu harakatlarga zarur aniqliklar ham krita olsin.

O'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini bilgan o'qituvchiga psixik xossalari, holatlari va jarayonlarning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri mashg'ulotlarda har bir o'quvchidagi u yoki bu psixik holatning sababini bilish imkonini beradi. Sababni bilgach esa u zarur ta'sir ko'rsatib, salbiy holatni yo'qotishi, ijobiysini esa yaxshilashi mumkin. Bunda o'quvchilarda o'quv faoliyatining konkret turi uchun optimal psixik holat yaratish muhimdir. Biroq yana shuni ham nazarda tutish lozimki, faoliyatning har bir turi o'ziga xos va juda yuksak layoqatni ta'minlaydigan psixik holatni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya ishida ilgarilovchi aks ettirish qonuniyatları katta ahamiyatga ega. Agar ilgarilovchi aks ettirish darajasi o'qituvchining o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati, aqliligi, mustaqilligi, tashkiliyligiga bog'liq bo'lsa, o'quvchilarda ilgarilovchi aks ettirishni muntazam rivojlantirish uchun ta'lim ishida ularning psixik sifatlarini doimo o'stirib borish talab qilinadi. Bunda faoliyat va xatti-harakatlarning natijalarini oldindan ko'rishga, dastlab konkret o'quv harakatlarning, so'ngra mashg'ulotlar, predmetlar o'qitish kursining o'quv maqsadini hamda butun mehnat faoliyatining natijasini

oldindan ko‘rishga o‘rgata borish kerak. O‘quvchi har bir harakatning va xulq-atvorning hamda umuman butun faoliyatining natijasini o‘qituvchining so‘zлari orqali emas, balki o‘zining fahmi va tajribasi bo‘yicha oldindan ko‘rishi lozim. O‘qituvchi faqat mana shunday o‘ylar uchun «turtki berish»i, o‘quvchining aqliy faoliyatini boshqargan holda ularga birmuncha tuzatishlar kiritishi darkor.

Psixikada informatsion jarayonlarning katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda o‘qituvchi amaliy ishida o‘quvchilarning axborot olamiga kirishlaridan oldin ularda aniq o‘quv maqsadi va vazifalariga ko‘ra noaniqlik yaratish ancha muhim bo‘lib qoladi. Bunga har bir mashg‘ulot va har bir o‘quv vazifasining maqsadini yaqqollashtirish va faollashtirish bilan erishish mumkin. Predmetni chuqur o‘rganishda axborot bilan bitta noaniqlikning bartaraf etilishi, shubhasiz, keyingisini keltirib chiqaradi. Predmetning nazariy masalalarini o‘rganishda o‘quvchilarda noaniqlik quyidagi savollarda o‘z ifodasini topishi mumkin: Mohiyati nimada, tarkibi qanaqa, qismlar o‘zaro qanday bog‘langan, amaliyotda qanday qo‘llaniladi? O‘quvchilarni biron-bir amaliy faoliyatga o‘rgatishda noaniqlik izchillik bilan tug‘iladigan savollardan iborat bo‘ladi. Chunonchi, bu nima? Nima qilmoq kerak, nima uchun qilmoq kerak, qanday qilmoq kerak, qanday bo‘layapti? Nima uchun shunday? Qayerdaki noaniqlik bo‘lsa u yerda axborotning bo‘lishi ham mumkin emas. Demak, axborotni berish uchun, eng avvalo, noaniqlikni yuzaga keltirish kerak, aks holda axborot «shovqin» bilan almashinib ketadi.

O‘quvchilarda tafakkur va texnik ijodni taraqqiy ettirish uchun o‘rganilayotgan predmetning umumiy qonunlari, qonuniyatlari va *printsiplari* haqida axborot ma’lumoti kiritishni talab etadigan qo‘srimchalilik printsipidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga dalil va misollar tanlash uchun shuningdek, dastavval fikran, so‘ngra amalda bu abstrakt ta’riflarni ishlab chiqarish faoliyatining aniq sharoitlarida mustaqil qo‘llanish uchun imkoniyat berish alohida muhimdir.

1.5. Amaliy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari

Umumiy psixologiyada inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turli yo‘nalishlari mavjud. Tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil bo‘lib, murakkab va psixologik jarayonlarga xos hodisalarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchida bu psixologik holatlar, hodisalar va jarayonlar qanday metodlar, ya’ni qaysi yo‘llar, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Avvalo metodning o‘zi nima, degan savolga javob berishga to‘g‘ri keladi. Metod lotincha «metha dos» so‘zidan olingan bo‘lib, aniq masalalarni hal qilishga qaratilgan voqelikni amaliy yoki nazariy bilish usullari hamda amallarining majmuidan iboratdir.

Bu metodning umumiy ta’rifidir. Agar uni har bir alohida fanga nisbatan oladigan bo‘lsak, u paytda metod ayni shu fanning predmetini tekshirish, o‘rganish va tushuntirib berish usullarining yig‘indisi ekanligi kelib chiqadi. Demak, har qanday metod ma’lum printsiplarga asoslanmog‘i kerak.

Bu prinsip quyidagilardan iboratdir:

1. Tekshiriladigan har bir psixik hodisaga boshqa hodisalar bilan bog‘langan deb qaralishi zarur. Jumladan, psixik hodisani uning nerv-fiziologik asosidan ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq emas. Yoki shaxsdan ajratib o‘rganish ham yaxshi natija bermaydi.

2. Har bir psixik hodisa va umuman shaxs vujudga kelish, taraqqiy etish va o‘zgarish jarayonida ko‘zdan kechirilishi zarur. Shuning uchun masalan, bolalar va o‘smlilar psixikasining taraqqiyot qonuniyatlarini bilmasdan turib, kattalar psixikasini yetarlicha yaxshi bilib bo‘lmaydi.

3. Psixik hayot hodisalarini ularning taraqqiyot jarayonida o‘rganganda miqdor o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishlarga o‘tishini va bir sifat holatlarining ikkinchi sifat holatiga o‘tishini ko‘zdan kechirmoq kerak. Masalan, odam psixikasining taraqqiy etishini o‘rgana turib, bilim olish va to‘plash jarayonida odamning bilish qobiliyatları, sezgisi, xotirasi, tafakkuri va nutqi mushohadakorligi sifat jihatdan o‘zgarishini ko‘rsatib bersa bo‘ladi.

4. Tabiat va jamiyatdagi barcha mavjud narsa va hodisalar o'zaro bog'liqlikda yashaydi. Biron narsa yoki hodisa bilan bog'liq bo'limgan, ya'ni yakka holda yashaydigan narsa yoki hodisa bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas.

5. Tabiat va jamiyatdagi barcha mavjud narsa va hodisalar har doim harakatda, harakatdan to'xtab qotib qolgan hech narsa va hech bir hodisa ham bo'lmaydi.

6. Narsa va hodisalarning miqdor jihatdan bunday o'zgarishi, dastlabki paytlarda bilinar-bilinmas bo'lishi mumkin¹. Lekin borib-borib, ma'lum bir nuqtaga yetganda bu miqdor o'zgarishlari, sakrash yo'li bilan sifat o'zgarishlarga o'tadi. Ya'ni narsa va hodisalar evolyutsion tarzda (bosqichma-bosqich) emas balki inqilob tarzda birdaniga o'zgarib ketadilar.

7. «Tabiat va jamiyatdagi barcha narsa va hodisalarning taraqqiyoti asosida ichki qarama-qarshiliklar kurashi yotadi, ya'ni har qanday taraqqiyot ichki ziddiyatlarning hal qilinishi jarayonida yuzaga keladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir fanning metodi o'z predmetini o'rganish va tekshirish jarayonida ana shu printsiplarga asoslanadi». Amaliy psixologiyaning ham o'z predmeti bo'lishi, psixik jarayonlar va shaxsning psixologik xususiyatlarini o'rganishda asosan bir qancha ilmiy metodlardan foydalanishi zarur.

«Hozirgi fan va texnika taraqqiyoti psixologik tekshirish-larning ilmiyligini yanada oshirish uchun (subyektiv omillarning ta'sirini kamaytirish maqsadida) kompleks dastur asosida boshqa fanlar meditsina, fizika, fiziologiya, biologiya, sotsiologiya, kibernetika, statistika, falsafa, mantiq va hokazolar bilan birgalikda tadqiqot ishlari olib borishni taqozo etmoqda. Amaliy yo'sindagi ilmiy-tadqiqot ana shu ko'p qirrali (kompleks) yondashishni talab qiladi. Psixologiya sohalarida (psixofiziologiya, kosmos, meditsina injenerlik psixologiyasi) yoki aviatsiya psixologiyasida tadqiqot obyektiga sistemali yondashish printsipi amalga oshirilmoqda. Kompleks metod yordamida o'rganilayotgan obyektdagi o'zgarishlar turli nuqtai

¹ P. I. Ivanov. Umumiy psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1967-yil, 20-21 betlar.

nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi. Masalan, bolada oddiy bilimlarni o'zlashtirish xususiyati psixologik jihatdan tekshirilayotgan bo'lsa, kompleks yondashish ta'sirida ana shu o'zlashtirishning falsafiy, mantiqiy, fiziologik, ijtimoiy, biologik xususiyatlari yoritiladi. Aytaylik, keksayishning biologik omillarini o'rganish uning psixologik, fiziologik, mantiqiy jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kompleks dastur yordamida amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ilmiy ahamiyatga molik bo'lib, insonshunoslik muammolarini hal qilishda katta yordam beradi.

Shuning uchun ham bugungi kunda amaliy psixologiya o'z oldida turgan nazariy va amaliy vazifalarni chinakam ilmiy asosda hal qilishda, psixologiya sohasida ilmiy tekshirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borishda foydalanadigan usul va vositalarga, ya'ni metodlarga katta e'tibor beradi. Ularning haqiqatni ochishga, psixik jarayonlarning qonunlarini muqarrar qilishga qodir bo'lishlarini taqozo qiladi. Demak, odamning tevarak-atrofdagi voqelikni bilishi kuzatishdan, tajribadan boshlanadi.

Shu sababli amaliy psixologiya ham o'z tadqiqod doirasini o'rganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini kuzatish, aniqlash, tavsif etish va tahlil qilishdan boshlashi lozim!

So'ngra aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarilishi mumkin.

Har bir fandagi kabi amaliy psixologiyada ham tajriba kuzatish va eksperiment shaklida qo'llaniladi. Kuzatish va eksperimentdan tashqari ilmiy tekshirishning boshqa maxsus metodlari suhbat, biografiya, solishtirma tarixiy metod va boshqa usullar ham qo'llaniladi.

Kuzatish metodi

Kuzatish metodi psixologiyaning asosiy va keng qo'llaniladigan metodlaridan biri bo'lib, bu metod yordamida psixik jarayonlarni va shaxsning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda, ya'ni odam u yoki bu faoliyatda qanday bo'lsa shundayligicha o'rganiladi. Biroq psixik hodisalar odamning subyektiv ichki kechinmalari bo'lgani uchun ularning ichki mazmuni shaxsning o'ziga ayondir. Masalan, kishining xayoliga nimalar kelganligini, nimalar esga tushganligini, har xil istak, orzu, tuyg'ularning mazmunini va shu kabilarni faqat shaxsning o'ziga ayta oladi. Psixik jarayonlar (sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hissiyot, xayol kabilalar)ni shaxsning o'ziga bilishi, anglashi mumkin deb qaralgan. Subyektiv kuzatish, ya'ni o'z-o'zini kuzatish metodidan bir necha asr davomida foydalanib kelingan bo'lishiga qaramay bu metodni ilmiy metod deb bo'lmaydi. Psixik hodisalarning fizik va fiziologik hodisalardan farqi ham shundaki, ular ichki mazmunga ega bo'lganidek, bu psixologik holatlarning sirtqi ifodalari ham bordir. Shu sababli kuzatish metodi psixologiyada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'z-o'zini (subyektiv) kuzatish va sirdan (obyektiv) kuzatish deb ikki usulga ajratiladi.

O'z-o'zini kuzatish metodi

O'z-o'zini kuzatish metodining bir qator salbiy tomonlari bor. Birinchidan o'z-o'zini kuzatish metodidan foydalanilganda har bir odam o'z manfaati yuzasidan subyektiv xulosa chiqaradi. Ikkinchidan, subyektiv metoddan foydalanganda odam o'z shaxsiga xos bo'lgan ayrim salbiy (ya'ni irodasizlik, nomustaqlilik, qo'rkoqlik, qobiliyatsizlik kabi) xususiyatlarni boshqa odamlarda ham xuddi shunday bo'ladi deb o'yashi mumkin.

Bu metoddan foydalanish ancha qiyin. Chunki biror kuchli psixik holatni kechirayotgan kishi (masalan, qayg'u yoki shodlik vaqtida) biror o'y yoki xayolga botgan vaqtda o'zi ularni ongli ravishda tahlil qilib berishi juda mushkul ishdir. Ya'ni, shaxs ayni vaqtda psixik holatni «ham kechiruvchi, ham tekshiruvchi»

bo'lmog'i qiyindir. Ammo chinakam faniy bilim obyektiv ya'ni hamma uchun umumiy haqiqat bo'lmog'i shart. Yana shunisi ham borki, bu metoddan foydalanish uchun psixologiyadan ancha ma'lumotli bo'lmoq va o'z kechinmalarini tahlil qila bilmoq ham kerak.

Bu metod bilan kichik yoshdagi bolalarning psixologiyasini o'rghanib bo'lmaydi. Demak, bu metodning imkoniyatlari cheklangandir. Biroq yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar o'z-o'zini kuzatish metodini tamomila rad qilish uchun yetarli asos bo'lolmaydi. Kishi o'z boshidan kechirayotgan biron psixik holatni ayni vaqtida o'zi tekshira oladi. Ongli shaxsning xususiyatlaridan biri ham shundan iboratki, u o'zining boshidan o'tkazayotgan hodisalarni shu onning o'zidayoq anglaydi, fahmlaydi, ya'ni ularni kuzatib bora oladi, hatto inson o'zini idora qila oladi, ba'zi tuyg'ularni bosa oladi. Masalan, vahimaga berilmaslikka yoki jahlini bosishga harakat qiladi. Demak, u shu paytda bu kabi hislar o'zida paydo bo'lsa ham ularga yo'l qo'yish yarashmasligini bilib turadi. Buni har kim o'z tajribasidan juda yaxshi biladi. Odam faqat haddan tashqari hayajonlangan, juda kuchli tuyg'u-hissiyotga berilgan vaqtlardagina o'z boshidan o'tkazayotgan holatlarni tahlil qila olmaydi, u o'zini yo'qotib qo'yganday bo'ladi. Ammo psixik hodisalarni, ularni ayni kechirayotgandagini kuzatish mutlaqo shart emas. Ularni har kim ham, ya'ni esga tushirish yo'li bilan tahlil qilishi mumkin.

Ko'pincha o'tmishda boshdan kechirilgan psixik hodisalar keyinchalik xotiraga olinib, tahlil qilinadi. Masalan, katta zavq-shavq bilan ishlab o'tirgan kishi butun vujudi bilan ilhomga berilib o'tiradi va ayni vaqtida ilhomning o'zi haqida va o'zi ilhom kechirayotganligini o'ylamaydi. Ammo keyinchalik u ilhom vaqtida qanday ruhiy holatlarni kechirganini xotirasiga olib, shu kabi psixik kechinmalarning xususiyatlarini tahlil qilsa bo'ladi. Psixologiyada bu metod qo'llash natijasida erishilgan xulosalarni boshqa metodlarni qo'llash yo'li bilan tekshiriladi va to'latiladi. Chunki umumpsixik hodisalarni faqat yagona bir metod bilan o'rghanish mumkin emas.

Sirtdan kuzatish metodi

O'z nomidan ko'rinish turibdiki, bu metod voqealarga aralashmay, uning tabiiy borishini hisobga olish metodidir. Ya'ni kishining ruhiy hayotiga diqqat berib psixik jarayonlarini shu tariqa o'rganish sirtdan kuzatish metodi deyiladi. Lekin bunda shuni nazarda tutish kerakki, o'qish ishlarida katta qiyinchiliklarga duch keluvchi o'quvchilarini haddan tashqari qiyab, joniga tegib kuzatish hamisha zararlidir. Ma'lumki, ichki tuyg'ularning, psixik jarayonlarning «tashqi ifodaları», ya'ni sirtqi alomatları mavjuddir.

Bu ifodalar odamning harakatlari va imo-ishoralaridan, yurish turishlaridan iborat. Sirtdan kuzatishning maqsadi ichki ruhiy holatlarning faqat sirtqi ko'rinishlarinigina emas, balki ularga qarab psixik jarayonlarning ichki mazmunlarini ochish va shunday tarzda kuzatilgan psixik jarayondan ma'lum ilmiy-amaliy natijalar chiqarishdir.

Masalan, o'quvchilar diqqatining xususiyatlarini yoki ular diqqatining qanchalik chidamli ekanligini, diqqat nima sababdan o'zgarib turishini bilish zarur bo'lsa, darsda eshitib o'tirgan o'quvchilarning diqqati sirtdan kuzatiladi. Darsda bolalarning qilib o'tirgan harakatlaridan, uyoq-buyoqqa qarab o'tirishlaridan yoki tik qotib o'qituvchiga tikilib o'tirishlaridan, ularning diqqatlari to'g'risida tegishli xulosalarga kelish mumkin.

Sirtdan kuzatish vaqtida kuzatilayotgan faktlar qayd etib boriladi. Qayd etishda ularning surati ham olinishi mumkin. Bu sohada foto va kinodan keng foydalanadilar, ayniqsa kichkina bolalarning psixikasi va hayvonlar psixikasini o'rganishda shu vositalardan keng foydalaniadi. Bu metod bilan to'planilgan faktlar tahlil qilinadi va umumiylashtirilib, ma'lum psixologik qonuniyatlar muqarrar qilinadi.

Biroq bu metodning asosiy kamchiligi shuki, uning yordami bilan psixik hodisalarining ichki mazmunini chuqur o'rganib bo'lmaydi. Masalan, bir kishining tashqi ko'rinishidan uning xayol surib o'tirganini bilish va uning shu holatini kuzatib turish ham mumkin bo'ladi. Ammo uning xayoliga qanday narsalar

kelganligini, xayolida qanday obrazlar paydo bo‘lganligini, ya’ni undagi psixik holatning ichki mazmunini bila olmaymiz. Psixologning tub maqsadi, albatta, xayolga cho‘mib o‘tirgan kishining faqat yuz ifodalarini qayd etib borish, ularning suratini olish kabi ishlardan iborat bo‘lmasdan, balki shu tashqi ifoda va alomatlarga qarab psixik jarayonlarni tugal va to‘g‘ri bilib olishdir. Shuning uchun bu metod bilan erishilgan natijalar o‘z-o‘zini kuzatish metodi bilan olingan ma’lumotlar bilan to‘ldiriladi.

Yosh bolalarning psixikasi asosan shu metod bilan tekshiriladi va ularning harakatlariga qarab psixik holatlari haqida xulosa chiqariladi.

Sirtdan kuzatish metodi bilan har bir psixik holat tabiiy sharoitda, turmushda qanday yuz beradigan bo‘lsa, shu holicha olib tekshiriladi. Bu metoddan foydalanuvchilar ma’lum ilmiy tekshirish rejasi asosida ish ko‘rsalar ham shu jarayonlarga ta’sir qilmasdan, sirtdan turib tekshiradilar va tekshirmoqchi bo‘lgan psixik jarayonning yuz berishini poylab yurishga majbur bo‘ladilar. Ilmiy tekshirish sohasidagi bu noqulaylik va qiyinchiliklar eksperiment metodi bilan bartaraf qilinadi.

Eksperiment metodi

Eksperiment metodi psixologiyada XIX asrning ikkinchi yarmidan tatbiq qilina boshlandi va uning asosiy metodlaridan biri bo‘lib qoldi.

Eksperiment metodining psixologiyada ikki asosiy turi mavjud bo‘lib, ularni laboratoriya va tabiiy eksperiment deb ajratadilar.

Tekshirilishi lozim bo‘lgan biron ta’minot psixik hodisa laboratoriya sharoitida maxsus ravishda vujudga keltirilib, uni har xil asbob va vositalar yordami bilan tekshirish usuli **eksperiment metodi** deyiladi. Eksperiment asosida tekshirishlar odatda maxsus laboratoriya va institutlarda olib boriladi va buning uchun har xil texnik apparat, asbob va materiallardan foydalaniлади. Psixologik eksperiment metodi juda qulay va aniq natijalar beradigan metodlar sirasiga kiradi. Chunki uning yordami bilan

xohlagan biron psixik hodisani atayin vujudga keltirib, har tomonlama batafsil va aniq o'rganish mumkin. Masalan, diqqatning hajmini, esda qoldirish tezligini, xotira topqirligini, xayol va tasavvurlarning boyligini, tasavvurlar bog'lanishi (assotsiatsiyasi)ni va shu singari boshqa psixik jarayonlarni shu metod bilan tez va aniq tekshiriladi va natijada ma'lum psixologik qonuniyatlar hosil qilinadi.

Psixik jarayonlar bilan organizmdagi o'zgarishlar o'rtasidagi munosabat, organizm reaktsiyalarining sur'ati va shunga o'xshash hodisalar ham shu yo'l bilan o'rganiladi.

Psixik hodisalarni laboratoriya eksperimenti metodi yordamida o'rganish jarayonida ularni turlicha o'zgartirib ko'rish, boshqa hodisalarga bog'lab, sharoitni turlicha o'zgartirib, ularning kuchini, tezligini, hajmini va boshqa tomonlarini aniq o'rganish va kuzatish natijalarini matematik usul bilan hisoblab chiqish mumkin. Shu bilan birga biror laboratoriyyada o'tkazilgan tajriba natijalarini, lozim topilsa boshqa bir laboratoriyyada ham aynan takrorlab, uni sinab ko'rish mumkin. Chunki eksperiment metodi vaqtida ishlatiladigan asbob, apparaturalar va boshqa laboratoriya jihozlari aniq va to'g'ri kuzatish hamda bir tajribani aynan takrorlash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham bu metod obyektiv natija beradigan metoddir.

Biroq psixologiyada laboratoriya eksperiment metodi ba'zi bir nuqsonlardan ham holi emas. Eksperiment metodining nuqsonlaridan biri uning ma'lum darajada sun'iyligidir. Eksperiment qilinayotgan joy (laboratoriya, psixologiya kabinetlari)ning sharoitlari kishining psixikasiga ta'sir qiladi. Yana shunisi ham borki, kishi o'zining tekshirilayotganligini payqab qolsa, o'ng'aysizlanadi va o'zini odatdagidan boshqacharoq his qiladi, tortinadi va hokazo. Bu esa, albatta, eksperimentning natijalariga ham ta'sir ko'rsatib, kutilgan maqsadga olib kelmasligi mumkin. Ma'lumki uyalish, tortinish, shoshib qolish ham psixik jarayonlarning sifatiga ta'sir qiladi.

Shuning uchun ham psixologiyada eksperiment metodini alohida diqqat va ehtiyyot bilan qo'llash lozim.

Psixologiyada eksperiment metodining yana bir ko'rinishidan foydalanadilarki, bu tabiiy eksperiment deyiladi.

Tabiiy eksperiment metodi. O'rganmoqchi bo'lgan shaxsdagi biron psixik jarayonni, uning o'ziga sezdirmasdan va uning uchun tabiiy bo'lgan sharoitda yoki uning kundalik faoliyati jarayonida vujudga keltirib o'rganish usuli **tabiiy eksperiment metodi** deb ataladi.

Psixik jarayonlarni tabiiy eksperiment metodi bilan o'rganish laboratoriya sharoitida sun'iy yo'llar bilan o'tkaziladigan eksperiment metodidan farq qiladi. Chunki tabiiy eksperiment tekshiriladigan odam uchun tabiiy bo'lgan bir sharoitda va uning kundalik faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Tekshirilayotgan odam o'zi ustida maxsus tajriba qilinayotganini payqamaydi. Shu sababli uning hamma harakatlari, yurish-turishlari samimiy va tabiiy bo'lib chiqadi. Shuning uchun bu metod aniq, ilmiy natijalar hosil qilishga yordam beradi.

Tabiiy eksperiment metodini rus psixolog Lazurskiy vujudga keltirdi, shundan so'ng XX asrdan boshlab bu metod psixologiyada keng yoyildi. Bu metod xususan bog'cha yoshidagi va maktab yoshidagi bolalarning psixologiyasini o'rganishda tatbiq qilinadi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalarning ijodiy xayoliga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash maqsadida quyidagi tabiiy eksperimentni o'tkazish mumkin. Bolalar bog'chasida bolalar uchun odatdagicha hikoya aytish vaqtida maxsus tayyorlangan bir hikoyani gapirib, uning eng qiziqarli, voqeanning eng baravj joyiga kelib to'xtatiladi. Shundan so'ng bu hikoyaning nima bilan tamom bo'lishini gapirib berish bolalar ixtiyoriga qoldiriladi. Bolalarning shu tariqa gapirib bergen narsalaridan ularning xayoli va tasavvurlariga xos bo'lgan xususiyatlar aniqlanadi.

Yana bir misol. O'qituvchi biror ta'lim-tarbiyaviy choranning o'quvchilar psixikasiga, ongiga qanday ta'sir qilishini sinab ko'rish maqsadida shu chorani sind yoki mакtab sharoitida, o'quvchilar odatlangan bir mashg'ulot vaqtida o'tkazib, ma'lum bir xulosaga keladi.

Tabiiy eksperiment metodidan foydalanish uchun oldin puxta tayyorgarlik o'tkazish kerak. Bu metod bilan to'plangan materiallardan xulosa chiqarganda subyektivlikning oldini ola bilish lozim, ya'ni tekshiruvchi odam psixik jarayonlarning

faqat tashqi alomatlarinigina qayd etib borib, ularning ichki xususiyatlarini aniqlashda tekshirilayotgan odamda haqiqatda bo'lmagan kechinmalarni bo'ldi, deb o'ylashi yoki ularni butunlay boshqacha izohlamog'i mumkin. Shunga ko'ra psixologiyada tabiiy eksperiment metodi boshqa metodlar bilan birgalikda tatbiq qilingan taqdirdagina to'la ilmiy qiymatga ega bo'la oladi.

Shu metodlar bilan bir qatorda psixologiyada yana so'roq - suhbat metodlari va kishi faoliyati mahsulini tahlil qilish kabi bir-qancha yordamchi metodlardan ham foydalilanildi.

So'roq-suhbat metodi

Birorta psixik jarayonning ichki xususiyatlarini aniqlash yuzasidan tekshirilayotgan odamga maxsus berilgan savollarga javob olish usuli **so'roq va suhbat metodi** deyiladi. Bu metod ham psixik jarayonlarni boshqalar ustida o'rghanishdan iboratdir. Tekshirilayotgan odam berilgan savollarga javob qaytaradi. Uning javoblari yozib boriladi, so'ngra ular tahlil qilinib, ma'lum xulosa chiqariladi. Biroq bu metoddan to'g'ri foydalana bilish kerak. Ayniqsa, beriladigan savollarni puxta va chuqur o'ylab chiqish lozim. Bu savollar shunday mazmunda ifoda qilinishi zarurki, ularga beriladigan javoblar xuddi tekshirilmog'i lozim bo'lgan kechinma va jarayonlarning ichki xususiyatlarini bilib olishga yordam bersin, bu javoblar samimiyligi va xolisona bo'lsin, ular tekshiriluvchiga ta'sir qilib, uning fikrini boshqa bir izga solib yubormasin. Savol bergen vaqtida shuni esda tutmoq kerakki, odamning tabiatini tez ta'sirlanuvchan bo'lib, taqlidga moyil bo'ladi. Xususan, bu yosh bolalarga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham, masalan, bolalarning qiziqish, orzu-havaslarini yoki qanday mavzudagi kitobni o'qishni istaganliklarini aniqlash uchun «Sayohat, sarguzasht, hayvonot yoki urush haqida yozilgan kitoblarni o'qishni istaysanmi?» yoki «Sen kim bo'lishni istaysan, muhandismi, uchuvchimi yoki o'qituvchimi?». Mana shu xilda ifodalangan savollarni berish yaramaydi. Chunki odatda bolalar bu savollarning mazmuni ta'siriga berilib, savolda nimalar ko'rsatilsa, faqat shuni

qaytaraveradilar. Ammo «Sen kim bo'lishni istaysan?» deb savol berilsa, bola xolisona javob berib, o'zi nimaga qiziqadigan bo'lса, shuni ko'rsatadi.

So'roq va suhbat metodi hozirgi zamon psixologiyasida keng ishlataladi. Xususan, fikrlash, iroda, xayol va ijod jarayonlari kabi eng oliv ruhiy holatlarni o'rganishda bu metoddan ko'p foydalaniladi. Uning qiymati shundaki, tekshiruvchi o'zining bergen savoli bilan tekshirilayotgan odamning diqqatini ichki kechinmalariga qaratadi va uni shu haqda chuqur o'ylashga, o'zining kechinmalarini tahlil qilishga majbur etadi.

Shaxs faoliyati mahsulini tahlil qilish metodi

Odam psixologiyasini, xususan uning shaxsiy xususiyatlarini, orzu-havaslarini, tuyg'u-hislarini o'rganishda tatbiq qilinadigan bu metoddan foydalanish shundan iborat bo'ladiki, unda kishining mehnat samarasi, ijodiyoti, qilgan ishlari tahlil qilinadi. Amaliy psixologiyani o'rganishda ham shu metoddan foydalanadilar. Ya'ni har xil yoshdagи bolalarning o'yinlari, mashg'uloti, rasmlari, yozuvlari va boshqa ijodiy ishlari tahlil qilinib, shu yoshdagи bolalarning tasavvurlari, xayol, qobiliyatli, orzu-havaslari, bilim va tajribalari aniqlanadi.

Umuman, psixik hayot va uni belgilovchi sabablar juda murakkab va xilma-xil bo'lganligi uchun psixologiya fanida har xil metodlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Psixik xususiyatlarni tekshirishda shaxsning tarjimai holi, uning ijtimoiy kelib chiqishi, olgan tarbiyasi, faoliyati, orzu-havaslari, yoshi, salomatligi va shunga o'xshash narsalar nazarga olinadi. Chunki kishining psixik xususiyatlari va xislatlari bir shaklda qotib qolmasdan o'sib, o'zgarib turadi va bu faqat organizmning tabiiy holati bilangina emas, balki asosan shaxsning ijtimoiy hayot kechirish tarzi, uning maskurasi va maqsad-maslaklari bilan belgilanadi. Faqat yagona bir metod bilangina ilmiy natijalarga kelish mumkin emas. Psixik hodisalarни ayniqsa har taraflama o'rganish zarur. Bu esa har xil metodlardan foydalanishni taqozo qiladi. Ammo yuqorida ko'rsatilgan metodlardan ayrim hollarda birini tayanch metod tariqasida olish

mumkin. Biroq shu bir metod natijasida hosil qilingan ma'lumotni boshqa metodlar yordami bilan sinab, tekshirib ko'rish lozim. Lekin bu metodlarning hammasi amaliy tajriba printsiplariga asoslangandagina kishi psixikasi va ong hodisalarini chinakam ilmiy sur'atda tushuntirish va psixologiya fanini insoniyatning porloq istiqboliga xizmat qildirish mumkin.

Ayniqsa o'qituvchi uchun psixologiyaning ilmiy o'rGANISH metodlarini yaxshi bilish, ular vositasi bilan o'z o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini o'rgana bilish, unga yosh avlodlarga istiqlol tarbiyasini berish ishini unumli va ijodiy bajarishga imkoniyat beradi.

1.6. Ta'lim jarayonida interfaol va innovatsion texnologiyalar metodidan foydalanish

Hozirgi kunda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining asosiy sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarini faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarini bilimli, yetuk malakaga ega bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

INNOVATSIYA (inglizcha "*innovation*") yangilik kiritish, yangilik deganidir.

Innovatsion texnologiyalar metodi pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalilaniladi. Interaktiv metodlar bu – jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

o'quvchi-talabani o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash;

o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish;

pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillashtirish.

Aqliy hujum

Aqliy hujum guruhlararo ishlarda qo'llaniladigan, ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish mumkin bo'lgan metoddir. Bu haqiqatan ham talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirot etishlari, turli g'oyalarni bayon qilish chog'ida boshqalarni ham qizg'in ishga yo'llashlari, ilhom bilan ishslashlariga imkon beruvchi va unga rag'batlantiruvchi metoddir. Aqliy hujum shuning uchun ham faollashtirishning muhim usuliki, unda tanho ishslash mumkin emas, birgina g'oya guruhning barcha ishtirokchilarini bir xilda o'ziga tortib oladi.

O'qituvchi mavzu yoki savolni ajratib olishi zarur, keyin esa o'quv faolligi 5-10 daqiqa oralig'idagi vaqt chegarasida yengillashtiriladi.

Aqliy hujum turli tarzda qo'llanishi mumkin: masalan, qandaydir mavzuni muhokama qilish uchun, yangi savol qo'yish yoki istalgan qandaydir muammoni hal etish uchun.

Fikrlar hujumi

Bevosita jamoa bo'lib «Fikrlar hujumi» («Mozgovaya ataka») olib borish mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inertsiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni yengishdir. Bu metod dastlab A.F. Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalarni tanqidini mutloq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoibani rag'batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi, ya'ni mashg'ulot rahbariga bog'liq. «Fikrlar hujumi» ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulotning davomiyligi bir soatni tashkil etadi.

Yalpi «Fikrlar hujumi». Bu metod J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. U katta guruhlarda (10 dan 20 tagacha bo'lgan) yangi g'oyalarni ishlab chiqish samaradorligini sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro «Fikrlar hujumi» o'tkazadi. Shundan so'ng har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

Fikrlarning shiddatli hujumi destruktiv berilgan baho bilan dialogdan iboratdir. Bu metod Ye.A. Aleksandrov tomonidan taklif qilingan. G.Ya. Bush tomonidan o'zgartirilib yo'lga qo'yilgan. Dialogning mohiyati shundaki, jamoa bo'lib g'oyalarni ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalarni qo'yiladi.

Darsga kirish va tahlil etish metodikasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar yanada kuchaydi. O'tkazilayotgan sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi o'quvchilarning aksariyati (yuqori sinflar misolida 70-75 foizi) o'qishga qiziqmay qo'yishdi. Buning sabablaridan biri dars mobaynida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtaida zamon talab etgan muloqotning zaifligidadir. Shuningdek, maktabda, o'rta-maxsus o'quv yurtlarida hamkorlik

pedagogikasi, xalq tarbiyashunosligi va pedagog psixologlar xizmati to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidadir. Umuman olganda, muallim o'zining kuchli va zaif tomonlarini har doim anglashi kerak. Ayrim muallimlar o'zlarining zaif tomonlarini, ayniqsa, bilimsiz ekanliklarini yopish uchun o'quvchiga ortiqcha talablar qo'yadilar. O'qituvchining bo'sh tomonini esa o'quvchi tez anglaydi. Shuning uchun u hadiksirab emas, balki o'qituvchi hurmatini joyiga qo'yib munosabatga kirishishi mumkin. Bunday ruhiy kayfiyatni ba'zan o'qituvchi sezmaydi. O'quvchi esa muallimni har doim kuzatib boradi. Undan iliq gap, mehr-muruvvat kutadi.

Hozir fanda ta'limning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish muammosi turibdi. Shunday sharoitda o'qituvchining tashqi qiyofasi ham ba'zan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Lekin bularning ichida eng muhimi, eng zaruri va o'quvchi uchun eng ahamiyatlisi o'qituvchining bilimdonligi, yangilik va dunyoviy bilimlarga chanqoqligi hamda uning so'zi bilan ishining muvosiq kelishidir hamda o'quvchilarni izlanishga, bilimlarni mustaqil egallashga, har bir fanning mohiyatini tushunishga, ishga ijodiy yondoshishga undashi, o'quvchining erkin fikrlash, mustaqil ishlashi uchun sharoit yaratishidadir.

Tarmoqlar metodi (Klaster)

Fikrlarning tarmoqlanishi bu – pedagogik strategiya bo'lib, u o'quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlanishga o'rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklda ifodalashga undaydi¹.

¹ Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent – 2004. Nizomiy nomidagi TDPU innovatsion texnologiyalar markazi. 3-9-27 betlardan soydalanildi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Amaliy psixologiya fani haqida tushuncha bering.
2. Psixik jarayonlar, shaxsning psixik holat va xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nimada?
3. Bizni o'rabi turgan muhit ongimizda to'g'ri aks etishini tasdiqlovchi misollar keltiring.
4. Umumiy va juz'iy psixologik qonuniyatlarga misollar keltiring.
5. Amaliy psixologiya metodlari haqida tushuncha bering.
6. Ta'lif jarayonida interfaol va innovatsion texnologiyalar metodidan foydalanish usullarini tushuntirib bering.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: «Ma'naviyat», 2008.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. –T.: «O'zbekiston», 1998.
3. I.A.Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir. –T.: «O'zbekiston», 1997.
4. Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1972.
5. Климов Е.А. Основы психологии. Учебник. –М.: 1997.
6. Психологии Под. Ред. А. А. Крилова. –М.: 1998.
7. Немов Р.С. Психология. Кн-1 –М.: 1998.
8. V. Karimova, F. Akromova. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. –T.: 2000.
9. V. M. Karimova. Ijtimoiy psixologiya asoslari. –T.: 1994.
10. Прикладная социальная психология. Учебное пособие. –М.: 1998.
11. Практическая психодиагностика. Методика и тесты самана. –М.: 1998.
12. L. Beknazarov, A.Jabborov. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari. –Toshkent: «Fan», 2008.
13. E. G'oziyev, A.Jabborov. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. –Toshkent: 2003.

**NERV SISTEMASINING TUZILISHI VA UNING MAKTAB
O'QUVCHILARI FAOLIYATIDA BIOLOGIK-FIZIOLOGIK
KO'RINISHLARI**

**2.1. Nerv sistemasining tuzilishi haqida umumiy
tushuncha**

Odam psixologiyasi va uning moddiy asosi bo'lmish nerv sistemasi bosh miya faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, uzoq tabiiy va tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Har qaysi shaxs ma'lum ijtimoiy-tarixiy davrda va ma'lum siyosiy-ma'naviy sharoitda dunyoga keladi, o'zining individual-psixologik holati hamda xususiyatlarini turmush tarzi va ta'lim-tarbiya asosida shakllantirib boradi. Yuqorida aytganimizdek, bularning hammasi bosh miya va oliv nerv sistemasi faoliyati ta'sirida amalga oshadi. Nerv sistemasi dastlab umurtqalilarda taraqqiy qila boshladi va murakkab shakllarga kira boradi. Nerv sistemasi organizmdagi boshqa hamma to'qimalardan farq qiladi. U alohida tuzilishga ega bo'lgan nerv hujayralari va ularning o'simtalari (dendret va neyritlar)dan iborat bo'lib, tashqaridan kelgan taassurot bilan qo'zg'alish, u taassurotni, ya'ni nerv impulslarini (toklarini) o'tkazish va shu taassurotga javoban harakat (reaktsiya) qilish xususiyatiga egadir. Miyaning kulrang moddasi, nerv hujayralarining bir-biriga birikib to'planishlaridan, uning oq moddasi nerv tolalarining to'planishidan hosil bo'ladi.

Yuqori taraqqiy etgan hayvon va odamlarning nerv sistemasi juda murakkab tuzilishga egadir. Uni odatda markaziy, periferik va vegetativ nerv sistemalari deb uch bo'lakka ajratib o'rghanish ma'qul topilgan.

Markaziy nerv sistemasi orqa miya va bosh miyadan iboratdir.

A. Orqa miya umurtqa pog'onasining suyak kanalida joylashgan bo'lib, ko'rinishi bilan arqonga o'xshaydi. Uning ustki qavati nerv tolalari, ichki qavati kulrang modda va ustki qavati oq moddadan tuzilgan. Nerv sistemasining hayvonlar

dunyosida eng avval taraqqiy qilgan bo‘lagi orqa miya bo‘lgani uchun u «qadimgi miya» ham deb yuritiladi. Orqa miya ongsiz (refleks), ixtiyorsiz harakatlar markazi bo‘lib, uning ongli psixik jarayonlarga bevosita aloqasi yo‘q. U tana va qo‘l-oyoq muskullarini, ko‘z muskullarini idora qiladi, shuningdek organizmda bo‘ladigan bir qancha fiziologik jarayonlarni ya’ni tomir harakatlari, ter chiqarish va boshqa shu kabi fiziologik jarayonlarni ham idora etadigan markaz xisoblanadi. Shu markazlardan bir qismi vegetativ nerv sistemasiga taalluqlidir.

Bosh miya kalla qutisida joylashgan bo‘lib, go‘yo orqa miya tepasidagi ustki qavat hisoblanadi. Bosh miya quyidagi qism-larga ajratiladi: 1) ketingi miya; 2) o‘rta miya; 3) oraliq miya; 4) oldingi miya.

Ketingi miya. Ketingi miyaga uzunchoq miya, Varoliy ko‘prigi va miyacha kiradi. Uzunchoq miya bilan Varoliy ko‘prigi orqa miyaning go‘yo bevosita davomidir. Lekin uzunchoq miya orqa miyaga qaraganda anchagina murakkabiroq vazifani bajaradi. Uzunchoq miya orqali orqa miyadan bosh miyaning yuqoridagi qismlariga va yana orqa miyaga impulslar o‘tib turadi. Uzunchoq miya yadrolari emish, chaynash, yutish, so‘lak ajratish, me’da va me’da osti bezidan shira ajratish, qusish va shunga o‘xshash bir qancha murakkab reflekslar jarayonlarini boshqaradi. Nafas olishni, yurakning ishlashini idora etadigan qon tomirlar tonusini saqlaydigan markazlar uzunchoq miyadadir. Miyacha markaziy nerv sistemasining pastdag‘i hamma bo‘limlariga, shuningdek, yuqoriroqdagi qismlariga ko‘p yo‘llar bilan mahkam bog‘langandir. Miyachaning juda katta ahamiyatga ega ekanligi loaql shundan ham bilinadiki, miyacha olib tashlangandan keyin tananing muvozanat va harakat funktsiyalari juda ham buziladi, harakatlar tartibsiz, chalkash, poyma-poy bo‘lib qoladi. Miyachasi olib tashlangan har qanday hayvon qaddini ko‘tarib va boshini tutib turolmaydi.

O‘rta miya. Muskul tonusining normal taqsimlanishini va gavdaning tovush hamda yorug‘lik singari qo‘zg‘ovchilariga, shuningdek, og‘irlikka nisbatan to‘g‘ri turishini idora etadigan to‘rt tepalik, qizil yadro va miyaning boshqa ba’zi bir uchastkalari o‘rta miya tarkibiga kiradi.

Oraliq miya muhim funktsiyalarni o'taydigan bir qancha nerv tizimlaridan iborat. Gavdaning umumiylarini sezuvchanligini ham o'rta miya idora etadi. Pastroqdag'i vegetativ markazlarning ishlarini birlashtiradigan va muvofiqlashtiradigan oliy vegetativ markazlar ham o'rta miyada deb taxmin qilinadi.

«*Oldingi miya* va uning po'sti bosh miyaning qismlaridir. Odamda oldingi miya shu qadar taraqqiy qilganki, u butun bosh miyaning deyarli 80 foizini tashkil etadi. Shu sababli oldingi miya katta miya ham deyiladi. Oldingi miya ikkita yarim shardan – o'ng va chap yarim sharlardan iborat. Yarim sharlarning usti kulrang modda bilan qoplangan. Bu miya po'sti deyiladi. U asosan piramidaga o'xshash juda ko'p (odamda 12 milliard) hujayralardan tuzilgan bo'lib, odamda uning kattaligi taxminan ikki ming kv. sm.ga barobar.

Bosh miya yarim sharlari po'stining yuzasi odatda to'rtta katta qismiga: peshona qismi (eng kattasi), tepe qismi, ensa qismi va chakka qismiga bo'linadi. Ongli psixik jarayonlarning bevosita biologik asoslari, shuningdek, ularning nerv markazlari bosh miya po'stida joylashgan. Sut emizuvchi hayvonlardan boshlab, psixika va oliy psixik faoliyatlarning nerv markazlari miya po'stidan iborat bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Shuning uchun ham miya po'sti psixik taraqqiyotda katta rol o'yndaydi. Agar jarrohlik yo'li bilan hayvonning miya po'sti olib tashlansa, uning psixik hayot jarayonlari ham yo'qoladi.¹

Miya po'sti olingen it ham hech kimni tanimaydi, har narsaga qoqilib yuradi, ovqatni o'zi qidirib topolmaydi, tumshug'ini ovqatga urgandagina uni yeydi. Odamga biologik jihatdan eng yaqin turgan hayvonlardan maymunlar esa bunday operatsiyani ko'tara olmaydilar, ularning miya po'sti olib tashlansa, bir-ikki kun ichida o'ladilar. Biroq bundan psixik hayot uchun miya po'sti tagidagi miya bo'laklarining hech qanday ahamiyati yo'q, degan xulosa kelib chiqmaydi. Miya po'sti bosh va orqa miya bilan alohida nerv tolalari orqali bog'lanadi. Shuningdek, orqa miya va miya po'sti tagidan chiqadigan nerv tolalari ham miya

¹ P.I. Ivanov. Umumiylarini psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1997-yil, 39-41 betlar.

po'stiga o'tib, u bilan bog'lanadi. Shuning uchun ham psixik jarayonlar butun nerv sistemasi va uning faoliyati bilan belgilanadi.

Miya po'sti odam nerv sistemasining eng yuqori bo'limi bo'lib, u umuman ongli psixik jarayonlar, ya'ni anglash, ijod qilish va irodaviy boshqaruv kabi faoliyatlarning markazidir. Shuni aytish kerakki, miya po'stida ayrim psixik funktsiyalarning boshqaradigan nerv markazlari ham bor deb tushuniladi. Bunday maxsus markazlar tuban hayvonlarda masalan, sudraluvchi hayvonlar va hatto qushlar miyasida ham yo'q. Ammo sut emizuvchilarda, ayniqsa yuqori taraqqiy qilgan hayvonlarda miya po'stining ayrim bo'laklari asosan ma'lum bir funktsiyalarni bajarishga muvofiqlashgandir. Masalan, ko'rish markazlari miya po'stining orqa qismida joylashgan bo'lsa, eshitish, tamni sezish, hidni bilish markazlari chekka qismlarda joylashgan. Miya po'stining peshona bilan tepe qismlarida harakat (motorik) markazlari o'rin olgan. Ulardan badan, qo'l-oyoq, barmoq va boshqa a'zolarning harakatini boshqaradigan markazlarni ko'rsatish mumkin. Miya po'stining tepe (ensa) orqasidagi qismlarida esa sezuvchi (sensor) markazlar joylashgan. Odam miyasining chap yarim shari po'stlog'ida maxsus nutq markazlari mavjuddir.

Peshona qismi oliy psixik jarayonlar markazi hisoblanadi. Shu markazlarning bir qismi buzilib qolsa shunga bog'liq bo'lgan psixik funktsiya ham ishdan to'xtaydi. Masalan, ko'rish markazlari zararlansa ko'rish qobiliyati ham zararlanadi. Harakat markazlari zararlanganda, ularga bog'liq harakatlar xam tartibsizlanadi yoki falaj bo'ladi. Nutq qobiliyati ham buzilib, til yo'qoladi va hokazo. Qattiq kantuziya natijasida bu markazda vaqtincha ish to'xtaydi, shu sababdan bunday ahvolda kishi behush bo'lib, esini yo'qotadi, kar-ko'r bo'ladi va hokazo. Mast kishida ham miyaning zararlanishi natijasida bular tartibsizlanadi. Ammo miya avvalgi holiga qaytishi bilan bu hodisalar ham yo'qoladi.

Yuqori taraqqiy qilgan sut emizuvchi hayvonlarning va ayniqsa odamning miya po'stining peshona qismi yaxshi o'sgan bo'lib, u oliy psixik protsesslar markazi hisoblanadi. Masalan,

maymunning miya po'stidan peshona qismlari olib tashlansa, unga yangi bir narsani o'rgatib bo'lmaydi, uning esi pasayadi. Albatta, miya po'stining ayrim bo'laklari o'zlarigagina xos vazifani bajaradigan bo'lsalar ham, bu markazlar o'zaro bog'langandirlar. Ularning bir qismi ishdan to'xtasa, bu holat umuman oliv psixik jarayonlarga ta'sir qiladi va ularga zarar keltiradi. Ayniqsa, odamda shunday bo'ladi.

Periferik nerv sistemasi markaziy nerv sistemasidan chiqadigan nerv tarmoqlaridan iborat bo'lib, ular organizmga yoyilib, uning barcha tashqi qismlarini markaziy nerv sistemasi bilan bog'laydi. Bu nervlarning 12 just to'plami bosh miyada va 31 just to'plami orqa miyadan ajralib chiqadi va uning mayda tolachalari butun organizmga tarqaladi. Bu periferik nervlar sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlarga bo'linib, ulardan sezuvchi nervlar tashqaridan keladigan taassurot bosh va orqa miyaga olib boradigan, harakatlantiruvchi nervlar esa qo'zg'alish (impuls)ni bosh va orqa miyadan mushak, pay va bezlarga yetkazadilar.

Sezuvchi va harakatlantiruvchi nervlar va ularning markazlari sevgi a'zolarini tashkil qilib, tashqi dunyodagi buyum va hodisalarga xos bo'lgan xususiyatlarni, ularning sifat va shakllarini miyada aks ettirishga xizmat qiladilar.

Vegetativ nerv sistemasi nerv tugunlari alohida tutashib ketgan boylamlardan iborat bo'lib, ular asosan ichki organlar – oshqozon, nafas olish, qon aylanish kabi organlar va bezlarning faoliyatini boshqarib turadi.

Vegetativ nervlar markaziy nerv sistemasiga, ya'ni bosh miya va orqa miyaga ham bog'langan bo'ladi. Shu sababli vegetativ va markaziy nerv sistemalarining faoliyati bir-biriga ta'sir qiladi. Ammo vegetativ nerv sistemasining faoliyati qisman markaziy nerv sistemasiga bog'lanmasdan ham o'tishi mumkin. Shuning uchun ham vegetativ nerv sistemasi avtonom, ya'ni mustaqil nerv sistema deyiladi.

Ammo hayvonlarning biologik takomili qancha tuban bo'lsa, nerv sistemasining shu qismi ham shuncha «mustaqil»dir.

Nerv sistemasi rivojlangan organizmlarda, xususan odamda, vegetativ nerv sistemasi markaziy nerv sistemasiga mahkam bog'langan.

Vegetativ nerv sistemasining faoliyati va uning holati hayvon va odamning ruhiy kechinmalari hamda holatlariga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, qo'rqqan vaqtda sochning tikka turishi, yuzning oqarib ketishi, nafasning bug'ilishi, terning paydo bo'lishi, yurakning qattiq urishi, qo'l-oyoqning titrab ketishi, og'izdag'i suvning qurib ketishi kabi va vegetativ nerv sistemasining faoliyatiga bog'liq uyalgan vaqtda qizarish, terlash va hokazalar ham vegetativ nerv sistemasining qo'zg'alishi va organizmdagi jarayonlarning o'zgarishi bilan birgalikda o'tadi. Bular organizmdagi hayot jarayonlariga ta'sir qilib, unda bo'ladigan o'zgarishlardan ochiq ko'rinish turadi.

Nerv sistemasining faoliyati va psixika

Nerv sistemasi faoliyatining fanga ma'lum bo'lgan asosiy formalaridan biri reflekslardir. Organizmning birorta qo'zg'ovchi ta'siriga javoban qilgan harakati refleks deb ataladi. Qo'l birorta issiq narsaga tegib ketsa, uni beixtiyor tortib olish, ovqat yeganda og'izga so'lak kelishi, ko'zga biror narsa tushganida yosh oqishi va hokazolar bunga misol bo'ladi¹.

Bunda qo'lning issiq narsaga tegib ketishi, ovqat yeyish, ko'zga biror narsa tushish qo'zg'atuvchi sabab, ammo qo'lni tortib olish, og'izga so'lak kelish, yosh oqish esa refleks, ya'ni organizmning nerv sistemasi orqali shu taassurotga javoban qiladigan harakatidir.

Har bir refleks qo'yidagicha vujudga keladi: qo'zg'ovchi (masalan, qo'lning issiq narsaga tegib ketishi) sezuvchi nerv uchlariga ta'sir qilib, ularni qo'zg'atadi, bu qo'zg'alish sezuvchi nerv yo'li bilan darrov orqa yoki bosh miyaga borib yetadi, bunda nerv qo'zg'alishi harakatlantiruvchi nervga o'tib, tegishli mushaklarga borib, ularni harakatga keltiradi. Demak, har bir refleksning vujudga kelish yo'li ana shunday uch qismdan iborat, shu yo'l (ya'ni sezuvchi, markaziy va harakatlantiruvchi qismlar) refleks yoyi deyiladi.

¹ И. П.Павлов. Полное собрание сочинений. IV том, с. 358.

2.2. Oliy nerv faoliyatini haqida I.P.Pavlov ta'limoti va uning psixologiya fanida tutgan o'rni

Yuksak darajada taraqqiy etgan hayvonlarda psixik xususiyatlarning va odamlardagi ongli psixik jarayonlarning bevosita moddiy asosi bosh miyaning po'stidir. Bosh miyaning pastrog'idiagi boshqa hamma qismlari, shuningdek orqa miya ongsiz reflektor harakatlarining markazlari bo'lib, xilma-xil psixo fiziologik jarayonlarni idora etadi. Bu yerda yana shuni ham aytish kerakki, bosh miyaning yuqorida aytilgan hamma qismlari orqa miya markaziy nerv sistemasi bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'lining bosqichlaridir.

Nerv sistemasining, ayniqsa uning yuksak fiziologik tarmoqlari faoliyatini fanda uzoq vaqt tekshirilmasdan kelganligini hisobga oladigan bo'lsak, rus olimlari nerv sistemasining fiziologiyasini o'rganish sohasida jahon miyosida katta xizmat ko'rsatganligini tahsinga loyiq deb baholashimiz mumkin.

Rus fiziologiyasining otasi I.M. Sechenov (1829-1905) bosh miya reflekslar faoliyatini birinchi bo'lib ilmiy asosda ko'rsatib berdi.

1863 yilda uning «Bosh miya reflekslari» nomli mashhur asari bosilib chiqdi. Bu asarda Sechenov o'sha vaqtdagi ilg'or fiziologlarning yutuqlariga va o'zi olib borgan tekshirishlarga asoslanib, odamning psixik faoliyati qandaydir ismi bor, jismi yo'q, moddiy bo'lмаган ruh, jonning mahsuli bo'lmay, balki faqat miyaning faoliyatidir, degan fikrni dadil aytди.

«Odamdagи psixik va fiziologik hodisalarning ikkovi bir-biriga yaqin hodisalar, bir moddiy asosdan kelib chiqadigan hodisalardir», deb yozdi Sechenov. Psixik jarayonlarning negizi bosh miya reflekslaridir, degan ta'limotni Sechenov birinchi bo'lib ilgari surdi. «Ongli va ongsiz hamma psixik hodisalar, – deb yozadi u, – o'zlarining kelib chiqishi jihatidan aslida reflekslardir»¹.

¹ P. Ivanov. Umumiy psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1967-yil, 49-50 betlar.

Miyaning reflektor faoliyatini o'rganish sohasida I.M. Sechenov boshlagan ishni I.P. Pavlov mustahkam eksperimental asosga qo'ydi, refleks tushunchasiga yangi ma'no berdi, shartli reflekslarning vujudga kelish mexanizmlarini kashf etdi. Yangi ilm yuksak nerv faoliyati fiziologiyasi materialistik psixologiyaning tabiiy-ilmiy asosi, poydevori bo'ladi.

I.P. Pavlov o'z tekshirishlarining psixologiya uchun qanday ahamiyati borligini shunday ko'rsatib o'tgan edi: «Bizning tekshirishlarimiz, – degan edi u, – psixologlar uchun juda katta ahamiyatga ega ilmning asosiy poydevori bo'lishi kerak deb o'ylayman»¹.

I.P. Pavlovning fikricha, oliy nerv faoliyatining fiziologiyasi vujudga kelishi bilan «psixologlar nihoyat, o'zlari tekshiradigan asosiy hodisalarining umumiy mustahkam zaminiga, tabiiy sistemasiga ega bo'ldilar, shu bilan ularning odamdag'i sansanoqsiz, tartibsiz tuyg'ularni sistemaga solishlari oson bo'ladi».

Reflekslar

I. P. Pavlovning fiziologik ta'limotidagi asosiy tushuncha refleks tushunchasidir. I. P. Pavlov unga shunday ta'rif keltiradi: «Refleks organizmning nerv sistemasi yordami bilan tashqi olam ta'sirlariga beradigan javob harakatlari reaksiyasidir». Psixik jarayonlarning bevosita fiziologik negizi bo'lgan nerv sistemasining faoliyati va uning muhim qonuniyatlarini birinchi bo'lib I.P. Pavlov ilmiy asosga qo'yanligini yuqorida aytib o'tgan edik. I.P. Pavlov ta'limotiga binoan, reflekslarning shartli va shartsiz turlari mavjud bo'lib, qo'zg'ovchining ta'siri bilan vujudga keladigan refleks shartsiz refleks deb ataladi. Shartsiz reflekslar organizm uchun tabiiy, tug'ma va nasldan-naslga o'tadigan reflekslardir. To'satdan qo'lga igna kirganda uni tortish, yorug'lik, ko'zning qamashishi, ovqat ta'miga so'lak oqishi bunga misol bo'la oladi, chunki bular qo'zg'ovchilardir. Ularning nerv markazlari orqa miya va miya po'sti tagidagi miya qismlaridadir. Markazda qo'zg'alish sezuvchi nerv

¹ И. П.Павлов. Полное собрание сочинений. III том. 1951 г. с.105.

hujayralaridan harakatlantiruvchi nerv hujayralariga o'tadi. Harakatlantiruvchi nerv esa muskulni harakatga keltiradi (masalan, qo'lning tortib olinishi) yoki qo'zg'alish sekretor nervga o'tadi, bu nerv esa bizning faoliyatimizni kuchaytiradi (masalan, so'lak ajralishi).

Refleksda nerv qo'zg'alishi o'tadigan yo'l refleks yoyi (dug'asi) deb aytildi. Refleks yoyining uchta qismi bor:

1. Sezuvchi yoki afferent qismi qo'zg'alish periferiyadan markazga shu qism orqali o'tadi.

2. Markaziy qism qo'zg'alish sezuvchi nerv hujayrasidan harakatlantiruvchi nerv hujayrasiga shu qism orqali o'tadi.

3. Harakatlantiruvchi yoki effektor qism qo'zg'alishni markazdan muskulga yoki bezga o'tkazadi.

Reflekslar hayvon organizmining tashqi muhitga moslashuviga muhit bilan aloqada bo'lishga yordam beradigan nerv-fiziologik mexanizmlardir.

Shunday qilib, refleks so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, refleks lotincha so'z bo'lib, «aks ettirish» degan ma'noni anglatadi. Biologiya va psixologiya fanlarida refleks deb, organizmning tashqi muhit ta'siriga nerv sistemasi orqali beradigan qonuniy javob reaksiyasiga aytildi.

I.P. Pavlovning buyuk xizmatlari shundaki, u shartli refleksni kashf etdi, bu refleksning shartsiz refleksdan farqini aniqladi va hayvon organizmining hayotida shartli reflekslarning qanday ahamiyati borligini ko'rsatib berdi. I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, shartsiz refleks bilan shartli refleks o'rtasidagi farq quyidagilardan iborat:

Shartsiz reflekslar tug'ma bo'ladi. Ular organizm hayotining birinchi kunlaridanoq ko'rina boshlaydi va tabiiy ravishda davom etaveradi, chunki ular organizm bilan birga tug'iladigan harakatlantiruvchi mexanizmlardir.

Shartli reflekslar hosil bo'lishini akademik Pavlov metodi asosida tajriba qilib o'r ganmoq uchun, ko'pincha, itlarda so'lak ajratish reflekslari hosil qilish yo'lidan foydalaniadi. Tajriba qilinadigan itlar dastlab shunday tayyorlanadiki, so'lak bezlaridan bittasining so'lak chiqish yo'li og'izga ochilmay, tashqariga, lunjning sirtiga ochiladi. Bu esa chiqqan so'lak

miqdorini maxsus asboblar bilan aniq o'lhashga imkon beradi. Shu tariqa tayyorlangan it tajriba xonasiga olib kiriladi. Itga ovqat beriladi (ovqat-shartsiz qo'zg'aluvchidir). It ovqatni og'izga olishi bilan so'lak chiqadi. Bu shartsiz refleksdir.

Bosh miya po'sti bo'lmasa, shartli reflekslar yo'qolib ketishi, yangi reflekslar esa vujudga kelmasligi shunday tajribalarda ko'rsatib berildi.

Bosh miya po'stidan mahrum qilingan kaptar, it, maymun kabi hayvonlar xulq-atvorining buzilishi shu bilan izohlanadi.

Bosh miya po'sti shartli reflekslar markazi ekanligi shu tariqa isbot etildi.

Takomilning yuqori darajasiga chiqqan hayvonlarning bosh miya po'stida miyaning ayrim hujayralari va ayrim markazlari o'rtaida yangi bog'lanishlar hosil bo'lishi mumkin. Shartli refleksning yoyi shartsiz refleksning yoyiga qaraganda murakkabroq bo'ladi. Shu bilan birga, shartli reflekslarning yoyi albatta bosh miya po'stidan o'tadi.

Pavlov bunga quyidagicha aniqlik kiritadi: «**Shartsiz reflekslar bilan shartli reflekslar o'rtaida farq yana shundaki, shartsiz reflekslar doimiy bo'ladi. Shartli reflekslar esa susayishi yoki so'nishi mumkin.** Og'izga olingan ovqat hamisha so'lak ajralishiga sabab bo'ladi. Ammo qo'ng'iroq tovushiga javoban so'lak ajralishi doimiy bir narsa bo'lmay, vaqtincha bir narsadir. Qo'ng'iroq chalish (shartli qo'zg'ovchi) bir necha marta takrorlangandan keyin ayni vaqtda ovqat (shartsiz qo'zg'ovchi) berilmasa, so'lak ajralishi kamayadi, susayadi va nihoyat, butunlay to'xtaydi. Qo'ng'iroq tovushi yana so'lak ajralishiga sabab bo'lishi uchun shartli qo'zg'ovchini shartsiz qo'zg'ovchi bilan mustahkamlash kerak»¹.

Shartsiz va shartli reflekslar organizm hayotidagi turli ahamiyati bilan ham farq qiladi. Organizm shartsiz reflekslar yordamila tevarak- atrofdagi muhit bilan doimo bog'lanib turadi. Shartli reflekslarda esa o'zgarib turuvchi muhit bilan yangi muvaqqat bog'lanishlar vujudga keladi.

Shartli reflekslar hosil bo'lganligi tufayli, shartsiz reflekslar hali shartsiz qo'zg'ovchilar yuz bermasdan ancha oldin voqe

¹ P. I. Ivanov. Umumiy psixologiya. -Toshkent: «O'qituvchi», 1967-y.

bo'laveradi, hatto bu shartsiz qo'zg'ovchilar uzoq joyda yuz bergen hollarda ham voqe bo'laveradi; shartli qo'zg'ovchi hayvon hayoti uchun muhim bo'lgan biron bir hodisa haqida, masalan, ovqat borligi, xavf-xatar tug'ilganligi haqida signal beradi.

Shuning uchun ham I. P. Pavlov bosh miya po'stining faoliyatiga signal faoliyati deb nom bergen edi.

Shartli reflekslar hayvonlarda malaka va odatlar vujudga kelishining nerv-fiziologik asosidir, degan edi Pavlov.

Shuningdek, u miyaning katta yarim sharlar po'sti shartli reflekslarning markazi ekanligini kashf etgandan keyin oliv nerv faoliyati qonuniyatlarini mukammalroq tekshirish uchun shu shartli reflekslar metodidan foydalanildi.

2.3. Bosh miya po'stining analiz va sintez qilish faoliyati

I. P. Pavlov shartli reflekslar metodidan foydalaniib, miyadagi katta yarim sharlar po'stining faoliyati tashqi muhitdan, shuningdek, organizm-ning ichidan nerv sistemasiga ta'sir qiladigan juda ko'p qo'zg'ovchilarni analiz va sintez qilishdan iborat ekanligini aniqladi.

Bosh miya po'stining analiz qilish faoliyati murakkab muhitning organizmga foydali yoki zararli ta'sir etadigan ayrim elementlarini ajratishdan iborat.

Bosh miya po'stining sintez qilish faoliyati tashqi muhitning ana shu ayrim elementlarini muayyan bir komplekslarga birlashtirishdan iborat. «Sintez nerv tutashish hodisasi bo'lsa kerak», deydi I. P. Pavlov.

Analiz va sintez I.P. Pavlov analizatorlar deb atagan maxsus nerv mexanizmlari yordami bilan voqe bo'ladi. Pavlov ta'limotiga ko'ra, analizator nerv fiziologik apparat bo'lib, sezuvchi nervning periferiyadagi chekka tarmoqlari (retseptor) nervning o'zi (o'tkazuvchi yo'l) va miya po'stining muayyan qo'zg'alishini qabul qiladigan qismidan iborat.

Har bir analizatorning periferiyadagi chekka tarmoqlari tegishli sezgi organlarida ko'rish (ko'z), eshitish (qulog), hid bilish (burun-xalqum) va boshqa organlarda bo'ladi.

Analizator avvalo sezgi va idrokimizning nerv-fiziologik apparatidir.

Analizator quyidagicha ishlaydi: analizatorning chekka tarmoqlari (retseptor) tegishli qo'zg'alishlarni sezib, qaytadan ishlab, maxsus nerv qo'zg'alishiga aylantiradi. Masalan, ko'rish retseptori tabiatdan yo yorug'lik tebranishlarini, eshitish retseptori esa havo tebranishlarini ajratib oladi.

Analizatorning ikkinchi bo'limi qo'zg'alishni periferiyadagi (chekka) tarmoqlardan bosh miya po'stiga o'tkazadi.

Bosh miya po'stida juda nozik, yuksak darajadagi analiz jarayoni ro'y beradi. Qo'zg'alishlar boshqa qo'zg'alishlar bilan ham shu yerda bog'lanadi. «Markaziy nerv sistemasining shu yuksak darajadagi qismida, – deydi I.P.Pavlov, – juda nozik va cheksiz xilma-xil analizatorlarning chekka tarmoqlarini ko'ramiz, shu bilan birga, tashqi olamning analizatorlar tomonidan ajratiladigan eng mayda elementlari organizm bilan doimo yangicha bog'lanib, shartli reflekslar hosil qiladi...»¹

Shu tariqa, I. P. Pavlov ta'limotiga muvofiq, bosh miya katta yarim sharlari analizatorlar yig'indisidan iborat, bu analizatorlar esa doim tashqi ta'sirlarni tarkibiy qismlarga ajratadi va ularni organizmning biror faoliyati bilan bog'laydi.

Qo'zg'ovchilarning analiz va sintez qilinishi bosh miya po'stidagi yagona bog'langan ikki tomonidir. Bosh miya po'stining bu faoliyati idrok, xotira, xayol, tafakkur va shu kabilarning asosiy mexanizmidir.

I. P. Pavlov bosh miya po'stining analiz va sintez qilish faoliyati organizmning tevarak-atrofdagi muhit bilan naqadar keng va chuqur moslashuvi hamda muvozanatlashuvini belgilab beradi, deb hamisha uqtiradi. Analiz va sintez oliy nerv faoliyati haqidagi I. P. Pavlov ta'limotining asosiy printsiplaridan biridir.

Shunday qilib, miyaning asosiy ishlash printsipi shartli reflekslar, ya'ni muvaqqat aloqalar (vaqtli nerv bog'lanishlari) hosil qilishdan iborat bo'lib, muvaqqat aloqalarni I. P. Pavlov ayni chog'da assotsiativ bog'lanishlar deb atagan. Muvaqqat bog'lanishlarning g'oyat katta ahamiyati haqida I. P. Pavlov

¹ И. П.Павлов. Полное собрание сочинений. –М.: III том.

bunday deb yozgan edi: «Muvaqqat bog‘lanishlar hayvonot olamida va bizning o‘zimizda ham bo‘ladigan eng umumiy (universal) fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir: turli-tuman harakat, taassurot yo bo‘lmasa, harflar, so‘zlar va fikrlar o‘rtasida paydo bo‘ladigan bog‘lanishlardirki, bu bog‘lanishlarni psixologlar *assotsiatsiyalar* deb ataydi»¹.

I. P. Pavlovning fikricha, odam tomonidan o‘zlashtiriladigan barcha bilimlar, malaka va odatlar, odamdagи tushunchalar, uquvlar va barcha axloqiy harakatlar sonsiz-sanoqsiz assotsiatsiyalardan, ya’ni muvaqqat nerv bog‘lanishlaridan iboratdir.

Akademik I. P. Pavlov ta’limotiga ko‘ra, organizmlarga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan ikki xil signallar sistemasi mavjud. Bu signallar sistemasi odatda birinchi va ikkinchi signallar sistemasi deb yuritiladi.

Tashqi muhitdagi turli narsalarning sezgi a’zolarimizga bevosita ta’sir etishi orqali ularning ongimizda aks ettirilishi birinchi signallar sistemasini tashkil etadi.

Masalan, biz har kungi faoliyatimizda atrofimizda odamlarni, uyimiz va uyimizdagi turli narsalarni bevosita sezish, idrok va tasavvur etish orqali ongimizda aks ettiramiz. Bunday bevosita aks ettirish birinchi signallar sistemasi orqali aks ettirishdir. Demak, birinchi signallar sistemasi orqali aks ettirish bizning sezgilarimiz, idrokimiz va tasavvurimiz bilan bog‘liqdir. Sezish, idrok va tasavvur yuksak taraqqiy etgan hayvonlarga ham xos bo‘lgan psixik jarayonlardir. Biroq odamlarning ijtimoiy mehnat faoliyatları va bir-birlari bilan munosabatlari jarayonida ularning aks ettirish sistemalarida sifat o‘zgarishi yuz bergen. Boshqacha qilib aytganda, odamlarda narsalarning bevosita ta’sir etishi orqali aks ettirishdan tashqari bevosita aks ettirish sistemasi yuzaga kelgan. Bu faqat odamgagina xos bo‘lgan **ikkinchi signallar** sistemasidir. Tashqi muhitdagi turli narsalarni bevosita, ya’ni so‘zlar orqali ongimizda aks ettirilishi **ikkinchi signallar** sistemasini tashkil qiladi.

Ikkinchi signallar sistemasi, ya’ni voqelikni so‘zlar orqali aks ettirish hech qanday hayvonlarda bo‘lmaydi. Shuning uchun

¹ Qarang: O’sha manba

odamda faqat bevosita ta'sir etadigan narsalar vositasi bilangina emas, balki so'zlar orqali ta'sir etish yo'li bilan ham shartli reflekslar hosil qilish mumkin. So'z ikkinchi signal sifatida xuddi real narsalar kabi ta'sir qilishi bilan birga uning real narsalardan (real qo'zg'ovchilardan) bir muncha farqi bordir. Har qanday so'z faqat yakka narsalarnigina ifodalab qolmay, umumlashtirish xususiyatiga ham ega bo'ladi. Masalan, «hayvon» degan so'z bilan ot, sigir, qo'y, mushuk emas balki juda ko'p jonivorlar nazarda tutiladi yoki «quti» degan so'z bilan aniq bir odamning uyidagi quti emas, balki hamma turdag'i qutilar ifodalanganadi. Demak, so'z shu so'z orqali ifodalangan narsalarni, ya'ni **birinchi signallarni** umumlashtirib aks ettiradi.

M. Vohidov bu holatga quyidagicha ta'rif keltiradi: «So'zlar vositasi bilan, ya'ni ikkinchi signallar sistemasi orqali aks ettirishning afzalligi juda kerak. Ma'lumki, odam hamma narsalarni ham bevosita sezish, idrok qilish orqali aks ettirish imkoniyatiga ega emas. Odam o'zining hayotidagi ko'p narsalarni so'zlar orqali aks ettirib o'zlashtiradi. Shuning uchun so'zlar, ya'ni ikkinchi signallar sistemasi odamga insoniyatning butun ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish imkoniyatini beradi. **Ikkinci signallar** sistemasi o'z faoliyatida hamisha birinchi signallar sistemasiga asoslanadi. Odam qanday so'zni ishlatmasin, shu so'z orqali ifodalangan real narsa yoki hodisani yaqqol tasavvur eta olishi kerak. Agar aytilgan yoki eshitilgan so'z orqali odam hech narsani tasavvur eta olmasa, bunday so'zning ta'sir kuchi bo'lmaydi»¹.

Shuning uchun so'z, shu so'z orqali ifodalangan narsa bilan (yoki narsaning tasavvuri, obrazi bilan) mustahkam bog'langan bo'lishi lozim. Ana shundagina so'z o'zining vazifasini bajara oladi. Agar odam suhbat yoki ma'ruza paytida eshitayotgan so'zları orqali hech narsani tasavvur eta olmasa bunday so'zlar «Quruq tovushlar» yig'indisiga aylanib qoladi. Bunday aytilayotgan so'zlar vogelik bilan, vogelikdagi narsalar bilan bog'lanmaydi. Ana shuning uchun birinchi va ikkinchi signallar o'rtasida o'zaro bog'liqlik va o'zaro munosabat mavjud.

¹ M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. -Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil.

Analizatorlar

Analiz deganda ta'sir qilayotgan narsalarni tarkibiy qism-larga ajratish, sintez deganda esa qismlarni birlashtirib bir butun holga keltirish tushuniladi.

Odam o'ziga ta'sir qilgan barcha narsalarni nerv sistemasining yordami bilan dastavval bosh miya po'stida analiz qiladi, ya'ni ma'lum xususiyat va belgilarga qarab, tarkibiy qismlarga ajratadi. Undan so'ng ana shu xususiyat va belgilar asosida uni qaytadan birlashtirib, bir butun holga keltiradi, ya'ni sintez qiladi. Shu nuqtai nazardan nerv sistemasining va xususan, bosh miyaning faoliyati asosan analiz va sintez qilish faoliyatidan iboratdir. Organizmga ta'sir qiladigan qo'zg'atuvchilarni analiz va sintez qilish ularni yanada chuqurroq, aniqroq bilish imkonini beradi.

Akademik I.P Pavlov ta'limotiga ko'ra, tashqi muhit taassurotlarini (ya'ni turli qo'zg'atuvchilarni) analiz qilish analizator vositasi bilan amalga oshiriladi. Har bir analizator odatda uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Tashqi muhitdan bo'ladigan turli taassurotlarni qabul qilib oladigan nerv tolalari. Bunday sezuvchi nerv tolalari organizmning hamma sezgi a'zolarida joylashgan bo'lib, ular odatda *retseptor* deb ataladi. Turli sezgi a'zolaridagi (ko'z, qulqoq, burun kabi) retseptorlar qo'zg'atuvchilarnigina qabul qilib olishga moslashgan bo'ladi. Masalan, ko'zning to'r pardasiga joylashgan retseptor faqat yorug'lik nurlarini, ranglarni, ichki qulqqaga joylashgan retseptor faqat turli kuchlanishdagi havo to'lqinlarini, ya'ni har xil tovushlarni, burun bo'shlig'iga joylashgan retseptorlar turli hidrlarni qabul qiladi.

2. Qo'zg'alishlarni retseptorlardan, ya'ni sezgi a'zolaridan markazga yetkazuvchi va markazdan javob reaktsiyasini olib keluvchi ikki turli nerv tolalari. Analizatorlarning bu qismi odatda *affrent* (markazga intiluvchi) va *efferent* (markazdan qochuvchi) nerv tolalari deb yuritiladi. Bu nerv tolalari analizatorlarning chekka qismlarini bosh miyadagi markazlar bilan bog'laydi.

3. Bosh miya katta yarim sharlarining po'stloq qismida maxsus hujayralar guruhidan iborat bo'lgan analizatorlarning

markaziy qismi. Analizatorlarning markaziy qismi eng murakkab va eng muhim hisoblanadi.

Dastlabki analiz jarayoni retseptordan, ya'ni tashqi muhit ta'sirotlarini qabul qilib oladigan nerv tolalaridan boshlanadi. Chunki har bir retseptor tashqi muhitdan organizmga bo'layotgan son-sanoqsiz va xilma-xil taassurotlardan (qo'zg'atuvchilardan) faqat o'ziga tegishlilarinigina tanlab oladi. Bu maxsus taassurot o'tkazuvchi nerv tolalari orqali miyaga, analizatorlarning markaziy qismiga yuboriladi. Analizatorlarning miyadagi markaziy qismida chuqur analiz qilinib, sezgi a'zolariga tegishli javob jo'natiladi.

Analizatorlarning markaziy qismida turli retseptorlardan kelgan signallar (qo'zg'atuvchi) bir-biriga bog'lab birlashtirib sintez qilinadi, ya'ni har xil qo'zg'atuvchilar bir butun, yaxlit holga keltiriladi. Natijada har xil retseptorlardan kelgan turli belgi va xususiyatlar birlashtirilib, biron narsaning obrazı, tasavvuri yuzaga keltiriladi. Bir butun holda aks ettirish jarayoni ana shu tarzda yuz beradi. Shuning uchun aks ettirish jarayonida analizatorlarning har uchala qismlari normal holda ishlashi kerak. Agar analizatorlarning biron qismi (retseptor yoki markaziy qismi) ishdan chiqib qolsa, hech qanday aks ettirish jarayoni yuzaga kelmaydi.

2.4. Oliy nerv faoliyatining asosiy qonuniyatları

Har bir daqiqada odamning miyasiga tashqi obyektiv olam va ichki muhitdan juda ko'p qo'zg'atuvchilar (har xil narsa va hodisalar) ta'sir etib turadi. Buning natijasida miyada ikki xil jarayon, ya'ni qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari yuzaga keladi. Qo'zg'alish jarayoni miyadagi nerv markazlarini ishga soladi, ularni faol holatga keltiradi. Tormozlanish jarayoni esa aksincha, miyadagi nerv markazlarining faoliyatini sekinlashtirib, to'xtatib qo'yadi. Bedorlik vaqtida odamga juda ko'p qo'zg'atuvchilar ta'sir qilib, uning miyasida son-sanoqsiz qo'zg'alish jarayonlarini yuzaga keltiradi. Natijada qo'zg'alish jarayoni yuz bergan joydagи nerv hujayralari (neyronlar) juda ko'p energiyani sarflab toliqadi. Tormozlanish jarayonida nerv

markazlari ma'lum daqiqa ishlamaydi, bu esa nerv hujayralarga energiyani tiklab olish imkonini beradi.

Qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari oliy nerv faoliyatining asosiy jarayonlari hisoblanadi. Psixik jarayonlarning yuzaga kelishida ko'zg'alish jarayoni qanday ahamiyatga ega bo'lsa, tormozlanish jarayoni ham shunday ahamiyatga egadir.

Nerv jarayonlarining irradiatsiyasi va kontsentratsiyasi

Bosh miya katta yarim sharlar po'stloq qismida yuzaga kelgan qo'zg'alish jarayoni bir nuqtada to'xtab qolmaydi. Qo'zg'alish jarayoni yuzaga kelgandan so'ng atrofiga tarqaladi. Tormozlanish jarayoni ham xuddi shunday bo'ladi, ya'ni bosh miya katta yarim sharlarining po'stloq qismida yuzaga kelgan tormozlanish bir nuqtadagina to'xtab qolmay, atrofiga tarqaladi. Bu hodisa *irradiatsiya* deb yuritiladi. Demak, qo'zg'alish jarayoni ham, tormozlanish jarayoni ham yuzaga kelgandan so'ng irradiatsiyalashadi.

Bundan tashqari, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari bosh miya katta yarim sharlar po'stloq qismining yuzaga kelgan joyida mujassamlanish (to'planish) xususiyatiga ham egadir. Bu hodisa *kontsentratsiya* deb yuritiladi. Bosh miya katta yarim sharlarining po'stida yuzaga kelgan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari avval irradiatsiyalashadi, birozgina vaqt o'tgandan keyin esa kontsentratsiyalashadi.

Bosh miyada yuzaga kelgan qo'zg'alishning qat'iy kontsentratsiyalanishi tufayli differentsirovka (farqlash) hodisasi ro'y beradi. Bunda o'xshash qo'zg'aluvchilarining ta'siri juda yaxshi farq qilinadi.

Irradiatsiya va kontsentratsiya jarayonlari orqali juda ko'p psixik hodisalarining fiziologik asoslarini tushuntirib berish mumkin. Masalan, idrok qilish jarayonida dastavval odamning tushuna olmasligi, tasavvurimizning noaniq bo'lishi ta'sir etayotgan qo'zg'atuvchining irradiatsiyalanishi bilan bog'liq. Kontsentratsiya esa idrok jarayonining aniq va ravshan bo'lishining fiziologik asoslaridir.

Oliy nerv sistemasining faoliyatida o'zaro induksiya qonuni ham juda katta rol o'yinaydi. O'zaro induksiya qonuni qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining munosabatlari bilan bog'liq. O'zaro induksiya qonuniga ko'ra bosh miya katta yarim sharlarining muayayn bir qismi tormozlanish holatida bo'lsa, atrofdagi boshqa joylarni qo'zg'alish holatiga keltiradi. O'zaro induksiya qonuni nerv markazlarida qo'zg'alish jarayonining tormozlanishi bilan va aksincha tormozlanish jarayonining qo'zg'alish bilan almashinib turishini ta'minlaydi. O'zaro induksiya qonuni orqali bir qancha murakkab psixik hodisalarning fiziologik asoslarini tushuntirib berish mumkin. Masalan, diqqatning muayyan bir narsagagina qaratilishi, diqqatning barqarorligi, o'tkir kuzatuvchanlik kabi psixik hodisalarni o'zaro induksiya qonuni orqali fiziologik jihatdan tushuntirib berish qiyin emas. Diqqat biron muayyan narsaga qaratilganda bosh miya katta yarim sharlarining ma'lum qismida yuzaga kelgan kuchli qo'zg'alish o'zaro induksiya qonuniga binoan atrofidagi boshqa markazlarni tormozlab qo'yadi. Natijada odam diqqat-e'tibori bilan faqat bir narsagagini berilib ketadi. Bunday hodisani bolalarda ham ko'rish mumkin. Biror qiziqarli o'yinga yoki o'yinchoqqa butun vujudi bilan berilib ketgan bola atrofida nima bo'layotganini mutlaqo sezmaydi. Bunda ham o'zaro induksiya qonuniga ko'ra, o'yin tufayli yuzaga kelgan kuchli qo'zg'alish jarayoni atrofidagi bo'lak markazlarni tormozlab, ishdan vaqtincha to'xtatib qo'yadi. Ana shuning uchun bola hech narsani sezmay qo'yadi.

Demak, o'zaro induksiya qonuniga ko'ra, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari ham har doim bir-biriga ta'sir etib turadi. Oliy nerv faoliyatining bu ikki asosiy jarayoni bir-biriga bog'liq bo'ladi. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayonini yuzaga keltiradi.

2.5. Oliy nerv faoliyatining sistemalilik uslubida ishlashi

Odatda kundalik faoliyatimizda nerv sistemamizga tashqi va ichki muhitdan juda ko‘p xilma-xil narsa va hodisalar ta’sir etib turadi. Buning natijasida bosh miya katta yarim sharlarining turli qismlarida har xil kuchlanishga ega bo‘lgan qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari paydo bo‘ladi. Lekin bosh miya katta yarim sharlarida har bir onda yuzaga keladigan qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlari va shu jumladan, turli taassurotlar tufayli hosil bo‘ladigan shartli reflekslar qanchalik ko‘p bo‘lmisin, ular betartib ravishda yuzaga kelmaydilar. Bosh miya katta yarim sharlarining ishida, ya’ni oliy nerv faoliyatining ishida qat’iy sistemalilik mavjud.

Oliy nerv faoliyatining muayayn sistemalilik uslubida ishlashi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining doimiy o‘zaro munosabatlari tufayli bosh miya katta yarim sharlarida yuzaga keladigan har bir qo‘zg‘alish va hosil bo‘ladigan har bir shartli refleks bosh miya po‘sloq qismidagi hamma nerv jarayonlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Miyadagi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining sistemali ishlab turishi qo‘zg‘atuvchilar ta’sirining o‘zgarishiga qarab o‘zgarib turadi. Ayrim hollarda bosh miya katta yarim sharlarining ishlash printsipida juda qat’iy, hech bir buzilmaydigan sistemalik yuzaga kelib qoladi. Bu qat’iy sistema uzoq vaqt ta’sir qiladigan qo‘zg‘atuvchilar tufayli yuzaga keladi. Chunonchi, bir qator qo‘zg‘atuvchilar odamga uzoq muddat davomida bir xil tartibda ta’sir qilib turadigan bo‘lsa, ana shu tartibda qo‘zg‘alish jarayonlarining yuzaga kelishi mustahkamlanib qoladi. Agar bir qancha shartli reflekslar hosil qilinib, ular har kuni ma’lum tartibda takrorlanib tursa, bu reflekslar xuddi shu tartibda bir-biri bilan juda mustahkam birlashib ketadi. Natijada o‘zaro juda mustahkam birlashgan shartli reflekslar sistemasi yuzaga keladi. Oliy nerv faoliyatining ishidagi bu hodisani akademik I.P. Pavlov *dinamik stereotip* deb ataydi.

Demak, dinamik stereotip organizmning takrorlanib turadigan bir xil tashqi taassurotlarga moslanishidan iboratdir.

Dinamik stereotip yuzaga kelgandan so'ng odatdag'i harakatlar zo'r bermasdan yengillik bilan bajarilaveradigan va hatto odamga orom bag'ishlaydigan bo'lib qoladi.

Dinamik stereotipning, ya'ni qat'iy sistemada mustahkam birlashib ketgan shartli reflekslar (vaqtli bog'lanishlar) zanjirining ahamiyati juda ham katta. Dinamik stereotip tarzidagi shartli reflekslar birlashmasi odamning xilma-xil malakalari va murakkab odatlarining nerv-fiziologik asosini tashkil etadi. Masalan, yoshlikdan boshlab qat'iy rejimga odatlantirilgan bola (ertalab o'z vaqtida turadigan, o'z vaqtida nonushta qiladigan, o'z vaqtida o'ynaydigan, o'z vaqtida ovqatlanadigan va o'z vaqtida uxlaydigan) o'zining butun xattixarakatlari, yumushlarini tashqaridan bo'ladigan buyruqsiz juda yengillik bilan bajaradi. Bunday qat'iy rejimga odatlantirilgan bolalarga ortiqcha tanbeh ham berilmaydi. Bunday bolalarda har kungi qat'iy rejim ta'siri ostida mustahkam dinamik stereotip yuzaga kelib qoladi. Odatda, tartibli bolalar xulq-atvorining sirlaridan biri odatlanishda, ya'ni dinamik stereotipning yuzaga kelishidadir.

Agarda bola qat'iy rejim bilan yashashga odatlantirilmasa, ya'ni uning uyqudan turishida ham, ovqatlanishida ham, o'yin va mashg'ulotlarida ham va uyquga yotishda ham tartib, tayin bir vaqt bo'lmasa, unda qat'iy sistemalilik bilan ishlovchi dinamik stereotip yuzaga kelmaydi. Bunday bolalarning xattiharakatlarida, fe'l atvorida hech qanday tartib ko'rinxaydi. Ular tajang, qaysar va uncha-muncha odamga bo'ysunmaydigan, o'zboshimcha bo'ladilar. Ana shuning uchun bolaga uzoq muddat davomida bir xil ta'sir etadigan qat'iy rejim va uning fiziologik asosini tashkil etgan dinamik stereotipning ahamiyati juda katta.

Dinamik stereotip tarzidagi shartli reflekslar (vaqtli bog'lanishlar) sistemasi faqat bevosita qo'zg'atuvchilarning ta'siri ostidagina emas, balki so'zlarning ta'siri ostida ham yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, dinamik stereotip tarzidagi vaqtli bog'lanishlar ikkinchi signallar sistemasi doirasidan ham yuzaga keladilar. Agar psixologik va fiziologik jihatdan analiz qiladigan bo'lsak, xat-savod chiqarishning

(bolalarni o'qish va yozishga o'rgatishning) asosida juda ko'p miqdorda dinamik stereotip tarzidagi shartli reflekslarni hosil qilish yotadi.

2.6. Inson ongi va uning tarixiy taraqqiyoti

Odam ongi psixologiyasi yuksak darjada tashkil topgan materiyaning ya'ni miyaning mahsulidir. Shu sababli odam ongi ijtimoiy hayot sharoitiga bog'liq holda taraqqiy etadi. Ong avvaldan jamiyat mahsulidir va inson umuman dunyoda yashar ekan ong shunday bo'lib qolarveradi. Demak, inson ongi insonning o'zi bilan birga, deyarli bir vaqtda maydonga kelgan. Insoniyat taraqqiyoti hayvonot olami taraqqiyotidan keskin farq qiladigan taraqqiyotning yangi bosqichidir.

Chunki odam juda qadim zamonlarda hayvonot olamidan ajralib, ijtimoiy mehnat bilan shug'ullanadigan mavjudotga aylana boshladi. Buning natijasida psixik aks ettirishning yangicha formasi ong maydonga keldi. Insondagi barcha psixik aks ettirishning ko'rinishlari yaxlit tarzda yagona tizimga birlashgan.

Ong bu shaxs sifatidagi insonning barcha psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlarining birligidir. Shuning uchun insonning ongi mavjud olamni aks ettiribgina qolmaydi, balki uni yaratadi. Ya'ni dunyo insonni qanoatlantirmaydi va inson o'z ta'siri bilan uni o'zgartira oladi.

Ong bilishning barcha formalari va insonning kechinmalari hamda o'zi aks ettirgan narsaga bo'lgan munosabatlarining yig'indisidan iboratdir. Insondagi barcha psixik hodisalar onglidir, zotan uni ong namoyon etadi, lekin ularning hammasi ham bir xil darajada anglangan bo'la olmaydi. Odamning taraqqiy etishida mehnat hal qiluvchi rol o'ynagan. Mehnat butun insoniyat hayotining birinchi asosiy shartidir va shu darajadagi asosiy shartki, biz ma'lum ma'noda odamning o'zini ham mehnat vujudga keltirdi deb aytishga haqlimiz. Chunki mehnat inson va tabiat orasidagi o'zaro ta'sirning alohida ko'rinishi bo'lib, unda inson ongli ravishda qo'ygan maqsadini amalga oshiradi. *Mehnat faoliyati* insonning hayvonlarga xos tabiatga moslashishi emas, balki uni o'zgartirishdir. Inson va

tabiat orasidagi bog'lovchi bo'g'in bu uning mehnat qurolidir. Birgalikda mehnat qilish paytida alohida insonlarda bir-biriga nimadir aytish ehtiyoji tug'ilib borgan. Tilni shakllantirgan bu hayotiy ehtiyoj ongning taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi kuch tariqasida tushunchalarni yaratgan. Ayni paytda mehnat insonning o'z-o'zini anglashini ham taraqqiy ettirgan¹.

O'z-o'zini anglash har bir kishida o'zining jamoa va jamiyatdagi harakatlari va holatlari bilan o'ynaydigan rolini aks ettirishdir. O'z-o'zini anglash bu shaxs ongining cho'qqisidir. U bolada «men» va «men emas»ni qarama-qarshi qo'yishdan boshlanadi va tezda «o'zim»ga o'tadi. Ana shundan esa shaxsning shakllanishi boshlanadi. So'ngra o'z-o'zini anglash o'zining «men»ni anglash sifatida xotira bilan boyiydi va *shaxs talablarining darajasini belgilagan holda* «xohlayman» dan «qila olaman»ga o'tadi. Nihoyat, hunar-texnika bilim yurtlarining o'quvchilari uchun xos bosqich «bajarishim kerak»ga o'tib, uning ongida yetakchi ahamiyatga ega bo'lib qoladi.

O'z-o'zini anglashning o'zgarishlari o'smirlik yoshida ayniqsa keskin bo'ladi. Agar bola o'yindagina tengdoshlari ichida o'zining kim bo'lish istagini namoyon qilsa, o'smir esa o'z tengdoshlari orasida o'z nomining e'tirof etilishiga erishadi, kattalardan esa o'zining shaxsiyatini, o'zining mustaqilligini tan olishlarini talab qiladi hamda o'ziga yosh bolaga qilgandek muomala qilishganlardan juda og'rindi.

Har bir o'quvchida o'z-o'zini anglashning taraqqiy topishi pedagoglarga bog'liq.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi jarayonida o'quvchida o'z-o'zini anglashni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun quyidagi shartlar zarur:

a) o'quvchilar ta'lim unumdarligini oshirishning ijtimoiy ahamiyatini anglashlari;

b) butun o'quv jamoasi hamda har bir o'quvchining mashg'ulot va ishlardagi tashkilotchiligi va aniqligi, o'quvchi

¹ K.K. Platonov, G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil, 31-32 betlar.

va jamoaning birgalikdagi ishni samarali bajarishdan ikki tomonlama manfaatdorligi;

v) har bir o'quvchining jamoada o'zining o'quv ishlaridan qoniqish hissi.

Mashg'ulotlarning birinchi kunlaridanoq har bir o'quvchi xuddi shu bilim yurtida hayotiy mustaqillikka erisha olishini, jamoa ichida va jamiyatdagi qadrini sezalish muhim, toki u tengdoshlari orasida o'zining tenglik imkoniga ishonch hosil qilsin, o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan o'ziga bo'lgan ezgu munosabatlarni ko'rsin, o'zini mustaqil shaxs deb his etsin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nerv sistemasining tuzilishi haqida tushuncha bering.
2. I.P. Pavlov ta'limotini tushuntiring.
3. Oliy nerv faoliyatining asosiy qonuniyatlarini tushuntiring.
4. Ong va ruhiy olam haqida tushuncha bering.
5. Reflekslar faoliyatini tavsiflang.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: "O'zbekiston", 1996.
2. I.A. Karimov. Yangicha fikrلash va ishlash davr talabi. 5 jild. –T.: "O'zbekiston", 1997.
3. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalishi yo'lida. –T.: «O'zbekiston», 1998.
4. I.A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnalni bosh muharriri savollariga javoblar. "Tafakkur" jurnalni, 2-son 1998.
5. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. 2-kitob. –Toshkent.: 2002.
6. V. Karimova. Psixologiya. A. Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti. –Toshkent: 2002.
7. K.K. Platonov, G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
8. Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1972.
9. M. Vohidov. Bola shaxsi va uning shakllanishi. –T.: «O'zbekiston», 1972.
10. E. G'oziyev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
11. M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva. –T.: Umumiy psixologiya (o'quv qo'llanma).
12. E. G'oziyev, A. Jabborov. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. –Toshkent: 2003.

UCHINCHI BOB

PSIXOLOGIYADA SHAXS VA UNING MUHIM MUAMMOLARI

3.1. Shaxs haqida tushuncha

Shaxs bu jamiyatdagi o'zining o'zligini anglovchi, uning layoqatli a'zosi sifatidagi insonning psixologik qiyofasidir. Psixologik qiyofa shaxsning alohida xususiyatlari bilangina emas, balki umumiy sifatlari – xarakteri va qobiliyatlar bilan yo'nalganligi, e'tiqodi ta'siri ostida bo'lgan psixik jarayonlar va holatlarning o'ziga xosligini belgilovchi tug'ma zehn va tajribadan tashkil topadi.

Odam shaxsi hamisha aniq ijtimoiy munosabatlar asosida tarkib topadi. Demak, shaxs-ijtimoiy munosabatlar yig'indisidan iboratdir. Chunki odam hammavaqt ma'lum bir jamiyatda yashaydi. Jamiyatdan, ya'ni odamlar jamoasidan tashqarida yashaydigan, odamlar jamiyati bilan bog'liq bo'limgan biron ta odam yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar murakkab xarakterga egadir. Ular iqtisodiy va siyosiy, sotsial va ma'naviy aloqalarni ham o'z ichiga oladi. Bularning hammasi mujassam holda odamni shaxs sifatida shakllantiradi.

«Shaxs» so'zi nimani anglatadi? Jamiyatning a'zosi hisoblangan va ong egasi bo'lgan har bir individual odam shaxsdir. Shaxs hamma vaqt muayyan shaxsiy, faqat o'zigagina xos bo'lgan murakkab individual sifatlar va murakkab xususiyatlari birikmasining egasidir.

Odam shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki sotsial taraqqiyot jarayonida shaxs sifatida shakllanib boradi. Shaxs psixologiyasini aniq tarixiy sharoitlardan, o'zi mansub bo'lgan jamiyatdan, undagi egallagan mavqeidan ajratib olgan holda tushunish ham mumkin emas.

Demak, shaxs tushunchasi keng va ko'p qirralidir. Shaxsni u yoki bu aspektida o'rganish bilan bir qancha gumanitar fanlarning shug'ullanishi bejiz emas. Jumladan, tarixiy

materializm (shaxsni sinflar va umumiy jamiyat tarkibda olib o'rganadi), siyosiy iqtisod (shaxsni ijtimoiy munosabatlar sistemasida moddiy boyliklar ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi sifatida o'rganadi), pedagogika (inson tarbiyasining tashkiliy tomonlari, printsiplari, uslublari yo'llari va vositalari tarkibida o'rganadi) kabilalar shular jumlasidandir. Shuningdek, sotsiologiya, tarix, san'atshunoslik, tibbiyot, huquqshunoslik va boshqa fanlar ham har tomonidan, turli aloqa va munosabatlarda o'rganadi.

Psixologiya esa shaxsning psixik xususiyatlari, holatlari va jarayonlarining, shuningdek uni o'rganish hamda shakllanishining qonuniyatlarini ko'rib chiqadi. Shu sababli psixologiyaning shaxsga beradigan ta'rifi uni o'rganuvchi barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan ta'rifni aniqlashtiradi. Shaxs ongli, aqli, tilga ega bo'lgan va mehnat faoliyatiga qobiliyatli insondir. Qisqa qilib aytganda, shaxs bu ongli zotdir. Insonning ma'naviy kamoloti uchun, unda ijtimoiy va psixologik sifatlarni, qibiliyatlar va xarakterni, emotsiional tuyg'u va irodaviy sifatlarni shakllantirishda uning turmush sharoitlari va tarbiyasini hal qiluvchi ahamiyati haqidagi shaxsning qadr-qimmat qoidasi psixologiya uchun muhim ahamiyatga egadir. Milliy psixologiyamiz vakillari ham tarbiya va tashqi sharoitlarning inson kamolotidagi hal qiluvchi rolini ta'kidlabgina qolmay, balki sharoitlarni ijtimoiy tarzda o'zgartirish zaruratinini ko'rsatib o'tgan edilar.

«Odamning haqiqiy ma'naviy boyligi uning mutloq haqiqiy munosabatlari boyligiga, ya'ni uning turmush va mehnat shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi, – deb yozgan edi mashhur rus psixologi K.K. Platonov. – Bu esa odam psixologiyasi va uning ma'naviy turmush boyligi avvalo uni o'rabi turgan mehnat jabhalari bilan aloqador bo'lgan turli-tuman va eng muhim ijtimoiy unumli mehnatda namoyon bo'ladi»¹

Vatanimiz tarixida uzoq davom etgan mustabid tuzum millionlab xalqimizning erku e'tiqodiga vosita bo'lib emas, balki

¹ K.K. Platonov. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil, 33-bet.

og'ir zulm sirtmog'i va inson qadr-qimmatini kamsitish garovi bo'lib xizmat qilib keldi. Bu kamsitish odamlarni asoratga soldi, shaxsni normal rivojlanish imkoniyatlaridan mahrum etib keldi, chunki, mehnat erkinligi va tengligi mavjud bo'lgan jamiyatdagina shaxs erkinligi va rivojlanishi bo'lishi mumkin. Shaxs psixologiyasini o'rganishda hozirgi zamon fani talabi nuqtai nazaridan shaxsning psixologik tuzilishiga qarab chiqiladigan bo'lsa, har xil pozitsiyalarda umumiylilik va xususiylik tomonlari belgilanadi.

Shaxsning strukturasi (tuzilishi)ni aniqlashda uning ijtimoiy mavjudot sifatidagi odamning antoginetik hayoti davomida yuzaga keladigan hamda o'z xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari bilan uzlusiz o'zaro munosabatda bo'ladigan, o'zini-o'zi boshqaradigan dinamik (ya'ni o'zgaruvchan) funktsional sistema ekanligini hammavaqt nazarda tutish lozim.

Didaktik rejani olganda shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari shaxsning hayot faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab psixologik tuzilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funktsional bosqichlarga birlashtiriladi.

1. Boshqaruv tizimi.
2. Stimullashtirish tizimi.
3. Stabilizatsiyalash tizimi.
4. Indikatsiyalash tizimi.

Shaxsning yangi shu sotsial-psixologik ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi xulq-atvori va hatti harakatlarni belgilaydi.


Shaxsning intellekti deganda, fikr yuritish faoliyati rivojlanishining muayyan bosqichi tushuniladi. Bu bosqich unga yangi-yangi bilimlar egallah, bu bilimlardan o'z hayoti va faoliyati jarayonida samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shaxs intellektining rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy baho mezoni bilimlarning chuqur umumlashgan va harakatda bo'lganligi, his-tuyg'u tajribasining tasavvur va tushunchalar darajasida integratsiya va generalizatsiya qilinishidir. Shaxsni taraqqiyotga chorlab, harakatga keltiruvchi asosiy kuch bu uning hayot jarayonida orttirgan ehtiyojlaridir. Biroq, odamning umumiyligi madaniyati o'sishi bilan tevarak-

atrofdagi hayot to‘g‘risidagi bilimlar sistemasi ortib borishi hamda tevarak-atrofdagi hayotga munosabati o‘zgarishi bilan ehtiyojlari ham o‘zgaradi va takomillashib boradi.

«Pedagoglar uchun shaxs darajasining ikki xususiyati alohida ahamiyatga ega. Birinchidan, bu bosqichlarning 1-sxemada berilgan *sekin astalik bilan ijtimoiylashish* xususiyatidir. Ikkinchidan, *bu bosqichlarning tobora murakkablashib borayotgan shakllanish turlari bilan qonuniy bog‘liqligidadir*. Axir tarbiya umuman shaxs shakllanishining hamda uning oliy bosqichining yuksak xossasi sifatida ta’limsiz bo‘lishi mumkin emas. *Ta’lim esa faqat trenirovka uchun zarur va yetarli bo‘lgan takrorlashlarni talab qiluvchi mashqlar asosida amalga oshiriladi!*».

I-jadval

Shaxs tarkib topishi quyi bosqichlarining ijtimoiylashuvi




O‘quvchilar faoliyatidagi tashqi ko‘rinishga ko‘ra bir xil kamchiliklar shaxsnинг to‘rtta bosqichidan biriga joylashgan turli sabablarning oqibati bo‘lishi mumkin. Chunonchi, o‘quvchining «e’tiborsizligi» oqibatida kelib chiqqan baxtsizlik hodisasi aslida intizomsizlik, ehtiyyotsizlik kabi ma’naviy sifatlarining, mazkur

¹ Қаранг: 1. Ковалев А. Г. Психология личности. –М.: 1965 и 1971.
2. Платонов К.К. Адаский Б.И. Об изучении и формировании личности учащего. –М.: 1966. 3. Платонов К.К. Проблемы способностей. М.: 63-84 стр.

ishni bajarishda diqqatning taqsimlash va jalb etish ko'nikmalarining hamda bilimning yo'qligi, mazkur o'quvchiga xos bo'lgan bu jarayonning xususiyati sifatida diqqatning beqarorligi, nerv jarayonlarining inertligini belgilovchi diqqatni ko'chirish qiyinligining natijasi bo'lishi mumkin.

Shaxs bosqichining turli xil alohida asosiy to'rtta va yonmayon joylashgan xususiyatlari bilan bir qatorda, o'quvchi shaxsiga oid muhim belgilarining individual o'ziga xos uyg'unligi ham borki, ular shaxsnинг *xarakter* va *qobiliyat* kabi umumiy sifatlarini belgilaydi.

2-jadval



Xarakter va qobiliyatlar tarkib topadigan shaxs darajasi asosiy tuzilishlarining quyi bosqichlari

Quyi bosqichlar №	Qisqa-cha atalishi	Quyi bosqichlarda ham quyi bosqichlar	Ijtimoiy va biologik faktorlarning o'zaro munosabati	Asosiy eloqolar:				Tarkib topishning o'ziga xos turлari	Analizing zaruriy darajalari
				Aks ettrish bilan	Anglash bilan	Ehtiyojlar bilan	Aktivlik bilan		
1.	Yo'nalishi	E'tiqod Dunyoqarash Ideallar Mayllar Qiziqishlar Istenklar	Biologik deyarli yo'q	Tajriba aossida aks ettriruvchiga munosabat	Asosan kela-jakni anglash	Ijtimoiy ehtiyojni aks ettrish orqali	E'tiqod orqali	Tarbiya	Sotsial psixologik
2.	Tajriba	Odatlar Ko'nikmeler Malakalar Bilimlilar	Ijtimoiy faktorlar anchagina ko'proq	Aks ettrish shakllarining mazmuni	O't-mishni anglash zarurati	Odatlar orqali	Irodaviy malakalar orqali	Ta'lim	Psixologik-pedagogik
3.	Psixik jarayon-lar	Iroda Hissovot Idrok Tafakkur Sezgilar Tuyruvlari Xotira	Aksari ijtimoiy faktorlar ko'proq	Psiyik aks ettrish formalarini	Hozir-gini angish yeterli	Shaxsning ehtiyoji orqali	Iroda orqali	Mashq	Individual psikologik
4.	Biopsixologik xususiyatlari	Temperament Jinsiyl, yoshiga ko'rta, patologik xususiyatlari	Ijtimoiy faktorlar deyarli yo'q.	Psiyik aks ettrish mexanizmlari	Faqpt angash usulbi	Biologik ehtiyoj orqali	Nerv jarayonlarining kuchi va harakat-chanligi orqali	Trenirovka	Psixofiziologik Neyro psixologik

3.2. Shaxsning dunyoqarashi, ehtiyojlari va e'tiqodi

Shaxsning kamol topishi uchun zarur bo'lgan mustaqil shart-sharoit, istiqlol imkoniyatlari ma'naviy shakllanishdan, barcha kishilarning, o'sib kelayotgan yosh avlodning maktablarda, o'rta-maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalaridan yetarlicha bilim olishi va o'tmish ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyliklarini asrash uchun keng imkoniyatlardan yaratib berishdan iborat. Bunday shart-sharoitlarni Mustaqil Vatanimiz xalqimizga istiqlol imkoniyatlarini yaratib berish orqali vujudga keltirdi. Taraqqiyot talablari bilimning turli sohalarida ko'plab sog'lom e'tiqodli, dunyoqarashi bir qadar keng mutaxassis yoshlarni tarbiyalab yetishtirishni talab qilmoqda. Shu munosabat bilan Respublikamizning aholi tarkibida o'quvchi yoshlarning salmog'i oshib bormoqda. Joylarda qurilayotgan ko'pdan-ko'p umumiy o'rta ta'lim maktablari, kollej va

akademik litseylar fikrimizga isbot bo'la oladi. Yoshlar salmog'ining o'sib borishi, tabiiyki ularning Vatan taqdiri uchun mas'uliyatini oshiradi. Tarix tajribasi shuni ko'rsatdiki, har bir millatning mustaqil ijtimoiy taraqqiyoti ilgarilab borgan sari, shaxsga, uning intellekti, dunyoqarashi, sog'lom e'tiqodi, bilimi, professional va ma'naviy sifatlari, tashabbusi va uyushqoqligi oldiga qo'yiladigan talablar ham tobora o'sib boradi. Inson erkinligi va mustaqilligining kengayishi, demokratik tamoyillarining inson manfaatiga xizmat qilishi, shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirishni taqozo etadi. Shaxsning dunyoqarashi va ma'naviy e'tiqodiga yangidan-yangi vazifalar qo'yib boradi.

Ilmiy dunyoqarash va mustahkam g'oyaviy e'tiqod bo'lmasa, shaxsning ma'naviy kamol topishi to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas. Istiqlolimiz yaratgan dunyoqarash yoshlarning hayotga qarashlariga inqilobiyo yo'nalish beradi, aql-idrokning quadratli kuchiga, insoniyatning porloq kelajagiga ishonch bag'ishlaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining qator asarlari orqali bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini yorqin misollar asosida tahlil qilib berdi. Har bir mustaqil mamlakatda ham, jahon miqyosida ham mustabid tuzumdan mustaqil rivojlanish davriga o'tishning mazmuniga erkinlik va tenglikni, shaxsning dunyoqarashi va sog'lom e'tiqodini singdirish murakkab jarayon ichida kechadi. Mustaqil Vatanimiz esa o'zining tarixan qisqa davrida bir qator izchil taraqqiyot bosqichlariga ega bo'ldi.

Xullas, dunyoqarashning bo'lishi ham shaxsning muhim belgisidir. Psixologik ta'rifga ko'ra, dunyoqarash odamning tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi qarashlari, tasavvurlari va tushunchalari sistemasidir. Haqiqiy dunyoqarash fanning yutuqlariga va insoniyatning ko'p asrlik tajribasiga asoslanadi, u hech qanday diniy taassuf, xurofotlarga, reaktsion qarashlarga tobe bo'la olmaydi. Mustaqil Vatanimiz yoshlari istiqlol bergen imkoniyatdan oqilona foydalanib, dunyoqarashning o'ziga xos qonuniyatlarini bilib olish va o'z faoliyatlarida amalga oshirish bilangina cheklanib qolmay, bu dunyoqarashni o'z dunyoqarashlari deb, birdan-bir chinakam dunyoqarash deb bilmoxdalar. Chunki bu dunyoqarash yoshlarimizning barcha


ehtiyojlarini va yuksak talablarini to'la qondirishga xizmat qiladi. Dunyoqarash keng ma'noda olganda dunyo, tabiat, jamiyat va ong haqidagi qarashlarning umumlashgan tizimidir.

Materialistik va idealistik, progressiv va reaktsion, ilg'or va qoloq dunyoqarash bo'lishi mumkin.

Shaxsnинг e'tiqodi va ideallari uning dunyoqarashiga uzviy ravishda bog'liq bo'ladi, ular dunyoqarash bilan belgilanibgina qolmasdan ma'lum darajada dunyoqarashga qo'shilib ketadi. «E'tiqod va ideallar muayyan dunyoqarash asosida hosil bo'lish bilan birga bu dunyoqarashni shakllantiradi ham». ¹

4-jadval

Shaxsnинг asosiy ehtiyojları



Ushbu bobda ko'rib chiqilgan ehtiyojlar va faoliyat motivlari, qiziqish va mayllar, dunyoqarash, e'tiqod va ideallar

¹ Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1972, 75-bet.

shaxsning psixologik tavsifini butunlay qamrab ola olmaydi. Shaxsning asosiy psixologik xususiyatiga temperament, qobiliyat va xarakter ham kiradiki, bular mazkur qo'llanmaning maxsus boblarida o'z ifodasini topadi.

5-jadval

**Hozirgi zamон shaxsining umumiy xususiyatlari tuzilishi
(E. G'oziyev metodi asosida)**

Shaxs	Ong	O'zini-o'zi anglash
Borliqqa munosabat		Shaxs imkoniyatlari
Shaxs yo'nalganligi		Qobiliyatlar
Axloqiy Dunyoqarashga yo'nalganlik Emotsional yo'nalganlik		Bilim ko'nikma malaka
Ehtiyojlar		Intuitsiya Evristika jarayonlar
Motivlar		Psixik jarayonlar
Faoliyat va Xulq uslubi		Idrok Xotira tafakkur, xayol
Temperament		Psixik holatlar
Xarakter		

Barkamol insonni baholash (E. G'oziyev metodi asosida)

6-jadval

1. Shaxs haqida umumi tushuncha

F.I.Sh _____
jinsi _____ yoshi _____
ish va o'qish joyi _____
1. Shaxsning yo'nalganligi

T/r	Fazilatlar nomi	Kuch-siz	O'rta-chacha	Kuchli	O'rta kuchli
1	2	3	4	5	6
1.	Iymon e'tiqodlilik	1	2	3	4
2.	Sobitqadamllilik	1	2	3	4
3.	Hamjamiyatlilik	1	2	3	4
4.	Beg'arazlik	1	2	3	4
5.	Haqgo'ylik	1	2	3	4
6.	Kamtarlik	1	2	3	4
7.	Adolatlilik	1	2	3	4
8.	Insonparvarlik	1	2	3	4
9.	Fidoiylik	1	2	3	4
10.	Vatanparvarlik	1	2	3	4

7-jadval

II. Shaxsning umumiy xususiyatlari

1	2	3	4	5	6
1.	Muloqotmandlik	1	2	3	4
2.	Tashabbuskorlik	1	2	3	4
3.	Harakatchanlik	1	2	3	4
4.	Zukkolik	1	2	3	4
5.	Sinchkovlik	1	2	3	4
6.	Mehnatsevarlik	1	2	3	4
7.	Qat'iyatlik	1	2	3	4
8.	Qulaylilikka intiluvchanlik	1	2	3	4
9.	Mustaqillik	1	2	3	4
10.	O'zini boshqaruvchanlik	1	2	3	4

III. Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari

1	2	3	4	5	6
1.	O'zgalarning psixologik xususiyatlari va holatlarini tez ilg'ashga qobillik	1	2	3	4
2.	O'zgalar ichki kechinmalarini va hislarini o'zini-kiday qabul qilishga moyillik	1	2	3	4
3.	O'zga kishilar xatti-harakatlari va xulq-atvorni tahlil etishga qobiliyatlilik	1	2	3	4
4.	O'zini xayolan o'zganining o'miga qo'yा bilish uquvchanligi	1	2	3	4
5.	O'zgalarning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga oqilona munosabat bildirishga layoqatlilik	1	2	3	4
6.	Shaxslararo munosabatlarni payqay oluvchanlik	1	2	3	4
7.	Ilg'or tajribalarni oson uqib olishga zehnlilik	1	2	3	4
8.	Vaziyat qatnashchilari bilan umumiy til to-pishga zukkolik	1	2	3	4
9.	Shaxslararo muomalada shaxsiy pozitsiyaga egalik	1	2	3	4
10.	Xulq, faoliyat va muomalada odoblilik	1	2	3	4

IV. Ijtimoiy ta'sir etuvchanlik

1	2	3	4	5	6
1.	Boshqa e'tiqodli kishilarga, o'ziga xos omillarga va mantiqiy dalil-lashga ta'sir o'tkazishga topqirlik	1	2	3	4
2.	O'zining hissiyot va emotsiyasi bilan o'zgalarga ta'sir etishga uquvchanlik	1	2	3	4
3.	Ishda va o'qishda muvaf-faqiyatga erishuvda o'ziga ishonch uyg'otuvchanlik	1	2	3	4
4.	O'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchanlik	1	2	3	4
5.	Voqelikning muhim va nomuhim, ijobiy hamda salbiy tomonlariga xolisona baho beruvchanlik	1	2	3	4
6.	Tanqidiy fikrlarni mantiqan baholashga bo'lgan qobililik	1	2	3	4
7.	Tanqidiy fikrlarga nisbatan beg'arazlik	1	2	3	4
8.	Vaziyat va sharoitni to'g'ri chamalashda mantiqiy mukammallik	1	2	3	4
9.	Fikr almashishda nutqiy qobiliyatlilik	1	2	3	4
10.	Milliy g'oya va milliy mafkuraga sadoqatlilik	1	2	3	4

V. Tashkilotchilikka qobiliyatlilik

1	2	3	4	5	6
1.	Tashkilotchilikka nisba-tan ehtiyojni sezishlik	1	2	3	4
2.	Tashkilotchilik faoliya-tini suiiste'mol qilmaslik	1	2	3	4
3.	Faoliyat mohiyatiga mus-taqil kira bilishlik	1	2	3	4
4.	O'z zimmasiga javobgar-lik va mas'uliyat tuyg'u-sini olishlik	1	2	3	4
5.	Tashkilotchilik faoliya-tini zavq-shavq bilan ado etishlik	1	2	3	4
6.	Tashkilotchilik jarayoni-da o'zidan qoniqish hissi-ni in'ikos qilishlik	1	2	3	4
7.	Tashkilotchilikni udda-lashga bo'lgan layoqatlilik	1	2	3	4
8.	Vaziyat va sharoitga nisba-tan tashkilotchilikda mu-vaffaqiyatlilik yoki barqarorlik	1	2	3	4
9.	Tashkilotchilikda tezkor-lik va samaradorlik si-fatlarida uyg'unlik	1	2	3	4
10.	Tashkilotchilikda ijo-diylik va aql zakovat-lilik	1	2	3	4

VI. Tashkilotchilikka qobiliyatlilik

1	2	3	4	5	6
1.	Tashkilotchilikka nisba-tan qobiliyatlilik: a) ko'pgina faoliyat turlariga b) faqat yagona faoliyat turiga		1	2	3
2.	Faoliyat ishtirokchilarini-ning yosh davrlari bo'yicha tashkilotchilik qobiliya-tida tafovutchanlik: a) o'zidan katta yoshdagilarga b) o'zining tengqurlariga	1		2	4
3.	Shaxslararo munosabatga mutanosiblik: a) distantsiya (bevosita shakliga) b) kontakt (bevosita) v) har ikkalasi ham		1	2	3
4.	Faoliyatni boshqarish uslubi bo'yicha: a) harakatli davomiy b) faol jonli v) sustkash, xotirjam	1	2	3	4
5.	Boshqaruv psixologiya-siga ko'ra: a) demokrativ b) liberal v) avtokrat	1	2	3	4

3.3. Milliy psixologiyani rivojlantirish muhim ijtimoiy muammo sifatida

Milliy psixologiyani rivojlantirish masalasi hozirgi zamon psixologiyasining juda muhim va nihoyatda aktual muammolaridandir. Bu muammo o‘z mohiyati jihatdan madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy xarakterga ega. Shu sababli bu masalani rivojlantirishda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan juda ko‘p oqimlar, yo‘nalishlar maydonga kelganligini bilamiz. Inson shaxsining rivojlanishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim *biogenetik* kontseptsiya bo‘lsa, ikkinchi oqim *sotsiogenetik* kontseptsiyadir. Milliy psixologiyaning rivojlanishi haqida gapirishdan oldin «rivojlanish» tushunchasiga kengroq ta’rif bermog‘imiz lozim. Rivojlanish bu harakatlanish, o‘zgarish deganidir. Lekin har qanday harakatlanish, o‘zgarish ham rivojlanish bo‘lavermaydi.

«Rivojlanish» ilgarilab, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab boradigan o‘zgarishdir, o‘z navbatida bu inqirozga, regressga, degratsiyaga qarama-qarshi bo‘lgan jarayondir. Rivojlanish qonuni umumiy xarakterga egadir. Tabiat, jamiyat ishlab chiqarish usullari, o‘zgarishi bilan kishilarning ijtimoiy hayot formalari rivojlanadi. Shu jarayonda inson psixikasi ham rivojlanib boradi. Xullas, ushbu mavzuning maqsadi va vazifasini tushuntirishda psixologlarning quyidagi mulohazalari diqqatga sazovordir: «Mustaqil O‘zbekistonda qisqa fursatlarda amalga oshirilgan milliy psixologiyani rivojlantirish xaqidagi tub islohotlarni muhim ijtimoiy muammo sifatida sezgirlik bilan idrok qilishlari va ularga munosabatlар, shubhasiz fuqarolarning yangicha qarashlarida aniqrog‘i dunyoqarashlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu dunyoqarashning mazmunini tashkil etuvchi ilg‘or g‘oyalar yaxlit xalq manfaatlarini ifoda etgani sababli ham ular milliy psixologiyaning mohiyatini tashkil etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, milliy psixologiya yoki progressiv ilg‘or g‘oya ma’lum tarixiy vaziyatlarda, ijtimoiy muammolardan kelib chiqib paydo bo‘ladi. Lekin uning o‘zi ginetik jihatdan o‘zidan avval mavjud bo‘lgan o‘lmas

g'oyalarga, milliy qadriyatlarga tayanadi. Masalan, o'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, milliy psixologiyaning rivojlanishi xalq e'tiqodi va tafakkurining sayqallashuviga sabab bo'lgan o'lmas qadriyatlar xalq ma'naviyatiga taalluqli nodir meros bo'lganki, ular bugungi istiqlol davrida davlat va jamiyat qurilishi uchun ma'naviy-mafkuraviy omil rolini o'yamoqda»¹.

Prezident Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq O'zbekistonning o'ziga xos milliy psixologiyasini rivojlantirish va uning taraqqiyot yo'li haqida shunday degan edi: «Shuni alohida ta'kidlash zarurki, soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojeali oqibatlarsiz va kuchli ijtimoiy larzalarsiz, evolyutsion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingen yo'limizning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Odamlarning ongi va turmushiga o'nlab yillar mobaynida, ko'pincha zo'ravonlik yo'li bilan singdirilgan psixologik asoratlarni bir zumda o'zgartirish mumkin emas. Buning uchun ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarning keskinlashuviga va ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga barham berish bilan jamiyatni yangilash va o'zgartirish zarurligiga odamlarni o'zini ishontirish, harakatga keltiruvchi kuchlarni va milliy psixologiyaning rag'batlantiruvchi omillarini rivojlantirish mumkin»².

130 yildan ziyod davom etgan mustamlakachilik sharoitida milliy psixologiyani deyarli yo'qotgan, turli shakllarda muttasil davom etib kelayotgan tazyiqu ta'qiblardan, har qanday ijtimoiylarza va kompaniyabozliklardan zada bo'lgan xalqimizning orzu intilishlari aynan ana shunday yo'lni taqozo etar edi. V.Karimova bu haqda shunday ta'kidlaydi: «Sof milliy psixologik rivojlanish ma'nosida yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm bu ijtimoiy ustakovkalardir. Bir shaxsnинг atrof-muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarini,

¹ Psixologiya kursi. M.V Gamezo tahriri ostida. -T.: «O'qituvchi», 1972, 46-bet.

² Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod va mafkura. -T «O'zbekiston», 1996-y, 40-41 betlar.

obyektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdag'i dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir»¹.

Ehtiyojlar va faoliyat motivlari

Shaxsning muhim belgisi faqat odamga xos ehtiyojlarning borligidir. Ehtiyojlar odamning kun ko'rishi va yashashi uchun zarur xususiyatlardir. Demak, biron narsaga bo'lgan muhtojlik ehtiyoj deyiladi. Eng buyuk, eng ongli mavjudot odamzodning katta kashfiyotlaridan biri ham odamlarga xos bo'lgan ehtiyojning shakllanganligi bo'lib, ular bu mukammal dunyoda o'zining ruhi, tafakkuri va mehnati bilan yaratilganligini anglab yetganligidir. Shuning uchun inson ehtiyojini ikki tomondan, birinchidan, o'z ichki ruhiy olamidan, ikkinchidan, tafakkuri va amaliy motivlaridan, ya'ni tashqi olamdan izlab keladi.

Asrlar o'tishi bilan ruhiy olam ehtiyojlari ko'proq insoniyatning dunyoviy muammolariga aylanib boradi. Psixologiya yetuk inson ehtiyojlarini ruhdan, ma'naviyatdan, odamning cheksizlikka intilishidan qidiradi. Psixologiyada ehtiyojlarni o'rganish ta'limotiga ko'ra, to'g'ri dunyoqarash, ma'naviy fikrplash, to'g'ri so'zlash, to'g'ri yashash, to'g'ri rohatlanish ehtiyojning yetuklik omillaridir. Hayvonlar psixikasining paydo bo'lishi va o'sib taraqqiy qilishini yuksak darajada rivojlangan psixikaning, ya'ni faqat insonga xos bo'lgan ongning ilk tarixi arafasi desa bo'ladi.

Demak, yuqorida aytganimizdek, inson ong egasi bo'lganligi tufayli hodisalarining o'zaro sabablari, qonuniyatlar bog'lanishlarini va bu bog'lanishlarning natijalarini ocha biladi, o'z oldiga muayyan maqsadlar qo'yadi va shu maqsadlarga yarasha ish ko'radi. Yuqorida biz odam ongi, psixikasi yuksak darajada tashkil topgan materianing, ya'ni miyaning mahsuli ekanligi haqida gapirdik. Shuning uchun inson ongi ijtimoiy

¹ Karimova V.K. Psixologiya. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 2002, 69-bet.

hayot sharoitiga bog‘liq holda taraqqiy etib boraveradi. Demak, ong dastavvaldanoq jamiyat mahsulidir va inson umuman dunyoda yashar ekan, ong shunday bo‘lib qolaveradi.

Ehtiyojlar muhtojlikni qondirishga aloqador bo‘lgan taassurotlarga nisbatan yuqori darajadagi qo‘zg‘aluvchanlikda namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytganimizdek, ehtiyojlar hayvonlarda ham bor. Ammo hayvonlarda faqat biologik tug‘ma ehtiyojlar bo‘ladi. Bu ovqatlanish, nasl qoldirish kabilardan iborat, xolos. Odamda esa biologik ehtiyojlardan tashqari, yana yuksak ehtiyojlar – bilish ehtiyojlari, sotsial ehtiyojlar, ma’naviy, estetik va shu kabi ehtiyojlari mavjud. Ular kelib chiqish jihatidan hayoti davomida hosil qilingan bo‘lishi ham, tabiiy tug‘ma bo‘lishi ham mumkin.

Moddiy ehtiyojlarga avvalo oziq-ovqatga, kiyim-kechakka, uy-joyga bo‘lgan ehtiyojlar, shuningdek ishlatalidigan ma’lum mehnat qurollariga, aloqa vositalari (asbob-uskunalar, mashinalar, kompyuter, kitoblar) kabilardan foydalanishda hosil qilingan ehtiyojlar kiradi. Ma’naviy ehtiyojlarga boshqa kishilar bilan muomala qilish, mehnat qilishga bo‘lgan ehtiyojlar, madaniy ehtiyojlar kiradi. Har qanday ehtiyojning xarakterli xususiyati uning hamisha aniq mo‘ljalga yo‘naltirilganligidir, aniq yo‘nalish ehtiyojni qondirish usullari va vositalariga bog‘liq holda o‘zgarishi ham mumkin. Inson ehtiyojlari anglab olish darajasiga, ya’ni ularning inson miyasida aks ettirish darajasiga ko‘ra, harakatga undovchi kuch yoki faoliyat motivlari sifatida yuzaga chiqadi. Shu jihatdan ehtiyojning rivojlanishi inson shaxsining rivojlanishini ta’mindaydigan shart-sharoit bo‘lib hisoblanadi. Agar o‘qituvchi o‘z fanini o‘rgatish jarayonida o‘quvchisida ehtiyoj tarbiyalay olgan bo‘lsa, shuning o‘zi uning ko‘p jihatdan muvaffaqiyati uchun asos bo‘la oladi, hech bo‘lmasa o‘quvchiga rag‘batlantiruvchi muhim munosabatni qo‘llash yoki qandaydir chora-tadbirlar ko‘rishga zarurat qolmaydi.

Ehtiyojlarning o‘sib bormasligi shaxs rivojinining to‘xtab qolishi, ba’zan uning tanazzulga yuz tutishi demakdir. Inson o‘zining barcha xatti-harakatlari va yurish-turishlarini bevosita paydo bo‘lgan, hech qanday qiyinchiliksiz qondirilishi mumkin

bo'lgan ehtiyojlarga bo'ysundirishini normal hol deb bo'lmaydi. Chunki odam har bir daqiqada turlicha ehtiyoj sezishi, dam olishni, qiziqroq kitob o'qishni, kasal yotgan do'stini ko'rishni va navbatdagi mashg'ulotga borishni istashi mumkin. Bu ehtiyojlar ba'zi qarama-qarshiliklarga duch kelishi mumkin. O'z xatti-harakatlarini yanada muhimroq ehtiyojlarni qondirishga bo'ysundirish uchun muayyan darajada iroda kuchi va oqilona mulohaza kerak bo'ladi. Shunday qilib, ehtiyojlarni rivojlantirish muammosi o'sib kelayotgan yoshlarni tarbiyalashdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Odamdag'i xilma-xil ehtiyojlarning o'sishi va qondirilishi uchun zarur bo'lgan hamma imkoniyatlarni mehnat va faqat mehnat yaratib bera oladi. Jamiatning asosiy iqtisodiy qonuni butun insoniyatning doimo o'sib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishdir.

3.4. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi psixologik omillar

Biz yangilanayotgan, ijtimoiy hayot qonunlariga asoslangan milliy psixologiyamizni yaratish uchun nimalarga asoslanishimiz kerak?

Eng avvalo tarixiy xotirani, milliy iftixor va milliy g'ururni, milliy ruhiyatimizni rivojlantirishimiz zarur. Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz xalqimizning milliy iftixoridir. Shu kabi buyuk zotlarning asrlar davomida aqlu zakovati ila bunyod etilgan boy ma'naviy ruhiyati tufayli xalqimiz e'tiqodli, mag'rur yashadi. Ana shu milliy dunyoqarash, milliy e'tiqod, milliy ong, ana shu milliy g'urur bugungi istiqlolimizning oltin poydevoridir. Nihoyat, haqiqiy milliy psixologiyani yaratishda bugungi psixolog va pedagoglarimizning dunyoqarashi, ongi, shuuri, tafakkuri, qolaversa, milliy madaniyati va e'tiqodi qanday bo'lishi kerak, degan savolga aniqlik kiritishga to'g'ri keladi.

Inson tafakkuri tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Odamzod dunyoqarashi dastlab elementar mehnat faoliyati bilan

chambarchas bog‘langan edi. Bu konkret amaliy tafakkur edi. Keyinchalik dunyoqarash shakllangan sari tafakkur konkret tafakkurdan abstrakt tafakkur sari va amaliy tafakkurdan nazariy tafakkur sari taraqqiy qilib bordi.

Tarixiy dunyoqarashning muayyan bosqichida ilmiy tafakkur tarkib topdi, voqelik ana shu ilmiy tafakkur yordami bilan to‘larоq, chuqurroq, aniqroq bilib olindi. Odamning dunyoqarashi voqeа-hodisalar o‘rtasidagi muhim aloqa va munosabatlarni, tabiat va ijtimoiy hayot qonunlarini o‘zining dunyoqarashi yordami bilan oladi. Insonning dunyoqarashi endi fan, san’at, murakkab texnologiya ham yaratadi. Odamlar ilmga asoslangan dunyoqarash yaratishga intiladilar va shunga harakat qiladilar. Taraqqiy qilayotgan dunyoqarash fan-texnika va san’at esa o‘z navbatida kishilar ongining o‘sishiga, ularning ma’naviy dunyoqarashiga ta’sir etadi. Odamlar tafakkuri taraqqiyotining oliy bosqichi dialektik va ilmiy dunyoqarashdir.

Odam o‘zining dunyoqarashi orqali tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiatni o‘ziga asta-sekin bo‘ysundiradi, uni o‘ziga xizmat qilishga majbur etadi, lekin dunyo odamni qanoatlantirmaydi va odam o‘z dunyoqarashi bilan hatto jamiyatni o‘zgartirishga harakat qiladi. Unga tarixiy taraqqiyot jarayonida uzoq kurashlar yo‘li bilan inson ijtimoiy muhitning stixiyali ta’siridan qutiladi, ijtimoiy dunyoqarash qonunlarini sekin-asta bilib olib, jamiyatga uyushgan holda ta’sir ko‘rsata boshlaydi, inson jamiyatning taraqqiyotini muayyan yo‘lga sola boshlaydi. Mustaqil Vatanimizda kishilarning dunyoqarashi erkin mehnati zo‘r ijodiyot ekanligini ta’kidlash kerak. Endi Mustaqil Vatanimiz kishilari mustabid tuzum kishilari emas. Istiqlolimizning g‘alabasi kishilarning yangi ma’naviy qiyofasi va g‘oyaviy dunyoqarashida yaqqol ko‘rinib turadi.

Endi istiqlol egalarining ma’naviy qiyofasi avvalo o‘z mehnatlariga mustaqil jamiyatimiz uchun muhim ish deb va Vatan oldidagi muqaddas burch deb ongli munosabatda bo‘lishlarida ko‘rinib turadi. Vatanimiz kishilarning dunyoqarashi, milliy va ma’naviy qiyofasi O‘zbekiston xalqlari psixologik tuzulmasining hamma eng yaxshi xususiyatlardan, ya’ni ana shu xalqlarning tarixiy taraqqiyot jarayonida mustabid

tuzum va terrorchilikka qarshi kurashda qaror topgan milliy xususiyatlardan oziqlanadi, keljakda ham shu xususiyat va xislatlarni o'ziga singdiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy hayot sharoiti o'zgargan mustaqil mamlakatimizda yoshlар ommasining tafakkurida ham katta o'zgarishlar ro'y berayotganini, ilgari qizil imperiya tuzumi, zulmi ostida bo'lgan kishilarning ongi va dunyoqarashida qanday o'zgarishlar bo'layotganligini bugungi kunda ochiq-oydin ko'rib turibmiz. Bugun milliy istiqlol g'oyalarini shaxs ongiga singdirish psixologik muammo sisatida odam dunyoqarashini va onging kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy e'tiqodini shakllantirish bilan shug'ullanadi. Bu fan odam ongi va shaxsining rivojlanish masalalarini hamda uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganadi va o'rgatib boradi. Shaxsning ruhiy potentsial imkoniyatlari bиринчи мarta bizning mustaqil mamlakatimizda istiqlol sharoitining imkoniyatlari yana bir marta shuni isbot etdiki, inson qobiliyatları va iste'dodlarining kamol topishi, dunyoqarashi va e'tiqodining o'zgarishi ijtimoiy hayot formalariga bog'liqdir. Istiqlolga erishgan xalqimizning ongi birdaniga shu tariqa o'zgarmaydi, albatta. Mustaqil jamiyatimiz o'z bag'rida yashayotgan har bir kishidagi barcha dunyoviy tushunchalar, ma'naviy e'tiqodlарining yuzaga chiqishi uchun cheksiz imkoniyatlar ochib berdi.

«Xo'sh, ma'naviy e'tiqodsizlik eng avvalo nimalarda namoyon bo'ladi. E'tiqodsizlik har qanday muqaddas axloqiy qoidalar, huquqiy normalarni yemiradi. So'z bilan ish birligining uzilishiga olib keladi. E'tiqodsizlikning asosida bilimsizlik yotadi. Bilimi sayoz kishida e'tiqod, iymon, diyonat yuzaki bo'ladi¹. Sobiq tuzum davrining so'nggi 20-30 yillar ichida «jadallashtirish» degan dastur e'lon qilinib, jamiyat hayotida kechishi lozim bo'lgan yoinki kechayotgan jarayonlar sun'iy ravishda tezlashtirilgani, bu nomaqbul siyosat oxir-oqibatda tuzumning zo'riqishi va tanazzuliga sabab bo'lganligini

¹ Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. -Toshkent: «O'qituvchi», 1967, 83-bet.

boshimizdan kechirdik. Bu o‘z navbatida bilimi past kishilar sonining ortib borishi, yoshlarning jismonan zaiflashib borayotganligi bilan psixologik bog‘liqdir.

Ma’naviy qashshoqlikning eng muhim ko‘rinishlaridan biri va eng dahshatlisi mustaqil fikrlash madaniyatining yo‘qligidir. Mustaqil fikri yo‘q kishi qo‘rroq bo‘ladi. Chunki qo‘rroqlik bilan e’tiqodsizlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq tushunchalardir. E’tiqodsizlik inson ongingin zaifligidan dalolat bersa, qo‘rroqlik insonning amaliy faoliyatida sodir bo‘ladi. Bola tarbiyasida, yoshlarni ilm yoki bir hunar olishga yo‘naltirishda ularning psixologik imkoniyatlari (layoqati, xohish-istagi va moyilliklari)ni inobatga olmasdan yo‘nalish berilsa, ma’naviy e’tiqodi ham zaif bo‘lib shakllanadi. Ular yengil-elpi yashashga, mehnat qilmasdan pul topishga intiladilar. Ongi va kundalik faoliyatida hukmronlik qilayotgan bunday kayfiyat ta’sirida qolgan yoshlar, hatto nopol yo‘llardan ham qaytmaydilar, o‘z e’tiqodiga qarshi ish qiladilar. Ijtimoiyadolat printsiplarini tushunmaydilar. Hatto davlat, jamiyat mexanizmini zaiflashtiradilar. Xullas, odamlardagi iymon-e’tiqodga zarba beradi.

A.Choriyev o‘zining “Muloqot” jurnalida chop etilgan “Insonning ma’naviy qiyofasi” nomli maqolasida quyidagilarni yozadi: «Xo‘s, e’tiqodni qanday tarbiyalash mumkin? Kuchli irodaning muhim sifatlaridan biri e’tiqodlilikdir. E’tiqodlilik odamning vaziyatni tezda baholab, o‘z vaqtida asosli, o‘ylangan va mustahkam qaror qabul qilishi, hech qanday ikkilansandan, uni bajarishga kirishishdan iboratdir. Kishi o‘z hayoti jarayonida turli xil masalalarni hal qiladi. Ularning ba’zi birlari o‘zining murakkabligiga ko‘ra odamdan shoshilmay, qat’iy e’tiqod bilan jiddiy va batassil atroflicha o‘ylab ish ko‘rishni talab qilsa, boshqalari juda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilib, ongli e’tiqod bilan ishga kirishishni talab qiladi. E’tiqodli kishi hech qachon sarosimaga tushmaydi, mavjud imkoniyatlardan birontasini tanlashda ikkilanib o‘tirmaydi. Sarosimaga tushish holati ko‘pincha qat’iyatsiz va e’tiqodsiz kishilarda uchraydi. E’tiqodsiz kishi doimo hardamxayol bo‘ladi, vaqt har qancha yetarli bo‘lishiga qaramay, biron qat’iy

qarorga kela olmaydi yoki qarorga kelsa ham uni tez-tez o'zgartiradi, o'z qarorini to'g'rilinga o'zi shubha bilan qaraydi. Bunday kishilar hatto biror qarorga kelgan taqdirida ham uni bajarishga kirishish uchun ko'pincha o'zlarini majbur qila olmaydilar¹. Biz kelajakda maktablar, o'rta-maxsus kasb-hunar ta'lim muassasalari, hatto oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan talaba va o'quvchi yoshlarni shaxs sifatida shakllantirish, eng avvalo ularning dunyoqarashi va e'tiqodini tarbiyalash uchun yuqorida keltirilgan talablar asosida tarbiyalashga katta e'tibor berishimiz kerak.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Psixologiyada shaxs muammosiga ta'rif bering.
2. Shaxs ehtiyojlari va faoliyat motivlari haqida tushuntiring.
3. Shaxsning dunyoqarashi, e'tiqodi va ideallari nimalardan iborat?
4. Milliy psixologiya nima?

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
2. I.A. Karimov. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: «O'zbekiston», 1996.
3. I.A. Karimov, Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi, 5-jild. –T.: «O'zbekiston» 1997.
4. I.A. Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.: «O'zbekiston», 1998.
5. O'.Abilov. Milliy g'oya: Ma'naviy omillar. –T.: «Ma'naviyat», 1999.
6. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. –T.: 1993.
7. V.M. Karimova. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. –T.: «Universitet». 199.
8. V.M. Karimova. Targ'ibotning psixologik uslublari. –T.: «Ma'naviyat», 2001.
9. N. Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. –T.: «Yangi asr avlodii», 2007.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: «O'zbekiston», 2000.
11. A.Jabborov. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. –Toshkent: 2006.

¹ A. Choriyev. «Muloqot» журнали. Insonning ma'naviy qiyofasi. 1994-yil, 4-son.

TO 'RTINCHI BOB

PSIXIK JARAYONLAR YOKI SHAXSNING BILISH FAOLIYATLARI

DIQQAT

4.1. Diqqat haqida umumiy tushuncha

Diqqat shaxsning faolligini hamda uning obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarga tanlovchi munosabatini belgilaydi. Diqqatda odam psixikasining moslashtiruvchi vazifasi namoyon bo‘ladi: agar diqqat bo‘lmasa odamda aniq maqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ham bo‘lmaydi.

Diqqat muayyan sharoitlarda va vaziyatlarda mo‘ljal olish imkonini beradi. Bunday sharoitlarni hisobga olish odam amalga oshirayotgan faoliyatning ongli ravishda kechishini va uning sermahsul bo‘lishini ta’min etadi. Har qanday masalaning va har qanday hayotiy vazifaning hal qilinishi odamdan o‘z diqqatini ana shu masalaning mazmuniga hamda uni bajarish uchun qilinadigan harakat usullariga qaratishni talab qiladi.

Demak, diqqat qolgan barcha psixik jarayonlardan sezilarli darajada farq qiladi. Uning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u aks ettirish formasi singari psixik faoliyatning mustaqil turi emas, balki boshqa psixik jarayonlarning uyushgan faolligidir.

Diqqat – psixik faoliyatning shunday tashkil qilinishidirki, unda ma’lum idrok, tasavvur, fikr yoki hissiyotlar ikkinchi o‘ringa o‘tuvchi yoki butunlay anglanilmaydiganlaridan ko‘ra aniqroq anglanadi. Shuningdek, shaxsning harakat, fikr, tasavvur va kechinmalari ham diqqatning obyekti bo‘la oladi.

Diqqatning ta’rifidan ko‘rinib turibdiki, u, birinchidan ong band bo‘lgan narsaga yo‘nalganligi bilan, ikkinchidan to‘planganligi, ya’ni anglanganlikning anqligi bilan xarakterlanadi. Diqqat faolligiga ko‘ra ixtiyorsiz (sust) – uning paydo bo‘lishida odamning maqsadi qatnashmaydi va ixtiyoriy (faol) – odamning maqsadiga ko‘ra, o‘zi iroda kuchini ishlatishi tufayli paydo bo‘ladigan ikki turga ajratiladi. «Ixtiyorsiz diqqat

diqqatning quyi formasi bo'lib, odatda qo'zg'atuvchilarning analizatorlardan birortasiga ta'sir etishi natijasida sodir bo'ladi. U mo'ljal olish refleksi qonuniyatiga ko'ra paydo bo'ladi va odamlar hamda hayvonlar uchun umumiyyidir.

Ixtiyorsiz diqqat ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchi hamda bu qo'zg'otuvchilarning odamni ilgarigi tajribasi yoki psixik holatiga muvosiq kelishi tufayli paydo bo'lishi mumkin. Ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanuvchi hamda faqat odamga xos bo'lgan ixtiyoriy diqqat ancha murakkabdir. Uning xarakterli xususiyati shundaki, u obyektga niyat va qo'yilgan maqsad ta'sirida yo'llanadi. Ixtiyoriy diqqatning psixologik xususiyati uni ko'p va kam irodaviy zo'r berish, jiddiylik (tanglik) bilan birga bo'lishidadir, bunda ixtiyoriy diqqatning uzoq saqlanishi toliqishiga, ko'pincha jismoniy zo'r berishdagidan ko'ra ko'proq toliqishga sabab bo'ladi. Shuning uchun o'qitish davrida ixtiyoriy diqqatning kuchli to'planganligi ortiqcha davomli bo'lmasligi lozim.

«Diqqatning kuchli» konsentratsiyasini diqqatni ancha osonroq yoki ancha qiziqarliroq harakat turlariga o'tkazish yo'li Bilan, kamroq zo'riqishni talab qiladigan yoki zo'r diqqat berilishini talab qiluvchi ishga o'quvchilarda o'ta qiziqish uyg'otish bilan almashtirib turish foydalidir». Demak, diqqatimiz biror narsaga qaratilib, shu narsa ustida saqlanib turar ekan, shu bilan go'yo ongimiz doirasi torayganday bo'lib qoladi. Bu paytda boshqa narsalar uning ichiga kira olmaydi. Agarda odamda diqqat qobiliyati shunday bo'lmasa edi, uning barcha ruhiy kuchlari, ongi sochilgan va tartibsiz bir holda bo'lar edi. Odam hech qanday ish bilan shug'ullana olmas edi. Uning ongi bir nuqta ustida jamlanib turolmasdi. Diqqat odamdag'i idrok etish, esda qoldirish, fikr yuritish kabi psixik jarayonlarning sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Xullas, diqqat ta'lim-tarbiya sohasida, ayniqsa katta ahamiyatga ega. O'qish materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirish avvalo diqqat kuchi bilan belgilanadi.

¹ K.K.Platonov, G.G.Golubev. Psixologiya. –Toshkent: "O'qituvchi", 1982-y. 77-bet.

Ba'zi o'quvchilarning darsdan orqada qolib borishlari ularning aql-idrok yoki xotiraning zaifligidan emas, balki diqqatning bo'shligidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham o'qitishni sifatli qilish uchun o'qituvchi avvalo o'quvchilarning diqqatini turg'un uyuştirish to'g'risida o'ylamog'i zarur.

Mashhur rus pedagoglaridan K.D. Ushinskiy diqqatning inson hayotidagi ahamiyati haqida gapirib, bunday degan edi: «Diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona bir eshidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi»¹. Haqiqatdan ham, shu diqqat eshidirken tashqarida qolgan narsa ongimizga borib yetmaydi. Odam biron narsaga zo'r diqqat bilan kirishgan paytda uning tashqi qiyofasida, masalan ko'z qarashida, qosh harakatlarida ayrim o'zgarishlar yuzaga keladi. Diqqatning ana shu tashqi alomatlariga qarab odam ayni chog'da diqqatini biror narsaga qaratayotganini yoki qaratmayotganini aniqlash qiyin emas. Masalan, diqqatimiz biron narsaga jiddiy qaratilgan paytda barcha ortiqcha harakatlar to'xtab, organizm qimirlamay qoladi va hatto nafas olishda ham o'zgarish ro'y beradi, bunday holatda nafas olish ba'zan susayib, ba'zan chuqurlashib turadi.

4.2. Diqqatning fiziologik asoslari va tashqi alomatlari

Odamga har daqiqada ta'sir etib turuvchi qo'zg'atuvchilar turli reflekslarni yuzaga keltiradi. Chunki har qanday refleks organizmning tashqi ta'siriga beradigan qonuniy javob reaktsiyasidir.

Demak, diqqat miya po'stidagi qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlariga bog'liq. Shu jarayonlarning bir-biriga munosabati induksiya qonuni deb ataladi. Buni akademik I.P. Pavlovning quyidagi so'zlaridan ochiq oydin ko'rishimiz mumkin: «Miya yarim sharlarining optimal qo'zg'alishga ega bo'lган qismida, – deydi I.P. Pavlov, – yangi shartli reflekslar yengillik bilan

¹ K.D.Ushinskiy. Pedagogika kursi programmasining proyekti. T.: Uchpedgiz, 1998, 109-bet.

hosil bo'ladi va differentsirovkalar (tarkibiy elementlarga ajratsak) muvaffaqiyatli ravishda paydo bo'ladi. Shunday qilib, optimal (eng qulay ravishda) qo'zg'alishga ega bo'lgan joyni, ayni chog'da bosh miya yarim sharlarining sust qo'zg'algan boshqa qismlari bunday xususiyatga ega emas. Ularning ayni chog'dagi funktsiyasi, juda nari borsa tegishli qo'zg'ovchilar asosida ilgari hosil qilingan reflekslarni bir tartibda qayta tiklashdan iboratdir. Natijada nerv markazlarining bir qismi kuchli ishlaydi va shu qo'zg'alishni vujudga keltirgan narsa ongimiz markazida turib ravshan bilinadi, boshqa taassurot yo butunlay sezilmaydi, yo uning bizga ta'siri sezilar-sezilmas bo'lib qoladi. Demak, nerv markazlarining bir joyida paydo bo'lgan qo'zg'alish uning atrofidagi nerv markazlarining ishini yana kuchaytiradi va ongimizning bir yerga to'planib turishini ta'min etadi. Bunda ko'ringan psixik hodisa diqqat deyiladi».¹

Rus olimi Uxtomskiy diqqatning fiziologik asosini dominanta printsipi bilan izohlaydi. Dominanta printsipiga muvofiq, miyadagi nerv markazlaridan biri doimo qo'zg'algan holatda bo'lib, boshqa nerv markazlari ustidan hukmronlik qiladi, ularning kuchini o'ziga tortadi. Shu markazlarning qo'zg'alishi har xil ichki va tashqi sabablar bilan vujudga keladi. Chunki qorin ochgan paytda diqqat asosan ovqatga taalluqli bo'lgan narsalarga – ovqat hidiga, idish-tovoqlarning täqirtuqirlariga qaratiladi va bu diqqatni boshqa narsadan, masalan, kitob mutolaa qilishdan chetga tortadi. Ammo bu hukm surib turuvchi nerv markazi o'z kuchini yo'qotib, o'sha paytda ko'proq qo'zg'algan boshqa nerv markaziga tobe bo'lishi mumkin, bu esa psixologik nuqtai nazardan diqqatning ikkinchi bir narsaga o'tishini ko'rsatadi. Demak, nerv markazlarining biri qo'zg'alib, boshqalari buning natijasida to'silib turishi, biri hukmronlik qilib, boshqalari bunga tobe bo'lishi galma-gal o'zgarib turar ekan. Bu diqqatning bir nimaga qaratilganligini va bir nima ustida barqaror bo'lishini belgilaydi.

¹ И. П.Павлов. Полное собрание сочинений. III том, 1-книга, стр. 277-278.

4.3. Diqqatning turlari va uning asosiy xususiyatlari

Diqqatimizning yo'nalishi xususiyatlari mazmuniga qarab, uni tashqi va ichki diqqatga ajratib o'rganamiz. Ongimizdan tashqarida mavjud bo'lib, bir narsa ustida to'plangan diqqat *tashqi diqqat* deyiladi. Osmondag'i samolyotni kuzatish, devordagi rasmlarni kuzatish, paxta teradigan mashinani kuzatish kabi psixik faoliyat (diqqat) bunga misol bo'la oladi. Tuyg'u-his, orzu-havas, fikr va tasavvur kabi ichki kechinmalarga qaratilgan diqqat *ichki diqqat* deyiladi. Ichki kechinmalarni tahlil qilish, o'zinni tuta bilish, nafsni tiyish, intizomga bo'y sunish kabi holatlar ichki diqqatni jalb qiladi.

Diqqat vujudga kelishidagi psixik faoliik darajasiga qarab, u ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ishtiyoqli yoki ko'nikkan turlarga ajratiladi.

Ixtiyorsiz diqqat deb, to'satdan ta'sir etib, biron sabab tufayli, bizning xohishimizdan tashqarida hosil bo'ladigan diqqatga aytildi. Ixtiyorsiz diqqat muayyan bir maqsadga qaratilmaydi va uni biron yerga to'plab turish uchun zo'r berish talab etilmaydi. Masalan, to'satdan eshitilgan shovqin beixtiyor diqqatimizni o'ziga jalb qiladi. Biror joyda paydo bo'lgan og'riq ham diqqatimizni o'ziga tortadi, ammo atrofimizdagi hamma buyum va hodisalar diqqatimizni o'ziga jalb qilavermaydi.

Odatda ixtiyorsiz diqqat tashqi va ichki holatlarga bog'liq ravishda turli sabablar bilan vujudga keladi. Kishiga turlichcha ta'sir etadigan, o'zining rangi, ovozi, harakati va boshqa xususiyatlari bilan ajralib ko'zga tashlanadigan narsalar beixtiyor diqqatimizni o'ziga tortadi.

Masalan, qoramtil muqovali kitoblar orasida sariq muqovaligi diqqatimizni o'ziga darrov jalb qiladi, shuningdek, jimjit uyda to'satdan paydo bo'lgan shovqin yoki aksincha, bir necha vaqt davom etib turgan shovqin birdaniga bosilib sukunat paydo bo'lsa, bu ham diqqatimizni o'ziga jalb qiladi.

Kishida paydo bo'ladigan talab, ehtiyojlar, organizmdagi o'zgarishlar, masalan chanqash, og'riq, ko'ngil g'ashligi kabi

holatlar ham diqqatimizni jalb etishi mumkin. Shuningdek, turli tuyg'u-hislar, xususan, qiziqish, ixtiyorsiz diqqatga sabab bo'ladi. Ixtiyorsiz diqqatning nerv-fiziologik asosini oriyentirovka (mo'ljal) yoki tekshirish refleksi tashkil qiladi. Chunonchi, tevarak-atrofimizdagi narsalarning salgina o'zgarishi bizda darhol oriyentirovka refleksini yuzaga keltiradi. Boshqacha qilib aytganda, «nima gap» degan ma'noda atrofimizga razm sola boshlaymiz.

Shuningdek, turli his-tuyg'ular, xususan qiziqish ixtiyorsiz diqqatga sabab bo'ladi. Qiziqarli roman, kinofilm, qiziqarli suhbat diqqatimizni o'ziga beixtiyor tortadi. Shuning uchun diqqatning bu xili yana *emotsional diqqat* ham deyiladi.

Ixtiyoriy diqqat qat'iy maqsad asosida yo'naltirilgan diqqatdir. Diqqatning bu turi o'zini majbur qilib, zo'r berib ongni bir faoliyat ustida to'plab turishlikni bildiradi. U irodaning ishtirokini talab etadi. Shuning uchun ham ba'zan u irodaviy diqqat deyiladi. Masalan, ilmiy asarni mutolaa qilish, og'ir bir ishni bajarish, zo'r lab diqqatni bir-yerga toplash ham irodaviy diqqatni talab qiladi.

Irodaviy diqqatning kelib chiqishiga mehnat sababchi bo'lgan, chunki mehnat maqsadga qaratilgan va muayyan bir natija, mahsulot beradigan ongli faoliyatdir. Mehnat uchun chidamli va mustahkam diqqat zarurdirki, buning uchun iroda ishga solinadi. Mehnatga xalaqit beradigan, diqqatni chalg'itib yuboradigan, mehnatga aloqasi bo'limgan tuyg'u va ta'sirotlarga yo'l quymaslik uchun harakat qilinadi. Insonlarda mehnat bilan birlikda paydo bo'lgan bu qobiliyat ixtiyorsiz diqqatdan sifat e'tibori bilan farq qilib, u diqqatning eng yuksak ko'rinishidir. O'qish, kamolotga intilish, Vatanni sevish, ongli intizom kabilar ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuningdek, jiddiy kitob mutolaa qilish, ilmiy mavzuda ma'ruza eshitish, kishini charchatib qo'yadi, chunki bu ish chidamli, ixtiyoriy diqqatni taqozo etadi. Maqsadimizga erishish uchun zarur bo'lgan, ammo o'zining mazmuni bilan bizni bevosita qiziqtirmaydigan ishni bajarishga o'zimizni majbur qilar ekanmiz, biz bu ishni og'ir bir ishday his qilamiz. Bunday ish irodaviy diqqatning ishtiroki bilan bajariladi.

Ammo bu hamisha shunday bo'lavermaydi. Ya'ni o'zimizni majbur qilib, zo'r berib biror ishga kirishganimizdan keyin shu ish bizni qiziqtirib qo'ysa, biz unga berilib ketamiz, uning mashaqqatini sezmasdan bermalol ishlaymiz. Ba'zi ishlar bizga boshida juda og'irday ko'rinsa ham, uni boshlab yuborsak bir necha vaqtdan keyin zavq bilan ishlay boshlaganimizni o'zimiz payqamay qolamiz. Shunday paytdagi diqqatni ishtiyoqli yoki ko'nikkan diqqat deb atash mumkin.

U o'zining psixologik e'tibori bilan ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat turlaridan farq qiladi. Ko'nikkan diqqat ixtiyoriy diqqatdan boshlanib ixtiyorsiz diqqatga aylanganday yengillik bilan o'tadigan bo'lsa ham uni ixtiyorsiz diqqatga aynan teng deb bo'lmaydi. Ishtiyoqli yoki ko'nikkan diqqat tasodifiy bir narsaga emas, balki muayyan maqsadga qaratiladi va muayyan bir natijaga olib boradi. Diqqatning bu turi ayniqsa o'qitishda katta axamiyatga ega, dars o'zlashtirish ixtiyoriy-majburiy diqqatni talab etadi. Chunki o'qish nafaqat jiddiy mehnat, balki ko'p mashaqqatli ishdir. Shuning uchun u irodaga suyanadi. Ammo o'qishni faqat ixtiyoriy diqqat asosidagina o'tkazish o'quvchilarni tez charchatib qo'yadi. Shu sababli o'qishga qiziqtirish, darsni qiziqarli qilib o'tish kerak. Ammo bu darsni qiziqchilikka, ermakka aylantirish kerak, degan gap emas balki ishning o'ziga qiziqtirish demakdir.

Diqqatning asosiy xususiyatlari

Diqqat murakkab psixologik jarayon bo'lib, uning bir qancha o'ziga xos xususiyatlari bor. Ulardan asosiyilari diqqatning turg'unligi, kuchi va barqarorligi, diqqatning ko'lami, diqqatning bo'linuvchanligi, diqqatning ko'chuvchanligidir. Diqqatning ana shu xususiyatlari ustida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Diqqat turli odamlarda, bir odamda turli vaqtda, turli vaziyat, turli xususiyatlar va shu bilan birga psixik jarayonlarning kechishi bilan turlicha bo'ladi. Ba'zi odamlarning diqqati kuchli va barqaror bo'lsa, ba'zilariniki kuchsiz va beqaror bo'ladi.

Diqqatning kuchi va barqarorligi_deb, odam o'z diqqatini biron narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytildi. Diqqatning kuchi va barqarorligi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega. Diqqatimiz ko'pincha to'lqinsimon, ya'ni goho kuchayib, goho pasayib, tebranib turadi. Chunki diqqatimizni bir yerga yig'ib, uni soatning tiqillashiga qaratsak, uning ovozi goh qattiq, goh sekin eshitiladi. Oq rangli buyum ustidagi kichkina qora dog'ga tikilib qarab tursak diqqatimiz taxminan 4-5 daqiqadan keyin chalg'ib ketadi. Ammo bir ish jarayonida diqqatimizning turg'unligi shu ish ustida to'xtovsiz to'planib turishi 10-20, hatto 40 daqiqagacha bora oladi. Albatta, surunkasiga 40 daqiqa davom etadigan diqqat irodaviy barqarorlikni ham talab etadi. Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi irodadan tashqari yana bir qancha sabablarga ham bog'liqdir¹.

Birinchidan diqqat qaratilgan narsaning xususiyatlari, biz uchun qanchalik ahamiyatga ega ekanligiga, *ikkinchidan*, diqqatimiz qaratilgan narsa bilan amalga oshiriladigan faoliyatimizga, *uchinchidan*, nerv sistemasining ayrim xususiyatlariga bog'liqdir. Bularning hammasi obyektiv, ya'ni bizning irodamiz bilan bog'liq bo'lмаган sabablardir. Diqqatning kuchi va barqarorligi, albatta subyektiv, ya'ni odamning ayni chog'dagi holati bilan ham bog'liq. Masalan, aynan betob bo'lib yoki kayfiyati tushib turgan odamning yoki boshiga bir og'ir tashvish tushgan odamning diqqati kuchli va barqaror bo'la olmaydi. Ba'zi kasb egalari uchun diqqatning kuchi va barqarorligi juda muhimdir. Ayniqsa o'qituvchilar, paxta qator oralarida ishlaydigan mexanizatorlar, shofyorlar, bosmaxona hodimlari stenagrafistlar va boshqalar.

Diqqatning ko'lami. Odamlar o'z diqqatlarining ko'lami jihatidan ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ya'ni ayni zamonda idrok qilinadigan narsalarning soni diqqatning ko'laminini belgilaydi. Diqqatning ko'lami keng yoki tor bo'lishi mumkin. Dikqatning bu xususiyatini tekshirmoq uchun odatda

¹ M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil, 128-129 betlar.

taxistaskop¹ nomli maxsus asbobdan foydalaniladi. Bu asbobning tuzilishi sodda bo'lib, u tikka qilib qo'yilgan taxta o'rtasida maxsus mexanizm orqali ochilib yopiladigan ekrandan iboratdir. Ekranning orqasiga 5-6 harf, raqam yoki mayda buyumlar qator qo'yiladi va ekran juda tez (daqiqaning 1/10 davomida) ochib yopiladi. Mana shu vaqt ichida o'quvchi qancha ko'p narsani birdaniga idrok qila olishi tekshiriladi. Masalan, buyumlarning 4-5 tasini aytib bera olsa, uning dikqat ko'lami (hajmi) shunchalik keng, aksincha, payqamay qolgan narsalarning soni qancha kam bo'lsa diqqatning idrok ko'lami shuncha tor deb hisoblanadi. Shunisi ham borki, bir qatordagi harflardan odatda 3-4 tasi, ayrim hollarda 6 tasi ravshan qabul qilinadi. Bunda odam diqqati doirasiga qancha narsani sig'dira olsa, ana shunga qarab diqqatning keng yoki torligi aniqlanadi. Ammo taxistaskop bilan ko'rsatilgan uzun bir so'z, masalan, «demokratiya» so'zi, birdaniga butunligicha qabul qilinadi, chunki bu quruq harflar, tizmasi bo'lmasdan, balki ma'noli so'zdir. O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, bu so'zning ma'nosini tushunmagan bir kishi uning bir necha harflarinigina payqab olmog'i yoki uni boshqa bir so'zga o'xshatib o'qimog'i mumkin. Bunday holat kishining bilim saviyasiga va tajribasi (appertseptsiyasi)ga bog'liq bo'lib, diqqatning ko'lamiga taalluqli emas. Diqqat ko'lamining keng bo'lishi, odam idrok qilayotgan narsalarni atroflicha va chuqur aks ettirilishida hamda bilich jarayonlarining sisatli bo'lishida katta ahamiyatga egadir.

Diqqatning taqsimlanishi. Odam diqqatining yana ikki xususiyati bor, ya'ni diqqat markazlashgan yoki taqsimlangan bo'lishi mumkin. Faqat bir narsa ustida to'planib turgan diqqat markazlashgan diqqat deyiladi. Masalan, o'quvchilarning yozma ishlarni tekshirib o'tirgan o'qituvchi yoki qaychi bilan biron narsani qirqayotgan tikuvchining diqqati markazlashgan yoki bir nuqtaga jamlangan bo'ladi. Diqqatimiz bir narsa ustida markazlashar ekan, ongimiz doirasi toraygandek bo'ladi va biz

¹ Yunoncha taxis – «tez», «skepeo» – ko'raman degan so'zlardan olingan.

o'sha paytda boshqa narsalarning ta'sirini sezmaymiz. Buni *konsentratsiyalashgan* (to'plangan) diqqat ham deb aytamiz.

Taqsimlangan diqqat. Biron ish jarayonida birdaniga bir qancha narsalarga qaratilgan diqqat taqsimlangan diqqat demakdir. Kundalik hayotimiz uchun diqqatning taqsimlanishi g'oyat katta ahamiyatga ega. Ba'zi kasblar diqqatni taqsimlanishini talab etadi. Masalan, mashina yoki traktor haydovchining, ko'p stanokda birdaniga ishlovchining diqqati ayni zamonda shu ishga bog'liq bo'lган bir qancha mehnat jarayonlariga barobar qaratilmog'i kerak. Shuning uchun yangi davr, yangi pedagogik texnologiya, o'qituvchilar oldiga o'qitishning qator murakkab muammolarini ko'ndalang qo'ymoqda.

Dars berayotgan o'qituvchining diqqati tabiiy taqsimlanadi. O'qituvchi yangi noan'anaviy, zamonaviy texnologiya talablari asosida dars o'tar ekan, u diqqatini avvalo berayotgan dars mazmuniga, o'quvchilarning darsni qanday idrok qilib o'zlashtirib borishlariga, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasidagi savol-javob – «fikrlar hujumi»ning samaradorligiga taqsimlay olishi lozim. O'qituvchi biron o'quvchini doska oldiga chaqirar ekan, u sinda o'tirgan boshqa o'quvchilarga ham diqqatini taqsimlay olishi zarur.

Mohir o'qituvchilarning diqqati odatda yaxshi taqsimlanish xususiyatiga ega bo'ladi. Bu xususiyat ish tajribasi davomida hosil qilinadi va yanada shakllanib boradi. Ma'lumki, hali tajribasiz yosh o'qituvchilar dastlabki yillar dars berganda butun diqqatini berayotgan darsga qaratib qo'yib, sindagi bolalarning qanday qilib darsni tinglab o'tirganliklari-ni yaxshi payqamaydi. Demak, diqqatni taqsim qila bilishlik, mashq qilish, tajriba to'plash va pedagogik mahoratni orttirib borishga bog'liq ekan.

Diqqatning ko'chuvchanligi. Diqqatning ko'chishi bu faoliyat maqsadi-ning o'zgarishi bilan diqqatning bir obyektdan ikkinchisiga o'tishi demakdir. Demak, diqqatning bir narsa ustida to'planib turishi mumkin bo'lganidek, uning ko'chib turishi ham mumkin. Masalan, o'quvchi diqqatini radio tinglashdan gazeta o'qishga, so'ngra dars tayyorlashga ko'chirishi mumkin. Diqqat

ko'chishining fiziologik asosi avval ishlab turgan miya po'sti qismlarining tormozlanish va yangi optimal qo'zg'alish o'choqlarining paydo bo'lishidir. Bu ko'chishning tezligi ma'lum darajada nerv jarayonlarining harakatchanligiga bog'liq. Maktabda o'quvchilar dars davomida diqqatlarini bir xil mashg'ulotdan ikkinchisiga ko'chirib turadi. Ammo diqqatning bu xususiyatini uning chetga chalg'ib ketishi va qo'nimsizligi bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Bu ishni qilib bo'lib, uning ketidan navbatdagi bir ishga ongli ravishda o'tilsa, bu diqqatning *ixtiyoriy ko'chishi* deyiladi.

Aksincha, to'satdan paydo bo'lgan biron taassurot natijasida diqqatimiz chalg'ib, boshqa bir narsaga qaratilsa bu diqqatning *beixtiyor_ko'chishi* deb aytiladi.

Shunisi ham borki, diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsiz ko'chishida odam tomonidan sarf qilinadigan kuch ham birday bo'lmaydi. Odadta ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga juda tez va osonlik bilan o'taveradi. Masalan, kitob o'qib o'tirgan paytimizda yoqimli musiqa ovozi eshitilib qolsa, diqqatimiz darrov shunga o'tib ketadi. Ammo ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqatga ko'chirish zo'r berishlikni, o'zini majbur qilishni talab qiladi va sekinroq o'tadi. Tanaffus paytida erkin o'ynab yurgan o'quvchilarning diqqatini darhol darsga jalb qilish qiyin bo'ladi. Ularning ixtiyoriy diqqatlarini jalb qilish uchun biroz vaqt talab qilinadi. Ammo mehnatning unumli bo'lishi uchun o'quvchi diqqatini darrov qarata bilish o'qituvchining pedagogik san'atiga bog'liqdir. Agar diqqatimiz ko'chirilishi lozim bo'lgan narsalar o'rtasida ma'lum jihatdan mazmunli bog'lanish bo'lsa, diqqatimiz osonlik bilan ko'chadi. Ayniqsa, odamning qiziqish va ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan narsalarga diqqat yengillik bilan ko'chadi. Diqqatning ana shu xususiyatlari tufayli odam atrofdagi muhitga, undagi turli-tuman o'zgarishlarga tez moslasha oladi.

Diqqatning parishonxotirligi. Endi odamlardagi diqqatning parishonxotirligi haqida gapiradigan bo'lsak, uning psixologik jihatini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Diqqat shaxs xususiyatiga, ya'ni diqqat parishonxotirlikka aylanar ekan, demak endi u inson ma'naviy holatining eng yuqori darajasining shakllanishiga ta'sir qiladi. Ma'naviy

jihatdan tarbiyalangan diqqat bu odamning o'zi o'zlashtirgan ma'naviy talablarga muvosiq egallagan ixtiyoriy diqqatdir. Bunday holatda ma'naviy-ahloqiy talablar diqqatning ko'chuvchanlik va intensivlik stimuli xizmatini o'taydi. Yuqori darajada tarbiyalangan diqqat-e'tiborli kishi yordamga muhtoj odam oldidan befarq o'tib keta olmaydi, ma'naviy-ahloqiy tomondan tarbiyalanmagan kishi esa birovga yordam bermaydi. Diqqat-e'tiborsizlik deb ataluvchi diqqatning noto'g'ri tashkil etilishini tekshirib chiqish ham amaliy muhimdir. U o'zini uch tipga birlashtiruvchi turli formalarda bo'lishi mumkin.

Diqqat-e'tiborsizlik yoki parishonxotirlikning *birinchi tipi* shaxsning faoliyati jarayonida har narsaga chalg'iyverishda va diqqatning intensevligi (tezligi) past bo'lganda, obyektdan obyektga, hech birida to'xtalmay juda oson va beixtiyor tarzda ko'chuvchanlikda yuzaga keladi. Parishonxotirlikning bu tipi obrazli qilib yengil diqqat deyiladi. U yosh bolalarga xos bo'lib, o'smirlarda va katta yoshdagи kishilarda ham uchrashi mumkin.

Parishonxotirlikning *ikkinchi tipi*, aksincha diqqatning yuqori intensevligi va qiyin kechishi bilan farqlanadi. U ko'pincha juda intensiv va barqaror, biroq asosan ichki yo'nalgan diqqatga odatlangan shaxslarda uchraydi. Bunday parishonxotirlik uyidan xabar olgan va doimo shu haqda o'ylayotgan o'quvchilarda paydo bo'lishi mumkin.

Parishonxotirlikning *uchinchchi tipi* diqqatning intensevligida ifodalanadi va odatda, qattiq charchagan hollarda yuzaga keladi. Parishonxotirlikning bu tipi bosh miya po'stidagi nerv jarayonlari kuchi va harakatining doimiy yoki vaqtincha susayishi, tonusning susayishi tufayli sodir bo'ladi. U diqqatning juda past kontsentratsiyasi va undan ham kamroq ko'chuvchanligi bilan ifodalanadi. Biroq hatto eng barqaror va kam chalg'iydigan diqqat ham o'z intensevligiga ko'ra o'zgarishsiz qolmaydi. Bu o'zgarishlar tajribaning ko'rsatishicha, ba'zi hollarda bir minutda 10 marta bo'lishi mumkin, odatda esa kamida har 5 sekundda bo'ladi. Demak, eng kuchsiz diqqat odatda tarqoq diqqat, parishon diqqat deyiladi. Diqqat haddan tashqari kuchli bo'lganida ham alohida parishonlikni ko'rish mumkin. Eng kuchli diqqatda ongimiz

diqqat qaratilgan narsaga batamom to‘planadi va kam chalg‘iydi yoki hatto boshqa kuchli qo‘zg‘ovchilar ta’sir qilib turganda ham sira chalg‘imaydi. Odam biror narsaga juda berilib ketganida vaziyatni unutib qo‘yadi, tevarak - atrofdagilarning gapi qulog‘iga kirmaydi, o‘zining odatlangan ish harakatlarini sezmay qoladi. Diqqat kuchli bo‘lgan vaqtida odamning parishon bo‘lib qolishini har bir kishi o‘z tajribasidan yoki boshqa odamlarda ko‘rganlaridan yaxshi biladi. I.P.Pavlov bunday parishonlikning fiziologik asosini quyidagicha ko‘rsatib bergan: «O‘yga cho‘mib ketganimizda, biror ishga juda berilganimizda, tevarak-atrofda bo‘layotgan narsalarni ko‘zimiz ko‘rmaydi, qulog‘imiz eshitmaydi bu yaqqol manfiy induksiyaning yuz berishidir»¹. Buning ma’nosи, bosh miya po‘stining bir qismida sodir bo‘lgan qo‘zg‘alish po‘stning boshqa qismlarini tormozlaydi, demakdir. Har bir kishining diqqati amaliy faoliyat jarayonida tarbiya qilish va o‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘li bilan o‘sib parishonxotirlikdan ma’lum darajada kuchli va barqaror diqqat bo‘lib borishi mumkin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Diqqat haqida umumiyl tushuncha bering.
2. Diqqatning fiziologik asoslarini tushuntiring.
3. Dars jarayonida o‘quvchilar diqqatining chalg‘ib turish sabablarini izohlab bering.
4. Ta’lim jarayonida diqqatning muhim xususiyatlari.
6. Darsda diqqatning barqarorligi, ko‘lami, taqsimlanishi, ko‘chishi, parishonxotirligi va diqqatni tarbiyalash usullari haqida gapirib bering.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro‘yxati

1. M. Rahmonova. Ta’limda diqqatning roli. –Toshkent: «O‘qituvchi», 1963-y.
2. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O‘qituvchi», 1982.
3. E. G‘oziyev. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). –Toshkent: «O‘qituvchi», 1994.
4. E. G‘oziyev. O‘quvchilarni umumlashtirish usullariga o‘rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti. –Toshkent: «O‘qituvchi», 1983.

¹ И. П. Павлов. Полное собрание сочинений. М.: III том.

5. **V. Karimova.** Psixologiya A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 2002.
6. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Prof. A.I. Shcherbakov taxriri ostida. –Toshkent: «O'qituvchi», 1984.
7. **B.I. Ivanov.** Umumiy psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi» 1967 y.
8. **E.G'oziyev, A.Jabborov** Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi. –Toshkent: 2003.
9. **M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva.** Umumiy psixologiya. –Toshkent: 2002 y.
10. Oliy pedagogik o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning ilmiy asoslari. (Respublika ilmiy-metodik konferensiyasining materiallari). –Toshkent: 2000.
11. **P.C. Немов.** Психология. –М.: 1998.
12. **Н.В. Басова.** Педагогика и практическая психология. –М.: «Феникс», 2000.
13. **V.M. Karimova.** Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi. –Т.: 2000.
14. Psixologiya kursi. Prof. M.V. Gamezo tahriri ostida. –Т.: «O'qituvchi», 1972.
15. **L. Beknazarov, A. Jabborov.** O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari. –Toshkent: «Fan», 2008.

SEZGILAR

Organlarimizga ta'sir etadigan ayrim narsa va hodisalar obrazlarining miyamizda bevosita aks etish faoliyatiga *sezgilar* deyiladi. Biz sezgilar yordamida predmetlarning rangini, shaklini, katta yoki kichikligini aniqlaymiz.

Sezgilar sodda psixik jarayon bo'lishiga qaramay, barcha bilimlarimizning asosiy manbai hisoblanadi. Chunki narsa va hodisalar aks etishining ko'pchilik qismi sezishdan boshlanadi. Agar sezgilarimiz bo'lmasa biz tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarni aks ettirishdan va ularni bilishdan mahrum bo'lgan bo'lar edik.

Moddiy olamni aks ettirishda sezgilarimizning ahamiyati juda katta. Sezgilarimiz bo'lmasa, biz predmetlarning hech qanday shaklini, harakatning hech qanday xususiyatini bila olmaymiz. Shuning uchun ham idrok, xotira, xayol, tafakkur kabi murakkab psixik jarayonlar sezgilarimiz asosida hosil bo'ladi.

5.1. Sezgilar. Ularning turlari, vazifalari va xususiyatlari

Endi sezgilararning eng muhim turlarini ko'rib chiqamiz. Insonning hayoti va faoliyatida *ko'rish sezgilarining* roli benihoya katta. Ko'rish hodisasini vujudga keltiruvchi fizik sabab har xil uzunlikda bo'lgan elektromagnit to'lqinlaridir. Odamning ko'zi 390 millimirkondan 800 millimirkongacha uzun elektromagnit to'lqinlari ta'sirotni sezsa oladi. Ko'z murakkab tuzilgan sezgi a'zosi bo'lib, u ko'z kosasida joylashgan va maxsus ko'z mushaklari yordami bilan har tomonga burila oladi. Ko'z soqqasining uchta asosiy pardasi bor. Uning tashqi pardasi oq tusda bo'lib, shu pardaning oldingi qismi tiniqdir. Oq pardaning ichki tomonini **tomirli parda** qoplaydi. Shu pardada qon tomirlari ko'p bo'lib, ko'zni qon bilan ta'min etadi. Tomirli pardaning oldingi qismi **rangdor** parda deb ataladi, u tiniq pardaning orqasidadir. Rangdor pardada pigment (ko'zga tus beruvchi modda) bor bo'lgani uchun ko'zning rangi shunga bog'liqdir.

Rangdor pardaning o'rtasidagi qora teshik **ko'z qorachig'i** deyiladi. Ko'z qorachig'inining maxsus mushaklari bo'lib, u toraya va kengaya oladi. Uning bunday harakati yorug'lik kuchiga bog'liq. Yorug'lik zaif bo'lsa, u kengayadi yoki aksincha bo'ladi. Ko'z qorachig'inining orqasida tiniq ko'z gavhari yotadi. Ko'z gavhari maxsus mushaklar yordami bilan taranglanishi yoki bo'shashishi mumkin, natijada u shaklini o'zgartirib yassi yoki qobariq bo'lib qolishi mumkin. Bir narsani yaqindan turib ko'rganda ko'z gavhari qobariq shaklga kiradi yoki aksincha bo'ladi. Ko'z gavhari yorug'lik nurlarini sindirish vazifasini o'taydi. Ko'z soqqasining ichki pardasi **to'r parda** deyiladi. To'r parda ko'z soqqasining orqa tomonidan kiradigan ko'z nervining juda ingichka tolalari va nerv hujayralaridan tuziladi. Nerv tolalari yorug'likni sezuvchi maxsus hujayralar bilan boshlanadi, ular tayoqcha va kolbacha¹ shaklida bo'lganliklari uchun ular **tayoqcha va kolbachalar** deb yuritiladi. To'r pardadagi shu nerv tolalarining soni 150 milliongacha boradi. Kolbachalar 7 million bo'lib, ular xuddi ko'z qorachig'inining qarshisida juda zinch to'planadilar, shu joy **sariq dog'** deb ataladi va bu to'r pardaning yorug'likka eng sezgir qismidir. Suratlari ko'z gavhari tomonidan sariq doqqa tushiriladigan buyumlarni juda ravshan ko'ramiz. Tayoqchalarning soni 130 milliongacha boradi. Ular ko'z soqqasining yon tomonlarini qoplaydilar. To'r pardada yorug'lik sezuvchi shu tolalar butunlay uchramaydigan joy ham bor, bu ko'rish nervi chiqadigan joydir. Bu joy **ko'r dog'** deb ataladi.

Yorug'lik turlari tiniq parda orqali ko'z qorachig'idan o'tib, ko'z gavharida sinib, uning orqali to'r pardaga ta'sir qiladi. Bularda kimyoiy reaksiya tariqasida hosil bo'lgan ta'sirot ko'rish nervi orqali miyaning ko'rish markazlariga borib yetadi va natijada ko'rish hodisasi paydo bo'ladi. Ammo tayoqcha va kolbachalarning vazifasi ham birday emas. Kolbachalar yorug'lik va rang ko'rishga moslangan. Tovuq kabi faqat kunduzi ko'radigan parranda va hayvonlarning ko'zida

¹ Kolba tagi keng shisha bo'lib, asosan ximiya laboratoriyalarida ishlataladi.

kolbachalar bor, ammo tayoqchalar yo‘q. Aksincha, ko‘rshapalak, boyqush kabilarning ko‘z to‘r pardasida faqat tayoqchalargina bo‘lib, ular kunduz vaqtida ko‘rmaydi. To‘r pardasida shu ikki xil nerv tolalari bo‘lgan hayvon va odamlar kechasi ham kunduzi ham ko‘radilar.

Ko‘zimizga ko‘rinadigan har bir narsaning o‘ziga xos rangi bor. Faqat juda tiniq narsalarninggina rangi yo‘q, shuning uchun ham ular ko‘zga ko‘rinmaydi.

Ammo biz sezsa oladigan ranglar asosan ikki xilga ajratiladi.

Ularning birinchi turi **axromatik** ranglar deyiladi. Bular oq, qora va kulranglardir. Agar buyumning yuzi hamma to‘lqinlarni baravar aks ettirsa, u axromatik rangli bo‘ladi. Qora va oq ranglar aralashmasidan kulrang hosil qilinadi. Axromatik ranglar bir-biridan faqat ochiqlik darajasi bilangina farq qiladilar. Ranglarning ochiqlik darajasi buyum yuzining yorug‘lik nurlarini qanchalik aks ettirishiga bog‘liq. Buyumning yuziga qanchalik nur aks ettirolsa, rangi shuncha ochiq bo‘ladi yoki aksincha bo‘ladi. Masalan, oq qog‘oz ustiga tushadigan nuring 60-85 hissasigacha aks ettiroladi, ammo qora duxobaning yuzi esa uning faqat 0,003 hissasinigina aks ettiradi.

Xromatik ranglar nuring oyna prizmada sinishidan hosil bo‘ladigan qizil, qo‘ng‘ir, sariq, yashil, havorang, ko‘k va binafsha ranglardir. Bu asosiy ranglarning turli darajada aralashmasidan 150 tacha har xil tuslar hosil qilinadi.

Yorug‘lik nurlari har xil uzunlikda bo‘lgan elektromagnit to‘lqinlardan iboratdir. Buyumning yuzi ayrim uzunlikda bo‘lgan to‘lqinlarnigina aks ettirib, boshqalarini singdirsa, u ma‘lum rangga ega bo‘ladi. Chunonchi, uzunligi 630-800 millimikron bo‘lgan elektromagnit to‘lqinlaridan qizil rang hosil qilinadi, uzunligi 570-590 millimikrongacha bo‘lganidan sariq rang, uzunligi 500-570 millimikrongacha yashil rang, uzunligi 430-480 millimikrongacha bo‘lganlaridan ko‘k rang hosil qilinadi. Shu ranglar boshqacha qilib spektr ranglari deb ham ataladi. **Xromatik ranglar** ochiqlik, rang toni va to‘liq darajalari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, pushti rangli gullar shu rangning ochiqlik darajasi (ottenkalari) bilan bir-biridan farq qiladilar. Asosiy spektr ranglarini bir-biridan ajratadigan sifatlar

rang toni deyiladi. Rang toniga qarab, qizil, ko'k, yashil va hokazo ranglarni farq qilamiz. **Rangning to'qligi** rang tonining qanchalik aniqligi bilan belgilanadi. Rangning to'qligi shu rangning tonini belgilaydigan uzunlikdagi to'lqinlarning qanchalik aks ettirilishiga bog'liq. Masalan, qizil lolaning rangi to'q qizil yoki bahordagi o't-maysaning yashil rangi to'q yashil ranglardir.

Ranglar aralashmasi. Yorug'lik nuri murakkab tuzilgan bo'lib, u asosiy spektr ranglari aralashmasidir. Ranglar aralashmasining ma'lum tartibi bo'lib, bu **ranglar aralashmasi qonunlari** deb yuritiladi va ko'k ranglar aralashmasidan oq rang hosil qilinadi. Shu just ranglar, ya'ni qizil va yashil, sariq va ko'k ranglar **qo'shimcha ranglar** deb ataladi. Ikkinci qonunga muvofiq, qo'shimcha ranglardan tashqari xohlagan spektr ranglarini aralashtirish orqali shu ranglar orasida bo'lgan bir rangni hosil qilmoq mumkin. Masalan, qizil va ko'k aralashtirilsa, binafsharang hosil qilinadi.

Ko'rish nazariyasi. Ko'rish sezgilarini ancha mukammal tekshirilgan. Ko'rish uchun xi'zmat etadigan nerv hujayralarining bir xili, ya'ni tayoqchalar juda sezgir bo'lib, ular juda zaif yorug' ta'siri ostida ham qo'zg'oladilar. Shu sababli ular insonga kechasi ko'rish imkoniyatini ham beradilar. Tayoqchalarda maxsus **purpur** deb ataladigan modda bor. Shu modda juda zaif yorug' ta'siri bilan ham kimyoviy reaktsiya berib, tayoqchalarni qo'zg'atadi. Ammo xromatik ranglarni va yorug'ni kolbachalargina sezadilar. Ranglarni ko'rish hodisalarini **uch rangni ko'rish nazariyasi** izohlaydi. Bu nazariyani buyuk rus olimi Lomonosov 1756 yilda birinchi marta bayon qilgan edi. Yuz yildan keyin bu nazariya fizikada tafsiliy ishlab chiqildi. Shu nazariyaga binoan, kolbachalarda qizil, yashil va binafsha ranglarni sezadigan uch xil modda bor. Har qaysisi o'ziga maxsus uzunlikdagi to'lqinlar ta'siri bilan qo'zg'alib, maxsus rang sezgisini vujudga keltiradi. Ammo odamda ular nur yorug'i ta'siri bilan har xil darajada qo'zg'aladilar, shu sababli har xil ranglar sezgisi paydo bo'ladi. Bordi-yu ular bir darajada qo'zg'alsalar, axromatik rangni ko'rish paydo bo'ladi. Shu nazariyaning to'g'riligini isbot

qilmoq uchun **daltonizm**¹ nomli hodisani dalil qilib keltirish mumkin. Ba'zi odamlar qizil rangni yo yashil rangni ajrata olmaydilar. Demak, ularda shu ranglarni ko'rishga xizmat qiladigan modda kam ishlaydi yoki butunlay bo'lmaydi. Shunday odamlar ham uchraydiki, ular faqat kulrang, oq, qora ranglarnigina ko'radilar, ammo xromatik ranglardan birini ham ko'rmaydilar. Bundan ko'rindiki, ularda shu uch moddadan bittasi ham yo'q. Shu sababli mashina haydash, signallar berish kabi kasblarga va dengiz flotiga olinadigan odamlarning ko'zi puxta tekshiriladi.

Ko'rish sezgilariga xos xususiyatlar

Har xil uzunlikda bo'lgan elektromagnit to'lqinlarining ko'zga ta'siri to'xtasa ham, shu ta'sirotdan hosil qilingan obrazlarning izi ko'zda bir necha daqiqa saqlanib turadi. Bu hodisa **qoldiq obrazlar** deb ataladi. Kinofilmning uzlusizligi shu xususiyatga bog'liq. Ikki surat orasidagi qorong'i joylar oldin kelgan suratdan hosil qilingan taassurotning ko'zda saqlanib qolishi bilan sezilmay qoladi. Ayrim suratlar to'xtovsiz, tutashib ketaverganday ko'rindi. Ko'zimizga xos bo'lgan shu xususiyatni quyidagicha oddiy tajriba bilan isbotlash mumkin: Kechasi ko'zni bir-ikki minutcha yumib, so'ngra bir-ikki sekundcha yonib turgan chiroqqa tikilib qarasak va yana ko'zimizni yumib, uni qo'limiz bilan bekitsak, qora ustida yorug' chiroq obrazi paydo bo'ladi va anchagina ko'zimizga ko'rini turadi. Bunday hodisa **musbat qoldiq obraz** deb ataladi. Qizil bo'yoqni doira olib, unga bir necha daqiqa tikilib turib so'ngra oq qog'oz yuziga boqsak, unda yashil rangli doira ko'rina boshlaydi. Bu **mansiy qoldiq obraz** deb ataladi. Bunga sabab shuki, qizil rangli sezuvchi modda charchab, sezgirligini yo'qotadi, shuning uchun oq qog'oz yuzidan keluvchi oq nur tarkibida bo'lgan qizil nurlar sezilmay, uning o'rniga yashil rangni sezish paydo bo'ladi. Ma'lumki, yashil rang qizil rangga qo'shimcha rangdir. Yashil rangli doiraga tikilib turib, keyin

Dalton nomli ingliz kimyogari shu kamchilikni o'zida sezib, bayon qilgani uchun bu hodisa uning nomi bilan yuritiladi.

oq qog'oz yuziga qaralsa, aksincha, qizil doira paydo bo'ladi. Boshqa ranglarga nisbatan ham ana shunday hodisa ro'y beradi. Yana shunisi ham borki, bir rang o'zining atrofidagi ranglarga ham ta'sir ko'rsatib ularni qo'shimcha rang tusiga aylantiradi. Chunonchi, qizil ustida hamma rang yashil tusga, sariq ustida ko'k tusga kira boshlaydi, qora ustida oqaradi va hokazo. Bunday hodisa **bir vaqtli rang kontrasti** deb ataladi.

Ko'z o'tkirligi

Uzoqdagi yoki mayda buyumlarni ravshan ko'rish qobiliyati *ko'zning o'tkirligi* deyiladi. Ko'zning o'tkirligi har xil darajada bo'lishi mumkin. Buni aniqlash uchun maxsus jadvallardan foydalанилади. Odatta balandligi 7 millimetrga baravar bosma harflarni 5 metr masofadan turib eng kamida uchtasini aniq ko'rish ko'zning o'tkirligini isbotlaydi. Agar bunday jadvaldagi harflarning uchdan kami aytilsa, bu hol ko'zning zaifligidan darak beradi. Maktabda bunday bolani oldingi partaga o'tirg'izish kerak.

1. **Organik sezgilar** – tashnalikni, och-to'qlikni, sog'lomlik yoki kasallik, tetiklik yoki charchaganlikni sezishdan iboratdir. Bu sezgilar umuman organizmning hayotiy jarayonlariga bog'liq ravishda, oshqozon, nafas olish, qon aylanish va shu kabi boshqa badan a'zolarimizning holati bilan vujudga keladi. Bu xildagi sezgilarning fiziologik sababi shuki, badandagi biron ta o'zgarish ichki a'zolarda joylashgan alohida nerv uchlarigicha ta'sir qilib, ularni qo'zg'atadi. Bu ta'sirot miyaga borib yetadi va badandagi holatlardan darak beradi. Demak, badanimizga bog'liq holatlarni shu xildagi sezgilar orqali bilamiz.

2. **Teri sezgisi.** Terimiz vositasi bilan biz tekkanni (taktik), temperaturani va og'riqni sezamiz.

A. *Tekkanni sezish* yoki taktil sezgilar, terimizga tegib turgan narsani uning silliqligini yoki g'adur-budurligini his etishdir. Terimizga tegib turgan narsa terida joylashgan alohida nerv uchlariga borib, ularni qo'zg'atadi. Bundan olingan taassurot miyaga borib yetadi va shu narsaning xususiyatidan darak beradi. Shu nerv uchlarining soni bir milliongacha boradi, ammolular butun terimiz sathida baravar taqsimlanmasdan, balki ba'zi

qismlarida zich to'planib, ba'zi qismlarida esa siyrak uchraydilar. Chunonchi, barmoq uchlari va lablarda ular zich joylashgan, lekin yelka, orqa va ko'z soqqasida bunday nerv uchlari kam, shuning uchun bu qismlarda teri sezgisi zaif. Barmoq uchlari esa, aksincha, juda sezgir bo'lib, bu barmoqlarimiz bilan tegib turgan buyumlarning silliqligini, g'adur-budurligini va boshqa xususiyatlarini yaxshi bilib olish va qo'l bilan har qanday nozik ishlarni bajarish imkoniyatini beradi. Bu sezgirlik ayniqsa barmoqlarimizni harakatlantirib, buyumni paypaslaganimizda kuchayadi. Masalan, ipak, duxobaning yaxshiroq silliqligini yoki daraxt po'stining g'adur-budurligini paypaslash orqali yaxshiroq sezib olamiz. Nozik ishlarni qo'l bilan bajaradigan mutaxassis odamlarda bu sezgirlik juda kuchli taraqqiy qilgan bo'ladi. Qo'lning shu kabi sezgirligi mehnat mahsuli bo'lib, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlangan.

B. Harorat sezgisi issiq-sovuqni his etish demakdir. Harorat sezgisi harorati har xil darajali buyumlarning terimizga bevosita urilib turishidan paydo bo'ladi. Terimizga tegib turgan buyumning harorati, terimizga nisbatan pastroq bo'lsa sovuqni, balandroq bo'lsa issiqni sezamiz.

Harorat darajasini sezadigan alohida nerv uchlaring bir xillari faqat sovuqdan keladigan ta'sirotni sezadi va ularning soni terimizda yarim milliongacha boradi; ikkinchi xillari esa faqat issiqni sezadi va bularning soni o'ttiz minggacha yetadi. Bu nerv uchlari ham terimiz sathida teng baravar joylashmasdan, ba'zi qismlari, masalan, bel, orqa, ko'krak va qorin sathida zich ammo badanimizning ko'proq ochiq yurgan qismlarida kamroq joylashadilar. Sovuq organizmdagi hayot jarayonlari uchun ko'proq xatarli bo'lganligidan uni sezuvchi nerv uchlari ham ko'proq taraqqiy qilganligi tabiiydir.

Teri sezgisi (harorat sezgisi, og'riq sezgilari)ga bog'liq nerv uchlaring qanday tartibda joylashganliklarini ularning bir-biridan farqini va sezgirlik darajalarini ko'rsatadigan maxsus asbob **estezometr¹** deyiladi. Bu asbob tuzilishi bilan sirkulga

Yunoncha "estezios" – sezgi degan so'zdan olingan; esteziometr – «sezgi o'lchagichi» demakdir.

o‘xshaydi. Uning uchi bilan teriga tegib, sezgiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar aniqlanadi. Ammo qalam uchi bilan ko‘z qovoqlariga yoki qo‘lning sirtiga sekin-sekin tegizib ko‘rish orqali ham bularning farqini payqab olish mumkin, ya’ni qalam uchi sovuq sezuvchi nerv uchlari kelib qolsa, sovuq seziladi va hokazo.

V. Og‘riq sezgilari ichki va tashqi a’zolarimizda biron ta o‘zgarishga bog‘liq bo‘lgan xavfli holatlarni ongimizda aks ettirish demakdir. Og‘riq sezgilaridan darak beradigan alohida nerv uchlari butun a’zolarimiz va terimiz sathida joylashgan bo‘lib, ularning miqdori taxminan to‘rt milliongacha boradi. Bunday nerv uchlari ayniqsa ko‘z soqqasining tiniq pardasida, betda va orqada zinch joylashgan, ammo oyoq tovonida, xususan barmoq uchlarda va kaftda ular juda kam. Qo‘l barmoqlarida ularning kam bo‘lishi tarixiy sabablar bilan ya’ni, odamning mehnat faoliyati bilan belgilanadi. Bu qismlarda teri sezgisi juda kuchli bo‘lsa ham og‘riqni sezish qobiliyati zaif. Shuning uchun ham odam har qanday ish qurollarini mahkam ushlab, chaqqonlik va kuch bilan mehnat qila oladi.

Umuman, har qanday qo‘zg‘ovchining ta’siri haddan oshsa ham og‘riqni his etish paydo bo‘ladi. Quyoshga qarasak, ko‘zimiz uning yorug‘iga chiday olmay og‘riydi, baland ovozdan quloq og‘riydi va hokazo.

3. Muskul - harakat sezgilari badan a’zolarimizning harakatini, muvozanatini, mushaklarning bo‘sish va tarangligini hamda og‘ir-engilni, qattiq-yumshoqni his etish demakdir.

Badan a’zolarimiz harakatini sezadigan alohida nerv uchlari mushak, bo‘g‘in va paylarda joylashgan bo‘lib, holatning o‘zgarishidan paydo bo‘ladigan qo‘zg‘alishni miyaga olib boradi va bundan bizga darak beradi. Shuning uchun biz badanimiz, oyoq-ko‘limiz va boshqa a’zolarimiz harakatini, vaziyatini bilamiz. Tanamizning muvozanatini bilishga yordam beradigan a’zo **vestibulyar¹** sezgi a’zosi deyiladi. Bu a’zo quloq ichidagi yarim doira shaklida bo‘lgan kanallarda joylashgan. Bu kanallarda endolimfa deb ataladigan suyuq modda bor. Shu suyuq moddaga alohida sezuvchi nerv uchlari joylashgan bo‘lib, ular bosh va

¹ Lotincha “vestibulyaris” – dahliz degan so‘zdan olingan.

badanning qimirlashidan harakatga kelgan endolimfaning ta'siri bilan qo'zg'aladi va tanamizning vaziyatidan darak beradi.

Shu sezgi tufayli tanamizning muvozanati tartibga solinib turiladi. Qulogning bu qismi kasal bo'lishi natijasida muvozanatni sezish ham tartibsizlanadi yoki butunlay yo'qoladi, ya'ni odam o'z tanasining tekisligini yaxshi saqlay olmaydi. Shuning uchun ham quloqqa ehtiyoj bo'lmoq va uni kasallanishdan saqlamoq kerak.

Qulog'i zararlangan kishilarni uchuvchiklikka olmaydilar. Umuman, ba'zi kasblar va san'at turlari mushak-harakat sezgilarining mukammal va o'tkir bo'lishini taqozo etadi. Masalan, balandlikka chiqib ishlovchi binokorlar, dorbozlar, akrobat va balet san'atkorlarida bu qobiliyat juda yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak.

4. Hid bilish sezgilari har qanday narsalarning hidini ongimizda aks ettirish demakdir. Odam to'rt yuz mingga yaqin turli hidni seza oladi.

Hidni sezuvchi mayda nerv uchlari burun bo'shlig'ining ichki va yuqori qismidagi shilliq pardada joylashib, shu pardaning taxminan 250 kv millimetrgacha baravar qismida yoyilib ketadilar. Faqat zarrachalari havo bilan burun bo'shlig'iga kirib, unda kimyoviy reaktsiya beradigan buyumlarning hidinigina sezish mumkin. Bunday reaktsiyani bermaydigan buyumlarni hidi yo'q deymiz. Kimyoviy reaktsiya yo'li bilan ta'sirlangan nerv uchlari shu ta'sirni miyaning chakka qismiga yetkazib, ma'lum hiddan darak beradilar.

Umuman, hidni sezuvchi nervlar juda o'tkirdir. Chunonchi, bir gramm atir moyining yigirma besh million hissasini sezish mumkin. Ammo odamning hayotida hid sezgilari katta rol o'ynamaydi, shuning uchun ham u odamda unchalik rivoj topmaydi. Biroq ayrim sohalarda uning juda o'tkir bo'lishi va yaxshi taraqqiy etishi talab qilinadi. Masalan, kimyo, parfyumeriya, oziq-ovqat sanoatiga tegishli narsalarning sifat va navlari hidlash orqali ham aniqlanadi.

Hidni sezish oshqozon va nafas olish yo'llarini zararli moddalar ta'siridan saqlaydi va ogohlantiradi.

5. Maza sezgilari achchiq, nordon, sho'r va shirin ta'mlarni ongimizda aks ettirish demakdir.

Mazani sezuvchi mayda nerv uchlari til va tanglayning shilliq pardasidagi alohida ta'm so'rg'ichlarida joylashadilar.

Suvda yoki og'izda erigan moddalar shu nerv uchlariiga kimyoviy reaksiya yo'li bilan ta'sir ko'rsatadi. Shu yo'l bilan nerv uchlarda paydo bo'lgan qo'zg'alish miyaning chakka qismiga o'tib, mazani bilib olishga sababchi bo'ladi.

Shu nerv uchlardan tilning uchida joylashganlarida ko'proq shirinni, tilning yonlaridagilari achchiqni, tilning tomoqqa yaqin qismi esa asosan nordon va taxirni yaxshiroq sezib oladi. Tilning o'rta qismi tam sezmaydi.

Maza va hid sezgilari bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Qattiq tumov vaqtida ovqatning hidi sezilmagani uchun uning mazasi ham yo'qday ko'rindi.

Shu ikki sezgi organizmni zararli moddalardan ogoh etadi.

Ba'zi kasblar uchun, masalan, oziq-ovqat sanoati va oshpazlik sohasida shu ikki sezgining yaxshi taraqqiy qilgan bo'lishi talab etiladi. Masalan, degustatorlar' vino yoki choyning navini, sifatini hidlab va totib juda aniq bilib oladilar. Demak, bu qobiliyatni ham kamolotga yetkazib, xalq xo'jaligini rivojlantirish xizmatida foydalanish mumkin.

6. Eshitish sezgilari har qanday tovush, musiqiy ton va shovqinlarni ongimizda aks ettirish demakdir. Eshitishga moslangan a'zo quloq bo'lib, u uch qismdan iboratdir. Uning tashqi qismi quloq suprasi, eshitish yo'li va uning oxirida tarang tortilgan quloq pardasidan iborat: ichki qismida uchta eshitish suyakchasi bo'lib, ovoz to'lqini ta'siri bilan harakatga keladigan quloq pardasi bilan birga tebranadilar. Bu suyakchalardan eng oxirgisi ichki quloqqa tegib turadi va quloqning ichki qismidagi alohida suyuqlikni turtib tebratadi. Ichki quloq kichkina bo'shliqdan iborat bo'lib, unda spiralga o'xshab o'ralgan chig'anoq bor. Chig'anoqning eshitish nerv tolalaridan tuzilgan bir bo'lagi Kortiy organi deb ataladi. Bu tolalar royal similariga o'xshaydi hamda ularning miqdori 22 mingtagacha boradi. Bu nerv tolalari ma'lum tartibda joylashib, ularning uzunligi ham

Lotincha «degustare» – ta'm ko'rish dejan so'zdan olingan.

turlichadir. Ular ham royal simlari kabi, har qanday ovozdan tebranmas, balki o'zlariga moslangan ovozlardangina titraydilar, ya'ni ularning ayrim turkumlari ma'lum tezlikda tebranadigan ovoz to'lqinidan ta'sirlanib, shu ta'sirni miya po'stidagi eshitish markaziga beradilar. Natijada eshitish hodisasi paydo bo'ladi. Maxsus tajribalar yo'li bilan ma'lum bo'lganki, shu nerv tolalarining bir turkumi buzilsa, shunga moslangan ovozlarni eshitish qobiliyati ham yo'qoladi. Eshitish sezgilarini vujudga keltiruvchi qo'zg'ovchi ovoz chiqaradigan jismlar tebranishidan hosil qilinadigan havo to'lqinlaridir. Havo to'lqininining bir sekund ichida tebranish tezligi gerts bilan belgilanadi. Odam qulog'i 16 gertsdan 22 ming gertsgacha bo'lgan tebranishlarni sezaladi.

Musiqiy tonlar to'lqininining tekis ritmli tebranishidan, shovqin esa uning tartibsiz tebranishlaridan paydo bo'ladi. Og'zaki nutqda musiqiy (unli) va shovqinli (unsiz) tovushlar aralashib ketadi.

Tovush bir qancha tonlardan tuziladi. Shu tonlardan biri asosiy ton bo'lib, ovozning kuchi va balandligini belgilaydi. Boshqa tonlar unga qo'shilgan bo'lib, ular **obertonlar** deyiladi. Obertonlar bir xil balandlikda bo'lgan, ammo har xil musiqa asboblari, masalan, royal, dutor, g'ijjakdan chiqadigan ovozlarga xos xususiyatlarni belgilaydi. Ovozlarning shu kabi farqlari **tembr** deyiladi. Tembr ovoz to'lqininining tebranish shakliga bog'liq. Odamlarning ovozi ham tembr xususiyati bilan farqlanadi.

Tovush to'lqininining tebranish amplitudasi (baland-pastligi) ovozning qattiq-sekinligini belgilaydi. Tovush to'lqininining tebranish tezligi ovozning balandligi yo'g'onligini belgilaydi. Tovushlar birikib, ohangdoshlikni, tovushlar uyg'unligini vujudga keltiradi. Har xil balandlikda bo'lgan ikki yoki bir qancha tovushlar ayni vaqtda eshitilsa, biz ularni bir-biridan farq qilmasdan, murakkab bir tovush deb eshitamiz. Ohangdosh birikkan tovushlarni yaxshi ajratish uchun musiqiy qobiliyatga ega bo'lmoq kerak. Tovushlarning birikish darajasi har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli ularni **konsonans** va **dissonans** deb ajratadilar. Tebranish miqdori jihatidan bir-biriga 2:1 (oktava) va 3:2 (kvinta) munosabalda bo'lgan tovushlar eng mahkam birikadilar.

Bir-biriga mahkam bog'lanmagan ohangsiz tovushlar birikmasi **dissonans** deb ataladi.

Insonlar uchun eshitish sezgilar katta ahamiyatga ega, chunki nutqni o'zlashtirish tovushlarni yaxshi eshtish va ularni ajratishga bog'liq. Ona tilimizda ishlataladigan tovushlarni kichik yoshdan eshitib, ularga odatlanib qolamiz, shuning uchun ularni bir-biridan ajrata bilamiz va to'g'ri talaffuz qilamiz. Ammo chet tilidagi tovushlarni boshda ajrata olmaymiz, ularni talaffuz etishda qynalamiz, chunki ularga qulog'imiz o'rganmagan.

Kichik yoshdan qulog'i chala eshitgan bolalar ham ba'zi tovushlarni ajrata olmaydilar, shuning uchun ba'zi so'zlarni ravshan, dona-dona qilib ayta olmaydilar va xato qilib yozadilar.

Eshitish sezgilar ham odamning kasbiga qarab taraqqiy etadi. Masalan, musiqa bilan shug'ullanuvchilarda, chet tillardan dars beruvchilarda va umuman tilchilarda, musiqa asboblarini yasovchilarda bu qobiliyat ayniqsa yuksaladi.

5.2. Adaptatsiya hodisasi va sezgi a'zolarining o'zaro ta'siri

Sezilarli me'yordagi chegaralar professional tajriba va mashq qilganlik darajasi, charchash (umumi yoki ma'lum analizator) va salomatlikning holatiga bog'liq bo'ladi. *Adaptatsiya analizator sezgirligining unga uzoq ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchi ta'sirida yoki ular ta'sirining yo'qligida o'zgarishi* muhim ahamiyatga egadir. Adaptatsiya tufayli analizatorlar tashqi muhitning o'ta o'zgaruvchi sharoitlariga moslashishi mumkin. Adaptatsiya jarayoni sekin-asta yuzaga keladi va har xil analizatorlarda turlicha sodir bo'ladi.

Yorug'lik adaptatsiyasida yorqin nur ta'sirida ko'zning yorug'likka sezgirligi kamayadi, qorong'i binodan quyosh nuri yoritib turgan sexga chiqilganda ko'zning «o'rganishi» uchun 3-5 minut talab qilinadi. Qorong'ilik adaptatsiyasi yorug' xonadan yaxshi yoritilmagan xonaga o'tilganda bir necha o'n minutlarni talab qiladi.

Bir butun organizm adaptatsiyasi singari analizatorlar adaptatsiyasi temperatura sharoitlariga moslashish, sportchining moslashuvi («vtoroye dixaniye» va boshqalar) biologik

adaptatsiyaga kiradi. Bundan tashqari uni o‘z ichiga oluvchi adaptatsiyaning murakkabroq *ijtimoiy-psixologik adaptatsiya* turi ham mavjuddir.

Analizatorlar sezgirlingining o‘zgarishi faqat tashqi muhit sharoitlarining ta’siridangina emas, balki kishi o‘z ichki holatining ta’sirida ham yuz berishi mumkin. Sezgirlikdagi keskinlashuv tomonga bunday o‘zgarish *sensibilizatsiya* deyiladi. Sensibilizatsiyaning ikki turi: *fiziologik* (yuzni sovuq suv bilan yuvish ko‘rish analizatorlarining sezgirlingini oshiradi) va *psixik* turlari mavjud.

Sezgi a’zolarining o‘zaro ta’siri

Bir sezgi a’zosining sezgirlik darajasi boshqa sezgi a’zolarining ta’siri ostida o‘zgarishi, ya’ni uning sezgirlingining pasayishi yoki kuchayishi mumkin. Bunday hodisa **sezgi a’zolarining o‘zaro ta’siri** deyiladi. Sezgi a’zolarining bu xususiyati ularning nerv sistemasi orqali bir-biri bilan bog‘langanlik natijasidir. Shu masalani ayniqsa rus olimlari ko‘p marta tekshirib aniqlaganlar. Akademik Lazerovning isbot qilishicha, ko‘zga yorug‘ tushsa, buning ta’siri bilan quloq yaxshiroq eshita boshlaydi. Shuning uchun ham konvert berilganda, zalda chiroq o‘chirilmaydi va natijada musiqa cholg‘usi yaxshiroq eshitiladi. Ammo bo‘shgina elektr toki bilan qo‘lga ta’sir ko‘rsatish esa eshitish qobiliyatini pasaytirar ekan. Issiq ko‘z sezgirlingini pasaytiradi, ammo shu paytda bet yoki bo‘yinni salqin suv bilan yuvish natijasida ko‘zning sezgirlingini kuchaytirish mumkin. Kravkov va boshqa rus olimlari shuni aniqlaganlarki, qorong‘ida yaxshi ko‘rish uchun oldin ko‘zga qizil rangli yorug‘ bilan ta’sir ko‘rsatish kerak. Natijada ko‘zning sezgirligi oshadi. Ayniqsa, harbiy ishda bu qoidaning amaliy ahamiyati katta.

Musiqa ovozlarining badan a’zolarimizga, mushak sistemasiga qanday ta’sir ko‘rsatganligi hammaga ma’lum. Musiqa ovozi ta’siri bilan charchaganlik ham sezilmay, harakatlar yengil va chaqqonroq bo‘ladi, yurish o‘ng‘ayroq bo‘ladi. Buning sababi shuki, musiqa ovozlari ichki qulooqqa o‘tib, chig‘anoqdagi suyuqlikni ritmik titratadilar va nerv uchlarini qo‘zg‘atadilar, buning ta’siri mushaklarga o‘tib, ularni

taranglashtiradi. Buning natijasida badan a'zolarida alohida yengillik, chaqqonlik paydo bo'lganday his qilinadi. Umuman, sezgi a'zolarimizning sezgirlik darajasi ancha baland bo'lishi mumkin. Bu nerv sistemasining va sezgi a'zolarining salomatligiga va bizning amaliy faoliyatimizga bog'liqdir.

Biz dunyo bilan dastavval sezgi orqali tanishamiz, faqat sezgi orqali dunyoda turli-tuman narsalarning sifat va xususiyatlarini bilib olamiz. Shuning uchun ham sezgi a'zolarimizni rivojlantirishga, ularning sezgirligini oshirishga katta ahamiyat berishimiz lozim.

5.3. Sezgilarning rivojlanishi

Hozirgi davr bolalari ilgarigilardan anchagina farq qiladi. Buni amaliyotchi psixologlar, ilg'or pedagogik texnologiya bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar ham tasdiqlashi tabiiy.

To'g'ri, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, psixik jarayonlari (sezgi idroki va boshqa) sho'xliklari o'sha-o'sha, biroq ularning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari haddan tashqari darajada ko'p axborot bilan ta'minlanganligi bugungi kun o'quvchisining psixologik jihatdan (sezgi va idrokining rivojlanganligi va sog'lomligi) ta'lim-jarayonida yanada hushyor va hozirjavob bo'lishini hayotning o'zi talab etayapti. Endi o'quvchilarni ruhiy jihatdan salomatligisiz ta'limda samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'quvchilarning tafakkuri sezuvchi va idrok qiluvchi organlari zamonning taraqqiyot talablariga javob beradigan darajada rivojlangan bo'lishi kerak. Aks holda o'quvchilar o'qituvchining darsini to'liq idrok qila olmaydi. Yaxshi idrok qilish uchun esa o'quvchida bir qancha sezgi organlari to'plami rivojlangan bo'lishini talab etiladi. Shuning uchun ham quyida o'quvchilar sezgi organlarining rivojlanish qonuniyatlariga to'xtalib o'tamiz.

Sezish qobiliyati bolalik chog'idan rivojlanib bolaning jamiki sezgi a'zolari ona homilasidayoq o'sa boshlaydi va uning dunyoga kelishi bilan ishga tayyor bo'ladi. Biroq bu a'zolarning mukammal ishlashi va yetilishi miyaning yetilishiga, butun markaziy nerv sistemasining mustahkamlanishiga bog'liq. Yangi tug'ilgan bolaning ayniqsa **teri sezgilar** boshqa sezgilardan

yaxshi o'sganligini ko'rish mumkin. Chunonchi, bunday bola haroratning farqiga boradi, sovuq qotsa yig'laydi, issiq joyda tinchlanadi.

Teri tuyg'usi o'sganligini shundan bilish mumkinki, agar bolaning yuziga yoki lablariga salgina ursangiz, u darrov qimirlay boshlaydi va og'zi, lablarini emganda qanday qilsa, shu tariqa harakatlantiradi.

Bolaning **mushak va harakat sezgilarining** ham ancha taraqqiy qilganligini ko'rish mumkin. Masalan, chaqaloqning oyoq-qo'llari mahkam o'rab qo'yilsa, u harakatlarining to'sib qo'yilganligini his qiladi, buni yoqtirmasligini uning yuz ifodalaridan ko'rish mumkin, bunda uning yuzi qizaradi, qoshlarini chimiradi va aksincha, uni o'z erkiga qo'ysangiz, oyoq-qo'llarini harakatlantirib yayrab yotadi.

Shuningdek, chaqaloq qorni och-to'q ekanligini sezadagi biladi. Yangi tug'ilgan bola maza, tamni ham sezadagi oladi, achchiq bilan shirinning farqiga boradi. O'n sakkiz soatlik bolaning kerosin tomizib berilgan so'rg'ichni og'zidan darrov chiqarib tashlagani tadqiqotlardan ma'lum bo'lgan.

Chaqaloq hidlashni bilmasa ham, burniga kirgan hidni sezadi, bunga javoban lablarini qimirlata boshlaydi. Chaqaloqda ham tam-hid sezgilari bir-biriga juda bog'langan bo'lib, dastlab u asosan o'zining ovqatiga tegishli hidlarni ajratadi. Bir haftalik bolaga sigir sutini bergenlarida u sutni ona sutidan farq qilib, yuzini ters o'girganligi maxsus tajriba bilan aniqlangan.

Ammo bolaning qulog'i birinchi kunlarda hali eshitmaydi, chunki uning qulog'i ona qornidalik chog'ida maxsus suyuqlik bilan to'la bo'lib, shu suyuqlik tarqalib ketmaguncha bola hatto baland ovozlarni ham sezadagi olmaydi. Odatda, bir haftalik bola qattiq ovozni eshitadi, bundan cho'chib tushadi. Ammo uch haftadan keyin ham u eshitmaydigan bo'lsa, buning sababini bilish uchun tibbiyot xodimiga murojaat etmoq zarur. 2 oylik go'dak ovoz kelayotgan tomonga qaray boshlaydi. Ayrim hollarda hatto 5-6 oylik bolalarning ham musiqani yoki alla va ashulani zavq bilan tinglaganliklari ma'lum.

Ko'rish sezgilarini eng keyingi navbatda rivojlanadi. Buning sababi shundaki, ko'z eng murakkab tuzilgan sezgi a'zolaridan

bo'lib, yangi tug'ilgan bolada u hali tamom yetishgan bo'lmaydi. Bolaning ko'z qorachig'i darrov ishlay boshlaydi, ya'ni yorug'dan kengayib, qorong'ida torayadi. Ammo bola hali ravshan ko'ra olmaydi, chunki ko'z soqqalari bir-biriga moslanib harakat qila olmaydi. Ma'lumki, yangi tug'ilgan bolaning ko'zi biri ochiq, biri yumulgan holda yoki g'ilay bo'ladi, chunki uning harakatini idora qiladigan maxsus mushaklar hali yetarli o'sib mustahkam bo'lmaydi. Lekin ikki oylik go'dakning ko'zi shunchalik rivojlanadiki, u bir narsaga tikilib qaray boshlaydi va buyumlarning harakatiga moslangan holda, ularni kuzata oladi. Psixolog olimlar 5 - 6 oylik bolaning ranglarni ham ajratalishlarini aniqlaganlar. O'sha yoshdanoq bolalar rang-barang o'ynichoq yoki rangli buyumlarga ko'proq qiziqadilar, odatda hammadan ham ko'proq qizil rangni sezadilar.

Xullas, sezish qobiliyati yangi tug'ilgan bolalarga xos bo'lib, butun bolalik davrida rivojlanib boradi va to'liq shakllanib ulguradi. Biroq buning uchun bolaga to'g'ri tarbiya berish zarur, uning sezgi a'zolariga, xususan qulooq va ko'ziga ehtiyyot bo'lmoq kerak. Ma'lumki, bolalikda ko'p uchraydigan har qanday kasalliklar bolaning qulog'i va ko'ziga ta'sir qiladi. Bolani bunday kasallikklardan saqlash va kasallik alomatlari sezilsa to'g'ri davolash kerak. Mamlakatimizda bolalar sezgi a'zolarini shakllantirish uchun turli rang-barang o'ynchoqlar ishlab chiqariladi, sifatli kitoblar nashr etiladi va sezgi, idrok a'zolarining o'tkirligini oshirishga mo'ljallangan o'yinlar uyushtiriladi. Yasli va maktabgacha ta'lim muassasalarida ular uchun qulay sharoitlar yaratiladi, o'quvchilar uchun o'quvchilar saroyi va maktabda har xil to'garaklar tashkil etiladi. Yosh avlodni sog'lom va tetik o'stirishda ota-onalarga yordam berish uchun maxsus maslahatxonalar uyushtiriladi va ommabop adabiyotlar nashr etiladi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar va uning ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'ygan talabi, yurtimiz ta'lim tizimida amalgalashirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayoni tabiyki har bir o'quvchining psixologik jihatdan sog'-salomat bo'lishini taqozo etmoqda. Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni bevosita ta'lim tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bugun jahonning

boshqa bir mintaqasidagi kichik bir yangilik yohud ilmiy o'zgarish butun jamiyat taraqqiyotida muhim o'rinn tutadi. Shu nuqtai nazardan, Respublikamiz ta'limi va o'quv tarbiya jarayoniga kirib kelayotgan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalari bevosita o'quvchilarimiz bilim samaradorligining oshishiga xizmat qilishi bilan birga ularning psixik dunyoqarashini sog'lomlashtirish va rivojlantirish bilan ham ahamiyatlidir. Tabiiyki, maktab ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri va ilmiy asosda tashkil qilish uchun, eng avvalo o'quvchining o'ziga xos psixologik holatlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Zotan, har bir bola o'ziga xos fe'l-avtor egasi. Bunda esa har bir o'quvchiga individual munosabatda bo'lish, ularning psixologik dunyosini o'rganish orqali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish eng samarali usuldir.

12-jadval

Sezgining paydo bo'lish sxemasini quyidagicha ko'rsatish mumkin:



Demak, maktab o'quvchisi sezgi organlarini yaxshiroq rivojlantirishning shart-sharoitlarini yaratish uchun pedagog, avvalo, turli yosh davrlarida analizatorlar rivojlanishida sodir bo'lувчи qonuniy o'zgarishlarni yaxshi bilishi hamda hisobga olishi, ikkinchidan, analizatorlarning normal ishlashini ta'minlovchi tegishli shart-sharoitlardan xabardor bo'lishi, bu shart-sharoitlarni hisobga olishi va yaratishi, uchinchidan esa har qaysi sezgini rivojlantirishga imkon beruvchi mashqlarni bilishi, binobarin, bunday mashqlarni uyuشتира olishi zarur.

Mana shu sanab o'tilgan vazifalarning eng muhim o'rirlari ustida qisqa-qisqa to'xtalib o'tamiz.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida ko'rish sezgilarining ahamiyati kattadir. Ish paytida ko'zni kitobdan (daftardan, chizmadan) 20-25 sm oraliqda tutish normal holat hisoblanadi. Ammo bu shartga o'quvchilarning hammasi ham riosa qilavermaydi, bunga ayrim holda o'quvchilarning shunchaki ehtiyyotsizliklari sabab bo'lsa, boshqa hollarda ularning ko'zi yo yaqinni, yo uzoqni yaxshi ko'ra olmasligi sabab bo'ladi.

Ko'zning yaqinni yoki uzoqni yaxshi ko'rish hodisasi ko'z soqqasi shaklining o'zgarishi oqibatida (ko'z soqqasi tuxumsimon shaklda cho'zinchoqroq bo'lsa, ko'z yaqindagi narsalarni yaxshi ko'radigan bo'ladi, aksincha, ko'z soqqasi yassilashsa, odam uzoqni yaxshi ko'ra oladi) yoki ko'z gavharining elastikligi yo'qolishi natijasida yuz beradi. Ko'z gavhari elastikligining izdan chiqishi ko'zning uzoqdagi narsalarga nisbatan o'tkirlashuviga olib keladiki, bu hol qarilik kasali deb ham yuritiladi. Ko'z soqqasi shaklining o'zgarishi tug'ma ham bo'lishi mumkin, biroq yotgan holda kitob o'qish yoki stolda ishlab o'tirgan paytda boshni ortiqcha munkaytirish ham ko'z soqqasi shaklini o'zgartirishi mumkin, chunki bunday holat ko'z soqqasi qon tomirlariga keragidan ziyod qon quyilishiga hamda qon bosimining kuchayishiga olib keladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ravshan ko'rishning eng yaqin nuqtasi odamda yoshi ulg'ayib borishi bilan ko'zning akkomodatsiya qobiliyati o'zgarishi hisobiga, aniqrog'i, ko'z gavhari elastikligining asta-sekin zaiflashuvi hisobiga o'zgarib borar ekan. Masalan, ravshan ko'rishning eng yaqin nuqtasi 10 yoshda ko'zdan 7 sm, 20 yoshda 10 sm, 30 yoshda esa 14 sm uzoqda bo'ladi. Demak, kichik yoshdagi maktab o'quvchisining boshni munkaytirib o'qishi yoki yozishi uning kitob yoki daftardagi barcha yozuvlarni yaxshi ko'rishiga uncha xalal yetkazmasa ham, ko'zni bu tarzda yozuvga yaqin tutish, yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'z soqqasining shaklini o'zgartirishdan tashqari, pirovardida ko'zning akkomodatsiya muskullarini zo'riqtiradi, o'quvchini toliqtiradi, bosh og'rig'i va turli nerv kasalliklariga ham olib keladi.

Ko'zning akkomodatsiya mexanizmlari zo'riqishi va buning barcha oqibatlari xona ichi yetarli darajada yoritilmagan sharoitda ham yuz beradi¹.

Mayda va olisdagi narsalarni ko'ra olish qobiliyati *ko'zi o'tkirlig* deb ataladi. Bolalar va o'smirlarning ko'zi ancha o'tkir bo'ladi, yosh ulg'aygan sari ko'z o'tkirligi zaiflashib boradi. Odam charchaganda ko'zning o'tkirligi keskin pasayadi, mayda buyumlarni ko'zdan kechirishda tikilib qarash olisdagi narsalarga nisbatan ko'z xiraligini kuchaytiradi.

Bolada eshitish organlarining rivojlanishi u taxminan 12 yoshga yetganida batamom tugallanadi. 14-19 yoshlar o'rtasida eshitish sezgirlingi nihoyat darajada rivojlanadi.

Eshitish organiga ta'sir etuvchi tovushlar o'rta qulqoqda o'nlaracha marta kuchayadi, bu esa odamda tovush sezgirlingining yuqori darajada o'sishi shartlaridan biridir. O'rta qulqoqda joylashgan nog'ora parda zararlansa, tovush kuchaymaydi, natijada eshitish sezgirlingi keskin pasayib ketadi. Juda kuchli tovushlar ta'siri ham, shuningdek, harorat tebranishining keskin o'zgarishi ham eshitish sezgirlingiga xalal yetkazadi. Eshitish organining tuzilishida deyarli farq bo'lmasligiga qaramay, eshitish sezgisining odamda rivojlangan bo'lishi, shu jumladan, kuylarni ayirish qobiliyatining o'sishi batamom va to'la mashq qilishga bog'liqdir.

Teri sezgisi odamda 20-25 yoshga yetgunga qadar muntazam ravishda o'sib boradi, biroq teri sezgisining tez va yuksak darajada rivojlanishi analizatorlarning mashq qilishiga bog'liqdir. Shu yerda bir xarakterli misol keltiramiz. Chunonchi, onadan tug'ma ko'r, garang va soqov bo'lib dunyoga kelgan rus ayoli O.I. Skoroxodova omma o'rtasida chiqishlaridan birida mikrofonni qo'lga olar ekan, uning chang ekanligini bildirgan (bu bilan uchrashuv tashkilotchilarini qattiq xijolatga qoldirgan), holbuki mikrofon ustiga qo'ngan chang ko'z ilg'amas darajada edi. Bu gaplar tebranislarni sezish, ta'mmaza va hid sezgilarini rivojlantirishga ham taalluqlidir. Ko'zi

¹ Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. -T.: «O'qituvchi» 1972, 107-110 betlar.

ko'r bolalarning o'zlariga tanish kishilarni «qadam tashlashidan» (vibratsiya) yoki turli buyumlarni hididan bexato tanib olishlari tasodifiy hodisa emas. Gimnastika, suzish, boks, sakrash (shu jumladan, suvgaga sakrash, tramplindan sakrashlar) bilan muntazam shug'ullanish vestibulyar apparatning va shu bilan bog'liq ravishda, muvozanat sezgisi hamda gavdaning fazodagi holatini sezish qobiliyatining muvaffaqiyatli rivojlanishiga imkon yaratadi.

Eng so'nggi tadqiqotlar harakat analizatorining faoliyati bilan yurak-tomir sistemasi, ovqat hazm qilish organlari faoliyati va ichki organlarning boshqa funktsiyalari o'rtasida shartli refleks bog'lanishlari mavjudligini ko'rsatib berdi.

Maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatlarini tashkil qilishda turli sezgi organlarida ro'y beruvchi adaptatsiya hodisasini har doim hisobga olish kerak. Bunday hodisa sababli o'quvchilar xona ichi yetarli darajada yoritilmaganini, uydagi havoning dimligini sezmay qoladilar va h.k. Ammo bunday «moslashish» garchi o'quvchilarining o'ziga sezilmasa ham, ularni toliqtirib qo'yadi va binobarin, ularning ish qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Shuning uchun ham maktabda gigiyena normalarining bajarilishini sinf xonasida hamisha sof havo bo'lishini, xona ichi normal, yetarli darajada kuchli va shu bilan bir vaqtida, tarqoq nur bilan yoritilishini kuzatib borish juda muhim ahamiyatga ega. Ortiq darajada kuchli, yorqin nur, shovqinsuronlar, kuchli og'riq, qorin ochligi, sovuq qotish, isib ketish, chanqash va shu kabi holatlar o'quvchilarining ish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki o'quvchilar analizatorlarining sezgirligini susaytirib yuboradi. Bu hol o'quvchilarining o'quv faoliyatini uyuştirishda albatta hisobga olinishi zarur. Shu tufayli sinfda darsga aloqasiz, ayniqsa kuchli qo'zg'ovchilar bo'lmasligi kerak yoki bo'lganda ham, nihoyat darajada kam qoldirilishi lozim.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Voqelikni psixik aks ettirish formalaridan biri bo'lmish sezgilarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat va ularning boshqa psixik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi

nimada ko'rinadi? Bu haqda bilganlaringizni misollar bilan tushuntirib bering.

2. Sezgilarning turlarini, sezgirlik va uning chegaralarini tushuntirib bering.

3. Nima sababdan har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarining ko'rish va eshitish sezgilariga xos xususiyatlarini bilishi zarur? Bu xususiyatlar nimada ifodalanadi va siz o'qitadigan fan bo'yicha o'quv ishi jarayonida ularni qanday hisobga olish kerak?

4. Sezgilarni amaliy misollarda ko'rsatib bering.

5. Sinf xonasi devorlarini, partalar va boshqa jihozlarni qanday fanga va qaysi yoshda tavsiya etiladi va buning sababi nimada?

6. Analizatorning turli qismlarida zohir bo'lувчи nerv jarayonlarini tushuntirib bering.

7. Sezgilarning asosiy qonuniyatları nimada ko'rinadi?

8. O'quvchilardan birortasining eshitish bo'yicha absolyut sezgirligini aniqlang. Buning uchun tekshirib ko'rmuoqchi bo'lgan kishingizni stulga o'tirg'izib, undan ko'zlarni yumishni iltimos qiling, shundan so'ng soatni unga tomon yaqinlashtira boring. Tekshirish o'tkazilayotgan soatning tovushini eshitish bilanoq bu haqda bildirishi lozim. Xatoga yo'l quymaslik uchun tajribani bir necha marta takrorlang. Tekshirish o'tkazilayotgan kishi har safar «Eshitdim» degan zahoti, u bilan soat o'rtasidagi masofani o'lchab chiqing. Ko'pmarta o'tkazilgan o'lchovlar asosida o'rtacha masofani aniqlang. Shartli (chiziqli) birliklardagi bu masofa tekshirish o'tkazilgan shaxsnинг eshitish bo'yicha absolyut sezgirlik darajasi ham bo'ladi. Yana boshqa kishi bilan tekshirish o'tkazilsa, odatda boshqa miqdor kelib chiqadi. Tekshirish o'tkazilgan kishilardan biri soatni ilg'ab oladi. Shulardan qaysi birida absolyut sezgirlik darajasi yuqori ekanligini aytib bering.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. И.М.Сеченов. Органы чувств. Осязания как чувство, соответствующее зрению. Орган слуха физиологические очерки. Ташланган асарлар. I том. -М.: ФА, 1952.

2. Umumiy psixologiya. Prof. A. V. Petrovskiy tahriri ostida qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. -T.: «Prosvesheniye», 1977-y.

3. E.G'oziyev. Psixologiya. -T.: «O'qituvchi», 1994-y.

4. Muhammedov D.Sh. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T.: 2004.

5. Psixologiya kursi. Prof. M.V. Gamezo tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1972-y.
6. Umumiy psixologiya (O'quv qo'llanma) M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva. –Toshkent: 2002.
7. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Prof. A.I. Shcherbakov tahriri ostida. –Toshkent: «O'qituvchi», 1984-y.
8. P.I. Ivanov. Umumiy psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1963-y.
9. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Prof. M.G. Davletshin tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1974-y.
10. E. G'oziyev, A. Jabborov. Faoliyat va xulq atvor motivatsiyasi. – Toshkent: 2003.

IDROK

6.1. Idrok haqida umumiy tushuncha

Idrok voqelikdagi narsa va hodisalarning sezgi organlarimizga ta'sir qilishi tufayli ongimizda yaxlit ravishda aks etishidir.

Idrok jarayonida narsaning yaxlit obrazi hosil qilinishiga sabab shundaki, odamda hayot davomida murakkab kompleks qo'zg'ovchilar ta'siri tufayli juda ko'p mustahkam muvaqqat bog'lanishlar vujudga kelgan bo'ladi. Shuning uchun idrok narsalarning faqat ayrim xususiyat hamda sifatlarini aks ettiruvchi sezgidan farq qilib, doimo yaxlit va predmetlidir. Idrok bir qator analizatorlardan keluvchi sezgilarni birlashtiradi. Inson idroki hayvonlar sezgilari kompleksidan farq qilib, idrok qilinayotgan narsani tushunishni o'z ichiga oladi. Masalan, burgut odamdan ko'ra ancha uzoqni ko'radi, biroq inson ko'zi buyumlarda burgut ko'zidan ko'ra ko'proq narsalarni ko'radi. Itning hid bilish qobiliyati insonnikiga nisbatan ancha nozikdir, biroq u inson uchun turli buyumlarning ma'lum belgilari bo'lgan hidlarning yuzdan birini ham farqlay olmaydi.

Idrok to'liq va chala, chuqur va yuzaki, aniq va xato yoki illyuziyali, tezkor va sust bo'lishi mumkin. Bularning bari sezgi organlarining sezgirligiga, oldin egallagan tajriba va bilimlarga, kuzatishning diqqat-e'tiborliligidagi, idrok qiluvchining qobiliyatlari va aqliy o'sganligiga, izchil idrok qilish hamda idrok qilinayotgan obyektning turli tomon va xususiyatlarini baholay bilishiga bog'liq bo'ladi.

«Kishilar o'rtasidagi individual farqlarning muhim xususiyati idrok qilish tezligi o'rtasidagi farqdir, ya'ni qo'zg'atuvchining o'zini deyarli aniq idrok etilishi uchun ta'sir vaqtining eng kam bo'lishidadir». Qo'zg'atuvchi qanchalik murakkab bo'lsa, uning idrok qilish vaqtini shunchalik ko'p bo'ladi. Idrok qilish tezligi mashq qilish natijasida oshib boradi. Idrok qilish tezligi charchash, kasallik va zo'riqish ta'sirida pasayadi. Idrok qiziqishga ham bog'liqdir. Birorta qiyin yoki murakkab ishni

muvaqqiyatli bajarish natijasidagi ish qanchalik qiyin va mas'uliyatli bo'lgan bo'lsa, quvonch hissiyoti shunchalik kuchli, keyingilarini idrok qilish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi. Idrok doimo konstant (ya'ni doimiy)dir. Bevosita bilish undan oldingi tajriba bilan to'ldiriladi, shuning uchun ham u doimo anglangan bo'ladi va uni so'z bilan u yoki bu darajada to'liqroq ifodalash mumkin. Idrok tanlovchandir, ya'ni yaxlitning zarurroq bo'lgan detallari aniqroq idrok qilinadi. Ongning faolligi idrokning tanlovchanligida namoyon bo'ladi¹.

Idrokning tanlovchanligi idrok qilinayotgan narsalarning obyektiv xususiyatlariga ham, subyektiv holat, jumladan appertseptsiyaga ham bog'liqdir.

Appertseptsiya idrokning inson psixik hayotining umumiyo mazmuni, uning tajribasi, qiziqishi, yo'nalganligiga bog'liqdir.

Idrokni sezgi turlaridan birontasining unda ustunligiga qarab ko'rish, eshitish, maza va boshqa xillarga qarab ham bo'lishga o'rganganmiz. Lekin idrok hamisha turlicha sezgilar va sezgi organlarining o'zaro aloqasi hamda o'zaro ta'sir ko'rsatishi asosida yuzaga keladi. Ya'ni idrokning sezgidan farqi shundaki, sezgida bitta sezgi a'zosi qatnashsa, idrok qilganimizda bir qancha sezgi a'zolari qatnashadi va shundan bittasi asosiy bo'ladi.

Idrok qilish diqqatga ham bog'liq. Ammo diqqat bir narsaga ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz jalb qilinmog'i mumkin. Shuning uchun ham idrok qilishning ham ixtiyoriy, ham ixtiyorsiz ko'rinishi bor. Ixtiyorsiz idrok qilish bizda to'xtovsiz bo'lib turadigan psixik holatdir, chunki atrofimizdagi har qanday buyum va hodisalarни ko'rmasdan, eshitmasdan, ularni his qilmasdan yashayolmaymiz.

Oldimizga qo'yilgan maqsadga muvofiq ajratilgan narsalarni miyamizda aks ettirish ixtiyoriy idrok qilish deyiladi.

Kitob o'qish, ma'ruza eshitish, mas'uliyat bilan birovning gapini tinglash bunga misol bo'la oladi. Idrok qilish jarayonining fiziologik asosi buyum va hodisalarning ta'siri bilan sezgi

¹ K.K. Platonov va boshqalar. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982.

a'zolarida paydo bo'ladigan alohida nerv qo'zg'alishining miya po'stiga borib, uning ko'p qismlariga yoyilishi va ularning o'zaro bog'lanishidan iboratdir. Shuning uchun ham idrok qilish murakkab va yaxlit jarayondir.

6.2. Idrokning fiziologik asoslari

Yuqorida aytganimizdek idrokda hamisha turli sezgi organlari vositasi bilan idrok hosil qilinadi. Demak, idrokka asos bo'lgan fiziologik-psixologik jarayonlarda ham qo'zg'alish jarayonlari bor, ya'ni tashqi olamdag'i narsalarning sezgi organlarimizga ko'rsatgan ta'siri bilan shu sezgi organlarida boshlanib, so'ngra markazga eltuvchi nervlar orqali bosh miya yarim sharlarining po'stiga borib yetadigan qo'zg'alish jarayonlari bor. Tashqi olamdag'i predmet va hodisalarning qanday analizator orqali aks ettirilishiga yoki bunda analizatorlardan qaysi birini eng muhim o'rinn tutganiga qarab, ko'rish, eshitish, harakat, teri, tam va hid bilish vositasi bilan idrok qilish turlariga ajratiladi.

Shartli reflekslarni o'rganish maqsadida qilingan tajribalar shuni ko'rsatdiki, agar analizatorga bironta yakka qo'zg'ovchi emas, balki bir qancha qo'zg'ovchilar (masalan, muayyan bir temp bilan beriladigan bir qator qo'zg'ovchilar) muntazam ta'sir qilib tursa, bundan tug'iladigan reaksiya har bir qo'zg'ovchining o'z xususiyatiga qarab emas, balki bu qo'zg'ovchilarning o'zaro qanday bog'lanishiga, o'zaro nisbatiga xos bo'lgan xususiyatlarga qarab tug'ila boshlaydi. Masalan, qilingan tajribalardan ba'zilarida aniq belgilangan tartib bilan minutiga bir necha marta to'xtab-to'xtab qo'ng'iroq chalingan. Bunda tug'ilgan refleksning qo'ng'iroq ovozining qandayligiga emas, balki ovoziniuzuq-yuluq eshitilishiga bog'liq holda tug'ilganligi ma'lum bo'lgan. Chiroqni dam yondirib, dam o'chirib qilingan tajribada ham shunday hodisa yuz bergan: refleksning tug'ilishiga yorug'ning sifati emas, balki qo'zg'ovchilarning bir-biri bilan muayyan tartibda bog'lanishi sabab bo'lgan, ya'ni yorug'likning rangi o'zgarsa ham, ammo chiroq boyagiday ma'lum bir tartibda dam-badam o'chirib-yondirib turilsa, refleks davom etaverarkan. I.P. Pavlov refleksning bu xilini *munosabat refleksi* deb atagan.

Munosabat reflekslarini tekshirish natijasida aniqlangan ayrim qo'zg'ovchilar o'rtasidagi bu bog'lanishlar idrok jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bunday bog'lanishlarning eshitish analizatorida paydo bo'lishi, ohang tarkibiga kiradigan tovushlarning absolyut balandligi va kuchidagi farqlardan qat'iy nazar, tovushlarning bir-biriga nisbatidan ohangni tanib olishga imkon beradi. Bunday bog'lanishlarning ko'rish analizatorida hosil bo'lishi, predmetlarning katta-kichikligi, rangi va boshqa sifatlaridan qat'iy nazar, figura konturlarini topib olishga imkon beradi. Shunday qilib, predmetlarni yaxlit holicha idrok qilish tarkibiga qo'zg'ovchilarning bir-biriga nisbatini idrok qilish kirar ekan.

Bir analizator doirasida sodir bo'ladigan jarayonlardan tashqari, analizatorlarning o'zaro bog'lanishi nihoyat katta ahamiyatga egadir. Muvaqqat bog'lanishlarning idrok jarayonidagi rolini ko'rsatish uchun narsalarning katta-kichikligini ko'z bilan ko'rib idrok qilishni misol qilib olsa bo'ladi.

Narsalarning katta-kichikligini idrok qilish, avvalo, narsaning ko'zdagi to'r pardasida aks etgan suratining katta-kichikligiga bog'liqdir. Uzunligi ikki baravar ortiq bo'lgan predmetning ko'z to'r pardasida aks etgan surati ham ikki baravar uzun bo'ladi. Biroq bu biz ko'rayotgan narsalarning bizdan uzoqligi baravar bo'lgandagina shunday bo'ladi. Optika qonunlariga muvofiq, ko'z to'r pardasidagi suratning katta-kichikligi predmet bilan ko'z orasidagi masofaning o'zgarishiga qarab o'zgaradi. Masalan, uzunligi ikki baravar ortiq bo'lgan bir narsa ikki baravar uzoqroq joyda tursa uning surati uzunligi ikki baravar kam, ammo ikki baravar yaqinroq joyda turgan narsaning suratiga teng baravar bo'ladi. Shunday bo'lgach, biz turli masofada turgan narsalarning katta-kichikligini qanday qilib aniq bilib olamiz?

Ko'z bilan ko'rib idrok qilish jarayonida ko'z soqqasining harakati muhim rol o'ynaydi. Ko'zni uzoqdagi narsadan yaqindagi narsaga burganda ko'zning ko'rish o'qlari bir-biriga yaqinlashib qoladi va ko'z soqqasi qanshar tomon buriladi. Aksincha, ko'zni yaqin turgan predmetdan uzoq joyda turgan

narsaga burganda, ko'rish o'qlari bir-biridan uzoqlashadi va ko'z soqqasi tashqi tomon buriladi. Ko'z soqqasining burilishlari ko'z muskullarining qisqarishi va bo'shashishi bilan sodir bo'ladi. Bunda paydo bo'ladigan va lekin bizga odatda bilinmaydigan harakat sezgilar narsaning katta-kichikligini idrok qilishda muhim rol o'ynaydi.

Narsalar yaqinlashgan va uzoqlashganda ko'z gavhari formasining o'zgarishi ham katta axamiyatga ega. Bu ham alohida ko'z muskulining qisqarishi va bo'shashishi bilan sodir bo'ladi, bu hol odatda bizga bilinmaydigan sezgilar bilan bog'liqdir.

Narsalarning katta-kichikligini ko'z bilan ko'rib idrok qilish ko'zning to'r pardasidan, shuningdek, ko'zni bir nuqtaga to'g'riliyadigan muskullardan va masofaga moslanib ko'z gavharining bo'rtig'ini o'zgar-tiradigan muskullardan tug'iluvchi nerv qo'zg'alishlar o'rtasida hali chaqaloqlik chog'idan boshlab paydo bo'ladigan mustahkam bog'lanishlar tufayli sodir bo'ladi. Miya po'stida hosil bo'ladigan va ko'rish idroklarining negizini tashkil qiladigan nerv bog'lanishlar hayotimizning dastlabki oyalaridan boshlanib, ko'p vaqtlar davom etgan tajriba yo'li bilan sekin-sekin hosil bo'lib boradi.

Narsalarning katta-kichikligini ko'z bilan ko'rib idrok qilishning asosini tashkil qilgan nerv bog'lanishlar chiqib kelish jihatdan shartli reflekslar qatoriga kiradi. Shartli refleksning bu murakkab xili juda yoshlik chog'lardan boshlaboq hosil bo'ladiki, bu yoshda buyumlarning haqiqiy katta-kichikligi bilan buyumni ushslash, paypaslash yo'li bilan ham tanishiladi. Shunday qilib, teri tuyg'usi ko'rish idroklariga madad berish rolini bajaradi.

Narsalarning katta-kichikligini ko'z bilan ko'rib idrok qilishni misol keltirishdan aniq bo'lganidek, idrokning asosini tashkil etuvchi barqaror nerv bog'lanishlarning hosil bo'lishi tufayli obyektiv dunyoning shunday xossalarni bilishga imkon tug'iladiki, ayrim sezgilar bunday xossalarni bilishga ojizlik qiladi.

Appersepsiya qonuni

Tevarak-atrofdagi narsalarni miyaga qabul qilish, ularni oyna kabi sodda aks ettirish emas, balki inson miyasiga ularning qanday mazmunda aks ettirilishi insonning butun tajribasiga bog'liq bo'lib, mazmuni shuning bilan belgilanadi. Idrok qilish xarakterining shaxsga bog'liq bo'lishi *apperepsiya* deyiladi. Shaxsning butun hayoti, turmush tarzi, uning tajribasi, amaliyoti, bilim va madaniy saviyasi, manfaati, qiziqish-havasi, ma'naviyati, dunyoqarashi va kasbi bularning hammasi uning appersepsiyasini belgilaydi. Shuning uchun ham bir hodisa yoki buyumni turli kishilar turlicha qabul qiladilar. Bir narsaning o'ziga turli kishilar turlicha ko'z bilan qaraydilar va har kim uni o'zicha, ya'ni o'zining appersepsiyasiga muvofiq ongida talqin ettiradi. Bir kishi bir narsani yuzaki idrok qilsa, boshqa birov buning mohiyatini chuqur tushunib idrok qiladi.

Masalan, A.Qahhorning «Xotinlar» nomli asarida chol Asqarota o'zbek xotin-qizlarida paydo bo'lgan yangi g'oyaviy-siyosiy fazilatlarni ularning manbai yuksak vatanparvarligi ekanligini qanday fahmlab olganligini qo'yidagicha tasvirlaydi: «Odamzodning fe'li shundayki, bor narsa asta-sekin yo'qolsa ham payqaydi, lekin yo'q narsa asta-sekin paydo bo'lsa, uncha payqamaydi. Asqar ota o'ylab qarasa, xotinlar suhbat qo'rini ochib yuboripti, ko'zini ochib qarasa, o'z qishlog'ida bo'lak joylarda ko'rgani, bilgani xotinlarning nimadan iborat ekanliklariga yaxshi razm solmagan va ularning kamolotini payqamagan ekan. Endilikda «munglik», «mushtipar» singari so'zlar qovushmay qolgan bu xotinlar hech biri qilayotgan ishiga, kasbi-koriga sabab tirikchilik deb qaramaydi. Bularda qandaydir bir ichki dard bor. Shunday ichki dard, kundalik tirikchilikdan yuksakroq bir sabab bo'lmasa hech qanday qonun, hech qanday shaxsiy manfaat bularni bir xilda ishlashga majbur qila olmaydi».

Asqarota kolxozdagi xotin-qizlar mehnatiga boshqacha nuqtai nazardan qarab, bundan chuqur ma'no oladi, vatan sharafiga jon kuydirib, katta zavq bilan mehnat qilayotgan o'zbek xotin-qizlarini taqdirlaydi.

Kishilarning sinfiy chiqishi va maskurasi ularning idrok qilishlariga ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy ongi o'sgan, porloq istiqbolni ko'z o'ngida tutgan kishilar jamiyatda paydo bo'ladigan yangiliklarni ko'rib, chuqur qanoat hosil qilganlarida, bizning maskuraviy dushmanlarimiz esa bularni ko'rib ichlari kuyadi.

Kishilarning appersepsiysi uning yoshiga, olgan tarbiyasiga, shaxsiy hayotining o'zgarishiga ham bog'liq. Chunonchi, yoshligimizda o'qigan kitoblarni ulg'aygandan keyin, bilim va g'oyaviy-siyosiy saviyamiz ko'tarilgandan keyin yana bir marta o'qib ko'rsak ilgari payqalmagan narsalar hozir e'tiborimizni o'ziga jalb qilib, bizni qoyil qoldiradi. Demak, bir narsani hayotimizning har xil davrlarida har xil idrok qilar ekanmiz.

Shunday qilib, odamlarga baho berganimizda, ularni tarbiyalaganimizda appertseptsiya qonunlarini albatta e'tiborga olish zarur va shunga qarab to'g'ri muomala qilish kerak.

O'quvchilarning o'qish materialini qanday miyada olib qolishlari, ularning appersepsiyasiga, ya'ni o'quvchilardagi dastlabki bilim, tasavvur va tushunchalar boyligiga bog'liq, ularning o'sha vaqttagi ruhiy holatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun ham mohir o'qituvchi yangi materialni o'rgatish oldidan, o'quvchilarning bunga nisbatan appersepsiyasini aniqlab oladi, ularning bungacha hosil qilgan tajriba va bilimlariga suyanadi.

Idrok illyuziyalari


Illyuziya deb, yanglish va noto'g'ri idrok qilishni aytamiz. Ya'ni illyuziya borliqning noto'g'ri aks ettirilishidir. Ularni fiziologik va psixologik sabablar keltirib chiqarishi mumkin. Jismoniy sabablar keltirib chiqargan illyuziyaga stakandagi choyga solingan qoshiqni siniq deb idrok qilinishi misol bo'la oladi.

Agarda ko'zimizning tagiga yon tomondan barmog'imizni biroz botirsak, ko'rib turgan predmetimiz ikkita ko'rindi. Bu fiziologik sabab uchun misoldir. Kontrast natijasida bo'ladigan

noto'g'ri ko'rinish **psixologik** sabab uchun misoldir: oq fondagi kulrang doimo qora fondagidan ko'ra to'qroq ko'rindi. Shuningdek, psixologik illyuziyaning vertikal chiziqlar uzunligini gorizontal chiziqlar uzunligiga nisbatan ortiq baholanishining amaliy ahamiyatini aytib o'tish lozim.

«Illyuziyalar faqat idrokdagina emas, balki xotira, tafakkur, umuman aks etishning barcha formalarida bo'ladi. Shunday bo'lsada idrokdagagi illyuziyalar ko'pincha predmetlarning hajmlari parallelligi va bir-biridan uzoqligini aniqlashdagi xatoliklarga sabab bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun aniqlik talab qilinadigan joylarda kurish idroki o'lchov sabablari bilan o'lchab tekshirilishi lozim»¹.

Harakatni idrok qilish fazo vaqtidagi o'rin almashuvlarni idrok qilib bo'lib, harakatni baholash vaqt intervallarini idrok qilishga bog'liq bo'ladi, chunki fazodagi har qanday harakat tezligi va yo'nalishi bilan xarakterlanadi. Bu ishlab chiqarish ishida, masalan, ishlab turgan mexanizmning harakatlanib turgan qismlarini kuzatishda katta ahamiyatga egadir. Bu vaqtida harakatning turli tomonlari – shakli, yo'nalishi, tezligi ko'lami idrok qilinadi. Biroq, harakatning hamma tomonlarini ham ko'rib sezib olish va to'g'ri baholash mumkin emas. Anchagina sekin harakat, masalan, soat strelkasining yurishi bevosita ko'rib idrok qilinmaydi.



Idrok bizning qiziqishlarimiz hamda irodamiz bilan qay darajada bog'liqligiga qarab ixtiyorsiz va ixtiyoriyga ajratilishi mumkin. Ixtiyoriy idrok kuzatishda yaqqol ko'rindi.

Uzunligi bir xil bo'lgan to'g'ri chiziqlarning chetlariga ikki xil burchaklar chizilsa illyuziya hodisasi yuz beradi. Birinchi

¹ Platonov K.K. Golubev G. G. Psixologiya. – Toshkent: «O'qituvchi», 1982, 141-bet.

chizilgan burchaklari tashqariga qaragan chiziq, ikkinchi chizilgan burchalari ichkariga qaragan chiziqdan kaltaroq ko'rindi aslida ikkala chiziqning uzunligi bir xil.

6.3. Idrok qilish turlari

Tevarak-atrofdagi narsalarni idrok qilish sezgi a'zolarimiz orqali vujudga keladi, shu sababli idrok qilish turlari ham eshitish, ko'rish, ta'm, hid, teri va boshqa sezgilarga qarab ajratiladi. Albatta, biron narsani idrok qilar ekanmiz, o'sha vaqtida bir qancha sezgi a'zolarimiz ta'sirlanadi, biroq bulardan bittasi ustun turmog'i mumkin, idrok qilish turlari ham shunga qarab ajratiladi. Chunonchi, gulzor ichiga kirib, gul hidiga e'tibor bersak buni hidni idrok qilish turiga kiritamiz, rang-barang gulzor manzarasini tomosha qilsak, buni ko'rish turiga, kontsert eshitib o'tirganimizdagi idrok jarayonini eshitish turiga kiritamiz va hokazo.

Bundan tashqari yana fazo, vaqt va harakatni ham miyada aks ettirish jarayonlari mavjuddir. Shunga ko'ra, idrok asosiy uch turga – fazo idroki, vaqt idroki va harakat idrokiga ajratiladi.

Fazoni idrok etish. Ma'lumki, fazoning uch o'lchovi – balandligi, kengligi va uzoqligi bor. Tevarak-atrofimizdagi barcha narsalarning maxsus shakllari, katta-kichikligi bo'lib, ularning hammasi fazoning ma'lum nuqtalarini ishg'ol qilib bir-biridan uzoq-yaqin, o'ng yoki chap tomonda, baland yoki pastda joylashadi. Fazoning uch o'lchovini va undagi buyumlarning ana shu xususiyatlarini miyamizda aks ettirish psixologiyada fazoni yoki makonni idrok qilish deyiladi.

Kundalik tajribamiz shuni isbot qiladiki, biz bu xususiyatlarni ko'rish, teri va mushak-harakat sezgilari orqali idrok etamiz. Odadta biz fazoni ko'z orqali idrok etamiz va miyamizda aks ettiramiz. Ammo qorong'ida buyumlarning shaklini, qanday joylashganliklarini, katta-kichikligini hamda masofani teri va mushak-harakat sezgilarimiz yordami bilan bilib olamiz. Ko'rilar esa fazoni asosan shu ikki sezgi orqaligina idrok qiladilar. Biz buyumlarning fazodagi munosabatlarini, ularning shakllarini asosan ko'z orqali bilib olamiz.

Ko'zimiz to'ppa-to'g'ri qaraganida, agarda ko'rindigani buyumlar o'tasidagi ko'rish burchagi ellik gradusdan kam bo'lmasa, ko'zimiz ayni vaqtda ikki yoki bir qancha buyumni birdaniga ko'ra oladi. Ammo ko'rish burchagi kichkina bo'lsa, ikki buyum yoki ikki nuqta bir bo'lib ko'rindi. Shuning uchun ham uzoqlashgan ikki yoki bir-necha buyum birlashib ketib, bir buyum bo'lib ko'rindi.

Yaqin va uzoq masofadagi buyumlarning surati to'g'ridan-to'g'ri to'r pardasiga tushganda, ko'z gavhari bo'rtiq holga yoki yassi holga kelishi mumkin. Yaqin turgan buyumlarga qaragan vaqtda ko'z gavhari bo'rtiq, uzoqlashgan buyumlarga qaraganda esa ucho'zilib, yassi shaklga kiradi. Ko'z gavharining va umuman ko'zning aniq ko'rish uchun ana shunday uyg'unlashuvi **akkomodatsiya** deyiladi.

Ko'zning akkomodatsiyasi ayniqsa fazoning uchinchi o'chovini, ya'ni uzoq masofani, chuqurlikni, relefni ko'rishda katta ahamiyatga molik. Biroq fazoning uchinchi o'chovini bir ko'z vositasi bilan (ya'ni monokulyar) yetarli darajada aniq va ravshan ko'rib bo'lmaydi. Buni binokulyar, ya'ni ikki ko'z vositasi bilan yaxshiroq va mukammalroq ko'ramiz. Chunonchi, 2-3 metr masofa uzoqlikda ko'z oldimizda gorizontal cho'zilgan ipga bir ko'z bilan qarab turganimizda, shu ipning orqa yoki bu tomoniga yuqorida turib bir narsa otilsa, uning qaysi tomonidan tushayotganini aytib bera olmaymiz, shuningdek, bir ko'zimizni yumsak, nina ko'ziga ip o'tkazishda ham qiynalamiz. Ikki ko'z bilan esa, biz buni tez uddalay olamiz.

Binokulyar ko'rishga xos bo'lgan bir necha xususiyatlar bor.

Ikki ko'zimiz bilan tikilganimizda, buyumning surati ayni vaqtda ikki ko'zda paydo bo'ladi. Shu sababdan ikki ko'rish chizig'i ham hosil qilinadi. Ko'rish chiziqlarining bir-biriga munosabati masofaga bog'liqdir.

Agarda biror buyumga yaqindan tikilib qarasak, ko'rish chiziqlari biz fiksatsiya qilgan nuqtada kesiladi. Bunday vaziyatda ko'zlarimiz bir-biriga yaqinroq, ya'ni qanshar tomon buriladi. Ko'rish chiziqlarining bir-biriga yaqinlashuvi **konvergentsiya** deyiladi. Aksincha, uzoq masofadan turib, biror narsaga tikilib qaraganimizda esa ko'rish chiziqlari bir-biriga deyarlik parallel

holatga keladi. Ko'rish chiziqlarining ana shunday holati, ya'ni ko'zlarning tashqi tomon burilishi **divergentsiya** deyiladi. Shunisi ham borki, akkomodatsiya, konvergentsiya va divergentsiya kabi ko'z harakatlaridan alohida harakat sezgisi hosil qilinadi. Chunki bunday vaziyatda ko'zning harakatini idora qilib turadigan mushaklar yo taranglashadi, yo bo'shashadi. Bu sezgilar masofani bilishda ko'maklashadilar.

Ammo relefni, buyumlarning hajmini ko'rish ancha murakkab hodisadir.

Bir nuqtani yoki bir buyumni ko'rayotganimizda uning surati har qaysi ko'zimizning to'r pardasiga yakka-yakka tushadi. Ammo bundan qat'iy nazar, biz buyumni ikkita emas, balki bitta qilib ko'ramiz.

Bu hodisaning sababi shundaki, buyumdan aks etgan nurlar ikki ko'zimizga baravar tushadi. Ko'z soqqalarining to'r pardasida birida o'ng, ikkinchisida chap tomonda, sariq dog'dan teng uzoqlikdagi nuqtalar **mos nuqtalar** deyiladi. Ko'zimiz bilan tikilgan buyumdan aks etgan nurlar shu mos nuqtalarga to'g'ri kelsa, buyum hamishagiday bitta bo'lib ko'rinadi.

Harakatni idrok qilish. Harakat deb, buyumning fazoda joy almashtirishini tushunamiz. Buyumlarning joy o'zgartirishlari ma'lum vaqt ichida o'tadi, ya'ni harakat tez yoki sekin bo'lishi mumkin. Shu sababli harakatni fazo va vaqt bilan birlikda olib, miyamizda aks ettiramiz. Chunonchi, yurayotgan mashinani ko'rар ekanmiz, biz uning biror nuqtaga nisbatan bo'lган masofasi o'zgarganligini (yaqinlashishini yoki uzoqlashishini) va buning tez yoki sekin o'tayotganini ham ko'ramiz.

Harakatni asosan ko'rish orqali bilamiz. Har qanday mavjud buyum tomon ko'zimizni yogurtirganimizda ko'zimizning to'r pardasida harakatlanuvchi buyumning surati paydo bo'ladi.

Harakatni tez yoki sekin deb aytar ekanmiz, bu uning obyektiv tezligiga hamda harakatlanuvchi buyumning ko'zimizdan uzoq-yaqin bo'lishiga bog'liq. U bizdan qancha uzoq bo'lsa, uning harakati ham shuncha sekindek ko'rinadi. Bu hodisa ko'rish burchagini o'zgarishi natijasida yuz beradi. Ko'rish burchagi qancha zo'raysa, harakat shuncha tez va aksincha, u qanchalik kichraysa, harakat shuncha sekin

o'tayotganday yoki buyum harakat qilmaganday ko'rindi. Chunonchi, bulutsiz osmonda oyning harakatini sezalma olmaymiz, ya'ni uni bir necha vaqtdan keyin osmonning boshqa nuqtasida ko'rsak ham, uning o'z harakatini ko'ra olamiz. Biz harakatni terimiz orqali ham aks ettiramiz. Chunonchi, ko'zimiz bilan ko'rmasak ham, bo'ynimizda yurgan chumolining harakatini sezamiz. Harakatni ovoz, shovqin orqali ham bilib olamiz. Harakatni miyamizda aks ettirishda shaxsiy tajriba ham katta rol o'ynaydi.

Vaqtni idrok qilish. «Har qanday borliqning asosiy shakllari, – deb yozadi K.K. Platonov, – zamон ва макондир. Борлиqning zamondan tashqari mavjudligi, borliqning makonsiz mavjudligi singari, behuda gapdir»¹. Har qanday haqiqiy borliq singari vaqt ham kishining ongida aks ettiriladi. Ammo vaqtini obyektiv va subyektiv aks ettiradi. Vaqtning o'tishini obyektiv bilishda odam maxsus asbobdan, ya'ni soatdan, shuningdek, quyosh, oy, yulduzlar kabi hamisha bir xilda va bir tekisda harakatlanuvchi narsalardan foydalanadi.

Ammo bu yerda vaqtini psixologik, ya'ni subyektiv aks ettirish haqida gapiramiz.

Odatda, biz hozirgi paytni, o'tmishni va kelajak vaqtini ajratamiz. Biroq, o'tmish vaqtini biz eslaymiz, kelajak vaqtini o'laymiz, hozirgi paytni esa bevosita idrok qilamiz.

Bir ish bilan shug'ullanayotgan paytimizni hozirgi vaqt deb tushunamiz. Dars tinglab o'tirar ekanmiz, psixologik nuqtai nazardan, o'sha vaqtning davomini hozirgi payt deb his qilamiz. Ko'pincha vaqtini va uning o'tmishini hamma birday idrok qilavermaydi. Hozirgi payt bizga sekin yoki tez o'tayotganday ko'rindi. Chunonchi, ba'zan bir o'quvchiga dars juda tez o'tib ketayotgandek seziladi, boshqa bir o'quvchiga esa dars vaqtini juda ham sekin o'tayotganday tuyuladi. O'quvchilarining biri «voy, vaqt o'tib ketdimi», deb hayron bo'lsa, ikkinchisi «qo'ng'iroq qachon chalinar ekan» deb vaqtning tezroq o'tib ketishini istaydi.

Vaqtning ba'zan juda zeriktirib sekin o'tishi, ba'zan esa juda tez o'tishining sababi psixologik nuqtai nazardan

¹ K.K. Platonov. Psixologiya. –T.: «O'qituvchi», 1982-yil, 87-bet.

quyidagicha izohlanadi:

Bizning vaqtini his etadigan alohida sezgi a'zomiz yo'q. Biz uni butun ongimiz bilan idrok etamiz. Biroq vaqtini tez yoki sekin o'tayapti deb gapirar ekanmiz, bu o'sha paytda ongimizning nimaga qaratilganligi va kechirayotgan tuyg'ularimizga bog'liqdir.

Agarda diqqatimizni ishga emas, balki vaqtning o'ziga qaratsak, vaqt juda sekin o'tayotganday ko'rindi va bizda bundan zerikish hamda toqatsizlanish hissi paydo bo'ladi. Chunki o'shanday holatda ongimiz doirasi juda cheklanib, unda vaqtini o'yashdan boshqa bironta fikr qolmaydi, aksincha, o'sha paytda diqqatimiz ishning o'ziga qaratilsa, vaqt tez o'tganday seziladi, chunki ish davomida bizning ongimizda har qanday fikr, tasavvur va boshqa murakkab psixik kechinmalar paydo bo'lib turadi. Agarda biz birorta darsning mazmuniga qiziqmasdan, uning tamom bo'lishini sabrsizlik bilan kutib, ha deb soatga qarab o'tirsak, vaqt to'xtab qolganday, juda sekin o'tayotganday tuyuladi. «Tikilgan qozon qaynamas» degan xalq maqoli ham bunga misol bo'la oladi. Aksincha, bizni qiziqtirgan, xursand qilgan, har xil taassurot qoldiradigan bir ish, bir voqeа juda tez o'tayotganday ko'rindi, chunki bunday holda biz vaqtning o'ziga e'tibor bermaymiz.

Shunisi ham borki, o'tmish vaqtini eslaganimizda o'sha vaqt ichida qancha ko'p taassurot olgan bo'lsak, u shuncha uzoq vaqtday ko'rindi, chunki bu vaqtning har bir daqiqasi ma'lum bir psixologik kechinmaga bog'liq. Chunonchi, bironta qiziqarli ekskursiya yoki sayohatda vaqt juda tez o'tib ketayotganday sezilsa ham, keyin uni xotirlab gapirsak, u uzoq vaqtday ko'rindi. Aksincha, kasal bo'lib, bir oy kasalxonada yotsak, o'sha vaqt juda zeriktiradi, chunki kasalxonadagi taassurotlar bir xilda, juda cheklangan bo'ladi. Keyin bu vaqtini o'ylasak, u qisqa vaqtday tuyuladi. Chunki uning har bir daqiqasi yangi bir ma'no, ya'ni bir taassurot qoldirmagan, undan olingan taassurotni bir-ikki gap bilan tasvirlab qo'ya qolamiz.

Vaqtni idrok qilishda ham odamlar bir-biridan farq qiladilar. Odadta hech bir narsaga qiziqmaydigan, ongi o'smagani kishilarga vaqt sekin o'tayotganday seziladi va ular tez-tez zerikadilar. Bunday odamlar haqida akademik Pavlov

shunday yozadi: «zerikish ko‘zi ochiq holda uqlash demakdir».

Madaniyat vaqtini sekundlab hisoblashdan boshlanadi. Zamonamiz kishilarining hayoti mazmundor, quvnoq va ijodiy mehnatda o‘tadi. Shu sababli bizning hayotimizda vaqt juda qadrli va biz uni bekor nobud qilmaymiz. «Vaqtning qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmaydi», degan xalq maqoli bejiz emas, albatta. Vaqtning qadriga yetishni kichik yoshdan tarbiyalamoq kerak. Buning uchun bolalarni reja bilan ishlashga, bilim va madaniy saviyalarini oshirish, har qanday ijodiy qiziqish havas uyg‘otib, ularning bekor zerikib yurishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Madaniy va mazmundor hayot kechirayotgan hozirgi zamon kishilari vaqtidan to‘g‘ri foydalana bilish yo‘li bilan mehnatni mahsuldor qiladilar.

Konstantlik hodisasi

Buyumlarning shakli, rangi va katta-kichikligini ongimizda aks ettirishda konstantlik¹ hodisasi ro‘y beradi. Konstantlik hodisasi shundan iboratki, buyumni idrok qilish sharoiti o‘zgarsa ham, uning ongimizdagi haqiqiy obrazi o‘zgarmaydi.

Rang konstantligi. Buyumning rangini biz hamisha bir tusda ko‘ramiz. Vaholanki, undan keladigan nurlar yorug‘lik darajasiga qarab o‘zgarib turadi. Chunonchi, uyda yotgan va quyosh nuri ostida yotgan ikki ko‘mir parchasini, ularda har ikki sharoitda aks etgan nurlar tarkibi va miqdori har xil bo‘lsa ham, biz doimo qop-qora deb ko‘ramiz. Oq qog‘oz elektr chirog‘i bilan yoritsa ham, yoki u yashil barglar soyasida yotsa ham, baribir biz uni oppoq deb ko‘ramiz, haqiqatda esa bu ikki vaziyatda ham qog‘oz yuzida aks etadigan nurlarning fizik tarkibi o‘zgaradi.

Katta-kichiklik konstantligi. Bizga ma’lumki, biror buyumdan uzoqlashsak, uning ko‘zimiz to‘r pardasidagi surati kichrayadi, yaqindan turib qarasak zo‘rayadi, ammo shu buyumning obrazi bu bilan o‘zgarmaydi. Masalan, shu kitobning o‘zini 20 santimetrvan bir metr masofadan turib

¹ Lotincha «konstanta» – doimiy miqdor degan ma’noni anglatadi.

ko'rilsa ham, uning katta-kichikligi o'zgarganligi sezilmaydi. Holbuki, uning ko'z to'r pardasidagi surati o'zgaradi, ya'ni uni bir metr masofadan ko'rganimizda to'r pardasiga tushadigan surati 5 karra kichrayadi. Albatta, bunday konstantlikning chegarasi bor. Biz bilan buyum o'rtasida masofa qancha uzaya borsa, buyumning ko'rinishi ham shuncha kichraya boradi. Masalan, samolyotdan pastga qaralsa, yerdagi narsalar juda kichkina bo'lib ko'rinadi.

Shakl konstantligi. Buyumning shaklini aks ettiradigan surat ko'z to'r pardasida turlicha o'zgarib tursa ham, biz buyumning shaklini to'g'ri ko'ramiz. Chunonchi, stol ustida turgan piyolani biz hamisha doira shaklida ko'ramiz. Ammo unga yonidan turib yoki boshimizni turlicha burib qarasak, uning to'r pardasidagi surati ham o'zgarib, cho'zilib, tuxum shakliga kiradi. Lekin bundan qat'iy nazar, uning to'g'ri obrazni ongimizda doimo saqlanib turadi. Piyolaning ustidan turib xuddi markaziga tikilgandagina uning doira surati to'r pardasiga tusha oladi. Shuningdek, harakatsiz buyumlarning aksi ko'z soqqamiz bilan birga harakatlanib tursa ham biz ularning tinch holatini to'g'ri ko'ramiz.

Bir kuy har xil musiqa asbobi bilan chalinsa yoki bir ashula har xil ovoz bilan aytilsa ham biz uni baribir shu kuyning o'zi deb bilamiz.

Bizni o'rab olgan kundalik muhitga muvofiqlashish va dunyoni anglashda konstantlik hodisasi katta ahamiyatga ega. Agar bu hodisa bo'limganida idrok qilish sharoitining o'zgarishi bilan, chunonchi, boshimizning sal burilishi, qimirlashi, yorug'lilik darajasining o'zgarib turishi, buyumlarga nisbatan masofaning o'zgarib turishi bilan, ayni bir buyumni biz har gal boshqa bir buyum deb aks ettirib uni tanimas edik. Narsalar allaqanday to'xtovsiz o'zgarib turadigan, goho cho'zilib, goho tus va ranglarini o'zgartib, miltillab turar edi. Konstantlik hodisasi miyaning muhitni aks ettirishga uyg'unlashuvi va idrok qilish jarayoniga ilgari hosil qilgan tajribamizning ta'sir ko'rsatishi bilan izohlanadi.

6.4. Idrok qilishning sifati va uni belgilovchi shartlar

Tevarak-atrofdagi buyum va hodisalarni anglashning birinchi bosqichi ularni sezgi a'zolar yordami bilan bevosita miyamizda aks ettirishdir. «Bilimning hammasi tajribadan, sezgilardan va idrok qilishdan hosil qilinadi» deb tushuntiradi rus psixologlari.

Sezish va idrok qilish yo'li bilan hosil qilingan obrazlar, ya'ni haqiqiy narsalarning miyamizdagi aksi aniq, to'g'ri va mukammal yoki noaniq, xira, chalakam-chatti bo'lishi mumkin. Psixik hayotimizning mazmundorligi, boyligi va aniqligi dastavval shu obrazlarning sifatiga bog'liqdir. Bu umuman bizning har bir sohadagi faoliyatimizga ta'sir ko'rsatadi, uni mazmundor va mahsuldor qiladi. Shuning uchun ham idrok qilish jarayonining, xususan uning o'qish jarayonida sifatli bo'lishiga katta e'tibor berish lozim. O'qish materiali dars va har qanday malaka hamda ko'nikmalar dastavval sezgi a'zolarimiz yordami bilan miyaga qabul qilinadi. Xira, noaniq, chala idrok qilingan o'qish materiali yaxshi o'zlashtirilmaydi. O'qish jarayonida darsning tez, to'liq va aniq idrok qilinishini ta'min etmoq uchun quyidagi shartlarga e'tibor berish zarur.

Nerv sistemasi va sezgi a'zolarning sog'lom va baquvvat bo'lishi, idrok qilishning sifatini belgilaydi. Ma'lumki, sezish va idrok qilish sezgi a'zolarimizning faoliyati bilan bog'liqdir. Shu sababli bu jarayonning sifati sezgi a'zolarimizning ishi va ularning qanday ahvolda bo'lishiga bog'liq. O'qitish ishida o'quvchilarning ko'z va quloqlari ayniqsa katta rol o'ynaydi. O'quvchilar ichida qulog'i yaxshi eshitmaydigan yoki ko'zi yaxshi ko'rmaydiganlari ham uchraydi. O'qituchi, ayniqsa quyi sinf o'quvchilari haqidagi tibbiyot xodimi bergan ma'lumotnomaga asoslanib, ularning sezgi a'zolari qandayligini aniqlab olmog'i zarur. Sezgi a'zolarida biror nuqson bo'lgan o'quvchilar birinchi qatordagi partalarda, o'qituvchiga va sinf doskasiga yaqinroq o'tirishi kerak. Ba'zi sezgi a'zolardagi kamchiliklar ayrim o'quvchilarning darsdan ulgurib borolmasligiga sabab bo'ladi-yu, ammo o'qituvchi bundan bexabar qoladi yoki bunga e'tibor bermaydi.

Odam dunyodan asosan ko'z va quloq orqali taassurot oladi va tajriba to'playdi. Shuning uchun ham shu a'zolarning bolalik chog'idan sog'-salomat bo'lishi haqida g'amxo'rlik qilish va ularni zararlanishdan ehtiyyot qilish juda zarur. Sezgi a'zolari nerv sistemasining juda muhim bo'laklari bo'lganidan, nerv sistemasini mustahkam va sog'-salomat bo'lishi shart.

Miyasi zararlangan odamlarning sezgi a'zolari ham o'z vazifasini yaxshi bajara olmaydi yoki butunlay ishdan chiqadi. Shuning uchun ham nerv sistemasiga zararli bo'lgan ta'sirlarda bolalik chog'idan ehtiyyot bo'lmoq kerak (masalan, bolalarga tamaki chekish, alkogolli ichimliklar ichish, uxlatadigan «dori» ichirish yaramaydi).

Kuzata bilish va uni rivojlantirish. Dunyoni miyada aks ettirishda kuzata bilish qobiliyati katta ahamiyatga ega. Dunyoni anglashning birinchi bosqichi bevosita kuzatishdan boshlanadi.

Idrok qilish jarayonining faol ko'rinishi bo'lmish kuzatish murakkab jarayondir.

Kuzatish maqsadga yo'naltirilgan, rejali uyushtirilgan va natija beradigan faol idrok qilish demakdir. Kuzatish qibiliyati kuzata bilish yoki kuzatuvchanlik deyiladiki, bu odamning eng muhim sifatli xislatlaridan biri bo'lib, uning donoligini va ziyrakligini belgilaydi, uni bilimdon va tajribali qiladi. Xalq ijodi, hikmatli so'zlar va topishmoqlar ana shunday kuzata bilish mahsulidir. Chunonchi, Ergash Jumanbulbul yoki boshqa xatsavodni bilmagan xalq shoirlari ijodining chuqur mazmunli va realistik bo'lishi ularning tevarak-atrofdagi muhitni kuzata bilish natijasida vujudga kelgan donoligi bilan izohlanadi.

Faqat eshitish va ko'rishgina kifoya qilmaydi, balki eshitish bilish va ko'ra bilish kerakki, bu buyumlarning ichki xususiyatlarini, ularning eng muhim alomat va xossalalarini tasodifiy belgilaridan ajrata bilish, uning turlicha o'zgarishlarini payqab olish, boshqa buyumlardan farqini yoki o'xshashligini topa bilish, bular xususida tug'ilayotgan savollarga javobni shu buyumlarning o'zidan bilib olishdan iboraidir. Kuzata bilish buyum va hodisalarning ko'zga tashlanmaydigan, amma muhim va nozuk tomonlarini idrok qilishdir. Kuzata bilish idrok usulini ta'min

etib, odamning har bir sohadagi faoliyatini unumli va samarali qiladi, uning mahoratiga mahorat qo'shami, yangiliklarni ijod qilishga asos bo'ladi. Mustaqil Vatanimiz ijodkorlari, Mehnat Qahramonlari, iste'dodli san'at arboblari hozirgi jamiyatda tarbiyalangan yangi ma'naviy xislatlarni tasvirlaydigan yozuvchilarda, shoirlarda bu qobiliyat juda taraqqiy qilgan bo'ladi.

O'z ishining ko'zini yaxshi bilgan o'qituvchi ham sinfda o'tirgan bolalarda paydo bo'lgan o'zgarishlardan ularning psixologik xususiyatlari-ni, fe'l-atvorini juda tez payqab oladi va shunga muvofiq amal qiladi, tegishli usullardan foydalananadi. Bolalarning psixologik holatlarini kuzata bilmagan o'qituvchi odam o'qituvchilik kasbiga loyiq odam bo'la olmaydi, chunki ba'zan ayrim o'quvchilarda paydo bo'lgan o'zgarishni payqab olib, o'z vaqtida tegishli choralar ko'rilmasa, buning ta'siri yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kuzata bilish qobiliyatini kichkina yoshdan o'stirish kerak. Buning uchun bolalarda tug'iladigan savollarga erinmay javob berish, tevarak-atrofdagi narsalarga ularning diqqatini jalb qilish, ularga tegishli savol va vazifalar topshirish, tabiatshunoslik ishlarini uyushtirish va mehnatga odatlantirish lozim. Kuzatilayotgan narsalarni bir-biriga taqqoslash, farqini va o'xhash tomonlarini topish, buyumning bitta xususiyatini ko'p tomonlama ajratish, uni turli sharoitda sinab ko'rishga o'rgatish lozim. Kuzatish natijalariga e'tibor berishga o'rgatish katta ahamiyatga ega, buning uchun bolalarga maqsadni uqdirish kerak. Chunonchi, o'qituvchi, faraz qilaylik, bir gulni olib kelib bolalarga ko'rsatib, keyin uni olib qo'yib, «qani, bolalar, gulning rasmini chizinglar» desa, o'quvchilar bir og'izdan «Voy, uning rasmini chizish kerakligini oldindan bilganimizda, biz uni yaxshilab ko'rgan bo'lardik» deyishlari turgan gap. Shuning uchun ham biror buyum yoki hodisani idrok qilishdan oldin undan kutilgan maqsad aniq bo'lsa, kuzatish sifatli chiqadi va kuzata bilish qobiliyatni rivojlanadi.

Har bir sohada yangilikka intilish va u asosida ma'naviyatimizni boyitish va tobora rivojlantirish maqsadini ko'zda tutgan istiqlol kishilarida kuzata bilish qobiliyatini o'stirish zamonimizning muhim vazifasidir.

6.5. Bolalarda idrok qilishning rivojlanishi

Tevarak-atrofdagi buyum va hodisalarini idrok qilish qobiliyati bolaning sezgi a'zolariga bog'liq ravishda o'sib, uning faoliyati va ta'lif-tarbiyasi tufayli takomillashadi.

Bola dunyoga kelishi bilanoq tevarak-atrofini mukammal idrok eta olmaydi. Ikki oylik bola narsalarga tikilib qaray boshlaydi va 3-4 oyligida birorta ovoz eshitsa, boshini shu tomonga buradi, ovoz manbaini qidiradi. Demak, o'sha paytdan e'tiboran, u buyumlarni idrok qila-boshlaydi. Lekin 4-5 oylik bolaning idrok qilishi yetarlik darajada ongli bo'lmasdan, u tevarak-atrofidagi narsalarning ozgina bir qismini idrok etadi. Bu yoshda hali idrok obrazlari tarqoq holda bo'lib, bir-biriga mantiqiy ravishda bog'lanmaydi. Ammo bola narsalarni qo'li bilan ushlab, ular bilan turlicha amallar qila boshlaganidan keyin, xususan o'zi yura boshlaganidan so'ng, nutqni egallash munosabati bilan narsalarni mukammalroq idrok qila boshlaydi. Mustaqil yurib ketgandan keyin bola har qanday narsalarning oldiga borib, ularni qo'liga olib yoki ular bilan boshqacha amallar qilib, ongli idrok qilinayotgan narsalar doirasini kengaytira boradi. Uch yashar bolaning aqli ancha o'sadi, shu bilan birga uning idroki ham kengayadi. Buning isboti shuki, bu yoshda bolalar «bu nima», «buning oti nima», «nega shunday» deb juda ko'p savollar bera boshlaydilar. Ammo kichik yoshdagি bolalar tez ta'sirlanuvchan va emotsiyonal tabiatlidir-lar, ya'ni ular har qanday yoqimli va yoqimsiz tuyg'ularga juda tez berilib ketadilar. Shu sababli ular buyumlarning shakliga, rangiga harakat va ovoziga ko'proq e'tibor berib, juda jonli va katta zavq bilan idrok qiladilar, butun diqqatlarini shu narsaga to'playdilar. Natijada bolalar ko'pincha buyumlarning shunday arzimaydigan mayda-chuyda tomonlarini ham ko'radilarki, kattalar buni payqamasliklari ham mumkin. Masalan, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar rasm ko'rganlarida shunday sinchiklab ko'radilarki, ular payqamagan hech bir mayda-chuyda narsa qolmaydi, ammo shu bilan birga ular, albatta, buyumning ichki xususiyatlarini, eng muhim alomatlarini hali ajrata bilmaydilar. Buning uchun ularda hali bilim va tajriba kam.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning hayotida o'yin hukmronlik qiladi va o'yin tufayli bolaning idroki ham rivojlanadi, chunki bola o'yinga aloqasi bo'lgan buyumga ko'proq e'tibor berib qaraydi va o'z o'yinida atrofdagi hayotni aks ettiradi. O'yin, rasm chizish va shunga o'xshash mashg'ulotlar tufayli bolada kuzata bilish qobiliyati ham rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning irodasi va tafakkuri hali yetarli darajada o'smagan bo'ladi, diqqati chidamsiz va tez-tez o'zgarib turadi, uning idrok qilishi asosan ixtiyorsiz xarakterga ega. Har bir narsa uning diqqatini o'ziga jalb qilaveradi. Bu yoshda kattalar uning oldiga birorta maqsad qo'yib, uning diqqatini shu maqsad uchun kerak bo'lgan narsaga qaratadilar.

Yasli va maktabgacha tarbiya yoshida fazoni idrok etish, uzoq-yaqinna farq qila bilish, narsalarning katta-kichikligini va shakllarini to'g'ri aks ettirish qobiliyati ancha rivojlanadi. Fazo xususiyatlarini idrok etishda xususan, bolalarning harakati katta rol o'ynaydi. Chunonchi, 2-3 yashar bolalar zinadan chiqib-tushishni, stol-stulning tagida o'tirishni, stulning orqasidagi oraliqqa boshini kiritishni, bir narsaning tepasiga chiqib olishni, ariqdan sakrab o'tishni, chuqurlikka tushib ko'rishni sevadilar.

Mana shu narsalarni qilib ko'rish tufayli ular fazo va uning xususiyatlari haqida tajriba to'playdilar.

Ammo ularning vaqtini idrok etishlari hali ham zaif bo'ladi, ya'ni ular vaqtning davom etishini, uning tez yoki sekin o'tishini miyalarida aks ettira olmaydilar, umuman odatda, toqatsiz bo'ladilar, kecha, bugun, erta degan so'zlarni idrok etishda qiynaladilar.

Maktabgacha tarbiya davrining oxirida bolalarda katta o'zgarishlar paydo bo'lib, ularning tajribasi kengaygan bo'ladi, tafakkur ham shunchalik o'sgan bo'ladiki, shu asosda ularga sistemali ta'lim-tarbiya berish imkoniyati vujudga keladi.

Maktab yoshida ixtiyoriy idrok qilish qobiliyati mustahkamlanib boradi. Chunki o'qish, dars o'zlashtirish uchun diqqatni ixtiyoriy ravishda idora qila bilish, ya'ni uni berilgan vazifa ustida to'plab turish, o'qituvchining gapiga qulog solish, o'qituvchi ko'rsatadigan narsalarga e'tibor berish,

doskaga yozilgan narsani aynan ko‘chirib olish, o‘z xatolarini payqab olish talab etiladi.

Maktab yoshidagi bola o‘z oldiga bir maqsad qo‘yib, shu maqsad uchun kerak bo‘lgan buyumlarni izlaydi, ularning xususiyat va har xil tomonlarini sinchiklab tekshiradi, ya’ni unda analiz va sintez qobiliyatini rivojlanib boradi.

Bilim orttirish, ayniqsa kitob o‘qish, har qanday mashg‘ulotlar, jarayonida olib boriladigan ishlarda ishtirok qilish, xususan yangicha dunyoqarashni tarbiyalash bolalarda kuzata bilish qobiliyatini rivojlantiradi, tevarak-atrofdagi buyum hamda hodisalarini to‘g‘ri va mukammalroq idrok qilishga harakatlantiradi. Ta’lim-tarbiyaning vazifalaridan biri bolalarda har narsaga e’tibor berib kuzata bilish qobiliyatini shakllantirishdir.

6.6. Idrok qilish jarayonida kuzata bilish va uning samaradorligi

Idrokning alohida bir turi kuzatishdir. Kuzatish ma’lum bir maqsad va niyat bilan qilingan rejali idrokdir. Kuzatish – bir narsani idrok qilish jarayonida o‘rganish va tekshirishdir.

Kuzata bilish qobiliyatni faoliyatning har xil sohalarida juda foydali bo‘lgan qimmatli jarayondir. Bu o‘rinda kuzatishning san’atkor yoki ilmiy tadqiqod ishlarida faoliyat ko‘rsatadigan xodimlar faoliyatini taqqoslab o‘tsak, birmuncha tushunarli bo‘ladi. Kuzatish qobiliyati kishida birdaniga tez paydo bo‘lmaydi, u tarbiyalab o‘stiriladi. Bu qobiliyatni hosil qilish uchun kuzata bilishning sisifi nimaga bog‘liqligini, uning shart-sharoitlari nimaligini bilish juda foydalidir. Bu shart-sharoitlarning eng muhimlari bilan tanishib chiqaylik.

Yaxshi kuzata bilishning eng birinchi sharti shuki, avvalo kuzatishdan *murod nimaligi aniq bo‘lishi kerak*. Kishi o‘z oldiga aniq bir vazifani qo‘ymay turib, «umuman» kuzatish bilan shug‘ullanish mumkin emas. Birovga serqatnov ko‘chaning tuyulishida turib kuzating, desangiz, bu odamning aqli sog‘lom bo‘lsa, sizdan nima maqsad bilan va niman kuzatay deb so‘raydi, ya’ni kuzatishdan maqsad nima yoki boshqacha

aytganda, kuzatishning vazifasi nima deydi. Kuzatuvchi kishining o‘z oldiga qo‘yan vazifasi u o‘z diqqatini bir nuqtaga to‘playdi, diqqat va e‘tibor qilish lozim bo‘lgan narsani ko‘rsatadi. Kuzata bilish qobiliyati yaxshi o‘sgan deb, o‘z idrokini qo‘yan vazifalarga buysundira olgan kishini aytamiz.

Kuzatish mumkin qadar *to‘la va tafsilotli* bo‘lishi kerak. Lekin kuzatishning to‘laligi birtalay ma‘lumotlar to‘plashdan iborat emas. Biron tabiat kuzatuvchisi maktab hovlisida qanday daraxtlar borligiga diqqat qilsa va yaqinidagi bir daraxtda qushning uyasi borligini payqasa, bu bilan uning kuzatishi maqsadga qaratilgan deb bo‘lmaydi.

Kuzatishning maqsadga qaratilgan bo‘lishi uchun *kuzatuvchining oldiga qo‘yilgan vazifalar nuqtai nazaridan u muhim bo‘lgan narsalarga diqqat qilishi shartdir*. Kuzatishning tafsiliy bo‘lishini ham shu ma’noda tushunish kerak. Yaxshi kuzata bilgan odam, boshqalarning nazari e‘tiboridan qochib qoladigan mayda-chuydalarga diqqat qilib, ularni payqay oladi, lekin keragi bormi-yo‘qmi – mayda-chuydaning hammasiga diqqat qilavermay, balki kuzatishdan ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan muhim bo‘lganlariga diqqat qiladi.

Kuzatishning muvaffaqiyatli bo‘lishi kuzatilmochi bo‘lgan narsa to‘g‘risida *avval olingan bilimga, tajribaga juda qattiq bog‘liqdir*. Shuning uchun ham bir narsani yaxshi kuzata biluvchi, bu narsa to‘g‘risida ko‘p bilimi bo‘lgan kishi tajribali mutaxassis kishidir.

Agronom ekilgan urug‘larning navini, tuproqning hosildorligini, foydalanish mumkin bo‘lgan agrotexnika usullarini qanchalik yaxshi bilsa, uning yangi ko‘karib chiqayotgan o‘simgiliklarni kuzatib borishi shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi. Kuzatishni yaxshi bilish uchun unga yaxshi *tayyorlanmoq* kerak. Bilim kishiga ancha chuqur va bama‘ni fikr qilishga imkon berishdan tashqari, narsalarni chuqurroq idrok qilishga ham imkon beradi, ko‘p bilgan odam ko‘p narsaning fahmiga yetadi. O‘simgiliklarni yaxshi bilgan botanik arzimagan bir o‘tda ancha xislatlar topadi, holbuki botanika ilmidan bexabar bo‘lgan odam bu o‘tda diqqat qilgulik xech bir narsa topolmaydi.

Kuzatish tartibli va rejali bo‘lishi kerak. Agar sakkiz-to‘qqiz yoshli maktab bolasiga uydagi narsalarni birma-bir aytib chiq, deyilsa bola uyning hali u burchagidagi, hali bu burchagidagi narsalarni olib, avval ko‘ziga nima ko‘rinsa shuning nomini aytaveradi. Bolaning bu qilig‘i tartibsiz va rejasiz kuzatishning bir misolidir. Bunday qilganda narsalarning hammasini to‘la aytib chiqish mumkin emasligi aniq. Katta odamga bunday yumush taklif qilinsa, kattalar ko‘pincha boshqacha qiladilar. Katta odam avvalo kuzatishning reja va tartibini belgilab oladi, ya’ni masalan: «eshikdan boshlab, avval devor tagidagi narsalarni atab chiqaman», deb o‘ziga xayoliy reja qilib oladi yoki «avval stol, shkaf, divan kabi katta narsalarni aytib chiqaman, so‘ngra, ular ustidagi narsalarni aytaman, bundan keyin, devorga osig‘lik narsalarni aytaman» deydi. Topshirilgan yumush qiyinroq va bama’niroq bo‘lsa, kuzatishning rejasi ham shunga yarasha murakkabiroq bo‘ladi. Kuzata bilishdan tajribasi zo‘r bo‘lgan kishilarda, odatda, uzoq zamonlar ichida hosil qilingan kuzatish tartibi bo‘ladi va u orttirilgan mahoratning ko‘rinishidir.

Kuzatishning muhim alomati, idrok bilan *fikrning faol ishlashi* o‘rtasidagi bog‘lanishdir. Shuning uchun ham kuzatish ba’zida «fikr qiluvchi idrok» yoki «o‘ylovchi idrok» deyiladi.

Kuzatish vaqtida fikrning faol ishlashi kuzatilgan narsalarni bir-biriga *taqqoslashda* juda aniq va ravshan ko‘rinadi. Bir narsa boshqa bir narsa bilan solishtirilsa, uning mohiyatini bilish, uning qaysi xil narsalardan ekanligini va xususiyati nimaligini tushunish oson bo‘ladi.

Kuzatish masalasida aytib o‘tilishi lozim bo‘lgan yana bir narsa kuzatishning natijalarini yaxshi *bayon qilishdir*, bu ham katta ahamiyatga egadir.

Agarda odam olib borgan kuzatishlaridan keyin hisobot berishi lozimligini, ko‘rgan va eshitganlarini bayon qilib berish lozimligini bilsa, bunda kuzatishning to‘la va mazmunliyligi oshadi. Buning sababi shuki, odam kuzatishni boshlagandan keyin, hisob berishga kuzatish vaqtidayoq birmuncha amaliy tayyorgarlik ko‘rib, idrokning mazmunini so‘z qolipiga solib pishitib qo‘yishga harakat qiladi. Ya’ni ko‘rgan va eshitgan

naralariga aniq bir nom berishga, ularning xossasi va xususiyatlarini bayon qilishga harakat qiladi. Bu esa idrok qilgan narsalarimizning ma'nosini to'la tushunishga, nimaki muhim bo'lsa, shunga diqqat bilan e'tibor qilishga, aniq va to'g'ri kuzatishga majbur etadi. Ba'zi odamlarda sayohat qilganda, muzey va ko'rgazmalarga, teatr tomoshasiga borganda hamda biron ta ajoyib voqeani ko'rganda va ko'rgan eshitganlarini oshna-og'aynilariga yoki qarindoshlariga gapirib bermoqchi bo'lib, fikrlarida buni o'ylab qo'yish odati bor, bu odat odamning kuzatuvchanligi boshqalariga qaraganda nihoyatda foydalidir.

Kishining yaxshi kuzatuvchi bo'lmos'i uchun to'la va aniq idrok qilishga mohirligi kifoya qilmaydi. Bundan tashqari, idrok natijalarini ko'p jihatdan fahmlab olish, idrok qilgan narsalarini mohirona bayon qila bilish mahoratiga ham ega bo'lmos'i kerak. Oddiy kuzatishdan idrok shu xususiyati bilan farq qiladiki, kuzatishda ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasiga qaraganda muhim rol o'ynaydi. Kuzatish boshdan oxirigacha birinchi va ikkinchi signallar sistemasi o'rtaсидаги о'заро уйған муносабатга асосланган психологияк жарayondir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Idrokning umumiy ta'rifini aytib bering.
2. Idrokning fiziologik asoslari deganda nimani tushunasiz?
3. Idrokning yaxlitligi, anglangan bo'lishi, ayrim narsalarga qaratilishi va konstantligini tasvirlab bering.
4. Fazoni, vaqtini va harakatni idrok qilishga misollar keltiring.
5. Idrokning rivojlanishi va o'quvchilarda kuzatuvchanlikni tarbiyalash haqida gapirib bering.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. Б. Г. Анаьев и Е. Ф. Рыбалко. Особенности восприятия пространства у детей. –М.: «Просвещение», 1964.
2. Н.Н. Волков. Восприятие предмета и рисунка. –М.: Издательство РСФСР ПФА, 1950.
3. В.А. Крутецкий и Н. С. Лукин. Психология подростка. –М.: «Просвещение», 1965.
4. Е.Г'озиев. Umumiyy psixologiya. II-kitob. –Toshkent: «Universitet», 2002.

5. **E.G'oziyev.** Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). –Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
6. **V.Karimova.** Psixologiya. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 2002.
7. **M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva.** Umumiy psixologiya. –Toshkent: 2002.
8. **M.V. Vohidov.** Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-y.
9. **Ya.M. Fayziyev. E.X. Eshboyev.** Umumiy va tabiiy psixologiya. – Toshkent: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2003-y.
10. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Prof. A.I. Shcherbakov tahriri ostida. –Toshkent: «O'qituvchi», 1984.

XOTIRA

7.1. Xotira to‘g‘risida umumiyl tushunchasi

Mavjud dunyoning aks ettirilayotgan ta’siri, kechinmalari, fikr va mulohazalari amalga oshirilgan harakatlar xotiramizda o‘ziga xos iz qoldiradi, ularning xotirada jamg‘arilishi tajriba asosida bo‘lib, inson o‘zining «Men»ini anglashi bilan boyib boradi. Xotira o‘quvchining yangi ma’lumotlar olishini, o‘qishni hamda professional mahoratni egallahashni ta’minlaydi.

K.K. Platonov xotiraga shunday psixologik ta’rif keltiradi: «Xotira bu ta’sirotlarni psixik aks ettirishdan iborat bo‘lib, u esda olib qolish, esda saqlab turish va keyinchalik qayta esga tushirish yoki ilgari idrok etilgan, boshdan kechirilgan narsalarni qayta tanishdan iborat psixik jarayondir. Xotira tufayli odam o‘tmish avlod kishilarini, jamg‘argan tajribani egallashi, o‘zining shaxsiy tajribasini amaliy faoliyatda qo’llashi, o‘z bilim, malaka va ko‘nikmalarini beto‘xtov kengaytirishi mumkin»¹.

Xotiraning har qanday ko‘rinishi eng avvalo esda olib qolishni, ya’ni idrok qilingan materialni qayd qilishni, so‘ngra bu eslab qolingan materialni ongda ma’lum bir davrgacha (ko‘pincha juda uzoq muddatga) saqlashni talab qiladi. Demak, esda qoldirish va saqlash, esga olish va tanish xotirada bo‘ladigan asosiy jarayonlardir. Bir narsani esda saqlash uchun uni xotirada saqlash shartdir. Esga olish va tanish bo‘lsa bir obyektning esda qolganligining natijasidir yoki uning xotirada qayta tiklanishidir.

Qanday bo‘lmasisin tasavvurlarni, fikrlarni, so‘zlarni, hislarni va harakatlarni esimizda saqlaganimizda hamisha biz ularni bir-biri bilan muayyan tartibda bog‘langan holda esimizda saqlab qolamiz. Biror xil bog‘lanishlar hosil bo‘lmay turib, bir narsani na esda saqlab bo‘ladi, na tanib va na eslab bo‘ladi.

¹ K.K. Platonov. G.G. Golubev. Psixologiya. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1982-y.

Birov «falonchaning yuzi juda yaxshi esimda qoldi, qachon ko'rsam darrov taniyman» deydi. Bu nima degani? Buning ma'nosi shuki. shu odamning yuzi bilan uning nomi o'rtasida (yoki uning sifatiga oid bo'lgan boshqa bironta alomati o'rtasida) mahkam aloqa bog'lanib, bu odamni ko'rganda uning nomi esga keladi demakdir.

Xullas kundalik tajribamiz ko'rsatadiki, boshimizdan o'tgan taassurotning hammasi ham esimizga tushavermaydi, ya'ni ko'rgan, eshitgan va o'ylagan narsalarimizning bir qismi unutiladi. Demak, unutish jarayoni ham xotiraga taalluqli. Shunday qilib, xotira esga olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish va unutishdan iborat bo'lgan psixik jarayondir.

Shunday qilib, xotira faoliyatining asosi hamisha har xil assotsiativ bog'lanishlardan iboratdir. Quyida biz xotira faoliyatining asosidagi psixofiziologik assotsiatsilarni ko'rib chiqamiz.

7.2. Assotsiatsiya bog'lanishlari va xotiraning psixofiziologik asoslari

Har qanday sharoitda obyektlar ayni bir vaqtda yoki birin-ketin idrok qilinsa, tasavvur qilinsa yoki ulanilsa, ular o'rtasida bog'lanish paydo bo'ladi, keyin bu obyektlardan biri idrok yoki tasavvur qilinsa boshqalari ham esga keladi.


Mana bu qonun *assotsiatsiya qonuni* deyiladi. Assotsiatsiyalarning psixofiziologik asosi muvaqqat nerv bog'lanishlar hosil bo'lish mekanizmidan iborat bo'lib, bu mekanizmni I.P Pavlov hayvonlarda bo'ladigan shartli reflekslarni tekshirish munosabati bilan ochib beradi.

Assotsiatsiya tegishli psixik jarayonlar ayni bir vaqtda yoki birdaniga ketma-ketiga takrorlansagina yuz beradi. Shartli reflekslar hosil bo'lishining asosiy qoidasi ham shundaydir. Itda bironta qo'zg'atuvchiga nisbatan shartli refleks paydo qildirish uchun, masalan, qo'ng'iroq chalganda og'izdan so'lak kelishdan iborat bo'lgan refleks paydo qilish uchun, har gal qo'ng'iroq chalganda, itga ovqat berish va buni bir necha bor takror qilish kerak bo'ladi. Boshqacha aytganda, qo'ng'iroq chalish bilan

ovqat berish bir necha marta ayni bir vaqtda yoki ketma-ketiga takrorlanmog'i kerak, ya'ni qo'ng'iroq chalingach, ovqat berilmog'i kerak. Shunday qilib, ayni bir vaqtda *voqe bo'lish* assotsiatsiyalar hosil bo'lishi uchun ham, shartli reflekslar hosil bo'lishi uchun ham eng birinchi shartdir.

13-jadval

Xotiraning mahsuldarligi




Shartli reflekslar hosil bo'lishi uchun ham, assotsiatsiyalar hosil bo'lishi uchun ham kerak bo'lgan muhim shartlarning ikkinchisi *takrorlashdir*. Qo'ng'iroq chalganda shartli refleks tug'ilishi uchun qo'ng'iroq chalgan hamono ovqat qancha ko'p marta bir-biriga to'g'ri kelsa, shartli refleks shuncha mustahkamlanadi. Assotsiatsiyalar hosil bo'lishida ham shu holni ko'ramiz. Masalan, telefon nomerining esda qolishi uchun uni bir necha marta takrorlash shart. Bir chet tili so'zining ma'nosi esda mahkam o'rashib qolishi uchun, uni mumkin qadar gapirish, takrorlash, uni matnda ko'proq o'qish, ko'proq eshitish va ko'proq gapirish kerak bo'ladi.

Shartli refleks bilan assotsiatsiya asosini tashkil qilgan nerv bog'lanishlari, katta miya yarim sharlarining po'stida sodir bo'lgan ikki psixik va fiziologik jarayon mavjud bir mahalda bo'lganda vujudga kelganda hamda bu bog'lanish takrorlanish natijasida mustahkamlanadi. Shu tariqa hosil bo'ladigan bog'lanishlarni I.P. Pavlov muvaqqat bog'lanishlar deb atadi. «Muvaqqat nerv bog'lanishlar, – deb yozadi I.P. Pavlov, –

hayvonlar olamida va bizning o'zimizda ham eng universal fiziologik hodisadir. Shu bilan birga u psixik hodisa hamdir, u turli-tuman harakat, taassurot yo bo'lmasa xarflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlardirki, bu bog'lanishlarni psixologlar assotsiatsiya deb ataydilar».

14-jadval

Mantiqiy esda olib qolishning bosqichlari



I.P Pavlov va uning shogirdlari tomonidan qilingan tekshirishlar tusayli nervlar o'rtasida bu xil bog'lanishlarning qanday paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy qonunlar aniqlandi. Shunday qilib, assotsiyalarning fiziologik asoslari hozir yetarli darajada bat afsil o'r ganilgandir.

7.3. Xotira turlari

Xotira insonning hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashish tufayli uning namoyon bo'lish shakllari, holatlari, xususiyatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko'rinishga egadir.

Odatda xotiraning turlariga va ularni muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib, uning xarakteristikasini esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushirish, eslash, tanish singari jarayonlarni amalga oshiruvchi faoliyatning xususiyatlaraiga bog'liqligi olinadi.

Umumiy psixologiyada xotira professor E. G'oziyevning fikricha 5 ta muhim mezonga muvofiq ravishda turlarga, ko'rinishlarga ajratiladi:

1. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra xotira quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) harakat yoki mator harakat xotirasi;
- b) obrazli xotira;
- v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
- g) so'z mantiq xotirasi.

2. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan:

- a) ixtiyorsiz;
- b) ixtiyoriy;
- v) mexanik.

3. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli xotira;
- v) operativ (tezkor) xotira.

4. Ruhiy faoliyat qo'zg'atuychisining sifatiga ko'ra:

- a) musiqiy; b) eshitish xotirasi.

5. Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:

- a) fenomenal xotira;
- b) kasbiy xotira.

1. Harakat xotirasi. Inson faoliyatining har bir turida ruhiy faollikning u yoki bu ko'rinishlari ustunlik qilishi kuzatiladi. Masalan, harakat, hissiyot, idrok, aql-zakovat kabi ruhiy faoliyatning ko'rinishlari mavjuddir. Ana shu ruhiy faollik turlarining har biri tegishli harakatlarda va ularning mahsulotlarida o'z ifodasini topib, harakatlarda, hissiy kechinmalarda, tuyg'ularda, obrazlarda, timsollarda fikr va mulohazalarda aks etadi. Bularning barchasiga xizmat qiluvchi xotiraning o'ziga xos turlariga nisbatan psixologiya fanida ilmiy tushunchalar tariqasida nom berilgan: harakat, hissiyot, obrazli va so'z - mantiq xotira.

Xullas, turli harakatlar va ularning bajarilish tartibi, tezligi, izchilligi esga tushirish, umuman mehnat ko'nikmalari xotiraning shu turiga taalluqli.

2. Asosiy xotira jarayonlari. Esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish xotiraning asosiy ko'rinishlaridir.

Endi bularning har qaysisini alohida ko'rib chiqamiz.

Esda qoldirish idrok qilingan narsalarning ongimizda mahkam saqlanib qolishi demakdir. Esda qoldirishning quyidagi turlari ajratiladi: ixtiyoriy va ixtiyorsiz esda qoldirish, assotsiativ (mexanik) va mantiqiy (ongli) esda qoldirish.

A. *Ixtiyoriy esda qoldirish* deganda, ma'lum maqsadni ro'yobga chiqarish uchun aqliy harakatlarga suyangan holda psixologik kuchimizni sarf etib va alohida usullardan foydalanib, maxsus esda qoldirishdan iborat xotira jarayonini tushunamiz. Bu faoliyatni odatda bevosita ong boshqaradi.

Ta'lim va tarbiya olish, hunar va malaka egallahash jarayoni ixtiyoriy esda qoldirishga va kishining irodasiga bog'liqdir. Ixtiyoriy esda qoldirish ayniqsa o'quvchilar hayotida katta rol uynaydi. Chunki o'qish, bilimni o'zlashtirish asosan ixtiyoriy esda qoldirishni talab etadi. O'qish materialini yaxshi, puxta o'zlashtirish uchun o'quvchi qunt bilan o'qiydi va har xil ta'limiy usullardan foydalanadi.

B. *Ixtiyorsiz esda qoldirish* E. G'oziyevning tadqiqot natijalariga ko'ra, xotira taraqqiyotida ikkita ketma-ket bosqichlarni e'tiborga olish zarur. Ixtiyorsiz xotiraning turmushda va mehnat faoliyatida katta o'ren egallahini har kim o'z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri, maxsus maqsadimiz, aqliy, asabiy, irodaviy zo'r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan keng ko'lamdagi ma'lumot, xabar, axborot, taassurotning ko'pchilik qismini aks ettirishdir. Masalan, o'qigan romanlarimizning, eshitgan maroqli suhbatlarimizning mazmunini va hayajonli voqealarni, hodisalarni kuchli ta'sir ko'rsatganligi uchun diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalg etgan narsalarni biz shunday esda qoldiramiz va ko'pincha bunday taassurotlar xotiramizda umrbod saqlanib qoladi.

Ammo ixtiyorsiz esda qoldirish ko'p hollarda tasodifiy bo'lgani uchun bu xil xotira bilim o'zlashtirishda muhim rol o'ynamaydi. Biz yashayotgan tezkor hayotda, global taraqqiyotning turli yo'nalishida, ijtimoiy hayotimizning har bir sohasida shunday murakkab bilim va malakalar talab etiladiki, ularni zo'r bermasdan osongina o'zlashtirib bo'lmaydi. Ular ixtiyoriy esda qoldirishni taqozo etadi.

V. Ongli (mantiqiy) esda qoldirish materialning mazmuniga tushunib, ongli esda olib qolish demakdir. Mexanik esda qoldirish uchun materialni bir necha marta takrorlash shart, natijada u aynan esda qoladi. Mantiqiy esda qoldirish esa ma'nosini tushunish asosida bo'lgani uchun materialning mazmuni, ma'nosini esda qoladi. Ammo odamning kundalik hayoti va faoliyati uchun xotiraning har ikki xili ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa o'qish, o'qitish jarayonida bularning ahamiyati katta. Masalan, mumtoz adabiyotlarda berilgan she'rni o'rganib olish uchun albatta uning mazmunini tushunib olish kerak, ammo bu kifoya qilmaydi. She'rda berilgan so'zlarning ma'lum tartibda bir-biriga bog'lanishlarini ham tushuna bilish talab qilinadi. Buning uchun shu so'zlarni bir necha marta takrorlash yo'li bilan ularning bir-biriga qanday bog'lanishlari puxta esga olib qolinadi, bunda bir so'zni esga tushirish bilan boshqalari ham esga tushaveradi. Maxsus tajribalar yo'li bilan shunday bir psixologik qoida aniqlanganki, faqat mexanik xotira asosidagini o'zlashtirilgan material ko'p takrorlashni talab qiladi.

Ammo shunday bo'lsa ham tez unutiladi. Aksincha materialning mazmuniga tushunib, mantiqiy esda qoldirish mustahkam bo'ladi. Masalan, 80 so'zdan tuzilgan she'rni yodlab olish uchun 8 marta qaytarish kifoya qilgan bo'lsa, ma'nosiz bo'g'indan tuzilgan 80 so'zni esda qoldirish uchun 80 marta, ya'ni 10 marta ko'proq takrorlash talab qilinar ekan.

Demak, har qanday raqam, geografik nomlar, tarixiy voqealarning yillarini va shu singari mexanik xotira asosida o'zlashtiriladigan materiallarni ham mantiqiy esda qoldirish orqali o'rganish lozim. Mantiqiy xotira ayniqsa ta'lim-tarbiya orqali, bilim va tajriba orttirish tufayli rivojlanib boradi.

3. *Xotirada qaytadan tiklash va uning turlari.* O'tmishda idrok qilingan narsalarni kechirilgan tuyg'u, fikr va harakatlarni esga tushirish demakdir. Idrok qilingan narsalarning ongimizda tiklangan obrazlari *tasavvur* deb ataladi. Tasavvur xotira mahsulidir, ya'ni o'tmishda ko'rgan, eshitgan narsalarning obrazini ko'z oldiga keltirishdir. Qaytadan tiklashning asosiy ko'rinishlari tanish va eslashdir.

Eslash – buyum va hodisalarning o‘zlarini qayta idrok qilmasdan, ularning obrazlarini ongimizda tiklashdir. Masalan, biz o‘tgan voqealarni, kechirilgan tuyg‘u-hislarni, o‘zlashtirgan bilimni ana shu yo‘l bilan esga tushiramiz. *Eslash* yana ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga ajratiladi.

Ixtiyoriysiz eslash har qanday so‘z va tasavvurlarning o‘z-o‘zicha xotiraga kelishi demakdir. Bu asosan yondoshlik, o‘xshashlik va qarama-qarshi bog‘lanishlar (assotsiatsiyalar) bilan vujudga keladi, ya’ni bir fikr yoki tasavvur o‘ziga bog‘liq bo‘lgan boshqa fikr va tasavvurlarni uyg‘otadi. Masalan, «maktab» degan so‘z o‘qituvchilar, o‘quvchilar, parta, daftar, darslik va hokazolarni tasavvur qilishga sabab bo‘ladi.

Ixtiyoriy eslash maqsad uchun kerak bo‘lib qolgan birorta xotira materialini maxsus esga tushirish demakdir. Masalan, o‘zlashtirgan bilimni, tarixiy voqealarni, ularning yil va oylarini, o‘qituvchining bergen darsini ana shunday xotiraga keltiramiz. O‘qishning samaradorligi ixtiyoriy esda qoldirish va ixtiyoriy esga tushirishga bog‘liq. Xotiraning bu tomonlari ayniqsa o‘qish jarayonida mustahkamlanadi va rivojlanadi.

7. *Esha olib qolish va unutish.* Biz xotiramizda qolgan o‘zlashtirish materialini bir necha vaqt o‘tgandan keyin ham xotirlay olamiz, chunki u ongimizda saqlanib turadi. Esda olib qolish nerv sistemasida, miya yarim sharlarida mustahkamlangan nerv bog‘lanishlari va nerv sistemasining plastikligi bilan izohlanadi, ya’ni miyamiz o‘tmishdagi taassurotni qaytadan tiklashga tayyor turadi. Shu sababli xotirada qolgan material aniq, mukammal va osonlik bilan tez esga tushmog‘i yoki qiyinchilik bilan sekin, chala, noaniq, arang esga tushmog‘i mumkin. Materialni chala, chigal va noaniq xotirlash – *unutish* deb ataladi. Unutish biror materialni esga tushirishda qiynalib qolishdir.

Biz biror kishining xotirasiga baho berar ekanmiz, uning materialni tez, sekin, qisman yoki butunlay, esdan chiqarishini nazarda tutamiz va shunga qarab, uning xotirasiga yaxshi yoki yomon deb baho beramiz.

Fiziologik jihatdan unutish hodisasi miya po‘stining ayrim bo‘laklari o‘rtasida «ochilgan yo‘llar»ning yoki shartli

bog'lanishlarning uzilishi bilan izohlanadi. Unutish hodisasida psixologik qoidalar borligi aniqlanganki, hozir o'zlashtirilgan material shu onning o'zida eslatilsa, uning ko'p qismi unutilgani ma'lum bo'ladi, bir necha vaqt o'tgandan keyin eslansa materialning ko'p qismi esga tushadi, unutish kam bo'ladi. Shu sababli talaba yoki maktab o'quvchilarining imtihonlarga tayyorlanishida ayni imtihonlar arafasida emas, balki ancha oldin kirishish psixologik tayyorgarlik jihatdan ancha to'g'ri bo'ladi. Unutishning oldini olish uchun eng avvalo materialni takrorlash uning mazmunini tushunib olishga ahamiyat berish va xotirani sifatli qilish uchun nimalar shart ekanligini bilmox lozim.

5. Xotira tiplari. Hammaning xotirasi birday bo'lavermaydi. Har kimning o'ziga xos xotira xususiyatlari bor. Har kimning xotirasidagi farq xotiraning kuchida ifodalanadi. Shuning uchun odamlar xotirasi kuchli, xotirasi zaif kabi toifalarga bo'linadi. Har bir kishining kundalik faoliyati, kasbi olgan ta'lim-tarbiyasi va o'z qiziqishlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham xotira tiplarga bo'linadi.

Xotira hajmi jihatdan keng va tor hajmli xotira tiplariga bo'linadi. Birinchi tipdag'i kishilarning xotirasi idrok qilingan narsalarning ko'p qismini saqlab qoladi va boy mazmunli bo'ladi. Ikkinchi tipdag'i kishilarning xotirasi aksincha juda kam narsani olib qolish bilan xarakterlanadi. Kishilar yana aniq va mukammal xotirlash jihatidan ham bir-biridan farq qiladilar. Ba'zi kishilar xotirada qolgan narsalarni to'la-to'kis, tartibli va juda aniq esga tushira oladilar. Ba'zi kishilar esa chala, chalkash va noaniq xotirlaydilar, ko'p yanglishadilar.

Esda qoldirish va unutish tezligi darajasiga qarab ham xotirani quyidagi tiplarga ajratish o'rinnlidir:

Esda qoldirish tezligi

- 1- tez esda qoldiradi
- 2- sekin esda qoldiradi
- 3- tez esda qoldiradi
- 4- sekin esda qoldiradi

Esdan chiqarish tezligi

- | | |
|---|---------------|
| — | Sekin unutadi |
| — | Sekin unutadi |
| — | Tez unutadi |
| — | Tez unutadi |

Bu tiplardan eng yaxshisi bиринчи tipdir, chunki bunday shaxslar materialni bir-ikki ko'rib chiqish bilanoq, uni mustahkam esda olib qoladilar va uzoq vaqtgacha unutmaydilar. Ammo bu tipdag'i xotira kamroq uchraydi. Ikkinci tipdag'i shaxslar materialni ko'p kuch sarf etib, ko'p takrorlab, har xil usullardan foydalanib o'zlashtiradilar va mustahkam esda tutadilar. A'lo va yaxshi o'quvchilarning ko'p qismi shu tiplarga kiradi. Ular o'qishning ahamiyatiga tushungan, o'qishga ixlos qo'ygan va muvaffaqiyatl'i o'qish usullarini bilib olgan bo'ladi. Uchinchi tipdag'i shaxslar materialni darrov esda olib qoladilar, uni o'qituvchilar og'zidan chiqishi bilanoq ilib olganday, tez o'zlashtiradilar, ammo juda tez esdan ham chiqarib qo'yadilar. Bunday o'quvchilarga materialni tez-tez takrorlab turish haqida tegishli maslahatlar va ayrim topshiriqlar berib turish, berilgan vazifaning qanday bajarilishini tekshirib borish kerak. Xotiraning eng zaif tipi – to'rtinchisidir. Bu tipdag'i o'quvchilar sekinlik bilan o'zlashtir-ganlarini darrov esdan ham chiqarib qo'yadilar, ular ko'p kuch, ko'p vaqt sarf qilsalar ham mehnatlari natijasiz qoladi. Xotiraning bu tipi o'z vaqtida mакtabga kirmagan, ta'lim-tarbiyadan orqada qolgan bolalarda uchraydi yoki bironta kasalga mubtalo bo'lган kishilarda bo'lishi mumkin. Tajriba ko'rsatganidek, bunday shaxslarni davolash, ularga yordam ko'rsatish va to'g'ri ta'lim-tarbiya berish natijasida ularning xotirasi tuzaladi va mustahkamlanadi.

Xotira tiplarini yana sezgi a'zolarining roliga qarab ham bir nechta guruhg'a ajratadilar. Ular: **ko'rish, eshitish va harakat (motorik) tiplaridir.**

Ba'zi shaxslar materialni o'z ko'zlarini bilan ko'rvalar uni osonroq va tezroq esda olib qoladilar va materialni xotirlaganlarida ham uning ko'rinishini, masalan, yozma shaklini eslaydilar. Bu **ko'rish tipidir**. Boshqalar eshitish orqali tezroq o'zlashtirib oladilar. Bular **eshitish tipiga** kiradi. Ba'zi shaxslar esa qo'l muskullarini va lablarini harakatlantirib, ya'ni uni yozib olish, shivirlab gapirish kabi harakatlar orqali oson va tezroq esda qoldiradilar, bular **harakat (motorik) tipidir**.

Ammo shu xildagi «sof tiplar» kam uchraydi, ko'pincha bu tiplar aralash holda ko'rnadi, ya'ni ko'rish harakat tipi, eshitish harakat tipi, ko'rish – eshitish tipi holda ko'rnadi

Xotiraning bu tiplari ham asosan turmush, kasb va mahoratga bog'liq. Maktablarimizda har xil o'qitish va tarbiya metodlari-dan foydalanib, xotiraning hamma tomonlari rivojlantiriladi, shu bilan birga o'quvchilarning xotirasiga xos shaxsiy (indivi-dual) xususiyatlar ham nazarga olinadi.

Xotirani mustahkamlash va rivojlantirish

Turmushning har bir sohasida va ayniqsa o'qishda ko'p narsalarni esga olib qolish va esga tushirish talab qilinadi. Yangi materialni, zarur bo'lib qolgan bilim-malakani tezlik bilan esda olib qolish va xotira materialini tez va to'la-to'kis esga tushirish xotiraning mustahkam va kuchli ekanligini ko'rsatadi. Xotiraning bu sifatlari nimaga bog'liq bo'lishini quyidagi xotira qonuniyatlaridan bilib olish mumkin.

1. Maqsadning qat'iyligi va aniqligi. Maqsadni qat'iy va aniq qo'yish materialning mustahkam esda qolishiga sababchi bo'ladi. Isbot qilinganki, maqsad bu tarzda qo'yilmasa, material yodda qolmaydi yoki o'zlashtirish sust boradi. Ammo «men shu materialni, albatta, yodlab olishim kerak» degan maqsad qo'yilsa, u tez va mustahkam esda qoladi.

Materialni doimo esda saqlab qolish yoki uni qisqa vaqt uchungina bilish maqsadi ham katta rol o'ynaydi. Shu narsa isbot qilinganki, hajmi va og'irligi barobar bo'lgan ikki xil material (masalan, she'rni o'rganib olish vazifasini o'quvchilarga topshirib, bulardan birinchisini ertaga, ikkinchisini esa bir haftadan keyin aytib berishlari haqida ularni ogohlantirganlar. Ammo ularni bir haftadan keyin emas, balki ikki hafta o'tkazib so'raganlarida, materialning birinchisiga ko'ra, ikkinchisi mustahkamroq esda qolganligi ma'lum bo'lgan. Ba'zi o'quvchilar darsni ertaga o'qituvchiga aytib berish maqsadidagina o'zlashtiradilar. Bunday bilim mustahkam bo'lmaydi va tez unutiladi. Shu sababli darsni o'zlashtirishda uni doimo esda saqlab turish maqsadi bilan ishga kirishish va buni odat qilish lozim.

2. Diqqatning ahamiyati. Xotiraning mustahkam va sifatli bo'lishi diqqatning qanchalik faol va kuchli bo'lishiga ham bog'liq. Diqqatni bir nuqtaga to'play olmaslik, qunt bilan

ishlay olmaslik xotiraning sifatini pasaytiradi va materialni esda saqlab qolish uchun ko‘p vaqt sarf qilishni talab etadi. Chala dikqat bilan o‘n marta takrorlashdan ko‘ra, diqqatni mustahkam to‘plab, bir-ikki takrorlash tez va yaxshi natija beradi, vaqt va kuch kam sarf qilinadi. Xotirasi bo‘shligidan shikoyat qiluvchi kishilarning ko‘pincha diqqatlari bo‘sh va tarqoq ekanligi aniqlangan. Bu esa irodaga bog‘liq. Irodasi bo‘sh kishilar o‘z diqqatlarini uyushtira olmaydilar, zo‘r berib, chidam bilan ishlay olmaydilar, qo‘ygan maqsadlariga erisha-olmaydilar. Iroda va diqqatning mustahkamligi ham o‘zlashtirishning sifatini belgilaydi.

3. O‘zlashtiriladigan materialning ma’nosiga tushunishning ahamiyati. Materialning ma’nosiga tushunmasdan, uni quruq takrorlay-verish usuli, ya’ni mexanik ravishda yodlash eng natijasiz noqulay usul bo‘lib, unga ko‘p vaqt va ko‘p kuch sarflanadi. Materialning ma’nosiga tushunib, ya’ni uning mantiqiy asosini tushunib o‘zlashtirish osonroq va mustahkamroq bo‘lib, bu usul bilan esda qoldirilgan material unutilmaydi. Ongli o‘zlashtirish uchun material ustida puxta diqqat bilan faol ishlash kerak. Materialning eng muhim qismini boshqa qismlardan fikran ajratib, uni ma’lum rejaga solish va dastavval uning muhim asosiy qismini o‘zlashtirish va so‘ngra qolgan qismlarini o‘rganish kerak. Demak, materialni ongli o‘zlashtirish uchun uni dastavval ana shunday tartibda ishlab chiqish, so‘ngra uni takrorlash yo‘li bilan xotirada mustahkamlash lozim.

4. Takrorlashning ahamiyati va uning eng yaxshi usullari. «Dehqon bo‘lsang shudgor qil, mulla bo‘lsang takror qil» degan maqol bor. Haqiqatdan ham o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan materialni takrorlamasdan esda saqlab qolish mumkin emas. Materialning mazmuni va ma’nosini tushunib olgandan keyin uni takrorlashga o‘tish kerak. Busiz material esda qolmaydi. Ammo takrorlashning eng yaxshi usuli materialni ha deb o‘qiyvermasdan, bir-ikki marta o‘qib chiqib, uni kitobga qaramasdan o‘z ichida qaytarish yoki gapirib berishdir. Bu usul juda yaxshi natija beradi, chunki u diqqatni faollashtiradi va kam vaqt oladi. Bu usul **faol takrorlash** deyiladi.

Kitobdan boshni ko'tarmasdan, uni ketma-ket o'qiy berish mexanik esda qoldirishga suyanadi va uni miyada to mustahkam qolguncha takrorlayverishni talab etadi. Bu usulni esa **sust takrorlash** deyiladi. Shuning uchun materialning mazmuni bilan tanishib bo'lgandan keyin uni darrov o'z-o'ziga aytib berish va qiynalib qolgan joylarda kitobga qarab o'zlashtirish usuliga odatlanish juda muhim.

Shunisi ham borki, oz vaqt ichida ketma-ket takrorlashdan ko'ra, orasida biroz vaqt o'tkazib takrorlash yaxshiroq natija beradi. Bir she'rni birdaniga esda qoldirish uchun 16 marta takrorlash talab qilingan. Xuddi shu she'rning o'zini oradan vaqt o'tkazib, uni kuniga ikki martadan takror qilib borish esa faqat 8 marta takrorlashni talab qilgan. Shu sababli o'tgan materialni imtihon oldida to'xtovsiz takrorlashdan ko'ra, uni o'quv yili davomida vaqt-vaqt bilan qaytarib borish yaxshiroq natija beradi.

5. Materialning hajmi. Tez va mustahkam esda qoldirishda materialning katta-kichikligi, ya'ni hajmi ham ma'lum ahamiyatga ega. Material (doston, adabiy parcha)ning hajmi katta bo'lmasa uni butun holicha birdaniga o'zlashtirish ma'-quldir. Katta materialni esa avvalo boshidan oxirigacha ko'rib chiqib, mazmuni bilan tanishish, keyin uni to'liq ma'no beradigan mantiqiy bo'laklarga taqsim qilish va har bir bo'lagini ayrim o'zlashtirish, so'ngra uni yana bir marta surunkasiga ko'zdan kechirish eng ma'qul usuldir. Ma'lum bo'lishicha, materialning mazmuniga e'tibor bermasdan, uni tasodifiy parchalarga bo'lib o'rganib olish uchun 45 marta takrorlash kerak bo'lgan. Xuddi shu materialning o'zini mantiqiy va tugal ma'no beradigan parchalarga taqsim qilib o'rganish uchun faqat 12 marta takrorlash kifoya qilgan.

6. Materialni idrok qilish usullari ham xotiraning sifatiga ta'sir ko'rsatadi. O'zlashtirish uchun zarur bo'lgan materialni avvalo idrok qilish, ya'ni uni ko'rish, eshitish kerak. Aniq, to'g'ri va mukammal idrok qilingan material yaxshi o'zlashtiriladi. Ma'lumki, materialni qabul qilishda qancha ko'p sezgi a'zolari ishtirot qilsa, material ham shuncha yaxshi esda qoladi. Materialni mustahkam o'zlashtirish uchun uni ham eshitish, ham

ko'rish, uning rasmini solib olish, sxemasini chizish yo'li bilan idrok qilish kerak. Bunda harakat a'zolari ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Shu sababli o'qish materiali ustida har qanday yozish-chizish mashqlari katta ahamiyatga ega va shu yo'l bilan o'zlashtirilgan material unutilmaydi.

Shuni ham esda tutmoq kerakki, material qay ravishda idrok qilingan bo'lsa miyaga shu ravishda singib qoladi. Shu sababli o'zlashtiriladigan materialning tartibli, sistemali, to'g'ri, ravshan bo'lishi hamda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan so'zlarning aniq talaffuzi, to'g'ri yozib olinishi katta ahamiyatga ega. Savod chiqarish davrida va chet tillarni o'rganishda imlo yozishdan ko'ra, kitobdan aynan ko'chirib yozish ma'quldir.

7. Materialni o'zlashtirish uchun eng qulay paytni bilish ham muhim ahamiyatga ega. O'qish materialini yodda olib qolish uchun eng o'ng'ay vaqt kechki vaqtdir. Kechqurun o'zlashtirilgan material yangi bir material yoki boshqa ta'sirotlar bilan aralashib, chalg'ib ketmaydi. Kechqurun o'rganib olgan material ertalab yana bir-ikki marta takrorlansa, u juda mustahkam saqlanib qoladi. Ammo qiyin masalalarni yechish, murakkab material ustida ishlash va ijod qilish uchun ertalabki vaqt eng qulay vaqtdir.

Shunisi ham borki, o'qishda har xil fanlarga oid turli-tuman materiallarni o'zlashtirish kerak. Bularning xotirada aralashib ketib, bir-birini siqib chiqarmasligi uchun quyidagi qoidaga rioya qilmoq lozim. Bir-biriga o'xshash fanlarni ketma-ket o'qish ma'qul emas. Agar bir kunda tarix, adabiyot va algebra fanlaridan dars tayyorlash kerak bo'lsa, avval adabiyot darsini, keyin algebrani va so'ngra tarix darsini tayyorlash ma'qul. Bir darsni tayyorlab bo'lgandan keyin 5-10 minut dam olish kerak.

8. Kishining tajribasi, qiziqishi va ehtiyojlari ham xotiraning sifatiga va mazmuniga ta'sir qiladi. Ma'lumki, yangi materialni o'zlashtirish uchun uni eski materialga bog'lash lozim. Ilgarigi bilimlarimizga hech bog'lanmagan yangi material qiyinchilik bilan o'zlashtiriladi. Shuning uchun har qanday yo'llar bilan, ya'ni kitob, gazeta, jurnallar o'qish, ekskursiyalarga chiqish, muzey va ko'rgazmalarga borish, to'garaklarda ishtiroy etish orqali tajriba orttirish fikr doirasini kengaytirishda katta

ahamiyatga ega. Chunki odamning bilimi va tajribasi qancha boy bo'lsa, uning ongida har qanday assotsiativ va mantiqiy bog'lanishlar uchun qulaylik ham ko'p bo'lib, material ham tez va mustahkam o'zlashtiriladi. Albatta, kishining qiziqishi va ehtiyojlariga, uning maqsadi va kasb-koriga bog'liq narsalar, ayniqsa kishining bevosita faoliyati uchun zarur bo'lgan material tez va mustahkam esda qoladi hamda yodidan chiqmaydi.

Ma'lumki, kishi nimaga ixlos qo'ysa, shuni mustahkam esda qoldiradi.

O'quvchilarda maktabda o'tiladigan fanlarga qiziqish tug'dirish, ularni bilimga havaslantirish orqali o'quvchilarning xotirasini kengaytirish va kuchaytirish mumkin. Demak, bu bilan darsni o'zlashtirish-ning sifatini ham oshirish mumkin.

Yuqorida aytilganlarni yakunlab, shuni ko'rsatib o'tisa zarurdirki, xotirani qandaydir sun'iy mashq qilish orqali o'stirish mumkin emas. Yaxshi va kuchli xotira shaxsning har taraflama kamolotga yetishi mahsulidir. Maktabdagagi ta'lim-tarbiya talablariga muvofiq, o'smir shaxsni har taraflama yuksaltirish tufayli uning xotirasi kengaytiriladi va boyitiladi.

7.4. Xotiraning rivojlanishi

Ma'lumki, psixik jarayonlarning hamma turlari bolalik chog'idan rivojlana boshlaydi va ularning bu rivoji asosan bolaning yashagan muhiti, faoliyati va olgan ta'lim-tarbiyasiga bog'liq bo'ladi.

Xotira bola hayotining birinchi kunlaridanoq o'sa boshlaydi. Eng avval bolaning xotirasi shartli refleks shaklida ko'riva boshlaydi. Chaqaloq beshik bilan qo'lga olishning farqiga boradi. Shu bilan birga bolani qo'lga olsalar, u darrov sut emish uchun boshini burib, og'iz-lablarini qimirlata boshlaydi. Demak, bola «qo'lga olish» va «emish» kabi harakatlarni bir-biriga bog'lab, qo'lga olinishi bilan emizishni ham talab etadi. Ya'ni shu harakatlarni bir-biriga bog'lab, esda qoldirgan bo'ladi. Bola alla aytib uxlatsa, u buni ham esda saqlab qoladi va keyin allasiz uxlamaydigan bo'lib qoladi. Ikki oydan keyin chaqaloq o'zi kunda ko'rib yurgan kishi va buyumlarning obrazlarini ham esda qoldirib, ularni taniydigan bo'lib qoladi. 3-4 oylik

chaqaloq begona yoki kam ko'rinadigan kishilardan begonasiraydi. Ko'rmagan bir joyga olib borilganda tevarak-atrofni ko'zdan kechirib yig'lay boshlaydi. Demak, u bungacha ko'rib va odatlanib qolgan narsa bilan hali ko'rmagan, yangi narsalarning farqiga boradi. Tanimagan yangi narsadan begonasiraydi, aksincha, tanish narsalardan xursand bo'ladi. Bularning hammasi xotiraga tegishli xususiyatlardir.

Bola bir narsadan qo'rqsqa yoki bir narsaga qo'lini tegizib, uni og'ritib qo'ysa, shundan paydo bo'ladigan yoqimsiz tuyg'ularni ham esda saqlab qoladi va shu narsalarni takror ko'rganida yig'lay boshlaydi yoki qo'lini yana tegizmaslik uchun ehtiyyot yuzasidan qo'lini olib qochadi.

5-6 oydan keyin esa bola ayrim so'zlarni ma'lum narsalarga bog'lay boshlaydi, shu narsaning otini eshitish bilan uning o'zini ham ko'zi bilan qidira boshlaydi, o'zining otini bilib oladi.

Demak, xotiraning hamma turlari, ya'ni harakat, tuyg'u, obrazli va so'z-ma'no xotiralari kichik yoshdanoq, bolaning o'sib mustahkamlanib borayotgan miyasi va kattalardan oldigan tarbiyasi asosida rivojlanib boradi, bolaning o'yin faoliyati, o'qish mehnati jarayonida va nutqi orqali taraqqiy topadi. Ammo har xil yoshdagagi bolalarning diqqatiga xos bo'lgan xususiyatlar bor.

Bog'cha yoshdagagi bolalar ko'pincha ko'rgan va eshitgalarini ixtiyorsiz esda qoldiradilar. Kichik yoshdagagi bolalar birorta materialni esda saqlab qolish vazifasi yoki maqsadini qo'ya bilmaydilar. Odatda, bolalar diqqatini jalb etgan, ularga kuchli ta'sir ko'rsatgan, juda qiziqtirgan, ko'zga tashlanadigan buyum va hodisalarni beixtiyor va yengillik bilan esda saqlab qoladilar.

Ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalar bir eshitgan she'r, qo'shiq va ertaklarini qayta-qayta aytib berishni talab etadilar, ularni takror eshitishdan zerikmaydilar. Ammo ularning bu talabi shu materialni, albatta, yoddan bilib olish uchun emas, ular buni eshitib xursand bo'lishni xohlaydilar, uning mazmuniga yoki she'rning vaznli va qofiyali bo'lishidan zavqlanadilar, takror eshitaverib, ularni yoddan ham bilib oladilar. Bog'cha yoshidagi bolaga bir ertakni takror-takror hikoya qilish kerak, bu bolaning xotira va tasavvurlarini mustahkamlaydi.

Rus psixologgi Istomina o'tkazgan tajribaga binoan, 3-5 yashar bolalarni bir necha so'zni yoddan bilib olishga majbur etilsa, ular buni yaxshi va tez bila olmaydilar, ularning buni o'r ganib olishga toqati bo'l maydi. Ammo xuddi shu so'zlar o'yinga aralashtirilsa, ular tez o'z lashtirib oладилар. Demak, bog'cha yoshida, shuningdek, kichik mакtab yoshida ham beixtiyor esda olib qolish hukm suradi va bu bolalarning qiziqishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun kichik mакtab yoshidagi bolalarda o'qish materialiga qiziqishni tug'dirish katta ahamiyatga ega. Ammo ixtiyoriy esda qoldirish 6-7 yashar bolalarda, xususan mакtab yoshidagi bolalarda, rivojlanan boshlaydi. Albatta, biz kichkina bolaning diqqatini bir narsaga jalb etib yoki unga bir ish buyurib, bir narsa qilishni tayinlab, shularni esda tutishni talab etamiz. Demak, biror narsani esda saqlab qolish maqsadini uning oldiga o'zimiz qo'yamiz. Ammo mакtabda o'qish, asosan, ixtiyoriy esda qoldirishni, ya'ni faqat darsga tegishli materialni ongli ravishda zo'r berib o'z lashtirishni talab etadi. Mакtabda o'quvchi bola o'qituvchi topshirgan vazifani bajaradi, uni o'r ganib oladi. Shuning uchun mакtabda o'qish jarayonida bolaning irodasi, diqqati mustahkamlanib boradi, shu asosida ixtiyoriy esda qoldirish qobiliyati ham borgan sari o'sib boradi.

Odatda, bolalarda mexanik xotira, kattalarda esa ongli, mantiqiy xotira kuchli degan fikr ko'p tarqalgan. Ammo bu to'g'ri emas. Albatta, kichkina bolalarning bilimi va tajribasi kam, so'z boyligi yetarli emas, shuning uchun ular ko'p narsalarning ma'nosiga tushunmasdan o'z lashtirib olishga majbur bo'ladi. Ko'p vaqtarda bir so'zning ma'nosini o'zlaricha tushunadilar. Shuning uchun uni o'rinsiz ishlatib, kattalarni yo hayron qoldiradilar, yo kuldiradilar. Ammo bola o'z tushunchasiga mos materialni ongli, mantiqiy ravishda o'z lashtiradi.

Odatda 5-sinf gacha o'quvchilar darslik materialini aynan aytib beradilar, lekin shunga asoslanib, bolaning xotirasi mexanik xotira deb xulosa chiqarish yaramaydi. Ko'pincha darslik materiali qisqacha ta'rif va bayonotlardan iborat bo'lib, uni yoddan bilib olish qulay bo'lgani uchun, o'quvchilar uni

aynan o'zlashtiradilar, shu bilan birga agar o'qitish metodik va pedagogik jihatdan to'g'ri uyuştirilgan bo'lsa, uning ma'nosini ham tushunadilar. Biroq uni o'zgartirib, «o'z so'zlari» bilan aytib berishda qiynaladilar. Buning sababi ularning xotirasi mexanik bo'lishida emas, balki so'z boyligi, bilim va tajribaning hali yetarli bo'lmasligidadir. Ehtimol, irodaning ham yetarli kuchli bo'lmasligidadir, chunki o'z so'zi bilan aytib berish uchun ko'proq kuch sarf qilish kerak, yosh bolalarning bunga toqatlari yetmaydi. Ammo V-VII sinflarda o'quvchilar darslik materialini so'zma-so'z emas, balki o'z so'zlari bilan bayon qila oladilar va uni o'zlashtirganda ham qulay usullar qidirib, yoppasiga emas, balki eng muhim joylarini ajratib, qolgan qismlarini qisqartirib, ma'lum reja asosida esga olib qolishni biladilar. Ammo mantiqiy, ongli xotiraning asosi tarbiya samarasi ekanligini unutmaslik kerak. Bolalarning mantiqiy xotirasini, fikrlash qobiliyatini, madaniy saviyasini o'stirishga harakat qilinmasa, o'qituvchilar bunga yetarli e'tibor bermasalar, o'quvchilarning mantiqiy xotirasi sust o'sadi va bilim yuzaki o'zlashtiriladi. Bunday bilim esa o'quvchilarning tajribasini orttirmaydi, ongini kengaytirmaydi va yuzaki bilimdan amaliyotda ham to'la foydalanib bo'lmaydi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, o'zbek bolalari uchun rus maktablarda o'qish ayniqsa, ongli va mantiqiy o'zlashtirishni talab etadi. Ma'nosiga chuqur tushunmasdan, quruq yodlab o'qish foydasiz o'qishdir. Lekin maktab va ota-onalarning vazifasi bolalarga tegishli maslahatlar berib, darsni to'g'ri o'zlashtirish usullarini ko'rsatishdir, chunki o'quvchilar odatda bunday usullarning borligini bilmaydilar, ortiqcha kuch va vaqt sarf qilib mehnatlarini og'irlashtiradilar. Shuning uchun har bir o'qituvchi yuqorida bayon qilingan xotira qoidalarini bilmog'i kerak.

Esga tushirish ham har xil yoshdagи bolalarda turlicha ko'rindi. Bolalarda eng avval tanib olish qobiliyati rivojlana boshlaydi, ya'ni kichkina bolalar bir ko'rgan va eshitgan narsalarini takror ko'rgan va eshitganlarida tanib, esga tushiradilar. Shuningdek, kichik yoshdagи bolalarda assotsiatsiya (bog'lanish) yo'li bilan esga tushirishni ham ko'rish mumkin. Masalan, birorta o'yinchoq yoki shirinlikning olib berilgan

joyini ko'rib qolib, keyinchalik shu joydan o'sha narsalarni yana olib berishni talab qilishni 1 yoshu 4-5 oylik bolalarda ko'rish mumkin.

Ikki yashar bolada tasavvurlar zaxirasi ancha kengaygan bo'ladi va bu bola ko'rgan-eshitgan narsalarning obrazlarini ko'z oldiga keltirib eslay oladi. Lekin bog'cha yoshidagi bola asosan xotirasida saqlanib qolgan narsalarni tasodifiy sabablar bilan beixtiyor esiga tushiradi. Ammo bu yoshda ham ota-onalar bolaning ixtiyoriy esga tushirish qobiliyatini rivojlantirish uchun harakat qilib, boladan she'r aytib berishni yoki ko'rgan, eshitganlarini gapirib berishni talab etib, xuddi talab etiladigan ma'lum materialnigina esga tushirishga uni majbur etadilar.

Ixtiyoriy esga tushirish ayniqsa mактаб yoshida, o'qish munosabati bilan rivojlanan boshlaydi. Chunki o'qish ixtiyoriy esda qoldirishni va esda qolgan materialni kerak bo'lib qolganda ixtiyoriy esga tushirishni taqozo qiladi.

Ma'lum bo'lganidek, xotiraning ahamiyati va qiymati shundaki, biz allaqachon idrok qilgan, bilib olgan narsalarni ko'p vaqt o'tgandan keyin ham esimizga tushira olamiz, hatto allaqachon unutilgan narsalarni ham esimizga tushirishimiz mumkin.

Ammo biz faqat materialning o'zinigina emas, balki shunga daxldor barcha narsalarni ham, masalan, uni qachon, qayerda o'zlashtirganimizni ham aytib bera olamiz. Ya'ni shuning «tarixi»ni ham esimizda saqlab qolamiz. Shuning uchun ham biz o'z hayotimizda boshimizdan kechirgan voqealarni, o'z tarjimai holimizni bilamiz. Xotiraning shu turi odatda 5-6 yoshdan boshlanadi. Shuning uchun 5-6 yoshgacha bo'lgan voqealarning eng kuchli taassurot ko'rsatganlarinigina eslay olamiz. Lekin esimizda qolgan shu bir voqeagacha nima bo'lgan va undan keyin nima bo'lganini aytib bera olmaymiz. Demak, ketma-ket, tartibli «tarixiy» voqeani esga tushirish qobiliyati ancha keyin paydo bo'lar ekan. Masalan, 5-6 yashar bola «men yozda akam bilan dalaga borganimda u yerda traktorni ko'rdim» deb gapira boshladi. Shu yoshdan boshlab bolalar o'z hayc t'arida bo'lib o'tgan voqealarni ketma-ket, qaysisi oldin, qaysisi keyin o'tganligini bila boshlaydilar. Ammo xotiraning

bu turi mantiqiy fikrlay bilish, ancha keng tajriba to'plash asosida 10-11 yoshda yaxshi o'sa boshlaydi va bolalar tarixiy voqealar kelajagini, ya'ni tarix darslarini ham tushuna oladilar. Bolaning xotirasi hajm jihatdan ham sekin-asta kengaya boradi.

Milliy maktablarda beriladigan ta'lim-tarbiyadan maqsad yoshlarni har tomonlama yetuk, bilimli, madaniy kishilar, barkamol avlod qilib yetishtirishdir. Buning uchun fanlarning asoslarini ongli, sifatli, mustahkam o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimni aniq, to'liq esga tushirib, undan amaliy foydalana bilish lozim. Maktablarimizning vazifasi o'quvchilarda fanlarga qiziqish uyg'otish va ularni o'zlashtirishning eng qulay va optimal yo'llarini o'quvchilarga o'rgatishdir. Buning uchun turli yoshdagi bolalarning xotirasiga xos bo'lgan psixologik va individual xususiyatlarni va xotira tiplarini bilish lozim.

7.5. Xotirani tarbiyalash yo'llari

Yuqorida aytganimizdek, xotira nerv sistemasining o'sishi bilan birga, tarbiya va turli pedagogik faoliyat ta'siri (o'yin, o'qish, mehnat) hamda nutq vositasi bilan aloqa qilish jarayonida o'sib takomillashib boradi.

Xotira ta'limning ham asosiy shartidir, shu bilan birga, xotiraning o'zi ham, asosan ta'lim-tarbiya jarayonida o'sib boradi. «Xotira o'sishining nerv-fiziologik asosi miya po'stida shartli reflekslar nerv bog'lanishlarning asta-sekin ko'payib va murakkablashib borishidir. Birinchi shartli reflekslar taxminan ikki xafjalik chaqaloqda ovqatlanishga bog'liq bo'lgan qo'zg'ovchilar asosida hosil bo'ladi. Besh oylik chaqaloqda shartli reflekslar bog'lanishlar endi hamma analizatorlarning ishtirokida hosil bo'la boshlaydi va bu bilan xotira jarayonlarining paydo bo'lishiga imkoniyat tug'dirilgan bo'ladi!».

Yuqori sinf o'quvchilarida xotira o'smirlar xotirasiga nisbatan ancha rivojlangan va takomillashgan bo'ladi. Yuqori sinf

¹ I.P. Ivanov, Umumiy psixologiya. Toshkent. «O'qituvchi», 1976-y. 207-b.

o'quvchisining xotirasi kichik mакtab yoshidagi o'quvchi xotirasiga qaraganda yomonroqdir degan fikr hozirgi kunga qadar hukm surib kelar edi, lekin bu fikrga qo'shib bo'lmaydi. O'quvchilarning yoshi ulg'aygan sari, ularning bilimlari kengayib boradi binobarin yangi nerv bog'lanishlarning vujudga kelishi imkoniyatlari ham ortadi. Bundan tashqari yuqori sinf o'quvchilari esda qoldirish sohasida anchagina malakalarni ham egallaydilar, demak, ularning xotirasi ancha puxta va ongli bo'lib boradi. Shuning uchun yuqori sinf o'quvchilarini o'z xotiralarining boy imkoniyatlaridan foydalanishga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, ularga bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarida zarur kunlik rejim hamda gigiyena talablariga rioya qilish odatini singdirish oila va mакtab oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

O'rta mакtabning yuqori sinflaridayoq, ayniqsa ixtisoslashtirilgan ta'lif jarayonida o'quvchilarda kasbga oid xotira rivojiana boshlaydi, bunday xotira katta yoshidagi odamda uning mehnat faoliyati jarayonida kamolotga erishadi. Xar bir kasb-hunar odamda xotira ishining qayta shakllanishiga mazkur faoliyat sohasiga oid xotiraning moslashishiga imkon yaratib boradi. Xotiraning eng yaxshisi mantiqiy (ma'no) xotiradir. Mantiqiy xotiraning o'sishida qanday psixologik omillar sababchi bo'ladi?

Birinchidan, kishining psixik hayoti ijtimoiy hayotning qaysi yo'naliшhiga qarab shakllanganligiga, ya'ni nimalar bilan qiziqqanligiga bog'liqdir. Mantiqiy xotiraning psixologik xususiyati shundaki, bunda odam hamma narsani baravar darajada esda qoldiravermay balki ko'proq uning uchun muhim, kerakli va maroqli bo'lgan narsalarnigina esda saqlab qoladi. Shuning uchun kishining qiziqqan narsalari qancha ko'p, ma'nodor va rang-barang bo'lsa, uning xotirasidagi mantiqiy boylik ham shuncha ko'p, rang-barang va ma'nodor bo'ladi. Kishining nimalarni ko'proq esda tutishi uning nimalar bilan ko'proq qiziqishiga bog'liqdir.

Ikkinchidan, ma'no xotirasining o'sishi kishining *bilim saviyasiga* bog'liqdir. Bilimi ko'p va har tomonlama bo'lgan odam esida qoldirish lozim bo'lgan yangi material uchun bir

qancha har xil ma'no bog'lanishlari topa oladi, fikr qila oladigan odam esida qoldirmoqchi bo'lgan materialni yaxshi va chuqur tushunadi. Yaxshi tushunish esa ma'no xotirasini o'stiradigan asosiy shart ekanini bilamiz. Odatda, kishining xotirasi qancha yaxshi bo'lса, bilimi ham shuncha ko'p bo'lishi mumkin, deb o'ylaydilar. Bu, albatta, to'g'ri, lekin buning aksi bo'lishi mumkinligini ham esdan chiqarmaslik kerak, ya'ni bunda teskari munosabat bo'lib, kishining bilimi qancha ko'p bo'lса, bilimi ko'p bo'lgan sohada xotirasi ham yaxshi bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, esda qoldirishda *saranjomlik* xotirani o'stirishdagi muhim shartlardan biridir. Faktlarni anchayin to'plashga emas, balki bilimlar sistemasini hosil qilishga erishish kerak. Xotiradagi saranjomlik deyilganda, esda qoldirilishi kerak bo'lgan materialni bir ma'no beradigan tartibga solib, reja bilan bilib olishga odatlanishni nazarda tutamiz. Ba'zi hollarda, ya'ni material yetarli darajada izchil va sistemali bayon qilinmagan, tushunib olish qiyin bo'lgan hollarda, materialni bir ma'no beradigan qilib tartibga solishga darrov erishib bo'lmaydi, bu ish ancha zo'r berishni talab qiladi. Ammo bu ish ko'p natija beradi. Esda qoldirishda ma'lum bir tartib va sistema bo'lishi esga olinadigan narsaning xotirada mahkam saqlanib qolishiga juda katta yordam beradi. Xotirada saqlanib qolgan materialning tartibga solingan bo'lishi o'z navbatida uni tez esga tushirishga yordam beradi. Xotirasini o'stirmoqchi bo'lgan kishi, avvalo, materialni esga olib qolishda ham, uni esga tushirishda ham o'zini sistemaga, saranjomlikka odatlantirishi kerak.

Nihoyat, bir narsani esda qoldirish va uni uzoq esda saqlash chorralari hamda unutuvchanlikka qarshi kurashish yo'llari to'g'risida yuqorida paragraflarda bat afsil bayon qilingan tadbirlarni yaxshi bilish yo'li bilan ham xotirani o'stirsa bo'ladi. *Kishi o'z xotirasini o'stirish uchun hamisha o'zida esda qoldirish, esda saqlash va esda saqlagan narsalarni tez-tez esga tushirish qobiliyatini tarbiyalab o'stirishi kerak.*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bilish jarayoni sifatida xotiraning eng muhim xususiyatlarini va sezgilar, idrok, tafakkur, shuningdek,

shaxs sifatlari bilan aloqasini ta'riflab bering. Misollar keltiring.

2. Unutishning fiziologik va psixologik sabablari nimadan iborat? O'quvchilar muhim va kerakli o'quv materialini unutmasliklari uchun o'qituvchi nimani yodda tutishi va amalda nima ish qilishi kerak?

3. O'smirlar va katta yoshdagi o'quvchilar xotirasining o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat? O'qituvchi o'rta va yuqori sinflarda ish olib borgan paytda o'quvchilar xotirasining qanday sifatlarini o'stirishga ko'proq e'tibor berishi kerak?

4. Sizga ilgaridan tanish bo'lмаган ikkita she'r beriladi. Ularning hajmi o'rtacharoq bo'lsin. Yodlash uchun bitta she'rni ketma-ket to'rt marta takrorlang, ikkinchisini yod olishda esa takrorlashni esga tushirish bilan al mashlab bering. Ikki xil usul bilan esda qoldirish natijalarini bir-biriga taqqoslang. Pirovardida bu ikki usuldan qaysi biri samaraliroq ekanligi haqida o'z fikringizni aytинг.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. **Л. В. Занков.** Память. –М.: Учпедгиз, 1949.
2. **А.А. Смирнов.** Проблема психологии памяти. –М.: «Просвещение», 1996.
3. **K.K. Platonov. G.G. Golubev.** Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
4. **E.G'oziyev.** Umumiy psixologiya. II-kitob. –Toshkent: «Universitet», 2002.
5. Psixologiya kursi, M.V. Gamezo tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1972.
6. **M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva.** Umumiy psixologiya. –Toshkent: 2002.
7. **L.Beknazarova, A.Jabborov.** O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik asoslari. –Toshkent: «Fan», 2008-y.

TAFAKKUR

8.1. Tafakkurning umumiy ta’rifi

Inson tafakkuri uzoq tabiiy va tarixiy taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Bu butun insoniyatning hozirgi kungacha bosib o‘tgan tarixiy yo‘lidir. Ammo insoniyat aniq shaxslardan iboratdir. Har qaysi shaxs ma’lum ijtimoiy-tarixiy davrda orttirgan tafakkuri orqali ma’lum siyosiy-ma’naviy, iqtisodiy sharoitda shakllanadi, o‘zining individual hayotini kechirib, ongli psixologik imkoniyatlarini jumladan, tafakkurini, histuyg‘ularini qo‘shib o‘zi uchun tarixiy davr yaratadi. Biz qo‘lingizdagi amaliy psixologiya o‘quv qo‘llanmasida ana shu davrning inson tafakkuri bilan bog‘liq psixologik jarayonlarini ko‘rib chiqamiz.

Dunyoda shunday narsalar va hodisalar mavjuddirki, biz ularni o‘ylash, fikr yuritish yo‘li bilangina chuqur bilib olamiz. Chunonchi, yer tagidagi boylik zaxiralarini, suvning ximik birikma ekanligini, ob-havoning ikki-uch kundan keyin qanday bo‘lishini to‘g‘ridan-to‘g‘ri sezish yoki idrok etish yo‘li bilangina bilib ololmaymiz. Haqiqiy bilimga ega bo‘lish uchun tabiat va jamiyat hodisalari o‘rtasidagi zaruriy ilmiy munosabatlarni, ularning nima sababdan va qanday paydo bo‘lish va o‘zgarish qonunlarini anglash, tushunib yetish lozim. Bunga faqat bevosita sezgi va idrok qilish yo‘li bilangina emas, balki mulohaza qilish va fikran xulosa chiqarish yo‘li bilan erishishimiz mumkin.

«Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq va to‘laroq aks etadi. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq, to‘g‘ri, to‘liq, chuqur va umumiylashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag‘in ham oqilona amaliy faoliyat bilan mushohada qilishiga imkon beradi. Demak, tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak formasidir. Tafakkur atrofdagi olamni

bilish quroldir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir», deb ta'kidlaydi P.I.Pavlov.¹

Bosh miya po'stining biron- bir uchastkasi emas, balki uning butun po'sti amalga oshirayotgan faoliyat tafakkurning nerv-fiziologik negizini tashkil etadi.

Tafakkurning birinchi muhim belgisi umumlashganlikdir. Ya'ni tafakkur natijasida inson shunday *ma'lumotlarga* ega bo'ladiki, bu *ma'lumot* turli obyektlardan olingan ko'p miqdordagi *ma'lumotlarni* qayta ishlangan hamda shu obyektlarning eng muhim xislatlarini qisqacha «ixchamlashtirilgan» shakldagi yig'indisidan iborat bo'ladi.


Tafakkur faqat insongagina xos bo'lgan subyektiv psixik jarayon tarzidagi ideal obrazni yaratadi. Bu o'rinda tafakkur faqat bir odam va uning zamondoshlarinigina emas, balki o'tmish avlodlarning ham tajribalarining qayta ishlanishi natijasidir.

Tafakkurning ikkinchi belgisi borliqning bilvosita aks ettirilishidir. Bu tafakkur analizatorlarga bevosita ta'sir qilmaydigan hamda faqat bevosita belgilari tufayligina anglash mumkin bo'lgan narsalarni aniqlash va tushunish imkonini beradi, degan ma'noni anglatadi. Odamning tafakkuri, har biri bir so'z yoki bir nechta so'zlar bilan ifodalanuvchi tushunchalar vositasida amalga oshadi.

Tushuncha borliqdagi predmet va hodisalarning umumiyligi, biroq muhim xususiyatlarining aks ettirilishidir. Har bir tushuncha obyektiv olamning umumlashtirilgan obrazidir.

Tafakkur bilimga, yangi bilimlarni egallash esa tafakkurga tayanadi. Biroq bu o'zaro aloqada tafakkur muhimroq rol o'ynaydi. Hozirgi tezkor taraqqiyot sharoitida o'qitishning vazifasi o'quvchilarni faqat *ma'lum bilimlarga* o'rgatish emas, balki birinchi navbatda fikr yuritishga, jonli mushohada qilishga o'rgatish ekanligini hech kim inkor etolmaydi. Amalda tasdiqlangan bilimlarning yig'indisi ishonchning asosi bo'lib, u o'z navbatida e'tiqodga asosiy psixologiyaning yo'nalishi bo'lib kiradi.

¹ Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. -Toshkent: "O'qituvchi", 1974, 243-bet



Tasavvur va tushunchalarning o'zaro elementlar aloqasi, shu aloqa tufayli paydo bo'lgan tasavvur yoki tushuncha boshqalarini keltirib chiqarishi assotsiyalar deyiladi. Assotsiyalarsiz tafakkur bo'lmaydi. Assotsiyalar bir-biriga yaqinligi, o'xshashligi va kontrastligiga ko'ra uch turga ajratiladi. Agarda paydo bo'layotgan assotsiyalar inson oldida turgan tafakkur vazifasiga bevosita taalluqli bo'lmasa, tafakkur maqsadga yo'llangan jarayon o'rniiga fikrlarning maqsadga yo'llanmagan oqimiga aylanadi. U odamni masalani hal qilishdan chetga olib chiqishi mumkin.

Hukm – tafakkurning predmet va hodisalarining u yoki bu belgilariga ko'ra aloqalarini aks ettiruvchi eng sodda aktdir. Hukm tafakkur akti tarzida mehnat faoliyatida, ish vaqtida tug'ilgan biror savolga javob beradi. Hukm tushunishning asosidir. Psixologiya uchun maxsus qiziqish uyg'otadigan narsa hukmning noto'g'ri tushunishga olib keluvchi xatolaridir. Tafakkurning murakkab formasi bir necha hukmlardan chiqariladigan yangi hukmdan tashkil topuvchi xulosa chiqarishdir.

Fikr yuritish operatsiyalari

Tafakkur qilish jarayoni P.I. Ivanovning fikricha, biror psixik elementlarning shunchaki bir-biri bilan almashinish tarzida voqe bo'lmasdan, balki alohida aqliy operatsiyalar biz idrok qilayotgan yoki tasavvur qilayotgan narsalar (obyektlar) ustida, biz umumiylashgan va abstrakt tushunchalarga ega bo'lган obyektlar ustida aqliy harakatlar qilish tarzida voqe bo'ladi.

Ya'ni tafakkur qilish tezkor jarayondir. Masalan, odamda biron-bir qiyinchilik yechimini topish ehtiyoji tug'ilsa, bir muhim narsani tushunib olish, biror masalani yechishga zarurat tug'ilsa, tafakkur jarayoni odatda shundan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda, tafakkur hamisha savol qo'yishdan boshlanadi. Biz birovga bekordan-bekorga «o'ylab ko'r», «fikringni ayt», deganimiz bilan fikrni faol ishga solib bo'lmaydi. Fikrni ishlatish uchun odamning oldida o'ylab, fikr yuritib hal qilinishi zarur bo'lган aniq bir muammo bo'lishi kerak va bu muammoni hal qilish zarur bo'lган kuchli ehtiyoj bo'lishi lozim. Shuning uchun o'ylash qobiliyati bor bo'lган sog'lom odamning birinchi alomati haqiqatdan qo'yilgan muammoning qanchalik murakkab va zarurligini ko'ra bilishdir. Mustaqil fikr qilib o'rganmagan odam uchun hayotda go'yo hech qanday muammoning o'zi yo'q, uning nazarida hamma o'z-o'zidan anglashilib turganga o'xshaydi. Kishining bilimi, salohiyati, tasavvurlari shakllanib ehtiyojlari oshgan sari, avval oson bo'lib ko'ringan ishlarda ham yangi-yangi muammolar borligi ma'lum bo'ladi va bu muammolar fikrimizni uyg'otadi, mustaqil fikr qilish yo'lini ko'rsatadi. Shunisi ham borki, muammoni «ko'rish»ning o'zi odam uchun kifoya qilmaydi.

Masalaning nimadan iborat ekanligini, uni qanday usullar, yo'llar bilan hal qilish zarurligini obdon o'ylash, anglash kerak bo'ladi. Muammoni tushunish, avvalo masalani o'rtaga qo'yish demakdir, buning uchun avvalo odamning fikri ancha ishlashi kerak. Masala to'g'ri qo'yilgan bo'lsa, uni yechishga birinchi qadam bosilgandir. Muammoning o'zi oddiy yoki murakkabligiga qarab har xil fikriy yo'llar bilan hal qilinadi. Turli muammolarni hal qilganda, fikrlashning eng ko'p uchraydigan turi faraz qilishdan, ya'ni masalaning qanday

yo'sinda yechilishi to'g'risida mo'ljal qilishdan, so'ngra bu farazlarni tekshirib ko'rishdan iboratdir. Ko'p masalalarni yechishda aqliy eksperiment degan narsa, ya'ni bajariladigan turli ishlarning qanday natijaga olib borishini bilish uchun ularni miyada bajarib ko'rish juda muhim rol o'ynaydi. Texnikaga, konstruktsiyaga doir turli masalalarni hal qilishda aqlda qilinadigan eksperimentlarning ahamiyati juda kattadir. Aqlda eksperiment qilib ko'rishning ahamiyati shaxmat o'yinida juda yaqqol ko'rinadi. Masalan, shaxmat o'ynovchi yurishni o'ylab, hamma yo'llarni aqlda pishitib chiqadi: «men bunday yursam, u bunday yuradi, keyin men bunday yuraman» va hokazo.

Aqlda eksperiment qilish uchun xayol bilan tafakkurning birga ishlashi shartdir, chunki, bir tomondan, hamma holatlarni mumkin qadar aniq va tushunarli tasavvur qilmoq kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, tuzilgan har bir holatdan qanday natijalar kelib chiqishini o'ylab, bir xulosaga kelish lozim bo'ladi. Har bir masalani to'g'ri yechish uchun lozim bo'lgan shart tegishli bilimga ega bo'lishdir.

Bilimli bo'lish va bor bilimdan foydalanib, uni ishlata bilish fikrning samarali ishlashi va o'sishi uchun zarur bo'lgan shartdir.

Taqqoslash

«Taqqoslash insonning ijtimoiy faoliyatida, bilimlarning o'zlashtirilishida, voqelikni to'laroq aks ettirishda bir-biriga o'xhash jihatlar tafovutini, shuningdek, bir-biridan farq qiladigan tomonlar o'rtasidagi o'xhashlikni topishdan iboratdir. Taqqoslash shunday bir tafakkur operatsiyasidirki, bu operatsiya vositasi bilan obyektiv dunyodagi narsa va hodisalarning bir-biriga o'xhashligi va bir-biridan farqi aniqlanadi», deb yozadi E.G'oziyev o'zining "Umumiy psixologiya" nomli kitobida.¹

Taqqoslash to'g'risida K.D. Ushinskiyning ham ajoyib fikri bor. U taqqoslashning juda muhim ahamiyati borligini uqtirib

¹ E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. II kitob. -Toshkent: «Universitet», 2002, 139-bet.

bunday degan edi: «Taqqoslash har qanday tushunishning va har qanday tafakkurning asosidir. Olamdagi narsalarning hammasini taqqoslab ko‘rish yo‘li bilan bilolmasak boshqa yo‘l bilan bila olmaymiz, agar biz hech narsa bilan solishtirishimiz va farqini bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan biron yangi narsaga duch kelganimizda edi (boshqa shunday narsa bor bo‘lsa), u holda biz shu narsa to‘g‘risida hech qanday fikr hosil qila olmagan bo‘lar edik va uning to‘g‘risida biror so‘z ayta olmagan bo‘lar edik».

Narsalarning o‘xhashligi yoki tafovuti dastlab bevosita sezgilarda va idroklerda aks etadi. Taqqoslash fikr qilish jarayoni bo‘lib, bu jarayon idrok qilinayotgan narsalarning o‘xhashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo‘lganda yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o‘xhashlik va tafovutni topish lozim bo‘lgan hollarda voqe bo‘ladi.

«Agar siz, – deb yozadi K.D. Ushinskiy, – tashqi tabiatning biror narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o‘ziga juda o‘xhash bo‘lgan narsalardan farqli tafovutini toping va uning o‘zidan juda uzoq bo‘lgan narsalar bilan o‘xhashlik tomonlarini toping. Ana shunda siz shu narsalarning eng muhim hamma belgilarini payqab olasiz, demak, shu narsani tushunib olasiz»¹.

Kuzatish va tajribalarning ko‘rsatishicha, o‘sha mustabid tuzum (qaramlik) davrida o‘quvchilarning fikrlashi doirasi, turmush tarzi va milliy taraqqiyoti, ongi, qanday sharoitda bo‘lgan. Milliy an‘analar, erkinlik, mustaqillik, o‘z mulkiga egalik tuyg‘usi qanday bo‘lganu so‘nggi 14-15 yil ichida O‘zbekistonimizning milliy taraqqiyoti, erki, erkinligi, huquq va manfaatlari qanday ko‘rinishda rivojlanayapti? Bu yurtda yashayotgan har qaysi inson ana shu ijtimoiy jarayonlarni har tomonlama taqqoslash qobiliyatiga ega. Bugun yoshlarimiz xuquqlari va manfaatlari, ularni har tomonlama himoyalash va ta‘minlash, jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish tamoyillari haqida gapirar ekanmiz, bu mavzu dunyoda har doim, ayniqsa so‘ngi paytlarda eng o‘tkir va dolzarb masalaga aylanib borayotganini o‘smir yigit-

¹ К.Д. Ушинский. Избранные сочинения, II том. 1939 год, с. 436.

qizlarimiz yaqqol taqqoslashi mumkin. Ular «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun» degan ma'noli fikrlarni o'zga mamlakatlar, yoshlari taqdiriga taqqoslab xulosa chiqara oladi.

Yoki ayrim kishilarni bir-biriga taqqoslab, ularning qobiliyatlarida, xarakterida, dunyoqarashlarida tafovut yoki o'xshashlik borligini topa olamiz. Demak taqqoslash deganda bir yoki bir qancha narsalarning sifat va xususiyatlarini bir-biriga taqqoslab ularning farqi, o'xshashligi yoki aynan tengligi aniqlanadi.

Odatda zehnli, ziyrak, kuzatuvchi kishi, yuzaki qaraganda bir-biriga o'xshagan narsalar o'rtasidagi farqni yoki bir-biridan keskin farq qilgandek ko'ringan narsalar o'rtasidagi o'xshashlikni tez taqqoslay oladi.

8.2. Tafakkur turlari va aqlning muhim sifatlari

Har bir alohida olingen odamning tafakkur jarayonida birinchi va ikkinchi signal sistemalarining roli har xil bo'lishi mumkin. Bu hol kishining faoliyatiga, xarakteriga, fikr yurituvchi odamning murakkab vaqtli bog'lanishlar tizimiga, hayotda orttirgan tajribasiga hamda boshqa bir qator psixologik faktorlarga bog'liqdir. Shu munosabat bilan tafakkurning konkret-amaliy, konkret-obrazli va abstrakt kabi asosiy turlari farqlab olinadi.

Konkret-amaliy tafakkur tafakkurning oddiy turi bo'lib, u amaliy harakatga bevosita qaratilgan yaqqol harakatli tafakkurdir. Bunday tafakkur muktabgacha yoshdagi bolalarga xosdir, lekin katta odamlarda ham analiz va abstraktsiyalar yo'qligida oldindan mavjud bo'lgan tajribaga tayanib, ish ko'rilgan hollarda amaliy tafakkurdan foydalananadilar. Masalan, yig'ma-sochma moddalardan foydalangan holda proyekt-lashtirish shu kabi amaliy ishlari bilan birga qo'shib bajarish kerak bo'ladi.

Konkret-obrazli tafakkur inson ma'lum vazifalarni hal qilishdan oldin o'z faoliyatiga narsa va hodisalarning asosan xotirasida saqlanib qolgan obrazlari orqali ish ko'rish bilan xarakterlanadi.

Obrazli tafakkur – yaqqol, harakatli tafakkurga nisbatan ancha murakkab va ixchamroq, umumlashgandir. Biroq, u birorta ko'rgazmali obraz bilan ifodalanmagan, obyektiv borliqning murakkab jarayonlarini aks ettirishga qodir emas.

Abstrakt tafakkur. Tafakkurning bu turi dastavval har xil nazariy masalalarni yechish bilan bog'liqdir. Lekin u kundalik hayotda ham keng qo'llaniladi. O'smirlik davridayoq va ayniqsa katta maktab yoshida bolalarning fikr yuritishi ko'proq abstrakt tafakkurga aylanib boradi. Tafakkurning yuqorida ko'rib chiqilgan hamma turlari o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Kishi aqlini o'stirish va tarbiyalashda aqlning bir qancha ayrim sifatlarini e'tiborga olmoq kerak. Bu sifatlarning eng muhimlari quyidagilardir:

1. *Aqlning tanqidchilik sifati*, ya'ni aqlning ishini qattiq tergab, har bir qilingan farazni har jihatdan yaxshi mulohaza qilib, bu farazlarni yoqlovchi hamda ularni rad qiluvchi har bir dalil va isbotni yaxshi amallay bilish, farazlarni har tomondan o'ylab, mulohaza qila bilishdir: Aqlida tanqidchilik sifati bo'limgan odam bir masalani hal qilayotganda, aqliga daf'atan kelgan har bir fikrni to'g'ri va uzil-kesil fahmlab, masalani yechdim, deb o'ylayveradi. Aqlning tanqidchilik sifatini ko'rsatadigan alomat, o'zining qilgan har bir ehtimoliga tekshirilib ko'rishi lozim bo'lgan faraz deb qarash va bu sinash hamda tekshirish natijasida noto'g'ri chiqqan ehtimollaridan qayta bilish, boshlagan ishi masalaning shart va talablariga muvofiq kelmaganligi ma'lum bo'lgach, bu ishdan darrov qayta bilishdir. Tanqidchilik sifatiga ega bo'lgan aql saranjom-sarishtalik, raso aqldir.

Xayoli boy bo'lgan kishilar o'z aqllarining tanqidchilik sifatini oshirishga ayniqsa ko'proq harakat qilishlari kerak. Xayol boy bo'lib, buning ustiga aql ham juda saranjom-sarishtalik va raso bo'lsa, ijodiy faoliyatning zamini shudir. Tanqidchilik sifati baland bo'lgan aql bilan idora qilinmagan xayol, kishini amalga oshmaydigan, bajarib bo'lmaydigan har xil ishlar bilan behuda ovora bo'lib yuradigan, quruq xayolparast qilib qo'yadi.

2. *Aqlning epchilligi*, aqlning bu sifati, turli xom xayollardan va siyqa fikrlardan ozodligidir, masalaning sharti vaziyat o'zgarganda darrov yangi yo'l va tadbirlar topa olishdir.

Aql epchilligining alomati faqat uning siyqalikdan va bu siyqalikning aqlni bo'g'adigan ta'siridan ozodlikdangina iborat bo'lmay, balki bir masalani hal qilayotganda har xil usullar bilan urinib ko'rish, noto'g'rilibini, bir karra ma'lum bo'lgan yo'llarni sira takror qilmaslik ham aql epchilligini ko'rsatadigan alomatdir. Ko'p kishilarning masalalarni yaxshi yecha olmaganliklarining sababi ko'pincha shuki, ko'p vaqtda ular biror masalani hal qilmoqchi bo'lganlarida, dastavval birdaniga aqllariga kelgan yo'lning natijasizligini necha marta amalda ko'rib bilgan bo'lsalar ham, yana shu yo'lni hadeb qaytaraveradilar. Bunda aql tor doiraga kirib qoladi. Ya'ni odam aqlini bir karra kirgan yo'ldan boshqa yo'lga sololmay qoladi.

3. *Fikrning kengligi*. Aqlning bu sifati masalaning o'ziga aloqador bo'lgan boshqa mayda-chuyda, ammo muhim tomonlarini ham nazarda tutgan holda, masalaning umuman hammasini qamrab olish qobiliyatidan iboratdir.

Murakkab bir masalani yaxshi hal qilish hamisha bu masalaning hamma tomonini qanchalik birdaniga fahmlay ola bilishga, masalaning bir tomoniga aloqador bo'lgan narsalarni nazarda tutganda, uning boshqa tomonlari taqozo qilgan shart va sharoitlarni, talab va cheklashlarni ham qanchalik to'la e'tiborga ola bilishga bog'liqdir. Matematikaga oid qiyin masalalarni yechganda bo'ladigan xatolarning ko'pi masalaning hamma tomonlarini birdaniga fahmlab ola bilmaslik natijasida tug'iladi.

4. *Fikrning ildamligi*. Aql bilan yechiladigan masalalarni ildam yechish to'g'risida faoliyatning har xili turli talab qo'yadi. Olim bilan xarbiylar ishini solishtirib ko'rsak, bu narsa darhol ma'lum bo'ladi. Nyutonning miyasida butun olam tortishish quvvati to'g'risidagi qonunning asosiy fikrlari tug'ilgach, keyin bu qonunni qat'iy suratda isbot qilgunicha oradan 16 yil o'tdi. Darvin «Turlarning paydo bo'lishi» degan asarini yozish uchun 20 yil vaqt sarf qilib, tayyorgarlik ko'rdi.

Fikrning ildamligi, albatta, olim uchun ham nihoyatda qiymatli sifatdir, lekin shunday bo'lsa ham, masalan, uchuvchiga qaraganda, oddiy sharoitda olimning fikr qilishga fursati ancha ko'pdir. Uchuvchi ko'p hollarda tezlik bilan ish ko'rishni talab qiladi, shuning uchun sust fikr qiluvchi kishi yaxshi o'quvchi bo'la olmaydi.

Fikrning ildamligi, aqlning boshqa sifatlarining yuksak darajada o'sganligi natijasidir. Fikr ildamligi bilan fikrning shoshma-shosharligi o'rtasidagi farq ham shundadir, yuzaki qaraganda, fikrning ildamligi bilan shoshma-shosharligi o'rtasida farq yo'qdek ko'rindi, fikrning shoshma-shosharligi uning ildamli a tamomila qarama-qarshi bo'lgan boshqa bir sifatdir.

Fikrning ildamligi kerak bo'lganda aqlning barcha kuchini bir yerga toplash va fikrni juda yogurtirib harakatga keltirish qobiliyatiga bog'liqdir, so'ngra, fikrning ildamligi uning kengligiga va tezligiga ham bog'liq. Fikr keng bo'lsa, masalaning hamma tomonlarini birdaniga ko'rishga imkon beradi. Fikrning ildamligi yana fikrning epchilligiga ham bog'liqdir; fikr epchilligi esa, masalani hal qilishda noto'g'riliqi bir karra isbot bo'lgan yanglish yo'llarni takrorlamaslikka imkon beradi, so'ngra fikrning ildamligi tanqidchilik qobiliyati yuksakligini talab qiladi. Fikrning tanqidchilik qobiliyati o'tkir bo'lsa, farazlarning to'g'ri noto'g'riliqini darrov ayirishga va yaroqsizlarini darrov chiqarib tashlashga imkon beradi.

Aqlning shoshma-shosharligi buning aksi bo'lib, fikrning bir xil yalqovligi natijasidir. Kishining fikri yalqov bo'lsa, aqlni astoydil ishlatib o'tirmay, hali bu, hali uchoraga tutinib, bu muammodan tezroq qutulishga harakat qiladi; fikr yalqovligi puxta tekshirilmagan farazlarga ishonish, obdon o'yamasdan, chala o'ylangan qarorlar qilish yo'liga boshlaydi. Fikrning shoshma-shosharligiga qarshi qattiq kurashish aqlning yaxshi sifatlarini o'stirish uchun amalga oshirilishi juda lozim bo'lgan bir shartdir.

Analiz va sintez

Analiz – narsa, hodisa yoki tushunchalarni fikran qismlarga ajratish va uning ayrim qism, belgi yoki xususiyatlarini ajratib ko'rsatishdir.

Analiz jarayonida butunni uning qismlariga, uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Masalan, biz biron masalani yechishga kirishishda avvalo uning shartlarini analiz qilib olamiz.

Bolalarni savodga o'rgatishda analiz ko'p qo'llaniladi, ya'ni gap so'zlarga, so'zlar esa bo'g'in va tovushlarga bo'linadi. Ona tili va chet tilidagi nutqni idrok qilish hamda tushunishda analizning roli juda kattadir. Bunda biz butun nutq oqimini jumla, gaplarga bo'lamiz, so'zlarni ajratib ko'rsatamiz, ayrim grammatik qurilishlarni topamiz va hokazo. Yoki stolni analiz qilganimizda biz uning tusi, og'irligi va boshqa shu kabi belgilarini bilib olamiz. Suvning tiniqligini, og'irligini, bug'lanishini, temperaturasini, zichligini ham fikran ajratish mumkin. Odam anatomiyasini o'rganayotganimizda suyaklarning bir-biridan farqini, mehnat vazifasini bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, analiz ham qilib o'rganamiz.

Sintez analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Sintez dastlab narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishda ko'rindi. Chunonchi, ayrim detallardan fikran biror-bir mexanizm konstruktsiya qilamiz, tovush va hodisalardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan esa gap tuzamiz.

Analiz bilan sintez hamisha birlikda o'tadi. Buyuk allomalardan biri analiz va sintezga shunday ta'rif beradi: «Tafakkur ongimiz qaratilgan obyektlarni tarkibiy elementlarga ajratishdan iborat bo'lganidik, zoti bir bo'lgan elementlarni bir butun qilib qo'shish sintezdir. Analiz bo'lmasa, sintez ham bo'lmaydi. Fikran analiz va sintez narsa va hodisalar bilan amaliy ish bajarish asosida yuzaga keladi. Bu hol bolalarda ayniqsa, yaqqol ko'rindi. Ular biron narsani fikran analiz va sintez qilishdan avval, uni amalda bajaradilar. Bunda ular narsalarning o'zi yoki ularning ko'rsatmali tasviridan

foydalananadilar. Maktab yoshigacha bo'lgan bolalardayoq biz ularning o'yinchoqlarni qismilarga bo'lishlarini, kubiklardan har xil narsalar qurishlarini va boshqa shu xil harakatlarini kuzatamiz. Kichik maktab bolalari yoddan sanashni bilib olgunga qadar avvaliga sanash tayoqchalari, barmoq va boshqa narsalar yordamida ish ko'radilar. Katta yoshdagi kishi ham biror narsa va hodisa bilan birinchi marta duch kelganida amaliy ish bajarishi zarur bo'ladi»¹.

Abstraktsiyalash – shunday fikr yuritish jarayonidirki, bunda tafakkurda aks etayotgan bir yoki bir nechta obyektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu obyekt yoki obyektlardan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda obyektdan ajratilgan bir belgining o'zi tafakkurning mustaqil obyekti bo'lib qoladi. Abstraktsiya odatda, analiz jarayonida yoki analiz natijasida sodir bo'ladi.

Buyumlarni bir-biri bilan taqqoslash chog'ida ham abstraktsiyalash jarayoni sodir bo'ladi. Biron muayyan jihatlar hamisha bir-biri bilan taqqoslanadi, buyumlar yoki hodisalarning mavjud belgisi (tusiga, shakliga, harakatlarning tezligiga va shu kabilalar)ga qarab, ular bir-biri bilan taqqoslanadi. I.P. Pavlov fikr qilish faoliyatida abstraktsiyaning alohida ahamiyati borligini ta'kidlab, bunday degan edi: «Umumiylashtirishga keng imkoniyat o'chib bergen so'zning alohida xususiyati bulmish abstraktsiya tufayli biz vogelikka bo'lgan munosabatimizni vaqt, makon, sababiyat kabi umumiy tushunchalar formasiga solganmiz».

Nutq til bo'lgandagina abstraktsiya qilish mumkin. So'z bo'lmasa hech bir tushunchani ifodalab bo'lmaydi.

Umumiylashtirish – tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o'xshash, muhim belgilarini shu narsalar to'g'risidagi bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirish demakdir.

Psixolog E. G'oziyev bu masalani bir qadar boshqacharoq talqin qiladi. Jumladan, u: «psixologiyada umumlashtirishning keng qo'llaniladigan ikki turi: tushunchali umumlashtirish va

¹Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1972-yil, 160-bet.

hissiy - konkret umumlashtirish yuzasidan ko'proq fikr yuritiladi. Tushunchali umumlashtirishda predmetlar obyektiv muhim belgi asosida umumlashtiriladi. Hissiy konkret umumlashtirishda esa predmetlar topshiriq talabiga binoan tashqi belgi bilan umumlashtiriladi», deb yozadi. Psixologlar noto'g'ri umumlashtirishning (N.A. Menchenskaya, Ye.N. Kabanova, Meller) hissiy konkret umumlashtirishdan tafovuti borligini hamisha ta'kidlab kelmoqdalar. O'quvchi va talaba ba'zan predmetlarni muhim bo'limgan belgisiga asoslanib noto'g'ri umumlashtiradilar, vaholanki, topshiriq shartida bu talab ular oldiga mutlaqo qo'yilmaydi. Lekin bu nazariyaning himoyachilari noto'g'ri umumlashtirishni alohida tur deb hisoblaydilar»!

Umumlashtirish tafakkurning abstraktlashtiruvchi faoliyati bilan chambarchas bog'langandir. Abstraktlashtirish singari umumiylashtirish ham so'z yordami bilan hosil bo'ladi. Har qanday so'z yakka bir narsani yoki hodisani emas, balki o'xshash yakka-yakka obyektlarning ko'pchiliginini ifodalaydi.

Fikrdagi abstraktlashtirish va umumiylashtirish jarayonlari ikkinchi signal sistemasining o'ziga xos mexanizmlariga tayanadi. «Nutq signallari (so'z) tufayli, – deydi I.P. Pavlov, – nerv faoliyatining yangi printsipi abstraktlash va shu bilan birga, oldingi sistemaning behisob signallarini umumiylashtirish vujudga keladiki, bunda ham o'z navbatida ana shu umumiylashtirilgan yangi signallar tag'in analiz va sintez qilinaveradi»².

Konkretlashtirish – muayyan umumiylar turkumga kiruvchi qisman narsa haqidagi fikrdir. Konkretlashtirish umumiyni konkret faktlar orqali ko'rsatishda, umumlashtirilgan nazariy bilimlardan misollar keltirishda namoyon bo'ladi. Konkretlashtirish bilimlarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega.

O'quvchilarning muayyan qonuniyatlarni qanchalik o'zlashtirganliklari, ularning shu qonuniyatlarga oid misollar, faktlar keltira bilishlarida ko'zga tashlanadi. O'quvchilardan

¹ E. G'oziyev. «Umumiy psixologiya». II-kitob. -Toshkent: 2002, 143-bet.

² И.П.Павлов. Полное собрание сочинений. III том, 2-книга.

muntazam ravishda shuni talab etish kerakki, ular yakka va ayrim faktlarni umumlashtirish hamda xulosa chiqarishning o'zi bilan cheklanib qolmay, balki umumiylar qoidalarni tegishli ayrim faktlar, konkret misollar yordamida isbot ham qila bilsinlar.

Yuqorida ko'rib chiqilgan hamma tafakkur jarayonlarining barchasi mujassamlashgan taqdirda odam, narsa va hodisalarning mohiyatlarini bilib olish, ya'ni ularni tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Hukm va xulosa chiqarish

Tafakkur qilish jarayonida ayrim fikr yuritish jarayonlaridan bizda paydo bo'ladigan fikrlar hukm tariqasida shakllanadi. Hukm biror narsa haqida biror nimani tasdiqlash yoki inkor qilish demakdir.

Har bir hukm ikki tushunchaning bir-biriga bog'lanishidan hosil bo'ladiki, bunda bir tushunchaning ma'nosi ikkinchi tushuncha yordami bilan aniqlanadi. Masalan: «Kvadrat» «Mineral» desak bunda hukmning yo'qligini ko'ramiz. Ammo kvadrat degan tushunchani tomonlari teng to'g'ri burchakka bog'lasak, uning mazmunini aniqlab olgan bo'lamiz. Mineralning sodda jism ekanligini inkor qilib, uning bir xususiyatini, ya'ni uning kimyoviy tuzilishi jihatdan murakkabligini aniqlab olamiz.

Hukmni tashkil qiluvchi tushunchalar konkret, ya'ni yaqqol obrazli bo'lishi mumkin. Masalan, «Maktabning binosi ikki qavatli». Bu konkret hukmdir.

Ammo «romantizm adabiy oqimdir» deyish abstrakt hukmga misol, chunki bu hukm abstrakt (yaqqol obrazsiz, faqat so'z bilan ifoda qilingan) umumiylar tushunchalardan tuzilgan. Biz biror narsa haqida aniq bilimga ega bo'lsak, buning to'g'ri bo'lish bo'lmasisligi haqida hukm etolamiz. Agarda hukm tasdiq yoki inkor qilinadigan narsa haqiqatga muvofiq bo'lsa, hukm to'g'ri chiqadi va aksincha, haqiqatga mos bo'lmasa, bunday hukm noto'g'ri, xatodir. «Temir metaldir» – to'g'ri hukm. «Mineral sodda jism» – noto'g'ridir. Hukm qat'iy, gumon noaniq bo'lishi mumkin. Masalan, «Temir ehtimol metaldir», «Bu metal bo'lmasisligi mumkin» va hokazo.

Psixologik ta'limot nuqtai nazaridan, hukmda ifoda etiladigan narsa bizga juda ishonchli, inobatli va albatta to'g'ri, haqiqiy deb yoki inobatsiz, shubhali, gumanli bir narsa deb his qilinadi.

Bu albatta, shaxsning bilimi, madaniy saviyasi, mafkurasi, kasbiga bog'liq. Masalan, savodsiz kishiga yerning o'z o'qi atrofida harakat qilishi ishonchsiz, shubhalidek tuyuladi.

Ilmiy dalillarga va fanga suyangan, ijtimoiy tajriba bilan isbot qilingan hukmlar haqiqiy hukmlardir. Ilmiy dalillar va ijtimoiy tajriba bilan isbot qilinishi mumkin bo'lмаган, diniy tasavvur va xurofotlarga suyangan hukmlar noto'g'ri hukmlardir. Masalan, «tush g'oyibdan xabar beradi», «qiyomat bo'ladi» va hokazolar noto'g'ri hukmlardir.

Hukmlarning bir-biriga mantiqiy bog'lanishi **muhokama** yoki **mulohaza** deb ataladi.

Xulosa chiqarish. Ikki yoki bir qancha hukmni bir-biriga bog'lab, yangi bir hukmni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur jarayoni xulosa chiqarish deb ataladi. Bir-biriga bog'lanib ketadigan hukmlar **asos**, bundan hosil bo'ladigan yangi hukm **xulosa** deyiladi. Masalan, fanlarning hammasi foydalidir. Misol uchun,

Psixologiya – fan (asos).

Demak, psixologiya ham foydalidir (xulosa).

Xulosa chiqarish quyidagi turlarga ajratiladi:

A. Induktiv' xulosa chiqarish xususiy fakt va hodisalardan umumiy xulosa chiqarish demakdir. Masalan, temir, ash, qo'rg'oshin ash u singarilarining issiqliidan kengayishini kuzatib, shu asosda barcha jismlarning ham issiqliidan kengayishlari haqida umumiy xulosa chiqariladi.

Temir issiqliidan kengaydi.

Qo'rg'oshin issiqliidan kengaydi.

Kumush issiqliidan kengaydi.

Bularning barchasi jismidir.

Demak, jismlarning hammasi issiqliidan kengayadi.


¹ Induksiya bir narsaga olib borish degan ma'noni bildiradigan lotincha so'z.

B. Deduktiv' xulosa chiqarish umumiy qoida yoki umumiy hukmdan xususiy xulosa chiqarish demakdir. Bu induksiyaning teskarisidir. Masalan, jismlarning hammasi issiqliidan kengayadi. Oltin jismidir. Demak, oltin ham issiqliidan kengayadi.

Induksiya va deduksiya bir-biriga bog'lanadi va ularning asoslari to'g'ri bo'lsa, bundan kelib chiqadigan xulosalar ham to'g'ri chiqadi. Geometriyani o'qishda asosan deduksiyadan foydalilaniladi, chunki teoremani yechganda umumiy qoidadan kelib chiqadigan xususiy qoida qilinadi. Tabiat, ona tili darslarida ko'proq induksiyadan foydalilaniladi, ya'ni ayrim faktlarni ko'rib chiqib, shu asosda umumiy bir qoida aniqlanadi.

16-jadval

Nerv sistemasi tiplari va temperamentlarining o'zaro nisbati



E.G'oziyev hukmlarnin quyidagi turlarga bo'lib o'rganishni tavsiya qilgan: «Birlikdagi narsalar hodisalar va voqelikning miqdoriga, ularning biror hukmda aks ettirilgan aloqa munosabatlariga qarab, hukm quyidagi turlarga bo'linishi mumkin:

Deduksiya bir narsadan chiqarish degan ma'noni bildiradigan lotincha so'z.

1. Tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi hukm. Hukmlarning ushbu asoslarga tayanib bo'linishi, sifatga qarab bo'linishi deb ataladi.

2. Yakka, juz'iy, xususiy va umumiy hukm. Hukmlarning bunday belgilarga binoan bo'linishi miqdorga qarab bo'linish deyiladi.

3. Shartli, ayiruvchi va qat'iy hukm singari ko'rinishlar mavjud bo'lib, hukmlarning munosabatga qarab bo'linishi deb ataladi.

4. Hukm taxminiy ko'rinishga ega bo'lishi ham mumkin. Bu hukmda aks ettiriladigan narsa va hodisalar belgisining nechog'lik muhim bo'linishiga yoki voqelikka mos kelishkelmasligiga bog'liq. Masalan, «Ertaga yomg'ir yog'ishi mumkin», «Paxta topshirish rejasi to'lib qolsa kerak»¹ va h.k.

Hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar, hodisalar, alomatlar hukmning mazmunini tashkil qiladi.

Narsa bilan belgining aloqasi (bog'liqligi) aks ettirilgan hukm *tasdiqlovchi hukm* deyiladi. Masalan, «Alisher Navoiy buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiridir», «Tinchlik eng oliv ne'mat», «1975 yil Toshkent metrosi ishga tushgan sanadir» va hokazolar tasdiqlovchi hukmdir.

O'quvchilarda tafakkurning o'sishi

O'rta maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar o'quv muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchi yoshlar tafakkurining o'sishi ancha murakkab jarayon bo'lib, u uzoq vaqt davom etadi. O'quvchi yoshlarda tafakkur ularning hayotida uchrovchi turli xildagi ziddiyatlarni hal qilishda takomillashib boradi.

O'quvchining yangi ehtiyojlari (bu ehtiyojlarning tug'ilishi o'z navbatida hayot va faoliyat, ijtimoiy muhit talablariga va boshqa sabablarga bog'liqdir) bilan ularni qondirish imkoniyatlari o'rtasida sodir bo'luvchi ziddiyatlar odam hayoti hamda faoliyatining asosiy ziddiyatlaridan hisoblanadi.

¹ E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. II-kitob. -Toshkent: «Universitet», 2002-yil.

Ta'lismaktabda beriladigan bilimlarni o'zlashtirish jarayonida kuzatuvchanlik, xotira va xayol o'sib borishi bilan maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material bo'ladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o'sib boradi. Ta'lismarajayonida tafakkur katta o'sish yo'lini konkret tafakkurdan abstrakt - nazariy tafakkurga o'sish yo'liga o'tadi. O'quvchilar muhokama yuritish yo'li bilan to'g'ri xulosalar – deduktiv va induktiv xulosalar chiqarishni o'rghanadilar. Masalan, ular matematika mashg'ulotlarida doimo umumiylar qoidalarga asoslanib xulosalar chiqaradilar, til darslarida o'zlashtirib olingan qoidalarni imloning ayrim hollariga tatbiq qilishga to'g'ri keladi va hokazo. O'quvchilar bir qancha misollar asosida (albatta, o'qituvchining yordami bilan) grammatika va arifmetikaga doir qoidalarni chiqarish yo'li bilan induktiv xulosa chiqarish yo'llarini egallab oladilar. Yuqori sinflarning o'quvchilari tibbiyat, fizika va ximiya fanlarini o'rghanish jarayonida umumiylashtirilgan ancha keng xulosalarni o'zları mustaqil ravishda chiqaradilar.

Yuqori sinf o'quvchilari induksiya va deduksiyani egallab borish natijasida kuzatishlar va tajribalarga asoslanib turib, ayrim hodisalarining sabablarini mustaqil qidirib topishlari, so'ngra esa tabiatning ayrim qonunlarini ham fahmlab olishlari mumkin. Yuqori sinf o'quvchilari ayrim hodisalarini izohlayotgan vaqtlarida o'zlariga ma'lum bo'lgan qonunlarni amalda qilib ko'rsatadilar.

Maktab o'quvchilari bilimlarni o'zlashtira borganlari sari, turli qoidalarni asoslashni, isbotlashni, rad qilishni, tekshirib ko'rishni ham o'rGANIB boradilar. Jumladan, ular misollar, faktlar, umumiylar qoidalarni va aksiomalardan dalillar tariqasida foydalanishni o'rghanadilar. O'rta maktab va o'rta maxsus kasbhunar ta'limi muassasalari o'quvchilari boshqa kishilarning murakkab muhokamalaridagi, shuningdek, o'zlarining ham muhokamalaridagi ziddiyatlarning, mantiqsizlikning asoslanmaygan jihatlarini ochib bera oladilar. Ona tili, matematika mashg'ulotlari tanqidiy, isbotli tafakkur uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega. O'rta maktab o'quvchilari ijtimoiy tarixiy fanlarga doir mashg'ulotlarda isbotlaydigan va rad qiladigan

dalillardan har doim foydalanadilar. Bizning mustaqil vatanimizda o'qitish jarayonida ularda nazariy tafakkur bilan birlikda amaliy tafakkur ham rivojlantiriladi.

Bunga avval shu yo'l bilan erishiladiki, maktabda ko'pgina fanlarni (masalan, fizika, ximiya, botanika, zoologiya fanlarini) o'qitish o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini qishloq va xalq xo'jaligi amaliyatida tatbiq qilishlari bilan bog'lab olib boriladi.

Istiqlolimiz sharofati bilan mакtablarimizga, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalariga yangi pedagogik texnologiya nazariyasi kirib keldi. Shuning uchun ham hozir maktab va o'quv muassasalarida kompyuterlashtirish, avtomatlashtirish, kommunikatsiya, texnika va ishlab chiqarishning professional malakalar ta'limoti, ayniqsa, katta o'rin olib rivojlanmoqda. Shu sababli mакtablarimiz o'quvchilarida konstruktiv texnika tafakkurining o'sish va rivojlanishiga ham yordam berishi lozim. O'quvchilarimizning texnika masalalariga va ixtirochilikka, san'at va qishloq xo'jaligi masalalariga qiziqishlari va ularda mana shunday qiziqishning ko'pligi amaliy tafakkurning rivojlanishini shakllantiradi.

Ta'kidlash joizki, o'quvchi yoshlar tafakkurini, ijtimoiy ongini rivojlantirish hayotiy majburiyatga aylanmoqda. Chunki yuqorida aytganimizdek, iqtisodiyotda, ijtimoiy hayotda har kuni, har soniyada jiddiy o'zgarishlar yuz berayotir. Ana shu o'zgarishlarga ijobiy yondoshish har bir o'quvchidan ma'naviy mas'uliyat va izlanuvchan bo'lishni talab etadi. Bu fikrning zamirida dunyoqarashi keng, raqobatbardosh, xalqaro andozalar bilan bellasha oladigan darajadagi o'quvchi yoshlarni tarbiyalashga e'tibor qaratilmoqda. Shu bois hozirgi kunda mакtab va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim o'quv yurtlarida o'qiyotgan o'quvchilarning tafakkurini shakllantirish juda muhimdir.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tafakkur jarayoni sezgi, idrok va boshqa psixik jarayonlardan qanday farq qiladi?
2. Tafakkurning umumiylari ta'risi.
3. Fikr yuritish jarayonlari nima?

4. Tafakkur turlari va aqlning muhim sifatlari nima?
5. Hukm va xulosa chiqarishni tushuntirib bering.
6. O'quvchilarda tafakkurning o'sishi.
7. Mantiqiy masalalarni yechishning asosiy bosqichlarini konkret misollarda tahlil qiling.
8. Tushunchaning tasavvurdan farqi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'lanish nimadan iborat? Misollar keltiring.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. **Karimov I.A.** Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
2. **P.I. Ivanov.** Umumiy psixologiya. –T.: «O'qituvchi», 1967 y
3. **E. G'oziyev.** Umumiy psixologiya. I kitob. –Toshkent: «Universitet», 2002-yil.
4. **E. G'oziyev.** Umumiy psixologiya. II kitob. –Toshkent: «Universitet», 2002-yil.
5. **K.K. Platonov.** Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil.
6. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. B. Mamajonov, A. Saydullayev va boshqalar. –T.: «O'qituvchi», 1978-yil.
7. **В.А. Артёмов.** Конспект лекций по психологии. Издательство ХГУ имени А.М.Горького.
8. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. Prof. A.N. Shcherbakov tahriri ostida. –Toshkent: «O'qituvchi», 1984.
9. **V. Karimova.** Psixologiya. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 2002-yil.
10. **M.T. Davletshin, S.M.To'ychiyeva.** Umumiy psixologiya (o'quv qo'llanma). –Toshkent: 2002-y.
11. **E. G'oziyev.** Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). –Toshkent: «O'qituvchi», 1994-y.
12. **В.А.Крутицкий, Н.С. Лукин.** Психология подростка. «Просвещение», 1965 г.
13. **М.Н. Шердаков.** Мышление школьников, –М.: Учпедгиз, 1963 г.
14. **П.Я. Галперин.** Развитие исследований по формированию умственных действий «Психологическая наука в СССР». –М.: РСФСР ПФА, 1959.
15. **П.А.Шеверев.** Обобщение ассоциаций в учебной работе школьника. –М.: РСФСР ПФА, 1959.

NUTQ

9.1. Nutq haqida tushuncha

Nutq umuminsoniy hodisadir, lekin har bir odamda individ sifatida yakka shaxsning nutqi bo'lib ko'zga tashlanadi. Har bir shaxs nutqining o'ziga xosligi bиринчи navbatda shaxsning tilni (lug'at boyligi, grammatika, fonetika va boshqa) qanchalik egallay olganligiga bog'liqidir. Nutqning individual xususiyatlari uning tuzilishida, talaffuz etilishida va boshqa shu kabilarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham nutq va tafakkur bir-biri bilan tabiiy ravishda bog'lanadi. Nutq tafakkur qurolidir, chunki biz fikr qilish uchun so'zdan foydalanamiz, fikrimizni so'z bilan ifoda qilamiz, nutq yordami bilan o'z fikrimizni boshqalarga ma'lum qilamiz va boshqalarning fikrini bilib olamiz. Nutqning shu ikki vazifasi bir-biriga qattiq bog'langan, shu sababli nutqni kishilarning o'zaro aloqa vositasi va tafakkur quroli deb ta'riflash mumkin.

Nutqning quyidagi muhim vazifalarini ham esda tutish kerak: biz nutq yordami bilan dunyodagi buyum va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz, ya'ni ularga nom berib aniqlaymiz, nomlarni esda saqlab qolamiz va fikr yuritganda shu buyum va hodisalarni ifoda qiladigan so'zlar va tushunchalarga suyanamiz. Demak, nutq ham real borliqning in'ikosidir. Psixologlarimiz aytganidek, «nutq ham, tafakkur ham alohida bir olamni tashkil qilmasdan ular faqatgina haqiqiy hayotning ko'rinishlaridir». Masalan, «kitob» so'zi bilan ma'lum bir narsani bildiramiz va bu so'zni eshitgan har bir kishi uning qanday narsaning nomi ekanini tushunadi. Umuman, har bir so'z, ya'ni muayyan tovushlar birikmasi (masalan, «daraxt») dunyodagi buyum va hodisalarni, ularga xos bo'lgan sifat, harakat va boshqa xususiyatlarni ifoda qilib, ularning ongimizdagи umumiyy «vakili» bo'lib qoladi. «Buyum, – deydi K.K. Platonov, – his orqali idrok qilinadi, aql unga nom beradi. Aqlда shunday narsa yo'qliki, u his orqali idrok qilinmasin,

biroq his orqali idrok qilingan narsa haqiqatdan ham mavjud, aqlida esa u o'zining nomi, o'zining oti e'tibori bilan mavjud. Bas, nom nima? Ayirish uchun xizmat etadigan belgi, buyumni bus-butun holicha tasavvur qilmoq uchun buyumni xarakterlaydigan, biron ta ko'zga tashlanadigan alomatidirki, men uni buyumning vakili qilib olaman».

Ammo biz nutq yordami bilan yana o'zimizning ruhiy holatlarimizni, kechirayotgan tuyg'u-hissiyotimizni ham ifoda qilamiz. Biz nutq yordami bilan bir-birimizga ta'sir qilamiz. Nutq gapirayotgan kishining ongida va qalbida bo'lган fikr va maqsadni ifoda qiladi. Biz nutq vositasi bilan birovni xursand yoki xafa qilishimiz, uni umidsizlantirishimiz yoki unga tasalli berishimiz mumkin. Nutqning kuchi haqida har bir xalqda alohida maqollarning bo'lishi ham bejiz emas. Bu maqollar nutqning kishi ruhiga qanday ta'sir qilish kuchiga ega ekanligini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, «Yaxshi so'z jon ozig'i», «Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til» va hokazo.

Notiq, tashviqotchi, zabit va o'qituvchining nutqi asosan kishilarni biror ishga undash, ularning ongiga biror maqsad va g'oyalarni singdirish, o'git-nasihat qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Nutqning boshqalarga ta'sir qilish kuchi haqida Navoiyning quyidagi so'zlarini ham eslatib o'tish mumkin: «Dunyo sarf qilib erishilmagan natijalarga vaqtida ishlatilgan bir yaxshi so'z bilan erishish mumkin».

Nutqning kishi ongi va qalbiga ta'sir qilish kuchi katta bo'lGANI uchun u ta'lim-tarbiya ishining asosiy qurollaridan hisoblanadi.

Nutqning paydo bo'lishi

Nutq ham kishi ongi singari mehnat mahsulotidir. Nutq, aslida boshqa kishilar bilan aloqada bo'lish ehtiyojidan va buning qat'iy zarurligidan kelib chiqqandir. Dastavval mehnat va keyinchalik u bilan birga aniq nutq ham paydo bo'ladi. Odamning hayvon ajdodlari bo'lmish odamsimon maymunlarning mehnatga o'tib, odamga aylanish jarayonida nutq ham paydo bo'lgan, chunki «odamga aylanib bo'lganlarida

ularda bir-biriga bir nima gapirish ehtiyoji paydo bo‘lgan». Ibtidoiy odamlarning birgalashib mehnat qilish jarayonida bir-biri bilan aloqada bo‘lish zaruriyatidan kelib chiqqan nutq ijtimoiy-tarixiy hodisa bo‘lib, u faqat insonlargagagina xosdir. Chunki uning ham kelib chiqishi, ham taraqqiy qilishi uchun faqat ijtimoiy mehnat va ijtimoiy munosabatlар sababchi bo‘lgan. Haqiqatan, odam bolasi kichik yoshdayoq jamiyat a’zosi bo‘lib, kattalar bilan birga yashab o’sganligi uchun nutq qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bordiyu odam bolasi kichik yoshidan bir o‘zi qolib, yolg‘iz yashashga majbur bo‘lsa, u gapirishni ham bilmasdi, umuman uning ongi ham o’smay qolardi, u faqat hayvon singari tabiiy ovoz chiqarishnigina bilardi.

Nutq turlari

Ibtidoiy odamlarda eng birinchi taraqqiy qilgan nutq polilogik nutq deyiladi. Bu biror xavf-xatarli hodisa ro‘y berganda butun jamoasi (ko‘pchilik)ning birdaniga ovoz chiqarishi, ya’ni hayajonli nutqidir. Polilogik nutq bilan birga dialogik nutq ham rivojlana boshlagan. Dialog ikki yoki bir qancha kishilar o‘rtasida borayotgan suhbat demakdir. Keyinchalik monologik nutq ham taraqqiy qiladi, ya’ni bir kishining boshqalarga qarata bir narsani gapirishi, hikoya qilishi va hokazo. Nutqning bu turlari kishi ongingin rivojlanishiga bog‘liq ravishda ijtimoiy mehnat va ijtimoiy munosabatlarning murakkablasha borishi bilan birga o‘sib, taraqqiy qilib kelgandir.

Nutq kishilarning o‘zaro aloqa qilish, bir-birining fikr va maqsadlarini bilib olishga xizmat qilgani uchun albatta, fikrni va maqsadni boshqalarga aniq bildirish uchun alohida vositalardan foydalanmog‘i zarur edi. Bu vositalar har qanday ma’no beradigan maxsus tovush birikmalari va alohida yozma belgilardan iborat bo‘lib, shu asosda fonetik (og‘zaki) nutq va grafik (yozma) nutq turlari rivoj topdi.

Biron fikr va maqsadni asosan yuz ifodalari hamda imo-ishora kabi harakatlar vositasi bilan bildirish ham bor. Odamlar ba’zida nutqning shu vositasidan ham foydalanadilar. Nutqning bu turi kar-soqovlardagina uchraydi. San’at sohasida nutqning bu turlaridan baletda foydalaniladi. Odatda imo-ishora og‘zaki

nutqqa aralashib ketadi. Masalan, biror so'z topilmay qolganda yoki bir gapni kuchaytirish va ifodalari qilish lozim bo'lganda, bir gapning ayniqsa muhim ekanini uqdirish kerak bo'lganda yuz ifodalari va imo-ishoralardan foydalanib, og'zaki nutqni aniqroq qilamiz.

Fonetik nutq tovushlarni biriktirib, og'zaki gapisish demakdir. Eshitish va nutq a'zolari sog'-mo'' tadil o'sgan kishilar og'zaki nutqdan foydalanadilar. Yer yuzidagi hamma xalqlarning asosiy nutqi tovushlar nutqi bo'lib, buni kishilar kichik yoshdagagi amaliy yo'l bilan aloqa qilish orqali egallaydilar. Uning kelib chiqishi yer yuzida insonlar jamiyatni paydo bo'lishi bilan bog'liqidir.

Grafik yoki yozma nutq ayrim tovushlarni, so'z, gap va buyumlarni ifoda qiladigan har qanday maxsus belgi, surat va harflardan iboratdir. Yozma nutqni egallah uchun o'qish, savod chiqarish lozim. Nutqning bu turidan savodli kar-soqovlar va shuningdek ko'rlar ham foydalanadilar. Biroq, ko'rlar uchun maxsus Brayl usulidagi yozma nutq mavjuddir. Chor Rossiyasi yerida (xususan Shimoliy Sibirda) yashagan ba'zi millatlarning yozma nutqi yo'q edi. Bu millatlar faqat keyinchalik (XX asrda) o'z tillarida yozma nutqqa va o'z maktablariga ega bo'ldilar.

Shu bilan birga «nutq» va «til» tushunchalarini bir-biridan ajratish lozim. Nutq har kimning boshqa kishilar bilan aloqa qilish qobiliyati demakdir. Til esa tarixiy kelib chiqqan so'zlar va ularni ishlatish qoidalari sistemasi bo'lib, uning egasi butun bir millat, bir xalqdir. Shuning uchun biz odatda «o'quvchining nutqi», «o'rtoq Ahmedovning nutqi» va «o'zbek tili», «rus tili» deb gapiramiz. Ammo, nutq va til bir-biriga tabiiy bog'lanadi. Tevarak-atrofdagi odamlar qaysi tilda gapirsalar, bizning shaxsiy nutqimiz ham shu til sistemasi va qoidalariga bo'ysunadi. Odatda bizning nutqimiz ona tilimizdagi nutqdir. Lekin biz bundan tashqari boshqa tillarni ham bilishimiz mumkin.

Nutqning vazifasiga qarab uni yana tashqi va ichki nutq turlarga ajratish mumkin:

Tashqi nutq boshqalar uchun tayinlangan nutq bo'lib, u asosan og'zaki, ya'ni ham gapiruvchi, ham tinglovchining ayni bir vaqtida va bir joyda bo'lishini talab etadi. Odatda tashqi

nutq suhbat, savol-javob, ya'ni dialog shaklida o'tadi. Ammo u monolog shaklida ham bo'ladi. Masalan, dokladchi, notiq va dars berayotgan o'qituvchining nutqi bunga misol bo'la oladi. Biror savolga javob berishda, biror narsani uqdirish va bayon qilishda shu nutq turidan foydalanamiz. Shuning uchun ham uning aniq va boshqalar uchun tushunarli, jonli va ifodali bo'lmog'i shart. Tashqi nutq asosan og'zaki bo'lib, so'zlardan tuzilgan. Ammo unga imo-ishora, yuz ifodalari va har xil ohanglar aralashib, uni kuchaytiradi, yaqqol va ifodali qiladi. Shu sababli notiqning ovozinigina emas, balki uning o'zini va yuz ifodalarini ko'rар ekanmiz, uning nutqini ham yaxshiroq tushunamiz. Shuning uchun ham notiq va dars berayotgan o'qituvchi hammaga ko'rinishidan joyda turib gapirishi talab qilinadi.

Yozma nutq ham boshqalar uchun tayinlangan nutqdir. Ammo u yozuvchi bilan kitobxonning ayni bir vaqtida va bir joyda bo'lishini taqozo qilmaydi. Chunki yozma nutq bevosita aloqa uchun emas, balki uzoqdan turib aloqa qilish uchun ishlataladi. Masalan, biz boshqa bir shaharda yashovchi bir kishiga bir narsani xat qilib bildirsak, u buni bir haftadan keyin olib o'qishi mumkin. Biz beş yuz yil avval yozilgan Navoiy asarlarini hozir o'qib, ularning mazmunini bilamiz.

Yozma nutq eng murakkab va mukammal tuzilib ifoda qilinadigan nutq turidir. Chunki u masofa va zamon e'tibori bilan uzoqda bo'lgan kishilarga tayinlanadi. Shuning uchun xat, maqola, kitob va boshqa yozma asarlardagi gaplarning hamma bo'laklari qoidaga muvofiq, o'z joyida ishlatalishi lozim. Chunki bunda gapning egasi, kesimi yoki boshqa bo'laklari tushib qolar ekan, uning mazmuniga tushunmaslik mumkin. Ma'lumki, tashqi nutqdan foydalanuvchilar, ya'ni suhbatdoshlar, gapni to'liq tuzib gapirmasliklari ham mumkin. Ular bu tushib qolgan gap bo'laklarini imo-ishora, yuz ifodalari va ohangni o'zgartirib to'latadilar hamda odatda suhbatdoshlar gap nima ustida borayotganini bilib turadilar. Masalan, bir necha kishi tramvay kutib turmoqda. Hamma tramvay yo'liga tikilib qaraydi va ular o'rtasida taxminan shunday gaplar eshitila boshlaydi: «kelayaptimi?», «daragi bormi?», «yo'q», «kelayapti»

va hokazo. Shu xilda qisqacha tuzilgan gaplarda na ega, na to'ldiruvchi va na payt holati bor. Ammo bundan qat'iy nazar, hamma bir-birining gapiga tushunadi. Chunki bu yerda to'planganlarning shu joydagi maqsadi bir. Gap nima ustida ketayotgani hammaga ayon. Shuning uchun gapni to'la-to'kis qilib tuzish zarur emas. Yozma nutqda esa tushib qolgan gap bo'laklarini yuz ifodalari, qo'l, bosh harakatlari, ohang o'zgartirishlar bilan to'latish imkoniy yo'q. Shuning uchun ham yozma nutq ayniqsa, mukammal bo'lishi shart. Aks holda uni tushunib bo'lmaydi. Yozma ravishda ifoda qilingan bir fikr aniq va ravshan bo'lmog'i shart. Agar biz noaniq bir fikr yoki mazmuni yaxshi tushunib olinmagan bir narsani yozma ifoda qilishga urinib ko'rsak, buning kamchiliklari darrov oshkor bo'lib qoladi va yozganimizni o'chirib, tuzatishlar kiritib, fikrni aniq ifoda qilishga erishamiz. Shuning uchun har qanday yozuv ishlari insho, konspekt va shunga o'xhashlar tafakkurni o'stirishda katta ahamiyatga ega. Yozma nutq bilan shug'ullanish mantiqiy fikrlash qobiliyati va so'z boyligini oshirishga yordam beradi.

Ichki nutq kishining o'zi uchun bo'lib, o'z ichida o'ylab, jim o'tirgan vaqtagi nutqidir. Odatda, u ovozsiz o'tadi. Ba'zi hollarda esa u shivirlab aytildi yoki ovoz bilan gapiriladi. Bunday hodisa kishi bir narsadan juda qattiq ta'sirlangan, hayajonlangan yoki bir narsadan pushaymon bo'lgan yoki o'zi yolg'iz o'tirgan vaqtarda ro'y beradi. Kishi o'zi sezmasdan, baland ovoz bilan gapira boshlaydi yoki o'qtin-o'qtin ayrim so'zlarni gapirib qo'yadi. Ba'zan o'z ichida o'ylanib o'tirgan kishi yuz ifodasini o'zgartirib, boshini qimirlatib, qo'llarini silkitib qo'yadi. Bu ichki nutqning harakat bilan ifoda qilinishidir. Bunday hodisa ayniqsa kichkina bolalarda ko'p uchraydi. Bola o'ynar ekan, uning og'zi ham jim turmaydi, u o'z-o'zicha gapirib o'ynaydi. Ya'ni o'z ichida nima o'ylayotgan bo'lsa, shuni ovoz bilan gapiraveradi.

Ichki nutq to'liq bo'lmasdan u asosan kesimlardan tuziladi. Chunki o'z ichida nima haqda o'ylayotganini har kimning o'zi biladi. Shu sababli ichki nutqda gapning ega, kesim va boshqa bo'laklarining har qaysisini joy-joyida ishlatish zaruriyati ham

bo‘lmaydi. Masalan, bir kimsa cho‘ntagini axtarar ekan, «olmapman ekan» deb shivirlab qo‘yadi va nima olishini unutganligini o‘zi biladi. Shu sababli bunda fikrni ifoda qilish uchun shu bir so‘zning o‘zi kifoya qiladi.

Ichki nutq tafakkurga tabiiy ravishda bog‘lanadi, nutq ovozsiz bo‘lishi mumkin bo‘lsa ham, tafakkur nutqsiz bo‘lолmaydi. Nutq tafakkur qurolidir. Shuning uchun ham biz bir narsani yaxshiroq tushunib olmoqchi bo‘lsak yoki bir fikrni o‘zimiz uchun to‘la aniq qilmoqchi bo‘lsak, uni ovoz bilan o‘zimizga aytib beramiz. Biz bir fikrni boshqalarga aytib berishdan oldin o‘z ichimizda o‘ylab uning aniq ifodasini topib, keyin gapiramiz. Demak, kishi o‘ylaganida hamisha ichki nutqdan foydalanadi.

Nutqning rivojlanishi

Nutq kishi hayotining ma’lum davrida paydo bo‘lib, rivojlana boshlaydi. Bu davr, odatda, bola ikkinchi yoshga qadam qo‘yanida boshlanadi. Bu yoshgacha bolada hali nutq bo‘lmaydi. Yangi tug‘ilgan bola inga-ingalab yig‘lashdan boshqa ovoz chiqarishni bilmaydi. Taxminan, 3-4 oylik bo‘lganda, bolada «gu-gu»lash boshlanadi, ya’ni bola «gu-gu», «agu» kabi tovushlar chiqarib yotadi. Ammo buni biror narsaga bog‘lamasdan, shu tovushlarni chiqarishning o‘zidan mammun bo‘lgandek ko‘rinadi. Oltinchi, yettinchi oylarda esa bola «ma-ma», «da-da» singari ayrim bo‘g‘inlarni ayta boshlaydi. Ammo bu davrda ham u shu bo‘g‘inlarni biror narsaga bog‘lamaydi. Shu sababli bu tovushlar nutq vazifasini bajarmaydi, lekin nutq a’zolarini mashq qildirish ularni nutq egallahga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Shu davrda chaqaloq o‘ziga qarata aytilgan ba’zi so‘zlarni va gapning ohangi (intonatsiyasi)ni tushuna boshlaydi. Bunda bola asosan ovozning ohangini tushunadi. Ammo so‘zning ma’nosini hali ajrata bilmaydi. Masalan, bir narsani taqiq qilish ohangini bilib olgan bola, qo‘lini biror narsaga uzatayotganida onasi taqiqlash ohangi bilan «Qo‘y», «ol», «bor» desa, bola shu so‘zlarning farqiga bormasdan, faqat ohangni tushunib, qo‘lini pastga tushiradi. So‘z va gapning ma’nosini bola faqat bir yosh bo‘lgandan

keyingina tushuna boshlaydi va bu yoshda o'zi ham nutq egallahash davriga o'tadi.

Bola biror bo'g'in yoki so'zni aytish bilan o'zining maqsadini yoki biror narsani bildira boshlasa, u chin ma'noda nutq egallahash davriga qadam qo'ygan hisoblanadi. Ammo bola nutqning hamma murakkab tomonlarini birdaniga egallay olmaydi. Nutqni to'la egallahash anchagacha cho'ziladi va bola sekin-asta so'z boyligini o'stira boradi. Bola nutqning endigina egallagan davrida gap tuzib gapirmasdan, balki o'z maqsadini bir so'z bilangina ifoda qiladiki, bu so'z tugal bir gap vazifasini bajaradi. Masalan, «sut» «sut ichamiz», «sut ber» kabi har qanday gap ma'nosini bildirishi mumkin. Shu sababli bu yoshda bolaning gapini faqat uni boqayotgan kishilargina tushunadi. Shu bilan birga bolaning nutqida eng avval tevarak-atrofdagi narsalarning ovoziga ergashib («vav-vav» - it, «bi-bib» - mashina va hokazo), ularning nomini bildiradigan so'zlar, so'ngra fe'l, keyinchalik sifat va sonlar paydo bo'la boshlaydi. So'z boyligi borgan sari o'sa boradi. Masalan, ikki yashar bola taxminan 300-500 so'z egallagan bo'lishi mumkin. 2 yosh bilan 5-6 yosh o'rtasida bolaning nutqi tez o'sa boshlaydi va so'z boyligi 3-4 minggacha yeta oladi. Shu bilan birga uning tafakkuri ham rivojlanadi. Bola ko'rgan, eshitgan narsalari to'g'risida ko'p savol beradi, yangi so'z va tushunchalarni egallay boshlaydi. Albatta, buning uchun bolaga to'g'ri tarbiya berish, uning bilan so'zlashish, ertaklar gapirib berish, kitob o'qib eshittirish kerak.

Nutqni o'z vaqtida amaliy egallab olish va so'z boyligini o'stirish keyinchalik savod chiqarish, ona tili grammatikasini o'rGANISH va umuman mакtabda sifatli o'qish yaxshi zamin bo'ladi.

Kishi maktabda o'qish tufayli o'z nutqiga ongli munosabatda bo'ladi. Ya'ni uni tahlil qila biladi, gapning adabiy va madaniy tuzilish shakllarini o'rganib oladi va har bir so'zni o'z joyida, ma'nosiga tushunib ishlata oladi. Nutqi o'sgan kishining tafakkuri ham yaxshi o'sgan bo'ladi. Shuning uchun ayniqsa so'zning ma'nosini tushunib gapirish katta ahamiyatga ega. «Mazmunidan zavqlanish bo'limgan so'z jonsiz badan kabidir», deganida Navoiy ming karra haq edi.

Nutq qobiliyatiga ega bo‘lish o‘z fikr va maqsadingni boshqalarga mukammal va aniq tushuntira bilish demakdir. O‘zing yaxshi tushunib olmagan bir narsani boshqalarga ham aniq qilib gapirib berish mumkin emas. Shuning uchun o‘ylab gapirishga odatlanish kerak. Albatta, og‘zaki gapirganda, savolga tez javob topib gapirish kerak bo‘lganda, har bir gapni ko‘p o‘ylab, maxsus so‘z qidirib gapirish o‘ng‘aysiz va suhbatdoshlar yoki tinglab o‘tiruvchilarni zeriktiradi, fikrni chalg‘itib yuboradi. «Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi» degan maqolga muvofiq, bolani shoshib-hovliqib gapirmasdan yoki gapni maydalashtirib, cho‘zib o‘tirmasdan, qisqa va silliq qilib gapirishga kichik yoshdan odatlantirish kerak. Buning uchun yozma nutqda mashq qilish katta ahamiyatga ega. Chunki yozgan vaqtida o‘ylamasdan yozish mumkin emas. Biz bir fikrni boshqalarga tushunarli qilish uchun ongli ravishda gap tuzamiz, uning qanday tuzilishi haqida o‘ylaymiz, eng muvaffaqiyatli ibora va ta’riflar qidiramiz. Og‘izga kelgan har qanday so‘z va gaplarni o‘ylamasdan yozib ketavergan kishi yozma nutqni yaxshi egallagan hisoblanmaydi. O‘z fikr va maqsadini muvaffaqiyatli, aniq va mantiqiy ifoda qilish uchun o‘ylab yoza oladigan kishigina yozma nutqni to‘la egallagan hisoblanadi. Yozma nutqni egallash og‘zaki nutqning ham sifatli, aniq va silliq bo‘lishiga yordam beradi.

Shuning bilan birga biz nutq orqali o‘zaro to‘g‘ri va odobli muomala qilishni ham o‘rganib olishimiz kerak. Masalan, suhbat vaqtida juda ham baland ovoz bilan shoshib, so‘zlarni chalakam-chatti qilib gapirish yoki bir gapni qaytaraverish, boshqaning gapini bo‘lish, gapni aytib bo‘lishini kutmay va nima gapirayotganiga e’tibor bermasdan o‘z so‘zini davom ettiraverish nutq madaniyati, ya’ni boshqalar bilan nutq tufayli madaniy aloqada bo‘lish malakasining yo‘qligini bildiradi. Odob bilan gapira bilish tarbiya orqali vujudga keladi.

Shunday qilib, yozma nutq batamom va to‘la bo‘lib, ma’nosи o‘ylangan bo‘lishi kerak. Monolog nutq ham tamomila yozma nutqdek to‘la va batamom aniq bo‘lishi kerak. Demak, bundan ma’lumki, nutqning bu xillari nutq madaniyatining ancha baland bo‘lishini talab qiladi va yozma nutq bilan monolog

nutqni (yoki ulardan loaqal birini) yaxshi egallamaguncha o'z fikrini muntazam ravishda, aniq va ravshan, ma'nodor qilib bayon etishda chin mahorat hosil qilib bo'lmaydi.

Biroq dialog nutqning ham o'ziga yarasha ba'zi talablari borligini va bu talablarga rioya qilmagan odam birov bilan suhbatdosh bo'lganda, uning suhbatini ma'nosiz bo'lib, kishini zeriktiradigan, hatto kishiga yoqmaydigan sovuq suhbat bo'lishini nazarda tutmoq kerak. Bu talablarning eng muhim, suhbatdoshning gaplariga quloq solib turish, uning savol va e'tirozlarini anglash va javob berganda o'zining fikrlariga emas, balki suhbatdoshning savollariga javob berishdir.

Ba'zi odamlarda boshqalarning so'ziga parvo qilmaslik va quloq solmaslik xunuk bir odatga aylanib ketadi. Bunday odatli odam suhbatdoshining gapini bo'lib, so'zining yakun bo'lishini kutmaydi.

Kishi o'zining suhbat qilgandagi bu kamchilagini fahmlashi va bu kamchilikni yo'qotishga harakat qilishi o'z nutq madaniyatini o'stirish yo'lidagi choralarining muhim qismidir.

Yozma nutq og'zaki nutq o'rtasidagi muhim tafovutlarning yana birini aytib o'tamiz. Kishi yozganda o'z nutqini ongli ravishda, o'z ixtiyori bilan, so'zlarni qanday xohlasa shunday tanlab yozadi, jumlalarni tanlab tuzadi, so'zlarini tartib bilan teradi va hokazo. Yozish fikrning so'z qolipiga kirgan ifodasi ustida ishslash demakdir.

Yozma nutqqa ustalik kishini bunday ishdan ozod qiladi, deb o'yash nihoyatda katta xatodir. Yaxshi yozish qiynalmasdan «sharillatib» yozib ketaverish degani emas. O'z fikrini ifoda qilish uchun qanday bo'lsa bir so'z topgan odam yozma nutqni yaxshi egallagan bo'lmay, balki *eng yaxshi* ibora izlab, topib yozgan, eng yaxshi so'zlar topish uchun tirishgan odam yozma nutqni bilgan bo'ladi.

Esiga kelgan har bir iboraga qanoat qilib, shuni yozavergan va yaxshi iboralar topib, tilini mukammalashtirishga harakat qilmagan odamni yaxshi yozma nutqi bor, deb bo'lmaydi.

So'z ustida katta san'atkor yozuvchilardek ko'p ishslash zarur. L.N. Tolstoy yoshlik chog'larida «Tuzatmasdan yozishni tamomila miyadan chiqarib tashlash kerak. Uch-to'rt marta

tuzatilsa ham kam» degan. Keyinchalik u keksaygan chog'ida ham yana shu fikrni qaytardi: «Bir necha marotaba qayta-qayta tuzatmasdan yozish qanday mumkinligini sira tushunmayman». Tolstoy uchun bunday ko'p tuzatishdan maqsad, tilini chiroyli va badiiy qilishdan iborat bo'lmay, eng qiyin fikrni boshqalarga tushunarli qilib aniq va ravshan aytishdir.

«O'zing tushungan narsani boshqalar ham sendek aniq va ravshan tushunadigan qilib aytish hammadan qiyin ishdир, buni imkoni bo'lgan darajada bajara olmaganingni hamisha sezib turasan». Shuning uchun ham, L.N.Tolstoy badiiy asarlarinigina emas, hatto oddiy maktublarini ham bir necha marta qaytadan tuzatar edi.

Fikrning yozma ifodasi bo'lgan yozuvlarni tuzatish ustida atayin qilingan ish hammavaqt uni qayta-qayta tuzataverishdan iborat bo'lavermaydi. Isbotlarni miyada xo'p ishlab, obdon puxtalab, keyin qog'oz ustida yozish ham mumkin. So'z ustida ishlashning mohiyati bundan o'zgarmaydi, faqat ishning formasigina o'zgaradi.

Bu jihatdan qaraganda og'zaki nutqdan yozma nutq juda katta farq qiladi. Yaxshi og'zaki har bir so'z ustida uzoq o'ylab o'tirishga yo'l qo'ymaydi. Gapirayotganda bir so'zni aytishdan avval uni uzoq o'ylash, jumiani qanday tuzish to'g'risida uzoq mulohaza qilib o'tirish mumkin emas. Bur jumlani bir necha marotaba qaytarib, har gal uni to'g'rilab va yaxshilab o'tirish sira mumkin emas. Monolog nutqda ham, ya'ni ma'ruza o'qiganda, doklad qilganda va boshqa bu kabi hollarda ham so'z ustida bunday tarzda ishlab bo'lmaydi. Og'zaki nutq beto'xtov va ravon bormog'i kerak. Og'zaki nutqda so'zlar o'z-o'zidan tilga kelsin, so'zlar ravon va ma'nodor jumlalarga terilsin. Og'zaki nutq, yuqorida aytigelganidek, fikrning so'z shakliga kirgan ifodasida to'lalik va mukammallikni, bog'lanishlikni ko'pincha talab qilmaydi.

Shunday qilib, og'zaki nutq tuzilishi jihatidan oson va soddaroqdir, lekin og'zaki nutq gapirayotganda so'zlarni yaxshilash ustida uzoq ishlashga yo'l qo'ymaydi, yozma nutq tuzilishi jihatdan qiyin va murakkabiroq bo'lsa ham,

yozayotganda fikrning so'z shakliga kirgan ifodasi ustida har qancha ishlansa ham bunga yo'l qo'yadi. Bundan yozma nutq so'zlar ustida ongli ravishda ishlashga katta imkon bergenidan, nutq madaniyatini o'stirishda uning qanday muhim o'rinn tutganligi o'z-o'zidan ma'lum.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Nutq va tilning umumiyligi hamda bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Nutq faoliyatining nerv mexanizmlari haqidagi I.M. Sechenov va I.P. Pavlov ta'limotlarining mohiyatini ta'riflab bering.
3. Og'zaki va yozma nutqlarning o'xshash tomonlari va farqini ko'rsating.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –Toshkent: «Ma'naviyat», 2008.
2. N. Bekmirzayev. Notiqlik asoslari. –Toshkent: «Fan», 2006.
3. Psixologiya kursi. M. V. Gamezo tahriri ostida. –T.: «O'qituvchi», 1972.
4. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
5. P.I. Ivanov. Umumiyligi psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1967 y.
6. E.G'oziyev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
7. M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva. Psixologiya. –Toshkent: 2002-y.

XAYOL

10.1. Xayolning psixologik ta'rifi

Kishilarning amaliy faoliyatida xayol katta ahamiyatga egadir. Odam xayol obrazlari orqali tabiatdagi narsa va hodisalarni, ijtimoiy hayot sirlarini bilib oladilar, tabiat va jamiyat qonunlarini ochadilar, o'rganadilar va ulardan o'zlarining hayotiy manfaatlari jarayonida amaliy foydalana-dilar. Bugungi kunda fanni ijodiy harakatga keltiruvchi, global taraqqiyot ehtiyojlari inson psixologiyasiga har qachongidan ko'ra ko'proq tabiat qonunlari va kuchlari to'g'risida ilmiy-amaliy ma'lumotlar bermoqda. Inson hodisalarning mohiyatini xayoliy obrazlar orqali chuqur bilib olgani sari bu bilimdan o'zining ilmiy-amaliy faoliyatida foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Chunki inson ongida faqat xotira tasavvurlari, ya'ni shaxs o'zi idrok qilgan, boshidan kechirgan narsalarning tasavvurlarinigina emas, balki uning mehnat faoliyatida, shaxsiy hayotida va hatto bungacha dunyoda bo'lмагan buyum va hodisalarning tasavvurlari ham bo'lishi mumkin. Ya'ni, odam uzoq o'tmishdagi tarixiy voqealarni, yaqin kelgusidagi o'zga sayyoralarga sayohatni, ajoyib bir yangi modeldag'i mashinani va shunga o'xshash ijobjiy xayol obrazlarini ham ko'z oldiga keltirib, xayolan tasavvur qilishi mumkin.

Inson o'z oldiga bajarilishi zarur bo'lgan ma'lum bir maqsad qo'yar ekan, u o'sha maqsadning nimadan iborat ekanligini va uni amalga oshirish yo'llarini ham xayolan ko'z oldida tasavvur qila oladi.

Biz kelgusidagi mustaqil hayotimizni, erishmoqchi bo'lgan yutuqlarimizni, mustaqil vatanimizning porloq kelajagini aniq tasavvur qila olamiz. Bunga ham biz inson ruhiyatidagi psixologik jarayonlar va xayoliy tasavvurlar tufayli erishamiz. Demak, xayol yoki fantaziya hayotimizdagi real voqelikni ongimizda aks ettiruvchi, tasavvurlarni qaytadan o'zgartirish asosida yangidan-yangi obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan

ruhiy jarayondir. Shunday qilib, xayol odamlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun qilinadigan mehnatlari jarayonida tarixan paydo bo'lib, rivojlanib borgan. Xayol ham kishi ongi va ruhiyatining bir ko'rinishi bo'lgani sababli u ijtimoiy munosabatlarning, jamiyatda hukm surgan mafkuraning, insoniyat manfaati va ma'naviyati shakllanishiga xizmat qiladi.

10.2. Xayol turlari

Yuqorida aytganimizdek, xayol murakkab psixik jarayon bo'lib, har xil turlarda namoyon bo'ladi. Aqliy mehnatning turli shakllari bo'lib, ularni fanda quyidagi turlarga ajratib o'rganish ma'qul topilgan. Jumladan, tasavvur xayoli, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, ijodiy va fantastik xayollar bo'lib, ular mazmun jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Tasavvur xayoli psixologiyada tiklovchi xayol ham deb yuritiladi o'tmishda bo'lib o'tgan yoki hozirda bor bo'lgan, lekin bizning turmush tajribamizda shu paytgacha uchramagan, ya'ni biz idrok qilmagan narsa va hodisalar to'g'risida tasavvur va obrazlar yaratishga imkon beruvchi xayolga tasavvur xayoli deb aytildi. Masalan, badiiy asarlarda tasvirlangan obrazlar, voqealar, hodisalar. Oybekning «Navoiy» romanini o'qiganimizda, Navoiy, Dilbar va boshqa roman ishtirokchilarining, obrazlanishini unda bayon qilingan voqealarni ko'z oldimizda yaqqol gavdalantira olamiz. Tiklovchi xayol qobiliyati, ayniqsa, badiiy va ilmiy asarlar o'qish natijasida rivojlanadi. Badiiy kitob o'qir ekanmiz, biz yozuvchi tasvirlagan tabiat manzaralarini, tog', dala va daryolarni, qushlar ovozini qahramonlarning tashqi ko'rinishini jonli tasavvur qilamiz. Yozuvchi aytmagan voqealarni o'z xayolimiz bilan to'latamiz, asardan chuqur taassurotlar olamiz. Shuningdek ahvoli, ichki ruhiy holatlarini tushuna bilish, rahm qilish, xayrixohlik kabi munosabat ham tiklovchi xayolga bog'liq bo'ladi. Tasavvur xayolining xarakterli xususiyati ham mana shundadir.

Ixtiyoriy xayol kishi aniq bir maqsadni o'z oldiga qo'yib, zarur bo'lgan vazifani bajaradi. Shu vazifalarni bajarish uchun o'laydi, fikr qiladi, o'z ongida obrazlar yaratadi. Masalan, shoir, yozuvchi, rassom, kompozitor mehnat yutuqlarini, keng

dalarini tasvirlash maqsadini o'z oldiga aniq vazifa qilib qo'yar ekan, shu maqsad uchun zarur bo'lgan alohida obrazlarni tanlab, tegishli so'z, bo'yoq va musiqiy ohanglar yordami bilan mavzuni ifodalaydi. Shu sababli xayolning bu turi ixtiyoriy xayol deb ataladi. Demak, xayolning bu turi aniq maqsadga qaratilgan bo'lib, g'ayrat bilan ishlashni, ya'ni irodaning, emotsiyonal tuyg'ularning mustahkamligini talab etadi.

Ixtiyorsiz xayol. Bu xayol aniq maqsadsiz, biror tashqi sabab bilan yoki biror tuyg'u-hissiyot ta'siri ostida yuzaga keladi, u bizning ixtiyorimizdan tashqarida ishlay boshlaydi va obrazlar o'z-o'zicha vujudga keladi. Uxlaganda ko'rgan tushimiz ham ixtiyorsiz xayol obraziga misol bo'la oladi. I.P. Pavlovning fikricha, tush ko'rishning fiziologik asosi «Ilgarigi ta'sirotlarning» nervda qoldirgan izlari juda kutilmagan bir tarzda bir-biri bilan bog'lanishidandir. Xayolning beixtiyor jarayonlari betartib ravishda o'tmay, balki muayyan bir narsaga yo'nalgan bo'ladi. Bu yo'nalish shaxsning ehtiyojlari, maqsadlari, hissiyotlari, tevarak-atrofdagi voqelikni xayolan idrok qilishlari uning ustun turgan tasavvurlari va fikrlari bilan belgilanadi. Shuning uchun xayolning bu turini sust xayol ham deb ataymiz»!

Ijodiy xayol – bizning shaxsiy tajribamizdagina emas, balki turmushda ham bungacha bo'lмаган бүйум va hodisalar haqida tasavvur va obrazlar yaratish va shu obrazlarga muvofiq ongimizda yangiliklarni xayolan shakllantirish demakdir. Ijodiy xayol tamomila ijtimoiy, ma'naviy-ilmiy qiymatga ega bo'lgan, yangi birinchi bor dunyoga kelgan, original ijodiy mahsulot yaratish faoliyatidir. Odatda, ijodiy faoliyat fikr, g'oyaning paydo bo'lishi va pishib yetilishidan boshlanadi. Masalan, konstruktorda yangi mashina yaratish g'oyasi tug'iladi va bu g'oyani muallif rasm, eskiz, chizmada tasvir etmasdan oldin, unda hali mavjud bo'lмаган mashinaning yorqin obrazi paydo bo'ladi. Xayolda o'tmishtajriba elementlari dadilroq tatbiq qilingan sari muammo yechimining original usullari tezroq topila

boradi. Istiqbolni ko'z oldiga keltirish, uning haqida ijodiy xayol surish, u xayolni haqiqatga aylantirish uchun g'ayrat bilan ishslash shaxsning eng yuksak xislatlaridan biri bo'lib, bu uning ijodiy faoliyati samaradorligini ta'minlaydi. Bu esa hayotda hammaga ham nasib etavermaydi. Tafakkurida ma'naviy va ilmiy ijodkorlik qobiliyati shakllangan insonlarga bunday faoliyatga sazovor bo'la oladi. Shu o'rinda, adabiyotshunos va tanqidchi O.Sharafiddinovning ilmiy mushohadalarga boy mulohazalari fikrimizni tasdiqlaydi: Ba'zan mendan jurnalistlar, «Mustaqillik shaxsan sizga nima berdi?» deb so'rab qolishsa, «Men o'zimning yurtimga, xalqimga kerak ekanimni, ya'ni O'zbekistonni barpo etishda mening ham o'rnim borligini tasavvur qildim, teran his qildim», deb javob beraman. Lekin baribir, yana o'sha savol xayolimda ko'ndalang bo'laveradi: nahotki, bu marhamatlar, diqqatu e'tibor, g'amxo'rliklarga o'zimning qay bir sifatlarim tufayligina sazovor bo'layotgan bo'lsam?.. «Men Islom Karimovning asarlarini o'qib, uning turli vaziyatlardagi fe'l-atvorini kuzatib, xayolan o'ylab, qilgan ishlarini ko'rib, shunday xulosaga keldimki, bu inson hech qanday qolipni tan olmaydi, har qanday vazifada samimiyligini saqlab qolishga intiladi, rasmiyatchilikni jinidan yomon ko'radi va har qanday sharoitda ham insoniy mantiq asosida fikr yuritib, ish tutishga odatlangan. U nihoyatda zakovatli, zehni o'tkir, har qanday chigal muammoning ham tub mohiyatini ko'ra biladi. Xullas, ulkan siyosati uchun zarur bo'lgan barcha noyob fazilatlarga ega. Bularning yoniga jasurlik va dadillik qo'shilib, uni benihoya qat'iyatli insonga aylantirgan xayolimda. Ayni chog'da, odamlarning tabiatini yaxshi his qiladigan, ularga ishonadigan, ulardagi yashirin kuch va imkoniyatlarni kashf eta oladigan rahbar»¹. Shunday qilib, hayotda ba'zi kishilar faoliyati keng qamrovli, mazmundor, kuchli, foydali va samarali bo'ladi. Buni biz O.Sharafiddinovning yuqoridagi ijodiy xayoli misolida ko'ra olamiz. Fan va san'at sohasida ham buyuk ajdodlarimiz Navoiy, Ulug'bek, A.Temur, Ibn Sino, Jomiy va

O. Sharafiddinov. Dovondagi o'ylar. –Toshkent: «Ma'naviyat», 2004-yil, 14-bet.

boshqalar shunday boy, kuchli va mahsuldor ijodiy xayolga ega bo‘lgan shaxslardir. Bilim saviyasi past, tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllanmagan, turmush tajribasi kam, ilmiy g‘oyalardan uzoqda bo‘lgan, ijtimoiy ehtiyojlardan uzoq yashaydigan kishilarning xayoli kuchsiz, ma’nosiz, jonsiz, mantiqsiz va samarasiz bo‘ladi. Ba’zi kishilarning xayoli poeziya sohasida, boshqalarniki esa ilmiy texnika yoki ijtimoiy siyosiy sohada kuchli va salohiyatli bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, biror sohada ijodiy xayolning o’sish darajasi shaxsning shu sohada qanchalik qobiliyatli, iste’dodli va layoqatli ekanligini ko‘rsatadi. Xayol qilish jarayoni insonning juda murakkab aks ettirish xususiyati bo‘lishiga qaramay, uning asosida yotgan fiziologik mexanizmlarni akademik I.P. Pavlovning oliv nerv faoliyati haqidagi ta’limoti asosida tushuntirib berishimiz zarur. Xayolning nerv fiziologik asosida bosh miya po’stida ilgaridan hosil qilingan vaqtli aloqalarning (assotsiatsiyalarning) qaytadan tiklanib, bir-biri bilan yangicha qo’shilish jarayoni yotadi. Shuni ham aytish kerakki, bosh miya yarim sharlarida ilgari hosil qilingan vaqtli aloqalar birin-ketin tiklanib, ularning qo’shilishi ham asta-sekin yuzaga keladi. Shuning natijasida bosh miya po’stida inson o‘z shaxsiy hayotida hech qachon idrok qilmagan narsalarning obrazlari paydo bo‘ladi. Bu obrazlarning ko‘pligi voqelikka mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi, natijada ular ba’zan to‘xtab qoladi. Boshqa birlari esa voqelikka to‘g‘ri kelganligi, hamda inson faoliyati uchun yangidan-yangi imkoniyatlar ochib bergenligi tufayli amaliy natijalar bilan mustahkamlanadi¹.

10.3. O‘quvchilar xayolini shakllantirish

«Inson ongi bir qarashda yaxlit narsaga o‘xshaydi, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iboratdir. Shuning uchun ham kishilar atrof-muhitni, o‘zlarining bilishga imkon beruvchi xayol obrazlarini o‘rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo‘lib o‘rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar: diqqat, sezgi, idrok,

¹ M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O‘qituvchi», 1982-y. 178-179 betlar.

xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-biri bilan bog'liqki, o'quvchilar ixtiyoriy xayolini shakllantirishda ularning birini ikkinchisisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan ko'rib, idrok qilib turgan narsamizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan matnni eslab qolasizmi? Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtida, ham ilgarigi xayol obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz, xayol, fantaziyamiz kerak bo'ladi. «Murakkab kompyuter texnikasi va texnologiyalari chiqqandan keyin o'quvchilarning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi, uni shakllantirish uchun amaliy harakati yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) obrazlarini yaratish (xayol) yoki fantastik obrazlar haqida o'quvchi ko'p shug'ullanadigan bo'lib qoldi. Lekin bu o'quvchidagi tabiiy jonli xayol obrazlarini ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori darajada shakllantirganligini ko'rsatadi». Shu sababli fantaziya uchun dastavval yetarli tajriba, aniq tasavvur va ma'lum bilimga ega bo'lmoq kerak. Turmushdan olingen tasavvurlarni yangidan ishlab chiqish, ya'ni mazmundor xayoliy obrazlarni yaratish uchun albatta, analiz va sintez qobiliyatiga ega bo'lmoq kerak. Bu esa o'quvchida tafakkurning yetarli darajada shakllangan bo'lishini taqozo etadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda yolg'on gapirish holatlari bo'ladi. Bola biror voqeani hikoya qilib bergenida, haqiqatan bo'limgan narsalarni ham qo'shib, o'zidan to'qib gapiradi. Ammo buni o'quvchi ataylab qilmaydi, balki xayolida paydo bo'ladigan obrazlarga berilib ketib, o'zining gapiga «tanqidiy qaramasdan» shu xayol obrazlari ta'sirida yolg'on gapiradi. Albatta, bolaning bu «yolg'onchiligi» ataylab ma'lum maqsad bilan qilingan yolg'onchilik emas. Bu hol yosh bolaning xayoli kuchli ishlashini ko'rsatadi. Maktab yoshidagi bolalarda «xayoliy» narsalarga tanqidiy qaray

V.Karimova. Psixologiya. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 2002-y, 87-bet.

boshlash, uni haqiqatdan chegaralay bilish qobiliyati shakllanib boradi, chunki bu yoshdagi bolalarning tajribasi, bilish saviyasi va tafakkur qobiliyati ancha o'sgan bo'ladi.

Ammo 15-16 yoshda yana xayol surishga berilish kuchayadi. Yoshlar kelgusi hayotlari, kasblari haqida ko'p fantaziyaga berila boshlaydilar. Umuman shu davrda xayolchan bo'ladilar. Yoshlar kelgusida Vatanga qanday xizmat etishlari, qanday kasb egallashlari va shu singarilar haqida xayol suradilar, ammo quruq xayolparastlikka berilmasdan, xayol qilgan narsalarini amalga oshirmoq uchun g'ayrat ko'rsatish kerak. Yuksak maqsad va g'oyalarga muvofiq bo'lgan xislatlarni o'zlarida vujudga keltirishga harakat qilish zarur. Ijtimoiy hayotda paydo bo'ladigan yangi ehtiyoj va talablarga javob bera olishi mumkin bo'lgan obrazlar haqida xayol suradilar. Vatanimizda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkiloti o'z faoliyatini, dasturlarini yoshlarning ma'naviy yetuk, jismonan sog'lom bo'lib o'sishlariga, kamol topishlariga qaratayotganining o'zi yosh avlodga hukumatimiz tomonidan kursatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin dalilidir. Shu sababli yoshlarning ijodiy tafakkurini o'stirish, qobiliyatini shakllantirish, ularning qobiliyat va iste'dodlarini rivojlantirish katta ahamiyatga egadir. Buning uchun o'quvchi yoshlarda ijodiy xayol qobiliyatini juda yoshlik chog'idan to'g'ri shakllantira borish lozim. Xayoliy obrazlarni kengaytirish va mazmundor qilish uchun bolalarga obrazli hikoyalar, ertaklar aytib berish, mazmunli suratlar ko'rsatish, yoqimli muzika va ashulalar eshittirish, ular bilan turli ijodiy mashg'ulotlar o'tkazish, sayohatlarga chiqib turish lozim. Bolalar badiiy adabiyotlar bilan bir qatorda, ilmiy-fantastik asarlar, Vatanimiz qahramonlarining ibratli tarjimai hollari, estaliklari, mudofaa, san'at sohasida erishilgan muvaffaqiyatlarimizga oid ko'rgazmalarga sayohatlar tashkil etish, ular tasavvurida amaliy g'oyalalar shakllantirish o'quvchilar xayolini o'stirishda katta ahamiyatga egadir. Maktablarimizda yoshlardagi amaliy tafakkurni atroflicha shakllantirish ularda xilma-xil ijodiy orzu-havaslar tug'diradi, har xil to'garaklar, olimpiadalar, universiadalar tashkil etish ham katta ahamiyatga egadir. Bolalarga g'oyaviy-siyosiy tarbiya berib, haqiqiy bilimlar

bilan qurollantirib, ularning xayol obrazlarini mazmundor va mahsuldor qilishga harakat qilishimiz zarur. Chunki xayoli zaif shakllangan o‘quvchi nafaqat jismoniy faoliyatga, ijodiy faoliyatga ham qobiliyatsiz bo‘ladi.

10.4. Xayolning inson tanasidagi ruhiy jarayonlarga ta’siri

Agar biz shaxsning tarkib topishi jarayonida tanamizda mavjud bo‘lgan xayolning ruhiy holatini o‘rganib chiqadigan bo‘lsak, bu borada juda murakkab nerv-fiziologik va psixologik jarayonlarni kuzatamiz. Chunki inson tanasi va tafakkuridagi hamma ruhiy jarayonlar moddiy jarayonlar bilan birligida vujudga keladi va ular tanamizdagi psixologik holat va xususiyatlar mahsuli hisoblanadi. Rus psixologlaridan K.K. Platonov, G.G. Golubev, Ye.A. Klimov, M.I. Smirnov, B.F. Lomov, o‘zbek olimlaridan I.G. Davletshin, E.G. Oziyev, B. Qodirov, V. Karimova, A. Jabborovlar o‘zlarining ilmiy tadqiqodlari va psixologik kuzatishlaridan shunday xulosaga keldilarki, odam dam olib, bemalol yotib turgan vaqtida ham bironta mehnat qilayotgan paytini xayoliy tasavvurida jonlantirsa, uning bo‘sashib turgan mushaklari darrov tarang tortila boshlaydi. Odamning uyg‘oq tanasidagi nafas olish holati o‘zgaradi, tomiri tezroq va kuchliroq ura boshlaydi, hatto yurak urish ritmi ham o‘zgaradi. Xayol qilish jarayoni inson tanasida juda murakkab kechishini, uning fiziologik mexanizmlarini akademik I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limoti asosida ham tushuntirib berish mumkin. Xayolning inson tanasidagi nerv-fiziologik faoliyati asosida bosh miya po‘stining ilgari hosil qilingan vaqtli aloqalarning (assotsiatsiyalarining) qaytadan tiklanib, bir-biri bilan yangicha bog‘lanish jarayoni yotadi, ya’ni bosh miya yarim sharlarida ilgari hosil qilingan vaqtli aloqalar birin-ketin amaliy faoliyat uchun tiklanadi, shuning natijasida bosh miya po‘stida inson ruhiy hayotida hech qachon idrok qilmagan psixologik holatlarning xayoliy obrazlari paydo bo‘ladi. Bu obrazlarning ko‘pchiligi ba’zan mutlaqo to‘g‘ri kelmasligi ham mumkin, natijada tormozlanib qoladilar. Boshqa birlari esa vogelikka to‘g‘ri kelganligi hamda inson ruhiy

jarayoniga yangidan-yangi imkoniyatlar olib bergani tufayli amaliy faoliyat jarayonlari bilan mustahkamlanadi. Xullas, xayol surish jarayoni vegetativ nerv-sistemasiga ta'sir qilib, uni qo'zg'atadi va tanadagi fiziologik jarayonlar va mushaklarning holatini o'zgartiradi. Xayol jarayonida shunday psixologik holatlar ham bo'ladiki, masalan, ba'zi odamlar bironta kasallikning alomatlarini hayotiy faoliyatlarida biliib olib, ularni ruhan qidirib, shu kasallikka mubtalo bo'lib qolganlariga qattiq ishonadilar va bunday kishilarning ruhiyatida oxir-oqibat kasal bo'lishga moyillik ham kuzatiladi. Masalan, tibbiyot institutining talabalari, odatda birinchi marta har xil kasalliklar bilan tanishganlarida, shu kasalliklarning alomatlarini o'zlarida his qila boshlaydilar. Bir necha vaqt shu kasallik taassuroti bilan yashaydilar. Yoki boshqa bir misol. Ba'zi odamlar o'zlarida haqiqatda bo'limgan fazilatlarni bor deb xayol qiladilar va shunga ishonib mag'rurlanib yuradilar, o'zlariga ortiqcha baho beradilar va buni ularning xatti-harakatlaridan, qiyofasining tashqi mantiqsiz alomatlaridan, xarakteridagi salbiy xislatlaridan payqash mumkin. Xulosa qilib aytganda, inson ruhiyatidagi xayol faoliyati fiziologik jarayonlar bilan birligida o'tib, bir-biriga ruhan ta'sir etadi. «Xayol qilish jarayonlari hamisha nutq orqali amalga oshirilishi tufayli xayolning nerv-fiziologik asosida ikkinchi signallar sistemasining faoliyati ham faol ishtirok etadi, chunki xayol qilish jarayonida diqqat, xotira, tafakkur va iroda jarayonlari ham faol qatnashadi.

Ana shu nuqtai nazardan olganda xayolning xususan tafakkur mushohadasi bilan bog'liq ijodiy xayolning ruhiy-fiziologik mexanizmlarini to'la tushuntirib berish uchun hali psixologiyada yetarlicha ilmiy ma'lumotlarni topolmadik. Shuning uchun ham hozirgi kunda psixologik tadqiqodlarga ehtiyojning o'sishi, fan va texnikaning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ijodiy xayol jarayonlari oldiga juda katta ilmiy tadqiqod vazifalarini qo'ymoqda». Lekin shunga qaramasdan, odam o'zining bilimlari, tushunchalariga asoslangan holda xayol

¹ M.Vohidov. Bolalar psixologiyasi. -Toshkent: «O'qituvchi», 1982-y, 170-bet.

obrazlarini tanasidagi ruhiy jarayonlarida paydo bo'lishini ongli idrok qila oladi. Shuning uchun ham xayolning inson hayotiy faoliyatidagi o'rni juda muhimdir. Istalgan mexnat turini oladigan bo'lsak, uni xayolning ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bilish jarayoni sifatida xayolning xususiyatlari nimadan iborat va u boshqa psixik jarayonlar bilan qanday bog'langan?

2. Sizning amaliy faoliyattingizda, shuningdek, siz o'qitayotgan fanni o'quvchilarning o'zlashtirishida xayolning rolini tahlil qiling.

3. O'spirin va yuqori sinf o'quvchilari uchun tipik bo'lgan foydali orzu va quruq xayolparastlikka misollar keltiring. O'quvchilar bilan suhbat o'tkazing yoki anketa so'roqlariga javob to'plang.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya, 2-kitob. -Toshkent : «Universitet», 2002.

2. V. Karimova. Psixologiya. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. -Toshkent: 2002.

3. M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva. Umumiy psixologiya. Nizomiy Davlat pedagogika universiteti, 2002.

4. Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. -T.: «O'qituvchi», 1973.

HISSIYOT

11.1. Hissiyotning umumiy ta'rifi

Hissiyot so'zi lotin tilidan kiritilgan bo'lib, «hayajonlantiraman», degan ma'noni anglatadi. «Hissiyot» ko'p hollarda emotsiya so'zi bilan bir ma'noda ishlataladi. Hissiyot shaxsning voqelikka bo'lgan munosabati va uni his qilishdan kelib chiqadigan, uning ehtiyoj va qiziqishlari bilan bog'liq yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardir. Biror narsadan huzurlanish ba'zan behuzur bo'lish, suyunish, qayg'urish, muhabbat, qahru g'azab, g'ayrat va shijoat, qo'rqish, iztirob chekish, tashvish, xotirjamlik kabi holatlarning har qaysisi hissiyot yoki emotsiyaga misol bo'la oladi. Bu tuyg'ular kishida har qanday ijtimoiy sharoitda ham bo'ladi. Biz his bilan sezgi o'rtasidagi farqni o'quvchilarga aniq tushuntirishimiz zarur. Ko'pincha «Hidini his qildim», «Ko'nglim allanechuk xavotirni sezayapti» deyishadi. Ammo haqiqatda hid bilish – sezishdir, xavotirlanish – hissiyotning mahsulidir.

Sezgi inson xohishidan tashqari mavjud narsa va hodisalar xossasini aks ettiradi. Hissiyot esa odamning narsa va hodisalarga bo'lgan munosabatidan tug'ilgan tuyg'ulardir. Demak, kishining sezgisi, narsa va hodisalarning o'zidan xabar beradi, hissiyot bo'lsa shaxsning narsa va hodisalarga qanday munosabatda bo'lganidan darak beradi. Shuning uchun hissiyotni odamning ongidan tashqarida deb bo'lmaydi. Shaxsning ongi, qarashlari, maslagi, mushohadalari, dunyoqarashi o'zgarar ekan, uning ma'naviyat bilan bog'liq bo'lgan hissiyoti ham o'zgarib boradi. Hissiyotning xillari nihoyatda ko'p bo'lsa, sifat va xususiyatlari ham juda rang-barangdir. U ham bo'lsa hissiyotni ko'pincha bir-biriga teskari bo'lgan just hislarga ajratish mumkinligidir. Jumladan, huzur-behuzur, shodlik-xafalik, hayajon-orom va boshqalar. Hissiyotning bu xususiyati hislarning qarama-qarshiligi deyiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarning muhim emotsional xususiyatlari bu hissiyotlarning barqarorlik darajasidir.

Ba'zilar muvaffaqiyatsizlik yoki noxushlikdan so'ng darhol o'zlariga keladilar, boshqalar esa uzoq vaqt, garchi kechinma sabablari bartaraf qilingan bo'lsada, uning ta'sirida yuradilar.

Hayot faoliyati ta'siriga ko'ra barcha emotsiyalar ikki guruhga – *stenik* (organizm va insonning hayot qobiliyatini oshiruvchi) va *astenik* (ularni pasaytiruvchi) emotsiyalarga ajratiladi. Yaxshi uyuştirilgan o'quv mashg'ulotlari uchun emotsiyalarning *stenik* xususiyatlari xosdir, biroq ma'lum sharoitlarda hamda ayrim o'quvchilarda *astenik* emotsiyalar ham paydo bo'lishi mumkin. Emotsional tonus hamda *stenik yoki astenik* hissiyotlarning ustunligi ba'zan o'quvchilar xarakteriga xosligi bilan ham qonuniy namoyon bo'lishi mumkin. Eng sodda emotsional kechinmalarning uch juftini: qoniqish norozilik, zo'riqish yengillanish, qo'zg'alish tinchlanishni farqlash lozim.

Qoniqish yoki norozilik hissiyotlari organizmning tashqi muhit bilan aloqasining aks etishi va organizmni muhitga nisbatan talablarining borgan sari murakkablashib borishi yoki qaror topishining biologik ko'rinishidir. Emotsiyalar xotira qoniqishini norozilikdan ko'ra yaxshiroq saqlaydi, shuning uchun ham tarbiyaviy hissiyot jazolash hissiyotidan kuchliroqdir.

Zo'riqish hissiyoti doimo yangining yaratilishi yoki avvalgi faoliyat tarzining parchalanishi bilan bog'liqdir. Miya po'sti tonusining pasayishiga olib keluvchi ushbu «*asabiy mehnatning*» tugatilishi yengillashish hissiyoti tarzida boshdan kechiriladi.

Qo'zg'alish emotsiyalari miya po'stiga miya po'sti ostidan keluvchi impulslar bilan aniqlanadi, chunki «Miya po'sti osti markazlari, u yoki bu darajada katta yarim sharlarining faoliyat holatini belgilashiga ko'ra organizmning atrof-muhitga munosabatini shunchalik ko'p o'zgartiradi». Po'st ostidan kelayotgan impulsarning po'st bilan tormozlatish tarzida subyektiv kechiriladi. Insonning xavf-xatarni anglashi unda turli shakldagi emotsional reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bunday reaksiyalardan biri *qo'rquv* bo'lib, o'z navbatida kelib chiqishining turli forma, daraja hamda xilma-xilliklari

¹ И. П. Павлов. Полн. Собр. З-том. 2 к. стр 123.

mavjud. Bu dovdirash, zaiflik, maqsadga muvofiq kelmaydigan xatti-harakatlarda ko‘rinuvchi astenik qo‘rquvning bir shaklidir. «Psixologik jihatdan qo‘rquv, qo‘rqaqlig, yuraksizlik deb ataladigan psixologik holatning fiziologik *substrati* katta yarim sharlarning tormozlangan holati bo‘lib, zaif himoya reflekslarning turli darajalaridir. Xavfga nisbatan reaktsiyaning bunday formasi o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida va murakkab ishlab chiqarish faoliyatida ham salbiy ko‘rinish beradi»¹.

11.2. Emotsional holat va hissiy tuyg‘ular


Insonning emotsional holatlari, psixik xususiyatlari va uning muhit bilan o‘zaro aloqasini ta’minlaydigan emotsiyalar, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, hissiyot va irodaning psixologik sharti hisoblanib, ma’lumotlar olish, uni qayta ishlash va shu orqali almashinish jarayonlarini inson miyasida bilish (aks ettirish) orqali o‘zlashtirishdir. Turmush sharoitida yangi ijtimoiy bog‘lanishlar, ijtimoiy hayot hodisalari va o‘zaro muomala munosabatlari, xatti-harakatlarga nisbatan yangi munosabatlar vujudga keladiki, ular asosida yangi turdag'i emotsional kechinmalar, o‘zgaruvchan holatlar paydo bo‘ladi, avvallari odamning o‘zi uchun ahamiyatsiz, e’tiborsiz bo‘lgan yangi kechinmalar narsa va hodisalarga nisbatan odamda hissiy-emotsionalli holatlar tug‘diradi. «Yuqorida aytganimizdek, murakkab psixik holatlar odatda emotsiyalar ta’sirida va ularning o‘zaro psixologik tuzilishiga ko‘ra u yoki bu darajada barqaror yoki beqaror kayfiyatga aylanadi. Biroq emotsiyalar qisqa muddatli yoki uzoq muddatli psixik holatlar, jarayonlar tarzida kechishi ham mumkin. Ham bilish, ham munosabat tarzidagi anchagina sodda emotsiyalar va ancha murakkab hissiyotlar asosida yotuvchi kechinma bu mavjud dunyonи psixik aks ettirish xususiyatidir. Agarda sezgi va idrok mavjud dunyonи sezgi a‘zolariga bevosita ta’sir etib, tafakkur esa narsa hamda real dunyo hodisalari o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni bilvosita aks ettirsa, emotsiya va hissiyotlar kechinma formasida bu

¹ K.K. Platonov. Psixologiya. –Toshkent: «O‘qituvchi», 1982-yil, 122-bet.

predmet hamda hodisalarining o'zini emas, balki ularning insonga bo'lgan munosabatini aks ettiradi. Bunda emotsiya va hissiyot kechinmalari ularning iyerarxiyasi (17-jadvalga qarang) ehtiyojlar kechinmalarini va irodaviy zo'r berish orasidagi o'rtacha o'rinni egallaydi».

17-jadval

Shaxs kechinmalari ko'rinishi va bosqichlari



Emotsiyalar – fiziologik aks ettirish chegarasida turuvchi va odamga ehtiyojlari bilan bog'liq qo'zg'atuvchilar ta'sir qilganda o'z-o'zini boshqarishni amalga oshiruvchi psixik aks ettirishning sodda formasidir. Emotsiyalar mayjud dunyoning narsa hamda hodisalarini emas, balki obyektiv munosabatlarini aks ettiradi, unda mazkur predmet hamda hodisalar inson ehtiyoji uchun organizm xizmatida bo'ladi. Hali to'liq obrazli bo'limgan emotsiyalar ongda narsa yoki hodisaning aks etishini emas, balki kechinmani keltirib chiqaradi.

«Ba'zan o'quvchi o'ziga erkin fikrlash imkoniyati berilishini, atrofdagilarning unga jiddiy munosabatda bo'lishini xohlaydi. O'quvchining bunday xohishlari ko'pincha e'tiborsiz qolib ketadi. Shuning natijasida o'quvchida tevarak-atrofdagi olamga, ayniqsa yaqinlarga nisbatan norozilik, g'azablanish kabi his-tuyg'ular ham paydo bo'ladi. Maktabda ko'po'smirlar katta ishlar qilish, o'rni kelganda qahramonliklar ko'rsatishni, eng yaxshi kishilardek bo'lishni orzu qiladilar, katta kishilarning yaxshi ishlaridan orzu qiladilar, ularning hayajonlari juda xilma-

xil bo'lib, ba'zan gumonsirash, ikkilanish, quvonch, iqror bo'lish va yashirin shodliklardan iborat bo'ladi»¹.

Hissiyotlar faqat insonga xos holat bo'lib, emotsiyal aks etish tushunchalarni umumlashtiruvchi aks ettirishning murakkab formasidir. Ular narsa va hodisalarining yuksak ehtiyojlarga hamda insonning shaxs sifatidagi faoliyati *stimullariga* munosabatini aks ettiradi. Bu o'rinda u endi organizmni emas, balki shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatda bo'lib o'zini-o'zi boshqarishni amalga oshiradi. Masalan, maktab vrachining noto'g'ri tashxisi tufayli, ukoldan aziyat chekkan o'quvchi faqat og'riqnigina emas, balki uni davolashda mas'uliyatsiz, yoki bilim saviyasi, tajribasi yetishmagan tibbiyot xodimidan xafa bo'lish hissini boshidan kechirishi mumkin. Hissiyotlar ma'lum ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi va shuning uchun ham u barcha mehnat turlari uchun umumiyydir. Jumladan, o'z mehnatidan ruhlanish, faxrlanish, mehnatga muhabbat, qiziqish, musobaqada do'stona hamjihatlik va bardamlikni his qilish, xullas mehnatning ma'naviy emotsiyal mazmunini tashkil qiluvchi barcha his-tuyg'ular shu sohaga taalluqlidir. Agarda emotsiyalar odamning mehnat bilan o'zaro munosabatini organizm tarzida boshqarsa, hissiyotlar uning munosabatini boshqa odamlar, jamiyat bilan munosabati tarzida boshqaradilar.

Inson emotsiya va hissiyotlarni faqat boshidan kechiribgina qolmaydi, balki nutq ifodaliligining o'zgarishi, bir qator vegetativ hodisalar (yurak urishi tezligi, nafas olish jarayonidagi o'zgarishlar, yuzning qizarib yoki oqarib ketishi, mushak tonusining o'zgarishi, titrash, qon tarkibining o'zgarishi va boshqalar), shuningdek organizmdagi xilma-xil u yoki bu darajada chuqur bo'lgan biofiziologik o'zgarishlarda ham aks etadi. «Emotsiya jarayonida o'quv yoki mehnat faoliyatining aniq holatlardagi roli o'rganilar ekan: a) o'quvchida kechinmani keltirib chiqargan holatni; b) vaziyatning uning ehtiyojlari, faoliyatining maqsad va motivlariga ta'sirini; v) kechinmaning

¹ K.K. Platonov, G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil, 18-19 betlar.

intensivlik darajasini; g) kechinmalar paytida o'quvchilarning faollik darajalarini; d) kechinmani o'quvchi faoliyatiga ta'sir darajasini iloji boricha to'liqroq tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir»¹.

«**Emotsiyalar** – paydo bo'lish kuchiga ko'ra, faoliyatga doimo ham sezilarli ta'sir qilmaydigan, biroq boshqa holatlarni umumlashtiruvchi hamda o'z navbatida bu boshqa holatlarni o'z tuzilishiga kirituvchi emotsiyonal holat bo'lgan anchagina davomli, kayfiyatga ta'sir etadigan sustlikdan boshlab, qisqa muddatli qizg'in, odamni ba'zan bexush (aqlsiz) qiladigan affektiv va kuchli, biroq davomli ehtiroslarga cha ko'taradigan bo'lishi mumkin. Har bir o'quvchiga xos bo'lgan emotsiyaning kuchi uning o'ta emotsiyonal qo'zg'aluvchanligidan tortib to emotsiyonal qobiliyatsizlikkacha bo'ladigan tonusini xarakterlaydi»². Xullas, emotsiyonal ehtiros o'z maqsadiga g'ayrat bilan intiluvchi muhim insoniy kuchdir. Odatda, ular odamning butun fikr-yodini va irodasini bir maqsadga mahkam bog'lab qo'yadi. Ijobiy his-tuyg'ular buyuk ijodiy faoliyatga sabab bo'ladi. Masalan, Vatanga, ilmga, san'atga, mehnatga, ijodiy faoliyatga qaratilgan ehtiroslar yutuq va g'alabalarga olib boradi.

Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan va jahon ilm-fani xazinasiga munosib hissa qo'shgan mutafakkirlar, daholar (Al-Forobi, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ibn-Rashid, Umar Xay-yom, Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar) o'z faoliyatlariga zo'r ehtiros bilan berilgan shaxslar hisoblanadi.

Ammo ehtiros darajasigacha yetgan emotsiyonal holatlar salbiytus olmog'i ham mumkin. Qimorga, diniy ekstremizm oqimiga, narkotik moddalar iste'mol qilishga butunlay berilib ketish holatlari shular jumlasidandir. Bu kabi ehtiroslar odamning o'ziga, atrofidagilarga, keng jamoatchilikka katta zarar bo'lib, odamni halokatga, tubanlikka olib boradi.

Ijobiy ehtiroslar esa shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishida katta imkoniyat beradi. Shuning uchun bolalarda kichik

¹ Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Prof. M.G. Davletshin tahriri ostida –T.: «O'qituvchi», 1974 yil, 103-104 betlar.

² K.K. Platonov, G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil, 20 bet.

yoshdan boshlab ijobiy his-tuyg‘ular uyg‘otishga harakat qilmoq va ularga ma’naviy-axloqiy qoidalarni singdirish, ular ongida istiqlolimiz to‘g‘risidagi dunyoqarashni shakllantirish uchun doimiy g‘amxo‘rlik va uni nazorat qilib bormoq lozim. Xullas, hissiyotning boyligi yoshlar ichki dunyosining yuksalib, har jihatdan shakllanishi uchun eng kerakli shartdir. Kishining hissiy tuyg‘usi zaif bo‘lsa uning hayoti ham zavqsiz, mazmunsiz bo‘ladi, bunday odam har qanday mehnat faoliyatiga hafsalasiz, harakatsiz, jur’atsiz bo‘ladi va odamlar orasida e’tibor topmaydi.

Beparvo va hissiyotsiz odam chinakam kurashuvchi bo‘la olmaydi, chunki kurashish uchun nima uchun kurashayotgan bo‘lsang, o’shani sevmoq kerak, nimaga qarshi kurashayotgan bo‘lsang, uni butun qalb tuyg‘usi bilan yomon ko‘rmoq kerak. Masalan, Vatan xoinini butun tuyg‘u bilan yomon ko‘rmaguncha uni yengib bo‘lmaydi, ojiz, beparvo, dardsiz, hissiyotsiz odam ijodda ham hech qanday yutuqqa erisha olmaydi. Rus olimi I.P. Pavlov vafot etmasidan bir necha vaqt oldin dunyo yoshlariga bag‘ishlab yozgan bir xatida bunday degan edi: «Ilm odamdan katta g‘ayrat va ulug‘ ximmat talab qiladi. Ishingizda va ijodiy izlanishlaringizda buyuk ehtiros bo‘lsin». Bu gaplar insoniyatning faoliyatiga doir bo‘lgan barcha ishlariga tegishlidir. O‘z ishingizga otashin muhabbat qo‘ymaguningizcha, bu ishingizga ijobiy ilhom bilan qaray olmaysiz. G‘ayrat, shijoat va ehtiros bo‘lma guncha, hech bir ishda katta natijaga erishib bo‘lmaydi.

11.3. Hissiyotning fiziologik asoslari

Hislarning fiziologik asosi vegativ nerv sistemasi faoliyati bilan bog‘liqdir. Vegetativ nerv sistemasi barcha hayot jarayoni va ichki a’zolar ishini idora qilib turadi. Tuyg‘u hislarining nerv markazlari miya po‘sti ostidadir. Shunday ekan, fiziologik jihatdan qaraganda, hissiyotning boshqa psixik jarayonlardan farqi nimada?

Qachonki biror psixik jarayon sezgi, idrok, tasavvur fikrga aloqador bo‘lgan nerv jarayonlari miya po‘stidan o‘tib, miya pust markazlariga kurish va boshqa nerv markazlariga borib

yetsa shundagina sezish, idrok qilish, tasavvur va fikrlash kabi psixik jarayonlar emotsiya tusiga kiradi, ya'ni ba'zi hissiyotlarni qo'zg'atadi. Haddan tashqari hayajonlanish, qo'rqishg'azablanish, buyrak osti bezlarining adrenalin moddasini ko'p ishlab chiqarishga sabab bo'ladi. Natijada, qonda o'zgarish hosil qiladi va vegetativ nerv sistemasining holatiga faol ta'sir etadi.

Yig'lash, kulgi, qahqaha, ta'sirlanish va shu kabilar hissiyotning fiziologik o'zgarishiga ta'sir qiluvchi tashqi alomatlardir. Kishining nutqi ham tuyg'u hislariga uzviy bog'lanadi. Jumladan, ba'zi kishilar hayajonlanib tez, shoshib, baland ovoz bilan gapiradi, ba'zilar esa sekin, shivirlab gapiradi. Demak ohang, intonatsiya va nutq kishi kechirayotgan emotSIONAL holatni aks ettiradi. Organizmning hayot jarayonlarini susaytiradigan, g'ayratni bo'shashtiradigan hisni *astenik emotsiyalar* deyiladi. Aksincha, odamni tetik va chaqqon, g'ayratli qiladigan tuyg'ular *stenik emotsiyalar* deb ataladi. Bu jarayonda ichki a'zolarning va ichki sekretsiya bezlarining ishlariga ta'sir qiluvchi vegetativ nerv sistemasi miya po'sti faoliyatiga bo'ysunganligini alohiда ko'rsatib o'tish lozim. Ba'zi hollarda hissiyotning tug'ilishi va kechishi barqaror va mahkam o'rnashgan bog'lanishlar sistemasining buzilgan mahalida va aksincha, quvvatlanganida voqeа bo'ladigan nerv jarayonlariga xos xususiyatlar bilan bog'liqdir.

I.P. Pavlov dinamik sterotipning o'rnashuvi va almashuvi masalasi munosabati bilan bunday deb yozgan edi: «Mening fikrimcha, katta miya yarim sharidagi haligi bayon qilingan fiziologik jarayonlarni o'zimizcha subyektiv tarzda, odatda hissiyot deb ataydigan narsaga muvofiq keladi, deb o'ylash uchun yetarlicha asos bor. Bular qiyinchilik va yengil tortish hissi, tetiklik va charchash hissi, manmanlik va norozilik, suyunish, tantana va xafalik hissi va hokazo»¹.

Hissiyotning tug'ilishida va o'zgarishida ikkinchi signal sistemasidagi bog'lanishlarning muhim ta'siri bor. Birinchi signal sistemasiga mahkam bog'langan va miya po'sti osti nerv markazlarining ishiga ta'sir qiladigan ikkinchi signal

¹ И. П. Павлов. Полн. Собр. Соч. 3-том, 2 к.

sistemasing faoliyatiga suyangan holda, kishi o'zidagi hislarini idora qila oladi. Xulosa qilib aytganda, hissiyotning nihoyatda muhim xususiyatlardan biri shuki, inson organizmi faoliyatini o'zgartiradi va tashqi ko'rinishiga ta'sir etadi, bir qancha jismony-fiziologik alomatlarni ifodalaydi.

Hissiyotning turlari. «Insonning ehtiyojlari, munosabatlari va uni o'rab olgan ijtimoiy muhit turli-tuman bo'lganidek, unda paydo bo'ladigan tuyg'u-hislarning ham turli ko'rinishda bo'lishi tabiiydir. Kishida ma'lum darajadagi hisni qo'zg'ovchi fiziologik sababni hissiyot manbai deyiladi. Hissiyot manbai uning mazmunini belgilaydi». Shuning uchun insonning tuyg'u va emotsiunal hislarini kelib chiqqan manba va mazmuniga qarab, quyidagi xillarga ajratish mumkin.

Birinchisi, o'z-o'zini saqlash tuyg'ulari organizmning o'z-o'zini saqlash ehtiyojiga bog'liq bo'lib, hayotimiz, salomatligimiz va tinchligimiz uchun xavfli bo'lgan narsalar ta'siri bilan vujudga keladigan alohida xush yoki noxush tuyg'ulardir. Masalan, tinchlikni his qilish, biror narsadan yengil tortish, xotirjam bo'lish yoki xavotirlanish, qo'rqish, tashvishlanish, g'azablanish kabi tuyg'ulardir. O'z-o'zini saqlash tuyg'ulari organik tuyg'ular sifatida hayvonlarga ham xosdir. Shuning uchun bu tuyg'ularni oddiy tuyg'ular deyiladi. Ammo ijtimoiy tabiatga ega bo'lgan odamlarda bu tuyg'ular ijtimoiy mohiyatga ega bo'ladi va jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy qoidalarga bo'ysunadi.

Ikkinchisi, aql tuyg'ulari insonning ma'rifatga, ma'naviyatga, dunyoni bilishga bo'lgan ehtiyojlaridan paydo bo'ladigan va unga ma'naviy zavq bag'ishlaydigan alohida intelektual tuyg'ulardir. Masalan, bilmaga havas, ishtiyoq, hayron qolish, ajablanish, haqiqatga erishishdan mammun bo'lish, ilmga chan-qoqlik, fan va madaniyat sohasida yangiliklar yaratishga ishtiyoqmandlik, orzu-havas va shu kabilardir. Bu hissiyotlar har qanday nazariy va amaliy masalalarni o'rtaga qo'yish, ularni hal qilish, kashf va ixtiro etish, ma'rifatga, ma'naviyatga intilish jarayonida paydo bo'ladi. Mustaqilligimizning istiqbolli taraqqiyotini qurish uchun yangiliklar yaratish hissi qudratli va ulug'vor hisdir.

Fikrlash bilan bog'liq bo'lgan hislar dunyoviy tafakkur hislari deb hisoblanadi. Ular tafakkur faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, aqlning rivojlanishiga, zehnning o'tkirlashishiga yordam beradilar. Chunonchi, ilmga havas, hayron qolish kabi hislar zo'r g'ayrat bilan o'qishga, ijodga, mutolaa qilishga sabab bo'ladi. «Bilish, – degan edi buyuk yozuvchilarimizdan biri, – hayron qolishdan boshlanadi...» Biror fikrning to'g'ri-noto'g'riliidan shubhalanish ham aql emotsiyasidir. Istiqlol yoshlarga bilim berish tufayli ularda chuqur aql tuyg'ularini, ya'ni bilimga bo'lgan zavq, haqqoniyatga muhabbat, yangilikka intilish hissini shakllantirdi, insonning ma'rifatga, ma'naviyatga zo'r ishtiyoyq va shijoat bilan intilishga ilhomlantirdi.

Aql tuyg'ulari ko'proq fan sohiblariga xosdir. Vatanimiz olimlari o'z ijodlari va kashfiyotlari bilan xalqqa xizmat ko'rsatganliklaridan chuqur ma'naviy qanoat hosil qiladilar va katta ruhiy quvvat bilan ishlaydilar.

Uchinchisi, ulug'vorlik tuyg'usi. Bunday tuyg'ular o'z millatini sevguvchi, yutuqlaridan ilhomlanuvchi, qudratli Vatanidan, ijodkor xalqidan g'ururlanuvchi, mustaqil vatanidagi behad ajoyib narsa va hodisalarni ko'rish, tasavvur etish yoki zavqlanish munosabati bilan vujudga keladigan murakkab ijtimoiy-milliy ulug'vorlik tuyg'ularidir. Vatanimiz poytaxti Toshkentda o'tkaziladigan bir-biridan go'zal bayramlar, tantanali namoyishlar, olimpiadalar, sport anjumanlari, millatimizning buyuk ijodkorlari, ularning dunyo miqyosidagi o'rni, bunyod etilayotgan qudratli qurilish inshootlari, Prezidentimizning ozodlik, tinchlik, osoyishtalik uchun zo'r g'ayrat bilan olib borayotgan siyosiy faoliyati, xalqimizning bunyodkorlik shijoati millatimizda, ayniqsa, yoshlarimizda ulug'vorlik hislarini tug'diradi. Davlatimiz rahbarining dunyo hamjamiyati oldidagi katta hurmati, siyosiy tashkilotchilik qobiliyati xalqimizda, yoshlarimizda ko'tarinkilik, g'urur tuyg'ularini vujudga keltiradi.

Bu tuyg'u vatan taraqqiyoti uchun mehnat qilayotgan barcha mehnatkashlarni ilhomlantiradi, ularning g'ayratiga g'ayrat qo'shami.

To'rtinchisi, o'z-o'ziga baho berish hissi. Har bir ma'naviyatli inson o'z tevarak-atrofidagi olamgagina emas, balki o'ziga ham

ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishini bilamiz. Ya'ni kishi o'z-o'ziga bo'lgan munosabatidan ba'zan xush yoki noxush tuyg'ular kechirib yashaydi. Hatto kishi o'zining husnidan mamnun yoki ko'rimsizligidan xafa bo'lishi, xulq-atvori va qobiliyatidan rozi yoki norozi bo'lishi ham mumkin.

Odam hayotidagi mehnat faoliyati jarayonida o'z kuchiga mahkam ishonishi yoki ishonmasligi mumkin. Bu kabi tuyg'ular odamning o'z-o'ziga baho berishdan paydo bo'ladi, natijada kishi o'zidan mamnun yoki aksincha norozi va ma'yus tuyg'ularni his etadi o'zida. Ammo ba'zi odamlar o'z-o'ziga ortiqcha baho beradilar va o'zlarida haqiqatda yo'q fazilatlarni o'zlarida borligiga ishonib bundan hamisha mamnun bo'lib, kekkayib, maqtanib, hatto keng jamoatchilik ichida o'zlariga ortiqcha bino qo'yib yuradilar. Bunday odamlar hatto oddiy tanqidga chiday olmaydilar, chunki o'zlarida biron ta nuqson borligiga ishonmaydilar. Shuning uchun ham bolalarni kichikligidan ortiqcha maqtayverish, erkalatish ham yaramaydi.

Ba'zan o'z kuchiga ishonmaydigan, o'z fazilatlarini sezmaydigan va o'z-o'zidan norozi bo'lib yuradigan odamlar ham uchraydi. Bu tuyg'u o'z-o'zini kansitib baho berishdan paydo bo'ladi. Bunday odamlar ham jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydilar. Chunki o'z kuchiga ishonmaganliklaridan g'ayrat va tashabbus ko'rsatib ishlashga botinolmaydilar, ortiqcha tortinchoq, xarakteri jihatdan yuvosh bo'ladilar. Bunday bolalarga (katta odamlarni ham) alohida tarbiyaga olib, ularni o'z kuch-qobiliyatlariga ishonadigan qilib tarbiyalash kerak. O'ziga to'g'ri baho berib, o'z qadrini bilish, mag'rurlanib ketmaslik, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish, tanqidga chidash va boshqalarning o'zi haqidagi fikrlarini nazarga ola bilish qilgan ishidan mag'rurlanib ketmaslik xalqimizning buyuk fazilatlaridan biridir.

Beshinchisi, siyosiy-ma'naviy va axloqiy tuyg'ular. Yuqorida keltirilgan ta'riflar o'qituvchi ruhiy faoliyatining bir tomonini tashkil qiladi. Ikkinci tomoni o'qituvchining siyosiy-ma'naviy, yuksak insoniy fazilatlari bilan bog'liqdir. Avvalo o'qituvchi, qolaversa uni tarbiyasini ko'rgan o'quvchilar ham halol-pok, vijdonli, iymonli, diyonatli, mehr-shafqatli, ma'naviy va axloqiy

dunyosi boy bo'lishi kerak. Inson egri yo'l, egri qo'l, egri maqsad, nopoq siyosiy-axloqiy tuyg'ular bilan hech narsaga erisha olmaydi. Fe'l-atvorida egrilik bor tarbiyachi tarbiyaviy ishini uzoq davom ettira olmaydi. Ma'naviyat, odob kabi axloqiy tuyg'ular kishilarning fe'l-atvori, yurish-turish qoidalaridir. Shu qoidalarga rioya qilish yoki qilmaslikdan alohida tuyg'ular paydo bo'ladiki, bularni nomus, sharaf, vijdon, insof, uyat, hayo, rostgo'ylik, mas'uliyat, burch hissi deyiladi. Insonga xos bo'lgan barcha hislar ijtimoiy mohiyatga ega, ya'ni ular ham insonning mavjud turmushini, ulardagi ehtiyoj va orzu-havaslarini aks ettiradilar. Ular ham o'zgarmaydigan narsa emas, balki jamiyat taraqqiyoti qonunlariga binoan tarixiy, ijtimoiy muhitda o'zgaradilar.

Mustaqilligimiz bergen istiqlol tuyg'usi taraqqiyotimiz yo'lidagi barcha g'alabalarimizning ilhomchisi, yo'lboshchisi va tashkilotchisi bo'lmish xalqimizning yo'lboshchisi Prezidentimizga cheksiz muhabbat, sadoqat va ishonch hissini, mustaqil vatanimiz uchun har qanday xizmatga tayyor bo'lish hissini, qahramonlik, mardlik va qiyinchiliklardan qo'rmaslik tuyg'usini o'z ichiga oladi. Xalqimiz mustaqil vatani oldida o'zining muqaddas burchini bajarish, vatanning qadr-qimmatini, shon-sharafini, uning obro'sini saqlash tuyg'usini ongli his qiladilar. Qudratli xalqimiz dunyoda eng ilg'or jamiyat qurayotganliklarini, taraqqiyot sari astoydil borayotganliklarini tushunib yetdilar, ular yangi jamiyat kishilarining ma'naviy qudrati mustahkamligini biladilar va bundan chuqr qanoat hosil qilib, taraqqiyot yo'lida kurashga ilhomlanmoqdalar. Millatimizning daho ajdodlari Forobiy, Al Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Jomiy singari buyuk fan va san'at arboblarini yaratgan boy madaniy merosi, tariximizni jahon xalqlari oldida namoyish qilish imkoniyatini bergani uchun chuqr minnatdorchilik hissi bilan yodga olamiz. Prezidentimiz o'zining bir qator asarlarida takror-takror aytganidek, g'oyasizlik, maslaksizlik, xalq talabidan orqada qolish, siyosiy-ma'naviy jihatdan o'sishga harakat qilmaslik, milliy axloq va andishani buzish kabi hollarga duch kelganimizda, biz ularni do'st-birodarlik aqidasi bilan emas, balki beg'araz va jiddiy suratda,

jonajon Vatanimiz himoyachisi bo'lib ochiqchasiga tanqid ostiga olishimiz kerak.

Oltinchisi, tuyg'u, hissiyotning ta'lim jarayonidagi ahamiyati.

Ta'lim jarayonida turli-tuman tuyg'u va hislarni kechirish natijasida o'quvchilar hayoti jonli, qiziqarli va mazmundor bo'lib boradi. Chunki odamning ruhiyatida dard, mehr, muhabbat, hayajon, quvonch, g'am, alam kabi tuyg'ular bo'lmasa uning hayoti ma'nosiz, mantiqsiz, rangsiz, faoliyati esa g'ayratsiz va zavqsiz bo'lar edi. Tarixda fan, san'at, texnika sohasida, inqilobiy kurashda zo'r g'ayrat, shijoat va ehtiros bilan yashagan allomalarining hayotida ijobi ma'naviy his-tuyg'ular g'oyat katta o'rin tutganligi ma'lum. O'quvchilardagi o'qishga qiziqish, havas, zavq-shavq kabi tuyg'u, hissiyot ularda faol va zo'r g'ayrat bilan harakat qilishga, o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishga, boshlangan ishni oxirigacha yetkazishga qat'iyatlilik hosil qiladi.

O'quvchilarni buyuk ishlarni amalga oshirish ruhida tarbiyalash kerak. Ammo kurashayotgan g'oyani o'quvchi butun vujudi bilan anglashi, unga mehr qo'yishi kerak, shu yo'lida unga qarshilik ko'rsatadigan dushmanga esa shafqatsiz bo'lish, chuqur nafrat va g'azab bilan qarashga o'rgatish kerak.

Buyuk shaxslar hamisha yuksak his-tuyg'ularga ega bo'lганлар. О'quvchilar ham o'zlarining asosiy g'oya va maqsadlariga, o'qishdagi faoliyatlariga jonusi dili bilan berilib, zo'r ishtiyooq va g'ayrat bilan intilishlari kerak. Ilmga bo'lган chuqur tuyg'u, kuchli ehtiros, xususan dunyoviy fanlarga qiziqish, haqiqatga intilish katta ahamiyatga ega. Insoniy hissiyotlarsiz ta'lim yo'lida muvaffaqiyatlarga erishish hech qachon bo'lмаган. Ijobi tuyg'ular o'quvchi faoliyatida ma'naviy madad beradi, intellektual mehnatga bo'lган qobiliyatini kengaytiradi, ijodiy ishlarni serunum qiladi. Shuning uchun «Sevinch yo'q, qayg'u yo'q, ko'klam yo'q, xazon», degan edi *G'ofur G'ulom*.

O'qituvchi o'smirlarga nisbatan juda sezgir va e'tiborli bo'lishi, har qanday maqsadsiz, sababsiz ohangda gapishtirish, nafaqat tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki o'smirning qattiq ranjishi, unda norozilik his-tuyg'ularini uyg'otishi

mumkinligini unutmasligi kerak. Chunki yuqorida aytganimizdek, o'smirlar va yuqori sinf o'quvchilarida oliy hislar tez rivojlanadi. Intellektual hislar ko'p narsa bilishga intilishga, o'quv fanlariga qiziqishga imkoniyat tug'diradi. Faqat bugina emas, o'smirda tashabbuskorlik, mardlik tuyg'ulari ham shakllanadi.

Yettinchisi, kayfiyat. Biz kechiradigan hislar mazmuniga ko'ra, noxush yoki xushkayfiyat hosil qiluvchi holatlar bo'lib, biri huzur beruvchi kayfiyat, ikkinchisi behuzur qiluvchi kayfiyat turiga ajratiladi. Chunki kishining biror narsaga munosabati hamisha ijobjiy va salbiy kechinma orqali bo'ladi. Huzur qilish, suyunish, baxtiyorlik, quvonish, shodlanish va yaxshi ko'rish kabi hislar yaxshi kayfiyat uyg'otuvchi ijobjiy munosabat tuyg'usidir. Behuzurlik, qayg'urish, xafalik, g'am-g'ussa, noumidlik, yomon ko'fish, jirkanish, nafrat kabi hislar salbiy kayfiyat tuyg'ularidir.

Kayfiyat sifatidagi ancha muhim bo'lgan qaramaqarshiliklarning yana biri kayfiyatning faolligi bilan sustligi o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Hayajon, g'ayrat, shijoat, dadillik kabi hislar kayfiyatning faol ko'rinishlaridandir. Ruhan ma'yuslik, ezilganlik, g'amginlik kabi hislar kayfiyatning salbiy, ya'ni sust ko'rinishlaridir. Shunday qilib, kayfiyat deb, shaxsning butun xatti-harakati, emotsiyonal tuyg'ularini bir muncha vaqtgacha bir xil ruhiy holatga solgan umumiy emotsiyonal tuyg'ularning ko'rinishlariga aytamiz. Yuqorida aytganimizdek, ko'pincha kishining kayfiyatiga uning uchun juda muhim bo'lgan biror voqeа orqasida tug'ilgan ma'lum bir hissiyot sabab bo'ladi. Ertalab eshitilgan noxush xabar kishi kayfiyatini kechgacha buzib, tashvishga solib yurishi mumkin.

Ishda erishilgan jiddiy muvaffaqiyat bir necha kungacha kishini shodlantirib, kayfiyatini ko'tarishi mumkin.

Hissiyotning shunday qobiliyati borki, uni tug'dirgan narsadan o'tib, bu narsa bilan aloqador bo'lgan boshqa narsalarga ham yoyiladi. Buning natijasida kishida kayfiyat deb ataladigan umumiy bir emotsiyonal holat paydo bo'ladi.

Kishining kayfiyati sog'-salomatligiga ham bog'liq bo'ladi: haddan tashqari charchash, uyqudan qolish, betoblik, kishining

kayfiyatini pasaytirgani holda, yaxshi dam olish, miriqib uqlash, tanadagi sog'liq kishi kayfiyatini ko'taradi. Ma'naviy hayoti chuqur va mazmundor bo'lgan, irodasi kuchli kishilar har qanday og'ir holatlarda ham kayfiyati baland, xushchaqchaq bo'lib yashashga intilishlarini kuzatamiz.

Demak, ma'lum darajada kishi o'z kayfiyatiga o'zi xo'jayin desak ham bo'ladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hissiyotlar bilan psixik jarayonlar va shaxs xususiyatlari o'rtaqidagi bog'lanish nimada aniq namoyon bo'ladi?
2. Emotsiya va hissiyotlarning mohiyati va uning qonuniyatları.
3. Hissiyot qanday guruhlarga bo'linadi?
4. Emotsiyalar organizmning hayot faoliyati ta'siriga ko'ra qanday bo'ladi?
5. Zo'riqish (tanglik) va sarosimalik nima? Ularning bir-biridan farqi.
6. Ta'lim jarayonida qo'rquv hissining paydo bo'lishi va uning sabablari.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. E.G'oziyev. Psixologiya. -Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
2. E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. 1-kitob, -Toshkent: 2002.
3. M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva. Psixologiya. (O'quv qo'llanma) - Toshkent: 2002.
4. Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. «O'qituvchi», - Toshkent: 1972.
5. V.Karimova. Psixologiya. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. -Toshkent: 2002.
6. B.M. Teplov. Psixologiya. Sh. Boyburova tahriri ostida. -Toshkent: 1952.

IRODA

12.1. Irodaning ta'rifi

Inson mehnati va faoliyatining samarasini asosan shaxsning iroda kuchiga bog'liqdir. O'zini tuta bilish, ma'naviyatli va intizomli bo'lish, qo'yilgan maqsad sari ongli harakat qilish ham shaxsning irodasiga bog'liqdir. Endi irodaning o'zi nima degan savolga javob berishimiz kerak.

Iroda bu – maqsadga erishish yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarga bardosh berib, uni yengib chiqsa bilish faoliyatini ongli qo'yilgan maqsadga bo'ysundirish, uni ongli nazorat qilish, faol boshqarish qobiliyatidir. Shuning uchun irodani insonning eng oliv ruhiy qobiliyati deb aytamiz.

Mehnat odamning irodasini chiniqtiradi va shakllanishiga sababchi bo'ladi. Ma'lumki, mehnat aniq bir maqsadga yo'naltirilgan ongli va tartibli harakatlardan iborat bo'lib, jismoniy va aqliy kuch sarf etishni talab qiladi. Mehnatdan natija olish uchun uni ma'lum tartibda oxirigacha yetkazish va mehnatga bog'liq qiyinchiliklarni yengib o'ta bilish lozim. Mehnatning mana shu xususiyati odamning irodasini mustahkamlaydi, unda qunt bilan ishlay bilish qobiliyatini shakllantiradi.

Iroda ongning asosiy uchta xususiyatlari: bilish, munosabat va kechinmalarini o'zida birlashtiradi. Bunda irodaviy zo'r berish kechinmasi o'z psixologik tuzilishiga ko'ra murakkab va shaxs kechinmalari to'rt asosiy formasining eng kuchlisi hisoblanadi. Iroda odamning barcha murakkab faoliyatlarida ham, uning ayrim harakatlarda ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun odamning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi ham uzoq, ham qisqa bo'lishi mumkin. Quyida irodaviy harakatlarning bosqichlarini keltiramiz.

Garchi irodaviy harakatlar maqsadni anglashdan boshlansa-da, uning markaziy bosqichi motivlar kurashi hisoblanadi. Bunda bir maqsadga yo'llangan bitta sabab yoki sabablar

yig'indisini tanlab aniqlaydi hamda imkoniyatlardan birini irodaviy qarorga, butun jarayonni esa *irodaviy aktga* aylantiradi. Masalan, motivlar kurashsiz hal bo'lisi, fikr yuritish harakati bosqichi ham bo'lisi mumkin emas. Agar odamda o'z oldiga ongli ravishda qo'ygan maqsadga muvofiq kelmaydigan motivlar ustun bo'lsa, bunday jarayon irodaning emas, irodasizlikning namoyon bo'lisi hisoblanadi.

18-jadval

Irodaviy harakatlarning bosqichlari

Maqsadni va unga erishishga intilishni anglash

Maqsadga erishishning bir qancha imkoniyatlarini anglash

Bu imkoniyatlarni tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi dalillarning paydo bo'lisi

Motivlar kurashi va tanlash

Imkoniyatlardan birining qaroriga kelish tarzida qabul etilishi

Qilingan qaroring amalga oshirilishi

Irodasizlik doimo «kerak» motiviga emas, balki, «xohlayman» (yoki «xohlamayman») motiviga berilganda paydo bo'ladi. Maqsad «Men nima qilishim kerak?» savoliga, motiv esa «Nima uchun men buni qilishim kerak?» savoliga javob beradi. Maqsad doimo aniq anglanadi, motiv esa xira anglangan, noaniq bo'lisi mumkin. Iroda kuchi sarflanadigan umumiy maqsadning ijtimoiy ahamiyati, uning qimmati, kerakli zo'r berish darajasi esa amalga oshirilgan ishda namoyon bo'lgan iroda kuchini ko'rsatadi. Har bir irodaviy harakat irodaviy faoliyatning faqatgina bir tarmog'i, ayrim holda namoyon bo'lishidir, xolos. Shuning uchun irodaviy harakatlar ikkiga: bir bor harakat qilganda maqsadga erishiladigan va irodaviy harakatlarni ko'p marta sarflashni talab qiladigan irodaviy

faoliyatga (bu iordaning chidamliligida ko'proq ko'rindi) ajratiladi. Insonning intilayotgan maqsadi qanchalik aniq bo'lsa, unga erishishda to'siqlarni qanchalik matonat bilan yengib o'tsa, u shunchalik maqsadga intiluvchan bo'ladi.

19-jadval

Shaxsning irodaviy xususiyatlari

Irodaviy harakat bosqichlari Irodaviy sifatlari	Maqsad va unga erishish uchun intilish	Imkoniyat va motivlar	Motivlar kuraishi va tanlesh	Qarorga kelish	Qarorni amalga oshirish
Kuchli ioda	Maqsadni aniq anglash. O'ta faol tarzda intilish	Etarli	Asoslangan va tez	O'ta faol tarzda intilish bilan asoslangan	Chidamli, faol
Sabot-matonat	Uzoq maqsad. O'ta faol tarzda intilish.	Qulay tarzda			Nihoyatda chidamli. faol
O'jarlik	Ob'ektiv jihatdan o'zini oqlamydigan	Barcha imkoniyatlarni ob'ektiv jihatdan hisobga olgan holda emas, yangilish fikrlar orqali	O'ta faol intilish bilan asoslanmagan	Chidamli	
Konformlik	Yengil o'zgaruvchan	Boshqa shaxslarning fikrlariga ko'ra belgilanadi	Tez o'zgaruvchan	Tez o'zgaruvchan	
Ishonuvchanlik	Yo'q			Tashqaridan aytildi	No faol tarzda
Qat'iylik	Maqsadni aniq anglash. O'ta faol intilish	Etarli, gohida haddan ziyod	Zidlik bilan, lekin hamisha ham har tomonlaina emas	Aniq va barqaror	Chidamli
Ishchanlik	Shuning o'zi	Shuning o'zi	Asoslangan va tez		Juda intilgan holda
Qat'iyatsizlik	Shuning o'zi	Shuning o'zi	Cho'zilgan hamda tugallanmagan	Yo'q yoki tez-tez o'zgaradi	Yo'q
Sust irodalik	Intilishi sust	Etarli yoki kam	Tugallanmagan	Bajarishga intilishsiz	Sabotsiz

Yengib o'tilayotgan to'siqlar qanchalik ko'p bo'lsa, irodaviy zo'r berish shunchalik *intensiv* bo'lishi kerak, odamdan esa yanada ko'proq kuchli irodaviy intilish talab qilinadi.

Kuchli hamda chidamli irodani shakllantirish o'quvchi oldiga faoliyatidan anchagina uzoqroq maqsadga erishish vazifasini qo'yish va uning qiyinchiliklari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bu maqsadga erishishga bo'lgan intilishni mustahkamlash orqali

amalga oshiriladi. O‘z oldiga muayyan, anchagina uzoqni ko‘zlab maqsad qo‘ygan kishi irodasining chidamliligin his qilsa, bu matonatlilikni bildiradi.

Shaxsiy maqsadlarni jamoa, xalq manfaatiga bo‘ysundirish bilan belgilanadigan iroda ma’naviy-axloqiy tarbiyalangan iroda tarkibiga kiradi. U o‘quvchi shaxsining barcha ma’naviy, ma’rifiy sifatlari, birinchi navbatda insoniy burch hissi, onglilik va vijdon hissining yuksak shakllanganligi bilan bирgalikda o‘sib boradi¹.

Iroda inson psixologiyasining boshqa tomonlari bilan ham mustahkam bog‘langandir. Kishining hissiyotlari ham irodani oshiradigan katta ruhiy quvvatdir. Hech bir narsadan zavqlanmaydigan, ma’naviy dardsiz odamlarning irodasi kuchli bo‘lmaydi. Ammo shu bilan birga, iroda kishidan o‘z hissiyotlarini tushunib, ularning qiymatini bilishni va ularni dadil himoya qilishni talab qiladi. O‘z hissiyotini boshqara olmagan odamlar hamisha irodasiz, ruhan kuchsizdir.

Mustaqil taraqqiy etib borayotgan davlatimizning mehnatda fidoyilik, mardlik ko‘rsatayotgan xalqi o‘zining metin iroda kuchi bilan qilayotgan ulug‘ ishlarini psixologik tomondan kuzatadigan bo‘lsak, ularning bu ishlari Vatanga, xalqiga fidokorlik, g‘aliz dushmanlarga g‘azab, mehnat maydonida g‘ayrat, shijoat ko‘rsatish kabi kuchli hissiyotlar bilan g‘oyatda zo‘r bardosh, sabru toqat, ziyrak va hushyorlik bilan o‘zini dadil tutish kabi irodaviy xislatlarning birlashganidan namunadir.

Hayotda iroda bilan tafakkur o‘rtasidagi munosabat qanday chuqur bog‘langanligi yuqoridaq aytganlarimizdan ham ma’lumdir. Iroda bilan tafakkur mushohadasi hamkorligida bajarilgan har bir ish insonga faqat foyda keltiradi. Odam iroda talab qiladigan har bir ishni bajarishdan avval o‘ylab ko‘rmog‘i, obdon mulohaza qilib, tushunmog‘i zarur bo‘ladi. Bir maqsadga intilganda yo‘lda uchragan to‘sqliarni bartaraf qilishdan avval uning eng yaxshi chora va tadbirlarini o‘ylab topish, bu to‘sqliarni bartaraf qilish tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

¹ K.K. Platonov, G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O‘qituvchi», 1982-yil, 24-27 betlar.

12.2. Iroda orqali qilinadigan ish-harakatlar

Ongli ravishda iroda bilan qilingan har bir ish-harakatni bajarish uchun avval bu ish-harakatdan ko'zlangan manfaatlri maqsadni va bu maqsadga erishish choralarini tushunish shart ekanligini bilamiz. Buning ma'nosi shuki, odam bir ishga kirishishdan avval nima uchun bu ishni qilayotganini va uni qanday bajarishni tafakkurida o'ylaydi, mulohaza qiladi. Ya'ni avval uni o'z fikrida bajaradi. Fikrda bu ishni turli ehtimollarini mushohada qilishdan iborat bo'lgan murakkab psixologik jarayonlar ham bo'ladi. Ya'ni harakat qilish kerakmi yoki yo'qmi, qanday harakat qilmoq lozim, qanday yo'l yoki usullardan foydalanish kerak? Fikrda pishitilgan bu jarayonlar oxirida qarorga kelinadi. Qarorga kelingach, «fikr ishidan» amalda bajarish ishiga, ya'ni bu qarorni ijro qilishga o'tiladi. Demak, iroda kuchi bilan qilinadigan har bir ish-harakatda ikki bosqich mavjud bo'ladi.

Birinchi – tayyorgarlik bosqichidan iborat bo'lgan «Fikr ishi», buning oqibati qaror bo'ladi.

Ikkinci – oxirgi bosqichdan iborat bo'lgan «Amalda bajarish ishi» qilingan qarorning ijrosi deb ataladi. Bir ishni darhol kechiktirmay bajarish lozim bo'lganda qaror bilan uning ijrosi ketma-ket voqe bo'ladi, bunday qaror bevosita ijroga o'tadi. Shuni nazarda tutish kerakki, irodaviy harakatlar hech qanday sabablersiz o'z-o'zicha yuzaga keladigan harakatlar emas. Yaqin yillargacha ayrim Yevropa mamlakatlarining psixologlari irodani hech qanday sabab yoki maqsad bilan, hattoki organik jarayonlar bilan ham bog'liq bo'limgan va odamning xatti-harakatlarini erkin «boshqaradigan maxsus ruhiy kuch» deb tushuntirishga intildilar. Biz bunday psixologlarning iroda haqidagi g'ayri ilmiy ta'limotlarini fanda asossiz ta'limot sifatida tushunishimiz kerak. Iroda kishining butun fe'l-atvorida va xatti-harakatlarida aks etadi. Shuning uchun kishining irodasiga taalluqli alomatlar uning tabiatiga ham butunlay singib ketadi.

Shaxsning ijobiy xislat va fazilatlaridan biri irodasining mustahkamligidir. Irodaning kuchsizligi kishidagi eng salbiy psixo-fiziologik xususiyatdir. Irodasi zaif kishi boshlagan ishini oxirigacha yetkaza olmaydi. «Odamning hayotida murakkab

irodaviy omillar va ish-harakatlar bosh rol o'ynaydi. Odam buyum yasadi, imtihon topshirdi, suvga cho'kayotgan odamni qutqarib oldi – bularning hammasi murakkab irodaviy ish-harakatlardir. Odamning irodasi ayni shunday ish-harakatlarda namoyon bo'ladi. Irodaviy ish-harakatlar har xil: ijtimoiy va shaxsiy, jamoaviy va individual ko'rinishda bo'lib, mehnat, o'qish va o'yin jarayonlariga oid ish-harakatlarda namoyon bo'ladi. Murakkab irodaviy ish harakatlar tuzilishiga ko'ra uch bo'g'in: maqsad qo'yish, fikr rejalashtirish va uni amalga oshirish bo'g'lnlari bir-biridan farq qiladi. Bu bo'g'lnlearning har biri tahlil qilinsa, bir qancha psixik hodisalar ochiladi, o'qituvchi bularni o'quvchilarni irodasini to'g'ri tarbiyalash uchun bilishi zarur. Odamlarning o'z oldilariga ongli suratda qo'ygan maqsadlari zamirida ularning biror narsaga bo'lgan obyektiv ehtiyoji namoyon bo'ladi. Ehtiyoj moddiy va ma'naviy, to shaxsiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Ular kishilar ongida turli xil ehtiyojlar va motivlar tarzida namoyon bo'ladi. Xatti-harakat motivlari havas, xohish, hissiyot, qiziqish, e'tiqod va ongning bulardan bo'lak ifodalaridir. Ongli suratda tug'ilgan ehtiyojlar odam xatti-harakatlarining asosiy motivlaridir.

Mehnatga, bilimga, boshqa odamlar bilan munosabatda bo'lishga, shuningdek, moddiy va madaniy ehtiyojlar ilg'or kishilarga xos sifatdir. Maqsad qo'yish odamning shu maqsadga bo'lgan o'z motivlarini anglab olishi bilan bog'liqidir. Masalan, havas yaxshi anglab olinmagan niyat bo'lib, bunda odam biror narsaga yetishmay turganidan qattiq iztirob chekadi, lekin tug'ilgan niyatning nimaligini, ehtiyoj qondirishning maqsad va vazifalarini aniq tasavvur etolmaydi. Bunday motivlarning yolg'iz o'zi ta'sirida hali harakat sodir bo'lmaydi. Xohishning o'zi eng yaxshi anglangan motivdir. Bu bosqichda ehtiyoj va uni qondira olish mumkin bo'lgan narsa aniq anglab olinadi.

Maqsad aniqlangandan keyin uni amalga oshishi uchun fikran reja tuzib olinadi. Inson oldida endi yangi vazifalar paydo bo'ladi: maqsadga erishishning eng to'g'ri yo'lini topish qiyinchiliklarni yengish usullarini belgilash vazifasi turadi. Rejalashtirish uchun faol fikr yuritish, bilimni safarbar qilish, ish-harakat sharoitini tahlil qilish harakterlidir. Imkoniyatning

turlich bo'lishiga qarab insonning har xil variantlar belgilanadi. Faqat "motivlar kurashi" sodir bo'lib qolmay, balki "rejalar kurashi" ham sodir bo'ladi. Biroq har qanday ish-harakat uchun ham yo'l tanlash aslo majburiy emas. Hamma narsa qo'llaniladigan ish-harakatning xarakteriga bog'liq bo'ladi. Murakkab irodaviy harakatning ko'pchiligi yo'l tanlamay rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Puxta o'ylab ko'rmaslik, fikran rejalashtirishga e'tibor bermaslik bolalarga xos bo'lib, shoshma-shosharlik tufayli butun ish buziladi. Shuning uchun ham o'quvchilarni o'z ish-harakatlarini rejalashtirishga doimo o'rgatib borish lozim. Maqsad qo'yish va rejalashtirishning o'zi qanchalik muhim bo'lmasin, lekin ular faqat tayyorgarlik bo'g'inidir. Irodaviy ish-harakatda amalga oshirish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mana shuning uchun ham maqsadni va rejani amalga oshira biladigan odamlar irodali kishilar deyiladi. Tayyorgarlik bosqichida ish odamning to'siqlarga qarshi kurashisiz o'tmaydi. Lekin bu hol irodani ko'pincha katta sinovlariga darz keltirmaydigan ichki kurashdir. Inson o'z maqsadini amalga oshirayotib, qiyinchilik va to'siqlarga duch kelganida ish tubdan o'zgaradi. Bu qiyinchilik va to'sqinlik bilan to'qnashganda ba'zi bir kishilar bu kurashdan voz kechadilar, ba'zilar esa boshqa birmuncha yengil ishga o'tib oladilar va faqat irodali odamlargina ishni maqsadga muvofiq amalga oshirish uchun bu to'siqlarga qarshi kurasha oladilar.

12.3. O'quvchilar irodasini o'stirish

«Bola tayyor iroda bilan tug'ilmaydi. Iroda hayot jarayonida ancha sekin tarkib topib boradi. Lekin uning rivoji har bir bolaning yashagan muhiti va olgan tarbiyasiga bog'liq ravishda, uning barcha xususiyatlari bilan birlikda rivojlanadi»¹. Shuning uchun bola shaxsining irodasiga baho berilganda uning boshqa psixologik xususiyatlarini va yashagan ijtimoiy davri muhiti ham nazarga olinadi. Ma'lumki, iroda aniq bir maqsadga

¹ Psixologiya kursi. M. V. Gamezo tahriri ostida. –T.: "O'qituvchi", 1972-yil, 231-bet.

erishmoq uchun ongli qilinadigan harakatlardan iboratdir. Bunda biror narsani xohlash va shunga erishmoq uchun zo'r berib, rejali ravishda harakat qilish, ba'zi vaqtlarda esa motivlar kurashini kechirish kabi murakkab ruhiy holatlar yuz beradi. Yangi tug'ilgan bolada ham biz ma'lum faollikni ko'ramiz. Lekin uning bu faolligi ixtiyorsiz vujudga keladigan impulsiv, instenktiv harakatlardan iborat bo'ladi. Albatta, bu harakatlar tabiiy va qonuniy bo'lib, bolaning hayotiy faoliyatida vujudga keladi. Biroq bola o'zi bu ehtiyojlarni hali anglamaydi. Uning bu ehtiyoji kattalar yordami bilan qondiriladi.

Ioda, ayniqsa, maktab yoshida takomillashib boradi. Maktab o'quvchisi dars mashg'ulotlarini bajarishi uchun doimo qunt bilan va zo'r berishi kerak. Maktabdagagi tartib-intizom boladan doim o'zini tuta bilishlikni, uyushqoqlikni, qat'iylikni, o'z irodasini jamoa irodasiga bo'ysundirishni taqozo etadi. Maktabda o'qish kundalik vazifalarni o'z vaqtida bajarib borishlikni, tashabbuskorlikni, g'ayrat va javobgarlikni, boshlagan ishni oxirigacha yetkazishlikni talab qiladiki, bularning hammasi irodani tarbiyalashga, uni chiniqtirishga taalluqlidir.

Maktab yoshidagi bolalar axloq qoidalarini ongli o'zlashtira boshlaydilar. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarcha dunyoqarash shakllana boshlaydi. Shunga bog'liq ravishda matonat, odob, mardlik va onglilik kabi ma'naviy fazilatlar shakllanadi. Maktab jamiyatimizning yoshlari oldiga qo'ygan talabiga muvosiq ularni mustaqil Vatanimiz uchun xizmat qilishga o'rgatmog'i lozim. Yoshlari bu yo'lida har qanday qiyinchiliklarni yengishga tayyor ekanliklarini his qilsinlar.

Yuqori sinf o'quvchilari o'z kelajaklari istiqbolini o'ylab, kasb tanlaydilar. Ular kelajakda kim bo'lishlari haqida xayol surib, porloq va yuksak maqsadlarga intiladilar. Bunday orzu-xayol va havas ularda qat'iylikni, mardlikni, tashabbuskorlikni o'stirib, irodani mustahkamlashga yordam beradi. Mana shunday orzu-havas va yuksak maqsadlar yoshlarning ongini va ma'naviy fazilatlarini shakllantiradi, shu maqsadlarga erishish yo'lida, sevikli Vatan saodati uchun zo'r g'ayrat bilan ishlashga ilhomlantiradi.

Kishining qadru qimmati uning olijanob orzu-tuyg‘ularga to‘lib-toshib yurishida emas. Kishi o‘z g‘oya va maslaklari yo‘lida jon-tanini ayamasdan faol harakat qilganidagina o‘zining mustahkam irodasini shakllantirgan bo‘ladi. Mana shunday iroda va mardlikkina jamiyat o‘rtasida kishining qadru qimmatini, obro‘yini oshiradi.

Irodani mustahkam qilish uchun shaxs o‘zi g‘ayrat, shijoat ko‘rsatmog‘i lozim ekanligini esdan chiqarmasligi kerak. Buning uchun u o‘ziga tanqidiy qarab, irodasi qanaqa ekanligini tushunib olmog‘i zarur. Ammo mardlik, jasurlik, va mustahkam irodaning o‘zigina kisoya qilmaydi. Yana bilish, fan asoslarini puxta o‘zlashtirish ham talab etiladi. Shu sababli bilimning ahamiyatini, bilimsiz kishining jamiyatdan orqada qolishini, mehnati samarasiz bo‘lishini o‘quvchilarga yaxshi tushuntirib borish lozim.

Kishining irodasi bilan uning dunyoqarashi o‘rtasida juda qattiq bog‘lanish bor. O‘z printsiplarining to‘g‘riligiga ishongan dadil inson uni amalda ham ishlataladi va o‘z maqsadini ro‘yobga chiqarishga dadillik bilan intiladi. Bu printsiplar kishining har bir narsaga, atrofdagi hodisalarga va o‘z shaxsiga ham qay tarzda munosabatda bo‘lishini belgilaydi. Maktab o‘quvchisi o‘z printsiplarini butun mantiqiy to‘liqligi va amaliy izchillik bilan o‘ziga singdirib olmasa, keyinchalik unday o‘quvchining irodaviy salohiyati ham yaxshi shakllanmagan bo‘ladi.

12.4. Iroda sifatlari

Irodaga taalluqli eng asosiy sifatlar quyidagilardan iborat:

- a) irodaning mustahkamligi;
- b) o‘zini tuta bilish;
- v) intizomlilik.

Irodaning mustahkamligi. O‘tmishga fikran nazar solib, davrlar va voqealarни solishtirib, taqqoslab ko‘rsak, ko‘pincha, tarixan qisqa muddat ichida Mustaqil Respublikamiz kelajagi uchun naqadar katta yo‘lni bosib o‘tganimizni mamnuniyat bilan o‘ylaymiz. Ozod, mag‘rur, mustaqil fikrlovchi insonning erkin shakllanib vujudga kelishi jarayoni ham moddiy boyliklarning yaratilishi kabi ma’naviy-inqilobiy suratlar bilan

bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda naqadar o'qimishli, g'oyat bilimdon avlod yashamoqda. Yoshlarimiz bilimga naqadar tashna. Ular bilimlarni egallagani sari qaynoq hayotga, bilimga tashnaligi kun sayin oshib bormoqda. Ularning irodaviy matonati fe'l-atvorida va xatti-harakatlarida ham aks etmoqda. Darhaqiqat, milliy istiqlol davrida yashayotgan yoshlар bilim, tarbiya ma'naviyat sirlarini o'rganish sohasida cheksiz imkoniyatlarga ega. Ayni vaqtدا mazkur imkoniyatlar ma'lum darajada qiyinchiliklarni, yoshlarning irodasiga taalluqli ijobjiy xislat va fazilatlarni, irodaviy mustahkamlab boradi. Yoshlar murabbiysi oldida esa doimo, yaxshi ishni nimadan boshlash kerak? – degan muammoli savol turadi. Bu yoshlarning kelajak sari qo'yilgan birinchi qadam muammosidir.

Bu savolga aniq javobni biz prezidentimiz I.Karimov asarlaridan topamiz. «Jamiyatni sog'lom, ezgu maqsadlari sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishish uchun yoshlarga ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor – ma'naviy-ma'rifiy, maskuraviy tarbiyanı yüksak darajaga ko'tarish hozir eng dolzarb vazifa hisoblanadi». Prezidentimiz o'z asarlarida hayotni tushuntiradi, yashashni o'rgatadi, eng muhimi shundaki, Prezident asarlarida yoshlар oldida turgan muammolar to'g'ri talqin etilgan. Yoshlarni ezgu ishlarga safarbar etishda burch va mas'uliyatni anglashda tarbiya maktab vazifasini o'taydi.

Mustahkam iroda hamma vaqt ongli va aniq bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Maqsadning ravshanligi, ayniqsa, uning ijtimoiy hayotga, Milliy istiqlolimiz foydasiga qanchalik bog'liqligini anglash yoshlар irodasini mustahkam qiladi, g'ayratiga g'ayrat qo'shadi.

Kishining irodasi mustahkamligiga doir sifatlarga ta'rif berganda, bu sifatlarni: **birinchidan**, iroda bilan qilinadigan ish-harakatlarning motiviga tegishli bo'lgan sifatlarga; **ikkinchidan**, bir qarorga kelganda yuzaga chiqadigan sifatlarga; **uchinchidan**, qilingan qarorni ijro qilishga aloqador bo'lgan sifatlarga ajratamiz.

Qaror va harakatning ongliligi. Har bir ish va harakatda ongli bo‘lgan odam o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarining to‘g‘ri va muhimligiga qattiq ishonib, bunga qanoat hosil qilganligidan, har bir ishni o‘z bilganicha mustaqil bajaradi. Bunday odam irodasining mustahkamligi tufayli bir munkha barqaror qarash va e’tiqodlardan kelib chiqqan va yaxshi anglab yetgan tilaklarga qarab ish ko‘radi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, iordaning dadilligi uning mustahkamligidan darak beradi. Ya’ni dadillik deb, kishining fursatni o‘tkazmasdan, puxta o‘ylangan va zamini mustahkam qarorlar chiqarish qobiliyatini aytamiz. Iordaning mustahkamligi aslida irodaga oid bo‘lsa ham, lekin aqlning muayyan sifatlari bilan qattiq bog‘liqdir. Ya’ni dadil bo‘lish uchun aql juda tanqidiy bo‘lishi va shu bilan birga mustaqil ham bo‘lishi kerak.

O‘zini tuta bilish. Iordaning bu xususiyati ikki narsada ko‘rinadi.

Birinchidan, bir qarorga kelgach, bu qarorni bajarishga to‘sinqinlik qilib turgan qo‘rquv, dangasalik, uyatchanlikni yengib, vazifani bajarish uchun o‘zini majbur qila olish. Turmushda iroda quvvati deb, iordaning ko‘proq shu sifatini aytamiz. Kishida o‘zini tuta bilish uchun iroda quvvati bo‘lmasa, mardlik, jasurlik, haqqoniylik kabi tuyg‘ular bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, nomatlub tuyg‘u va g‘alayonlarni tashqariga chiqarmasdan va impulsiv harakatlarga yo‘l qo‘ymasdan o‘zini tuta bilishdan iboratdir. Iordaning bu tomoni bardosh va o‘zini tuta bilish holati deb ataladi. Yuksak g‘oya va maqsadlar uchun kurash yo‘lida jismoniy va ruhiy zo‘r berishgina emas, balki ko‘p azob va mashaqqat chekishga ham to‘g‘ri keladi. Inson doimo chidamli, sabr-bardoshli, o‘zini tuta biladigan qibiliyatga ega bo‘lishi kerak. Chidamli bo‘lish irodali bo‘lish demakdir, o‘zini tuta bilmagan kishi tasodifan paydo bo‘lgan tuyg‘ularga berilib ketadi. Muayyan bir g‘oyaga va printsipga rioya qilmasdan, beqaror va ruhan betayin odam bo‘ladi.

Intizomlilik. Bu eng muhim irodaviy sifatdir. Inson shu tufayli qonun va mehnat normalariga muvofiq harakat qiladi. Shaxsiy maqsadlarni jamoa, xalq manfaatiga uyg‘unlashtirish bilan belgilanadigan iroda *intizomiy tarbiyalangan iroda* deyiladi. U o‘quvchi shaxsining barcha ma’naviy sifatlari, birinchi

navbatda, ijtimoiy burch hissi, onglilik va vijdon hissining yuksak shakllanganligi bilan birgalikda ko'rinadi. «Intizom odam o'ziga xush yoqadigan biror narsani qilayotganda emas, balki odam birorta og'irroq ishni bajarayotganida namoyon bo'ladi. U bu ishni butun jamoa uchun hamda butun davlat uchun zarurligi va foydaliligiga ishonganligi uchun qiladi»¹.

Emotsional-irodaviy doiraning mehnatda shakllanishi o'quvchilarни kelajakdagi kasb faoliyatlariga psixologik tayyorlash yo'llaridan biridir. U mehnatga faol munosabatni, mehnat qilish irodasi va kasblarga qiziqishni shakllantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchi shaxsining irodaviy sifatlari ularning professional qobiliyatlarini vaqtincha psixologik safarbar qilish imkoniyatiga ham bog'liqdir. Intizom malakalari bu irodaviy malakalardir. Shuning uchun malakalarning barcha qonuniyatlaridan foydalanib, ularni o'rgatish lozim. Biroq intizomlilikni ma'naviy tarbiyalangan irodaning xarakter-xislati darajasigacha ko'tarilgan yagona tizimga qo'shib tarbiyalash ham zarur. Professional qobiliyatlarini shakllantirishda o'quvchi shaxsining barcha boshqa sifatlari singari uning irodasini doimiy tarzda mashq qildirishdan boshlash kerak. Bunda o'quvchining irodaviy sifatlarini har xil faoliyat turlaridagi xususiyatlarini o'rganishga tayaniladi.

O'quvchilarda irodaviy sifatlarni tarbiyalashning asosiy yo'llari quyidagilardan iborat bo'llishi shart:

- siyosiy ongini shakllantirish, jamoada vijdonan va muvaffaqiyat bilan unumli mehnat qildirish hamda jamiyat ishida faol ishtirok ettirish bilan jamiyat uchun foydali ehtiyoj va axloq motivlarini o'stirish;

- puxta bilim olishi, malaka va ko'nikmalarni nazariy va amaliy ishlab chiqarish ishlari vaqtida o'ziga xos muammoli vaziyatlarni yaratish, ularni adashmay amalga oshirish.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Iordaning ta'risini tushuntirib bering.

2. Iroda orqali qilinadigan xatti-harakatlar bilan boshqa harakatlar farqini tushuntiring.

¹ Макаренко А.С. Соч. т. -Москва: Изд. АПН. РСФСР, 1958, стр 37.

3. O'quvchilar irodasini o'stirishda qanday usullardan foydalaniлади?
4. Iordaning sifatlariga nimalar kiradi?

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati:

1. E.G'oziyev. Umumiy psixologiya. 1-kitob. –Toshkent: 2002.
2. E.G'oziyev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
3. K.K. Platonov, G.G Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
4. P.I. Ivanov. Umumiy psixologiya. –Toshkent: 1967.
5. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982.
6. L. Beknazarov, A. Jabborov. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligining psixologik xususiyatlari. –T.: «Fan», 2008-y., 124-bet.

TEMPERAMENT

13.1. Temperamentning qisqacha ta'rifi

Insonda uning ruhiy olamiga mansub aql-idrok, tuyg'u, hissiyot va iroda sifatlari bor. Ammo bularning hammasi turli yoshdagi kishilarda turlicha ko'rinadi. Bir xil odamlarning tafakkur mushohadasi o'tkir, idroki tez bo'lib, harakatlari chaqqon, g'ayratli, hissiyotlari kuchli va mazmundor bo'ladi. Bunday odamlar har narsadan juda tez ta'sirlanadilar, har qanday ta'sirotlarga juda tezlik bilan harakat qiladilar. Ba'zi odamlar esa aksincha, harakatlari sust bo'lib, hissiyotga unchalik berilmaydilar, g'ayratsiz, hafsalasiz, lanj va harakati zaif bo'ladilar. Demak, kishilar hissiyotga berilish va harakat (reaktsiya)larning tezkorlik darajasi bilan ham bir-biridan farq qilar ekan. Bu farqlar, odatda, kishining temperament (mijoz) deb ataladigan individual xususiyatlarining ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xullas, temperament insonning psixofiziologik faoliyatida nerv sistemasi tipining tashqi va ichki ko'rinishidir. Yuqorida aytganimizdek, shaxsdagi nerv jarayonlarining kuchi, muvozanatli va harakatchanligi bilan namoyon bo'luvchi individual psixologik xususiyatlarning aynan ko'rinishidir. Temperamentning fiziologik asosi tarzida nerv sistemasining tiplarini bu ta'limotning asoschisi I.P. Pavlov xuddi shunday tushungan. So'nggi yillarda insonning tipologik xususiyatlarini o'rganish asosida yana nerv sistemasining ikki xossasini farqlash taklif etilgan: shartli reflekslarning tashkil topish tezligini belgilovchi uning *dinamikligi*; qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining paydo bo'lishi va barham topish tezligini belgilovchi *labillikdir*. Biroq, bu ishlar hali temperamentni tushunishni aniqlashda amaliy jihatdan qo'llanilgan emas. Insonning miyasi yaxlit bir narsa tarzida ishlaydi, uni taskil etuvchi hujayralar esa o'zaro vazifalariga ko'ra markazlarga bog'langan. Nerv markazi bu miya qobig'ining alohida bo'lakchasigina emas, balki vazifalarning

o'zaro ta'sirida bo'lgan ana shunday bo'laklardan bir qanchasining yig'indisi hamdir. Alovida bir neyronda, ya'ni nerv hujayrasining butun bir gruppasida, ya'ni nerv markazlarida ikki qarama-qarshi faol jarayon *qo'zg'alish va tormozlanish* o'zaro murakkab ta'sirida sodir bo'ladi. Bunda miya uchastkalaridagi qandaydir bittasining qo'zg'alishi boshqa uchastkalarning tormozlanishiga olib keladi.

«Mazkur nerv sistemasi uchun xarakterli bo'lgan qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kuchi, muvozanati va harakatchanligi xususiyatlarining birikmasi nerv sistemasining tipini belgilaydi.

Nerv sistemasining yorqin ifodalangan to'rtta tipini uchratish mumkin. Ulardan biri kuchsiz qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining zaifligi bilan xarakterlanadi. U *melanxolik* temperamentiga mos keladi. Qolgan uch tip kuchli hisoblanadi. Ulardan biri o'zini tutolmaydigan, muvozanatlash-magan bo'lib, *xolerik* temperamentiga to'g'ri keladi.

Qolgan ikki tipda qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kuchli va vazmin bo'lishi bilan xarakterlanadi, lekin ulardan biriga nerv jarayonlarining kam harakatchanligi xosdir. Bu tip *inert* deyladi va bu *flegmatik temperamentga* mos keluvchi deb hisoblanadi»¹.

Ikkinci kuchli tip sangvinik temperamentiga mos keluvchi jonli tipda qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari kuchli, vazmin va shu bilan birga yengil harakatchandir. Nerv sistemasi va temperamentining o'zaro nisbati 20-jadvalda ko'rsatilgan.

Hammasidan ko'ra 21-jadvaldagagi singari koordinat sistemasida to'rt temperamentni joylashtirgan ma'qul. Nuqtaning boshlanishida kuchli, vazmin, serharakat sangvinik yotadi, qolgan barcha temperamentlar esa o'zlaridan nerv sistemasi tipining uch koordinati belgilari ifodalanganligiga ko'ra undan uzoqlashadi. Lekin nerv sistemasi tipi va temperament tushunchalarini aynan tenglashtirish mumkin emas. Birinchisi, fiziologik tushuncha; temperament esa psixologik tushunchadir. Inson

¹ K.K. Platonov. G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-yil, 41-42 betlar.

organizmidagi nerv sistemasining tipi shaxsning temperamentti sifatida namoyon bo'ladi.


20-jadval

Nerv sistemasi tiplari va temperamentlarining o'zaro nisbati

Nerv jarayonlarining xususiyatlari	Nerv sistemasining tipi	Kuchlilar			Kuchsiz
		O'zini tutolmaydigan	Serg'ayrat	kamharakat	
Kuchli muvozanat-chanlik harakatchanlik	Kuchli muvozanat-lashgan Harakatchan	Kuchli muvozanat-lashgan Harakatchan	Kuchli muvozanatlashgan kamharakat	Kuchsiz muvozanat-lashmagan kaimharakat	
Temperament	Xolerik	Sangvinik	Flegmatik	Melanxolik	

21-jadval

Temperamentning psixologik koordinatlari



«Temperamentlardagi farqlar ko'pgina avlodlarning hayotiy tajribalari asosida belgilangan va albatta, hamma vaqtida ham bir xil tushunilgan emas, hozirgacha ham shunday. Temperament bu dinamik-psixik jarayonlar yordamida insonning shaxsini aniqlaydigan individual xususiyatlardir»¹ U insonning tashqi ta'sirlarga psixik reaktsiyasining tezligi va kuchi bilan belgilanadi (Bu yerda psixik reaktsiya deyilganda faqat harakatlantiruvchi emas, balki emotsiyal-psixik reaktsiyalar ham tushuniladi. Bu 22-jadvalda ko'rgazmali berilgan).

¹ Мерлин В. С. Очерки теории темперамента. -М.: «Просвещение», 1964 г.

Temperament	Reaksiyalar	
	Tezlik	Kuch
Sangvinik	Tez, sekin	O'rtacha
Flegmatik	Tez, sekin	Haddan tashqari
Xolerik		Kuchli
Melanxolik		Kuchli

Shunday qilib, temperamentning xususiyatlari kishining yuz ifodalari, qanday qadam tashlab yurishi va boshqa harakatlari, nutqi va shu kabilarda aks etadi. «Kishilar to‘g‘risida «Jo‘sinqin», «Sho‘x», «Qizg‘in» tabiatli yoki «Yuvosh», «Og‘ir», «Lapashang», «Dangasa» deb baho berar ekanmiz, bu so‘zlar ning hammasi temperament (mijoz) xususiyatlariga tegishlidir. Kishining bu psixologik sifatlari uning faoliyatidan uzligan bo‘lmaydi, aksincha, uning fikr yuritishida, diqqati va irodasida, xullas, butun fe'l-atvorida o‘z ifodasini topadi. Temperament yoki mijoz deyilganda, bir kishini boshqa kishilardan farq qiladigan xususiyatlarini tushunamiz»¹. Shunday bo‘lgach, har qanday shaxsning o‘z individual mijozи bor. Ammo bundan qat’iy nazar, temperament xususiyatlari bir-biriga o‘xshagan odamlar ham uchraydi. Shu sababli eng ko‘p uchraydigan va ko‘zga tashlanadigan xususiyatlarini e’tiborga olib, temperamentni qadim zamonlardan buyon to‘rt tipga ajratib keladilar. Quyida temperament tiplarining psixologik xarakteristikasiga to‘xtalib o‘tamiz.

13.2. Temperament turlari

Xolerik temperamentli odam tez, shiddatkor, ishga nihoyat kuchli havas bilan berilishga qobiliyatli, lekin vazmin emas, ildam va chaqqon, hissiyotlari tez va kuchli qo‘zg‘aladi va gapida, harakat va imo-ishoralarida mazmun juda ravshan ifoda qilinadi, hissiyotlari birdan qo‘zg‘alib, jo‘sh urib ketadi.

¹ И.П.Павлов. Полн. Собр. Соч. 3 т. 2-книга –М.: 1951 г. стр 85.

Xolerikning sangvinikdan farqi shuki, nerv jarayonlarida muvozanatlashganlikning yo'qligidir. I.P. Pavlov xolerik temperamentli kishining qiyofasini ta'riflar ekan, bu «jangovor, jo'shqin, oson va tez ta'sirlanadigan tip» deb yozadi. Mashhur pedagog A.S. Makarenko ham «Pedagogik poema» nomli kitobida koloniyada yashagan qizlardan biri haqida shunday deb yozadi: «U ichib mast bo'lardi-da, bir daqiqaning ichida do'stlik, muvaffaqiyat, yaxshi kun, osoyishtalik va nash'ali oqshom, yaxshi orzu-niyat yoki porloq umidlar kabi eng yaxshi narsalarni poymol qilib tashlar edi»¹.

Sangvinik temperament. I.P. Pavlov uni shunday deb ta'riflaydi. «Sangvinik qiziqqon, mahsuldor shaxsdir, lekin u ko'p va qiziqarli ishlar mavjud bo'lsagina, ya'ni doimiy qo'zg'alish paytidagina shunday bo'ladi. Agar bunday ishlar bo'lmasa, u noxush, lanj bo'lib qoladi»².

Sangvinik temperament hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Ularning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez-tez almashib turishi mumkin. Sangviniklardagi psixik jarayon, xoleriklardagi singari tez o'tadi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serharakat va jo'shqin bo'ladilar. «Sangvinik temperamentli kishilar tevarak-åtrofidagi voqealardan tez ta'sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko'ngilsiz hodisalar uncha qattiq xafa qilmaydi. Ular ko'p ishga tez va g'ayrat bilan kirishadilar, lekin ishdan tez soviydarlar. Bir zayildagi ishlarni uzoq, davomli sur'atda bajarishni moyil bo'lmaydilar. Ular har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor bo'ladilar. Ko'pincha bir qancha vazifalarni birdaniga bajarishga bo'yinlariga oladilar. Lekin har bir ishga ishtiyoq bilan tez kirishganliklari singari, boshlagan ishlaridan tez qaytishlari ham mumkin. Sangvinikda qat'iy maqsad, chuqur fikr, ijodiy faoliyat bo'lmagan taqdirda unda yuzakilik va beqarorlik paydo bo'ladi. To'g'ri tarbiya sharoit-

¹ A.S. Makarenko. Pedagogik poema. –O'zdavnashr, 1956-y., 282-bet.

² P.I. Ivanov. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 467-b.

larida sangvinikda chaqqonlik va mehribonlik, keng bilim doirasi, eruditsiya (aql) yengillik bilan tarkib toptiriladi. Yuqori reaktivlik, besabab haholab kulish, diqqatni tez to'plash, uzoq vaqt ishlab charchamaslik kabi fazilatlarga ega»¹.

«Melanxolik temperamentli odamning hissiyotlari uncha rang-barang bo'lmaydi, lekin bor hissiyotlari kuchli bo'lib, uzoq davom etadi; bu xil odam **har narsadan ta'sirlanavermaydi**, toqatli bo'ladi, lekin bir narsadan ta'sirlansa qattiq ta'sirlanadi, ammo tashqi alomatlarda ifoda qilmaydi. Odatdagi sharoitda **har bir temperament o'z ustunligi** va kamchiliklariga ega. Jumladan, yaxshi tarbiya berilganda hamda o'z-o'zini nazorat qilganda sangvinikka o'ta sezgirlik, atrofdagi voqealarga hozirjavoblik xos. Flegmatikka sabot va o'zini idora qila olishlik, shoshma-shosharlik, bemulohaza harakatlarning bo'lmasligi xos. Xolerikka ishda chaqqonlik, shiddatlilik, faollikning juda katta zaxirasi xos; melanxolikka tashqi jihatdan aytarli sezilmas darajada chuqur kechinmalar, yangi emotsional xayrixohlik, nihoyatda kuchli ta'sirchanlik xos.

Temperamentdagi kamchilik **ba'zi** hollarda nuqson sanalishi mumkin: sangvinikdagi yuzakilik, beqarorlik, nojiddiylik; flegmatikdagi «beti qalinlik», xususan, boshqalarga nisbatan befarqlik, quruqlik; xolerikdagi birdaniga portlash, jazavaga tushish; melanxolikdagi pismiqlik va tortinchoqlik.

Flegmatik temperamentli odamning harakatlari sust, o'zi og'ir-vazmin va yuvosh bo'ladi; uning hissiyoti hadeganda qo'zg'alavermaydi, butun harakatlari salmoqli, o'zi bosiq bo'ladi; hissiyotlarning tashqi ifodasi juda kuchsiz bo'ladi. U **hamisha** xotirjam, ishda va xatti-harakatlarda vazmin, hamda **xulq-atvorda** sabotli va tirishqoq. Uning sustligining o'rnnini ishga bo'lgan serhafsalaligi bilan to'ldirish mumkin. Shuning uchun u bemalol sermahsul ishlashga qobil kishi. Insonning ijtimoiy to'laqonliligi uning temperamenti bilan belgilansligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Shunga qaramasdan, nerv sistemasi tipining mutlaqo o'zgarmaydigan bir narsa

¹ И.П.Павлов. Пол. Соб. Соч. 1-том. Издательство ПФА. -М.: 1957. стр 254.

emasligini biz yuqorida aytib o'tgan edik. Temperament ham mutlaqo o'zgarmaydigan narsa emas. Ko'pincha kishining yoshi ulg'aygan sari, turmush tajribasi oshgan sari temperamenti ham o'zgaradi. Lekin temperament, kishining alohida psixik xususiyatlari jumlasidan bo'lib, har holda ancha barqaror bo'lgan bir sifatdir.

Hamma odamlarni shu to'rt asosiy temperamentga qarab to'rt xilga ajratsa bo'ladi, deb o'yash xatodir. Bu temperamentlar yolg'iz bir guruhga mansub bo'lgan kishilar juda oz. Ko'pchilik odamlarda bir necha temperamentning ayrim tomonlari qo'shilgaqini ko'ramiz. So'ngra, bir odam turli sharoitda va faoliyatning turli sohasida turli temperamentni namoyon qiladi. Shuning uchun temperamentlarning qaysisi yaxshi, qaysisi yomon, degan tarzda masala qo'yib bo'lmaydi. Yuqorida aytganimizdek, har qaysisining ma'qul va noma'qul tomonlari bor. O'z temperamentining yaxshi tomonlaridan foydalinish uchun kishi o'zini qo'lga olib, idora eta bilishi kerak. O'z temperamentining yaxshi va yomon tomonlarini anglash va ularni o'z irodasiga bo'ysundirib, idora qilishga o'rganish kishining o'z xarakterini tarbiyalashga doir vazifalarning eng muhimlaridan biridir.

13.3. Temperamentning fiziologik asoslari

Yuqorida har bir temperamentga berilgan qisqacha ta'rifdan uning fiziologik asosini ma'lum darajada tushungan bo'lsakda, temperamentning tarixi, uning fiziologik, psixologik xususiyatlarining fanda kashf etilishi haqida aniqroq ma'lumot bersak foydadan xoli bo'lmas.

Shunday qilib, temperament to'g'risidagi ta'limot dastlab qadimgi Yunonistonda maydonga kelgan. Temperament to'g'risida o'z fikrini bildirgan birinchi olim qadimgi Yunon tabibi Gippokrat edi (miloddan avvalgi V asr). Gippokrat ta'limotiga ko'ra, odam tanasida to'rt xil suyuq modda bo'lib, ular safro (yunoncha *xole*), qon (lotincha *sanguis*), qora o't (yunoncha *melayna xole*) va balg'am (yunoncha *flegma*)dan iborat. Shu moddalardan biri odamda ko'proq bo'lib, u nisbatan ustun turadi va muayyan temperament tipini, ya'ni odamning

mijozini belgilaydi. Chunonchi safro g'olib bo'lsa, xoleriklar tipi, qon g'olib bo'lsa, sangviniklar tipi, qora o't ustun bo'lsa flegmatiklar tipi belgilanadi. Shunday qilib, tanadagi bu moddalarning bir-biriga mutanosibligi mijozning qandayligini belgilar emish. Bu moddalarning bir-biriga mutanosibligini Gippokrat «Krasis» deb atagan. Keyin bu so'zni lotin tiliga tarjima qilib «Temperamentum» deb ataganlar. Bu ikki so'z «aralashma» degan ma'noni bildiradi.

Qadimda foydalanilgan bu atamalar hozirga qadar saqlanib kelmoqda. Ammo odamning mijozini nima belgilaydi, ularning bu jihatdan farqlanishiga nima sabab, degan muammoga Gippokrat ham, o'rta asrlardagi olimlar ham, shuningdek, Yevropa olimlari ham to'g'ri javob topolmadilar. Gippokratning tarixiy xizmati shundan iboratki, u odamlarning mijozini haqida bиринчи bo'lib tushuncha berdi va buning fiziologik (moddiy) asoslarini aniqlashga urindi. Lekin temperament va uning fiziologik asoslari haqidagi chinakam ilmiy ta'limotni akademik I.P. Pavlov yaratdi. I.P. Pavlovning ta'limotiga ko'ra, temperamentning fiziologik negizi nerv sistemasi va uning faoliyatidir. Pavlov tomonidan hayvonlar ustida tajriba yo'li bilan aniqlangan bu nerv tiplari mijozning organik, fiziologik asoslarini tushuntirib berishga imkon yaratdi. Demak, temperament xususiyatlarini belgilovchi eng asosiy sabab nerv sistemasi faoliyatining qaysi tipda bo'lisligidir. Biroq, nerv sistemasidan tashqari organizmdagi boshqa fiziologik jarayonlar, jumladan, ichki sekretsiya bezlari temperamentni belgilaydi, deyishga asos bo'ladigan ilmiy faktlar bor. Shunga asoslanib aytish mumkinki, temperament kishidagi fiziologik va psixologik xususiyatlарига yig'indisidir. Biroq, temperamentning psixologik sifati shaxsning umumiyligi shakllanishiga, yashagan muhitiga va olgan tarbiyasiga bog'liqdir. Shaxsning temperamentiga bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlari, asosan, psixik jarayonlarning qo'zg'alish tezligi, shaxsning hissiyotga berilish darajasi va uning amalda qanday yuz berishidan iborat.

13.4. Temperamentni tarbiyalash va rivojlantirish

Yuqorida aytganlardan, albatta, temperamentning barcha xususiyatlari qanday belgilangan bo'lsa, shundayligicha qolaveradi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Istalgan fiziologik funktsiyalarni shakllantiradigan darajada takrorlash organizmning biologik adaptatsiyasini ta'minlagan holda, qisman nerv jarayonlarining xususiyatlarini ham o'zgartirishi mumkin. Odam agarda o'zi istasa, temperamentga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlarni bosishi, o'z temperamentini qo'lga olishi mumkin. Bu narsa uning ongi va irodasiga bog'liq bo'ladi. Albatta, kishi o'z temperamentini tamomila yo'qotib yubora olmaydi, lekin uni idora qiladi va o'zgartira oladi.

Akademik Pavlovning aytishicha, hatto temperamentning organik negizlari ham o'zgarmaydigan narsa emas. U nerv sistemasining faoliyati «turmush tarbiyasi ta'siri bilan» o'zgarishi mumkinligini isbot qildi. O'z temperamentningi va boshqalar temperamentini rivojlantirish uchun, albatta, uning yaxshi va yomon tomonlarini ayira bilish, yaxshilarini kuchaytirish, yomonlariga yo'l qo'ymaslik kerak. To'rt xil temperamentdan qaysisi eng yaxshi, deb savol berish noto'g'ridir. Bularning har qaysisi yaxshi va yomon, ijobiy va salbiy xususiyatlardan tarkib topadi. Chunonchi, xoleriklardi jo'shqinlik, faollik, g'ayrat va epchillik; sangviniklardi serzavqlik, harakatchanlik, xushchaqchaqlik, tetiklik; melanxoliklardi chuqur va barqaror hissiyot; flegmatiklardi vazminlik – bularning hammasi ijobiy xususiyatlar bo'lgani kabi, o'zini tuta olmaslik, serjahl va qo'pol, hovliqma, shoshma-shosharlik xolerik bilan sangviniklarning yomon xususiyatlariadir. Har qaysi temperamentni ham yaxshi, ham yomon desa bo'ladi. Ammo temperamentni rivojlantirish va tarbiyalashdan maqsad shu tabiiy moyilliklarning hammasini barobar kuchaytirish emas, albatta. Gap bu xususiyatlarni aniqlab, ayira bilishda, ya'ni ularni e'tiborga ola bilishda va shu asosda yaxshi va ijobiyalarini rivojlantirishdadir. Temperamentning yaxshi tomonlarini o'stirishda eng muhim kishi *irodasini* mustahkamlashdir. Ammo irodani mustahkamlash uchun eng muhim kishiga g'oyaviy-

siyosiy, ma'naviy tarbiya berish, milliy istiqlol tushunchalarini uning ongiga singdirish, boshqacha aytganda, mustahkam va ijobiy xarakterni tarbiyalashdir. Temperament o'z holicha bunga to'sqinlik qilmaydi. Ularning barchasi tarbiyaga, shaxsning xohishiga, uning g'oyaviyligiga, qanday maqsad bilan yashashga bog'liqdir. Demak, ijobiy xislatlarga va fazilatlarga temperament ma'lum rang bersa ham, ularning mazmuni va yo'nalishini belgilamaydi. Shuning uchun tajribali pedagog o'quvchilarning temperamentiga xos xususiyatlarini, albatta, nazarga olib ish qiladi, ularni o'z temperamentini idora qila bilishlikka o'rgatadi va asosan ularning xarakterini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Chunki u temperamentning kishi xarakterining tarkibiy va zaruriy tomoni ekanligini tushunadi. Demak, odamda temperament emas, balki ijobiy xarakter g'olib bo'lmog'i kerak. Temperament xarakterning faqat organik asosidir, ammo uning mazmuni emas.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Temperamentni ta'riflab bering.
2. Temperamentning turlarini bir-biridan farqlang.
3. Temperamentni tarbiyalash yo'llari haqida shaxsiy fikringizni aytung.
4. Temperamentdan xarakterni farqlang.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. **Б.С. Мерлин.** Очерк теории темперамента. –М.: «Просвещение», 1964.
2. **И.П. Павлов.** Общие типы высшей нервной деятельности животных и человека. Книга II. –М.: 1951.
3. Psixologiya kursi. M.V. Gamezo tahriri ostida. –Toshkent: «O'qituvchi» nashriyoti, 1972.
4. **E. G'oziyev.** Umumiy psixologiya. 2-kitob. –Toshkent: 2002.

XARAKTER

14.1. Xarakter to'g'risida umumiy tushuncha

Xarakter deganda shaxsda mehnat va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida, psixologik nuqtai nazardan qaraganda, uning temperamenti, qobiliyatiga xos individual xususiyatlarini tushunamiz. Shaxsning muhim tomonlaridan biri uning xarakteridir, chunki xarakterga tegishli xususiyatlar shaxsning asosiy hayot mazmunini, barcha psixologik sifatlarining mukammal faktorlarini o'z ichiga oladi. «Xarakter» degan so'zning «qalqiq chiziq», ya'ni ravshan ko'rindigan «bo'rtma chiziq» degan yunoncha so'zdan kelib chiqqani ham beziz emas. Shaxsning psixologik xislatlarini o'rghanishda xarakter asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Jumladan, xarakterning mohiyati va ta'rifi, xarakter bilan boshqa psixologik xususiyatlar orasidagi munosabat, xarakterning tuzilishi va ko'rinishi, xarakterning rivojlanishi... Yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan, milliy g'oya, istiqlol mafkurasi bilan qurollangan, yuqori saviyali barkamol avlod shaxsidagi xarakter-xislatlarini tarbiyalash hozirgi zamon psixologiyasi zimmasiga yuklatilgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

Mardlik, insof, g'ayrat, shijoat, jasorat, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, qo'rqoqlik, dangasalik, nomardlik, yolg'onchilik, beburdlik, maqtanchoqlik – bularning hammasi kishining butun aft-angoriga, fikru zikrining nimaga yo'naliishiga, qisqa qilib aytganda, shaxsning xarakterini belgilovchi ruhiy qiyofasiga alohida rang beruvchi doimiy xulq-atvor manbaidir. Kishining tasodifiy, kutilmaganda uchrab qolgan holatini xarakter tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Ma'lum bir sharoitda aniq maqsad bilan doimiy tusda ko'rindigan xususiyatlarga xarakter xislatiga taalluqlidir. Masalan, og'ir, andishali, salohiyatli, vijdonli odam bir xato qilib qo'ysa, biz buni uning uchun tasodifiy hol deb aytamiz, ammo shoshma-

shosharligi bilan hammaga ma'lum bo'lgan bir odam xato qilsa, bu narsa uning xarakterini, fe'l-atvorini belgilaydi, deb bilamiz. Prezidentimiz I.Karimovning ko'p marta ta'riflab aytganidek: «O'zbek xalqining ma'naviy xarakteri tarkibiga aqli rasolilik, zakovat, salohiyat, mehnatkashlik, mehmonnavozlik, sabr va matonat kabi xarakter xislatlari kiradi». Bunday xislatlar mehnatkash o'zbek xalqining mehnat faoliyatida, tevarak-atrofdagi muhitga va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida doimo ko'rinadigan xarakter xislatlaridir. O'zbekistonga kelib, uning xalqi, madaniyati, mentaliteti bilan tanishgan ko'pgina chet elliq siyosiy arboblar, ishbilarmonlar, yozuvchi va shoirlar O'zbek xalqining favqulodda quvnoqligi, xushmuomalaligi, kamtarinligi, sofдilligini do'stona xarakter xislatidan, deb ta'kidlab o'tadilar. Demak, kishining xarakterini uning dunyoqarashida, boshqa odamlarga bo'lgan munosabatida, e'tiqod va insoniy salohiyatida, ruhiy kamolotida ham ko'ramiz. E'tiqodi mahkam bo'lmaygan kishilarning xarakteri aslo mustahkam bo'lmaydi, bunday odamlar ko'pincha vaziyatga, tasodifiy holatga qarab ish ko'radilar. Shunday beqolip, betayin kishilar ham borki, ular yaxshimi yoki yomonmi, mardmi yoki qo'rkoqmi, xalq tarafdorimi yoki xalq dushmanimi – ularning kimligini qanday xarakterga mansubligini aytib bo'lmaydi. Xarakter inson psixik holatining barcha tomoni bilan bog'liqdir. Agar kishining aqliga, hislariga, irodasiga zid xususiyatlari uning ruhiy olamiga, fe'l-atvoriga, qiliqlariga ta'sir qiladigan, xulqini belgilaydigan darajada muhim o'rinn olsa, ushbu holda kishining bu xususiyatlari ham xarakterga oid xususiyatga aylanadi. Har narsaga razm solish, kuzatish, aqlning tanqidchiligi kabi alomatlar ko'pchilikning tafakkuriga, idrokiga oid psixologik xususiyat bo'lmay, balki uning shaxsiyatiga xos muhim xususiyatlardir. Shunday qilib, xarakter deyilganda, insonda ma'lum darajada va doimiy qolipga kirib, ancha mustahkamlanib qolgan xislatlar yig'indisini tushunamiz.

I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –Toshkent: «Ma'naviyat», 2008-y., 18-bet.

14.2. Xarakter xislatlari

Shaxsning xarakteri tarkibiga kira digan xususiyatlar xarakter xislatlari deyiladi. Xarakter xislatlari shaxsda tasodifiy uchraydigan alomatlar bo'lmasdan, balki shaxsning psixikasidagi doimiy xususiyatlar, ya'ni shaxsning tabiatiga singib ketgan xususiyatlardir. Xarakter xislatlari shaxsning fe'l-atvorida, uning barcha ish faoliyatida ko'rindi. Shuning uchun har bir insonning ruhiyatini bilmox uchun uning xatti-harakatlarini o'rganish zarurdir. Xarakter va uning xislatlari shaxsning asosiy psixologik xususiyatlari bilan bog'lanadi. Shu sababli iroda, hissiyot va aql-farosatda ko'rindigan xarakter xislatlari, ya'ni xarakterning shu uchta psixologik tomoni alohida ajratilib o'rganiлади.

1. Iroda bilan bog'liq xarakter xislatlari.

Bunda biz xarakterning ijobiy va salbiy xislatlari, avvalo, shaxsning irodasiga bog'liq xislatlarini ko'ramiz. Iroda bilan xarakter o'rtasida shunday qattiq bog'lanish borki, ko'pincha bu ikki tushunchani bir ma'noda ishlata dilar. Lekin bu to'g'ri emas, chunki bular har qaysisi o'z belgilari va mazmuniga ega bo'lgan psixologik tushunchalardir. Ammo yuqorida biz xarakter kishining faolligini ko'rsatadi, degan edik. Faollik esa, avvalo, irodaga bog'lanadi. Shuning uchun irodani xarakterning o'zagi deb hisoblashadi. Bularning barchasi xarakterning eng muhim bo'lgan va kishining psixikasiga ma'lum bir tus beradigan sifatlardir. Masalan, o'z printsipiga sodiqlik, boshlagan ishida sobitqadamlilik, mardlik, jasorat, vijdonlilik, intizomlilik kabi muhim sifatlar kishining butun ruhiyatiga ma'lum bir tus bergen va xarakterning eng umumiy bo'lgan xususiyatlaridandir. Irodaga bog'liq bo'lgan xislatlar, ya'ni ixtiyoriy paydo bo'ladigan xislatlar o'z temperamentini idora qila bilishda ko'rindi. Bunday odamlarning xarakterida irodalilik ustunlik qiladi, ular jur'atli, barqaror, chidamli, matonatli, mard bo'ladilar. Irodali xarakterga ega bo'lgan kishi tetik, dadil, o'z kuchiga ishonadigan, maqsadni yaxshi tushunadigan, mustaqil va sabotli odam bo'ladi. Bularning so'zi va ishi bir-biriga mos keladi.


Irodasi zaif kishining xarakteri bo'sh bo'lib, ularda ixtiyorsiz paydo bo'ladigan hissiyot, istak, tilak va mayllar ustun chiqadi,

ular o'zini tuta olmaydi, xususan, sangvinik yoki xoleriklar tipidan bo'lsa, o'z temperamentini idora qila olmaydi. Bunday kishilar irodasiz, beqaror, jur'atsiz, chidamsiz, betayin bo'ladi. Bunday odamning so'zi bilan ishi bir-biriga mos kelmaydi: ularning mustaqil fikri yo'q. Demak, shaxsni shakllantirish xarakterni shakllantirishga intilishdir. Tarbiyalangan irodaning ma'naviy sifatlari xarakterga ta'sir etadi. Bunday kishilar insonparvar bo'lib, o'z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo'yadilar.

2. Xarakterning mustaqilligi.

Har kimning xarakteri mustaqil, faqat shu kishigagina xos bo'lgan individual xususiyatlarni o'zida ifoda etadi. Ammo shu bilan birga, har kimning xarakterida ma'lum guruh, sinf va kasb bilan shug'ullanuvchilar uchun umumiylar bo'lgan ayrim xususiyatlarni ham ko'rish mumkin. Har bir kishi mustaqildir va shu bilan birga, u aniq xususiyatlarga ega bo'lgan muayyan shaxsdir. Mustaqillik bu – ish rahbarining topshirig'iga yoki o'z tashabbusiga ko'ra bajarilishidan qat'iy nazar, xarakterning xislatiga aylangan, o'zgalarning yordamisiz ishlash qobiliyatidir. O'quvchining mustaqilligi bu uning o'qituvchi yordamisiz ham ishni eplayotganligi emas, balki uning istaklarini asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida yuzaga chiqarishdir. Bunda o'quvchining ichki istaklariga tayanuvchi faoliyati o'rgatuvchi tomonidan intensiv yo'llanadi, boshqariladi va nazorat qilinadi. Mustaqillik faqat intizom bo'lgandagina foydalidir.

23-jadval



Shaxsni mustaqil shakllantirish xarakterni mustaqil shakllantirishga intilishdir. Ammo buning teskari qonuniyatini ham anglash lozim: o'quvchining mustaqil xarakterini tarkib toptirish uning shaxsi uchun kerakli mustaqil xislatlarni shakllantirishdir. Xarakterni tarkib toptirish haqida «Xattiharakatni tarkib toptirsang, mustaqil obyektga ega bo'lasan, odatni tarkib toptirsang, xarakterga ega bo'lasan. Xarakterni tarkib toptirsang, taqdirga ega bo'lasan»¹ deyiladi. Demak, mustaqillik insonning ijobiy xarakter sifati bo'lib, u mas'uliyatlilik, o'z-o'ziga ishonch bilan bog'liqdir. Bu sifat ko'proq ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lgan kishilar xarakteriga xosdir. «Mustaqil odamlar o'z oldilariga qo'yilgan maqsadlarga qat'iylik bilan erishadilar. Maqsadning aniqligi va yuksakligi mustaqil xarakter sifatlarini shakllantirish uchun juda zarurdir. Faollik, qat'iyatlilik, jasurlik, originallik, tashabbuskorlik, o'z-o'ziga ishonish, tartib-intizomlilik, chidamlilik, matonatlilik, ishbilarmonlik – bu xarakter xislatlarining hammasi shaxsning mustaqilligi bilan bog'liq sifatlardir»². Ushbu munosabatlar asosida insonning o'ziga va boshqalarga nisbatan mustaqil xarakter xislatlari shakllanadi, ular o'z o'rnila shaxs uchun muhim ahamiyatga egadir. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, shaxsning mustaqilligiga xos bo'lgan turli xususiyatlari (qobiliyat, hissiyot, iroda va boshqalar) o'rtasidagi munosabatlar juda murakkabdir. Mustaqil va mustahkam xarakterli kishilar ko'pincha aqliy jihatdan ham yetuk bo'ladilar. Ular qobiliyatli, serfikr va aqlii bo'ladilar-u, ammo o'zini tuta bilish, sabotlilik, xarakterning qat'iylik kabi xarakter xislatlari ularda yetishmaydi.

Bu jarayonda qobiliyat bilan xarakterning to'g'ri kelmaslik hollari o'quvchilar orasida ham uchraydi. Ko'pincha:

¹ K.K. Platonov, G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982y., 95-96 betlar.

² M.G. Davletshin, S.M. To'ychiyeva. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida chop etilgan. 2002 y., 133-bet.

«Qobiliyatli o'quvchi ancha yaxshi o'qishi mumkin, ammo unda qunt, uyushqoqlik, qat'iylilik, ayniqsa, mustaqillik yetishmaydi», – deyishadi. Bu shunga o'xshash o'quvchilarni tarbiyalashda xarakterning irodaviy, mustaqil xislatlarini tarbiyalashga yetarlicha e'tibor berilmaganligidan dalolat beradi. Inson xarakteri xususiyatlarining yana bir tomoni uning ehtiyojlari, qiziqishlari, didi va odatlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan, faqat shu kishi uchun tipik hisoblangan mustaqilligi va uni idora qiluvchi his-tuyg'ulari yig'indisidir. Odatda, psixologiyaga doir adabiyotlarda tarkib topgan ijobjiy xarakterning asosini shaxsning mustaqil irodaviy sifatlari tashkil etishi qayd etiladi. «Irodasi kuchli kishi» va «Mustaqil fikrlovchi kishi» degan iboralar xuddi sinonim so'zlardek bo'lib qolgan. «Kishi irodasining haqiqiy, aql va mustaqillik bilan aniqlangan va qat'iy belgilangan holda namoyon bo'lishini mustaqil xarakter deb atash mumkin»¹.

Intizomlilik. Shaxsning ehtiyojlari, dunyoqarashi, qiziqishlari, ishtiyoqi, ideallari xarakterning mazmunini, ichki dunyodagi intizomiy motivlarining manbaini tashkil etadi. Xuddi mana shular har bir kishining borliqqa: ijtimoiy voqeа va hodisalarga, jamiyatga, o'z-o'ziga bo'lgan psixologik xususiyatlarini belgilaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning muayyan bosqichini ifodalovchi dunyoqarash shaxs mustaqil yo'naliشining shakllanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatuvchi faol kuchdir va shu dunyoqarash ta'sirida mustaqil maqsadga intilish faoliyati paydo bo'ladi.

Intizomlilik bu odamning xarakter xislatiga aylangan qoidalari va xatti-harakat normalariga aniq rioya qilishga moyilligidir. Intizomlilikning ayrim tasodifiy ko'rinishlari xarakterga ko'ra eng intizomsiz o'quvchida ham bo'lishi mumkin. Intizomlilik bunday o'quvchi shaxsining xislatiga aylanishi ham mumkin, u mehnat intizomini hech qachon buzmaydi. Biroq, agar u intizomni buzishga hech qanday tashqi sababning yo'qligi tufayligina intizomli bo'lsa, intizomlilik uning

¹ П.Ф.Лесгафт. Семейное воспитание ребенка и его значение. СПБ, стр 211.

xarakterining xususiyatidir, deyishga ham ertadir. Agarda u faqat mashg'ulotlardagina intizomli bo'lib, turmushda yoki boshqa mehnat faoliyatida intizomsiz bo'lsa, u haqda xarakteriga ko'ra intizomli deyish mumkin, xolos.

Intizomlilik o'quvchining o'ta xilma-xil holatlardagi barcha xatti-harakatini ko'rsatsa va intizomning istalgan vaziyatda buzilishi uning tabiatiga qarshi bo'lsagina, xarakterning xislati deb qarash mumkin. O'quvchi intizomliligining ko'rsatkichlaridan biri bu o'qituvchining ko'rsatmalarini o'z vaqtida aniq bajara bilishidir. Xarakter odamning ishi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi va shakllanadi. Shaxsda intizomli xarakterni quruq so'z, tushuntirish, ko'rsatma berish va pand-nasihatlar bilan shakllantirish mumkin emas.

Odamning intizomi xarakteri, so'zsiz, hayot yo'lidagi obyektiv vaziyatlarga bog'liqdir, biroq vaziyatlarning o'zi odam xatti-harakati bilan yaratiladi va o'zlashtiriladi. Bu xatti-harakatlarga sabab bo'luvchi hayotdagi xatti-harakat va vaziyatlar bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ham odamning yomon yoki noto'g'ri xatti-harakatlarini oqlash uchun xarakterni bahona qilish asossizdir. Xarakter yoki uning intizomliligi odamning tug'ma xislati emas, u hayot davomida yaratiladi, shakllantiriladi va o'zgartiriladi. Odam o'z mehnat intizomi va xarakterining tarkib topishida o'zi ishtiroy etadi va shuning uchun ham unga doimo o'zi faol javobgar bo'lishi kerak.

«Bundan tashqari, ilm olamida inson xarakterini turli belgilarga ko'ra o'rghanishga qaratilgan ko'plab urinishlar va usullar bo'lgan. Lekin xarakter va uning rivojlanishi, namoyon bo'lishi uchun umumiy qonuniyat shuki, u tashqi muhit ta'sirida, turli xil munosabatlar tizimida shakllanadi va sharoitga qarab o'zgaradi. Har bir kasb-hunar o'zining talablari, kasbiy-professional programmasiga egaki, u shu kasb bilan shug'ullanayotganlardan o'ziga xos psixologik qirralar bo'lishini taqozo etadi (psixomateriya). Shuning uchun ham vrach, o'qituvchi, muhandis va boshqalarning professional sifatlari haqida alohida gapiriladi. Ana shu kasb sohiblari, ularning ish mobaynida ko'rsatadigan individualligida esa xarakterologik o'ziga xoslik

katta ahamiyatga ega va buni nafaqat shaxsning o'zi, balki uni o'rab turgan boshqalar ham yaxshi bilishlari kerak¹.

Quyida mashhur olim Karl Yungning xarakter tipini aniqlash metodikasini keltirdik. Berilgan savollarga javob variantlaridan birini tanlash kerak.

1. Qaysi biri Siz uchun muhimroq:

a) kichikkina do'stlar davrasi;

b) *ko'pgina o'rtoqlar davrasi*.

2. Qanday kitoblar sizga ko'proq yoqadi?

a) qiziqarli syujetli;

b) *ruhiy kechinmalar aks ettirilgan*.

3. Ishda nimaga ko'proq yo'l qo'yishingiz mumkin?

a) kechikish;

b) *xatoliklar*.

4. Agar yomon ish qilib qo'ysangiz:

a) juda qayg'uraman;

b) *unchalik qayg' urmayman*.

5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?

a) juda tez va oson;

b) *sekin, ehtiyotkorlik bilan*.

6. O'zingizni arazchi deb hisoblaysizmi?

a) ha;

b) *yo'q*.

7. Chin dildan kulishga moyilmisiz?

a) ha;

b) *yo'q*.

8. Siz kamgapmisiz?

a) ha;

b) *yo'q*.

9. Siz ochiq tabiatlimisiz yoki hislaringizni birovlardan yashirasizmi?

a) ochiqman;

b) *yashiraman*.

¹ V.Karimova. Psixologiya. -Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002, 32-35-betlar.

10. O'z his-kechinmalaringizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?
- a) ha;
 - b) *yo'q.*
11. Ko'pchilik davrasida bo'lganda, Siz:
- a) tinmay gapiraman;
 - b) *boshqalarni tinglayman.*
12. Tez-tez o'zingizdan norozi bo'lib turasizmi?
- a) ha;
 - b) *yo'q.*
13. Biror tadbirlarni tashkil qilishni yoqtirasizmi?
- a) ha;
 - b) *yo'q.*
14. Kundalik tutishni xohlarmidingiz?
- a) ha;
 - b) *yo'q.*
15. Biror narsaning qaroridan so'ng uni bajarishga tez o'tasizmi?
- a) ha;
 - b) *yo'q.*
16. Kayfiyatningizni tez o'zgartira olasizmi?
- a) ha;
 - b) *yo'q.*
17. O'zgalarni ishontirib, ulargá o'z fikringizni o'tkazishni yaxshi ko'rasizmi?
- a) ha;
 - b) *yo'q.*
18. Sizning harakatlaringiz:
- a) tez;
 - b) *sekin.*
19. Siz bo'lishi mumkin bo'lgan noxush hodisalardan tashvishlanasizmi?
- a) tez-tez;
 - b) *ba'zan.*
20. Qiyin holatlarda Siz:
- a) yordam so'rashga shoshilasiz;
 - b) *hech kimga murojaat qilmaysiz.*

Endi javoblariningizni hisoblab chiqing.

Uslubiyatning kaliti:

Javoblar ichidagi quyidagilar Sizdagи ekstroversiyani ko'rsatadi:

1b, 2a, 3b, 4b, 5a, 6b, 7a, 8b, 10b, 11a, 12b, 13a, 14b, 15a, 16a, 17a, 18a, 19b, 20a. Mos kelgan javoblar sonini 5 ga ko'paytiring.

0-35 ballar introversiya;

36-56 ballar ambiversiya;

66-100 ballar ekstroversiya.

Shunga o'xshash tavsifni o'rganish uslublari ko'p bo'lib, ular yordamida odam o'zi va yaqinlarining xatti-harakatlarini o'rganib turishi mumkin.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xarakterning bilish emotsiyonal va irodaviy jarayonlar bilan bog'liqligini misollarda yoritib bering.
2. Xarakter va temperamentning o'xshashligi hamda ular o'rtaсидagi farq nimada ifodalanadi.
3. Kishining jamiyatga, boshqa kishilarga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xarakter xislatlari yaqqol formada namoyon bo'ladigan holatlarga doir misollar keltirib o'ting.
4. Xarakter tug'ma, o'zgarmas narsa bo'lmay, balki hayot mabaynida tarbiya yo'li bilan shakllanishini isbotlovchi misollar keltiring.
5. Yuqori sinf o'quvchilariga mazkur savollarga javob berishni taklif qiling.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro'yxati

1. E. G'oziyev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1994.
2. V. Karimova. Psixologiya. –Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
3. Psixologiya kursi. M.V. Gomezo tahriri ostida –T.: «O'qituvchi», 1972 y., 282-283 betlar.
4. K.K. Platonov, G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982 y., 93-95 betlar.
5. B.M. Teplov. Psixologiya. Sh. Boyburova tahriri ostida. –Toshkent: 1952.
6. P.I. Ivanov. «Umumiy psixologiya». –Toshkent: «O'qituvchi», 1967.
7. M. Vohidov. Bolalar psixologiyasi. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982.

QOBILIYAT VA ISTE'DOD

15.1. Qobiliyat haqida umumiy tushuncha

Odatda qobiliyat insonga shaxsning barcha individual psixologik xususiyatlari kabi tabiat tomonidan tug‘ma ravishda, tayyor holda berilmaydi, balki hayot davomida va faoliyat jarayonida shakllanadi. Ilmiy-psixologik tadqiqotlarda qobiliyatning tug‘maligi nazariyasini inkor etib, uning noma'lum tabiiy omillar tomonidan azaliy belgilanishi to‘g‘risidagi tasavvurlarga qattiq zarba beriladi. Lekin odatda har bir odam o‘zining faqat ehtiyojlari va qiziqishlari jihatidan bir-biridan farq qilmay, balki qobiliyatlar, iste’dodlari jihatdan ham farq qiladi. O‘qituvchi yoki ota-onalarni kuzatar ekan, bu bola ko‘proq mana bu sohaga qobiliyatli yoki u bu kasbga qobiliyati sstroq deb mulohaza qiladilar.


Lekin insonning mehnat faoliyatida davomida uning rang-barang iste’dod va qobiliyatlar ham ifodalanadiki, bu tafovut fan, texnika, san’at, ijtimoiy-siyosiy va umuman barcha sohalarda namoyon bo‘ladi. Ba’zi odamlarning mehnati, ayniqsa, samarali, tezkor va muvaffaqiyatli, ba’zilarning aksincha, unumsiz va sisfatsiz bo‘lib, ijodiy, ilmiy namunalarini ko‘rsata olmaydi.

Bundan tashqari, qobiliyatni bir butun muammo sifatida falsafa, sotsiologiya, biologiya, fiziologiya, tibbiyot va boshqa fanlar ham o‘rganadi, biroq ularidan hech qaysi biri qobiliyatni psixologiya fanichalik chuqur va har tomonlama o‘rganmaydi.

Qobiliyatning o‘zi nima? Uning psixologik mohiyati va yuksaltiruvchi omillari nimalardan iborat? – kabi savollarga to‘g‘ri javob berishning nazariy va amaliy ahamiyati juda katta. Qobiliyat shaxs xususiyatlarining shunday yig‘indisidirki, u odamning biror faoliyatga o‘rgatish va uni takomillashtirishning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. «Ishchi kuchi yoki har qanday mehnatga qobiliyat deganda, – deb yozadi K.K.Platonov, – organizmda odamning jonli shaxsi egalik

quluvchi hamda u tomondan doimo biror iste'mol qiymatini yaratishda ishga tushiriladigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar yig'indisini tushunamiz». Qobiliyat xuddi xarakter singari shaxsning boshqa tuzilishlari bilan bir qatorda qo'yilgan mustaqil bo'lmay, balki uning turli xususiyatlarining ma'lum yig'indisidir. Xarakter va qobiliyatlar o'rtasidagi farq shundaki, xarakter shaxsning barcha faoliyat turlarida, qobiliyat esa faqat bitta ma'lum faoliyat turida namoyon bo'ladi. Odamning qobiliyati psixik hodisa tarzida (24-jadvalda ko'rsatilganidek) to'rtta gruppaga ajratilishi mumkin.

24-jadval



Ifodalangan darajasi turlicha bo'lsa-da, barcha odamlarga xos bo'lgan sodda, umumiylari qobiliyatlar bu psixik ko'rinishning asosiy me'yorlari: sezish, idrok qilish, fikr yuritish, kechinma, qarorga kelish va uni amalga oshirish hamda esda goldirish qobiliyatlaridir.

Barcha odamlarga xos bo'lмаган elementar xususiy qibiliyatlar shaxsning ancha murakkabroq xususiy qibiliyatları, masalan, ko'z bilan chandalash, musiqaviy qobiliyat, tafakkurning tanqidiyligi, saxiy qalblik, sabotlilik, qat'iylik va shu kabilardir.²

Murakkab va umumiylari qobiliyatlar u yoki bu darajada barcha odamlarga xosdir. Bular umuminsoniy faoliyat turlari: mehnat, o'yin, o'qish, bir-biri bilan munosabatda bo'lish, ma'naviy,

¹ K.K. Platonov. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 99-100 betlar.

² K.K. Platonov. G.G. Golubev. Psixologiya. –Toshkent: «O'qituvchi», 1982-y.

axloqiy faoliyatlarga tegishli qobiliyatlardir. Bu guruhga kiruvchi har bir qobiliyat shaxs xususiyatlarining murakkab tuzilishi hisoblanadi. Shuning uchun ham birlikda gapiriladigan «Iroda – maqsadga erishish qobiliyati», «Tafakkur qobiliyati» va shu kabi qobiliyatlardan farq qilib, murakkab qobiliyatlar haqida ko‘plikda gapiriladi.

Faqat turli darajada emas, balki umuman barcha odamlargagina xos bo‘lmagan murakkab xususiy qobiliyatlar insoniyat tarixida avval hunarga, so‘ngra turli kasblarga tomon rivojlangan qobiliatlardir. Ular professional, o‘ziga xos maxsus, alohida qibiliyatlar deyiladi.

Qobiliyatning tabiiy zaminini tashkil qiluvchi tug‘ma xususiyatlar orasidan nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lganlari yuksak nerv faoliyati tiplarini farq qiladigan alomatlardir, ya’ni qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining quvvati, muvozanati va ildamligidir. Shu sababdan odamning qobiliyat va iste’dodi unga tug‘ma xos bo‘lgan yuksak nerv faoliyati tipi bilan mahkam bog‘langan bo‘ladi. Ammo yuqorida aytilganidek, nerv faoliyatining tug‘ma xos tipi sira o‘zgarmay, bir zaylda qoladigan narsa emas, u odamning yashagan sharoitiga bog‘liq holda o‘sadi, o‘zgaradi. Shuning uchun ham yuksak nerv faoliyatining tug‘ma bo‘lgan tipini turlanish sharoiti ta’siri bilan vujudga kelgan tipdan ajrata bilish lozim.

O‘sish natijasida tarkib topgan nerv faoliyatining tipini xarakterlaydigan nerv jarayonlarining xossalari qobiliyatning fiziologik asoslarini tushunishda katta ahamiyatga egadir. Turli sistemadagi muvaqqat bog‘lanishlarning paydo bo‘lish tezligi va puxtaligi qo‘zg‘alish va tormozlanish jarayonlarining quvvati, muvozanati va ildamligiga bog‘liqdir. Demak, nerv jarayonlarining bu xossalari odam tomonidan biron ta faoliyatning muvaffaqiyatli ravishda bajarilishi uchun nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Odamni biron ta faoliyatining muvaffaqiyat bilan bajarilishi faqat qobiliatlargagina bog‘liq bo‘lmasdan, avvalo odamda bo‘lgan bilim saviyasi va malakasiga, ya’ni unda qanday muvaqqat bog‘lanishlar hosil bo‘lganligiga bog‘liqdir. Bundan

odamning biron ta ishga layoqati bo'lib, kamol topishida ta'limning qanchalik katta ahamiyati borligi ham ma'lumdir. Lekin qobiliyatning o'zi ham, yuqorida aytilganidek, tabiiy tug'ma xususiyatlarga bog'liq bo'lsa ham, *hamisha kishidagi o'sish natijasidir*. «Kishining qobiliyati qaysi soha uchun zarur qobiliyat bo'lsa, ko'proq shu sohada ishlash natijasida va shu ishga o'rganish jarayonida o'sadi!».

O'rganish jarayonida, *birinchidan*, yangi muvaqqat bog'lanishlar sistemalari hosil bo'ladi, ya'ni yangi bilim, iqtidor, malakalar egallanadi; *ikkinchidan*, asosiy nerv jarayonlari takomillashib shakllanadi, ya'ni tegishli qobiliyatlar o'sadi. Shunisi ham borki, qobiliyatning o'sib kamol topish jarayoni bilim va iqtidor egallah jarayoniga qaraganida ancha sekin boradi.

Birorta qobiliyatning o'sishi uchun tug'ma layoqatning borligini ko'rsatadigan xarakterli narsa, bu qobiliyatning yoshlikdan mustaqil ravishda, ya'ni maxsus ta'lim-tarbiya ko'rmasdan ham vujudga kelishidir. Shunday qilib, qobiliyatlarni doimo tarbiyalab, o'stirib, rivojlantirib borish, avvalo, o'zi yashayotgan jamiyatning moddiy va ma'naviy sharoitlari bilan belgilanadi. Insonning o'sib boruvchi global taraqqiyoti xalq ta'limi tizimida joriy etilayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, o'quv va muammoiy ilmiy tadqiqot laboratoriyalari zamonaviy kompyuter sinflari, «Internet» va elektron ilmiy aloqalar tarmog'i, ilmiy kutubxona va boshqalar respublikamiz ta'lim-tarbiyaviy ishlar tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. O'quvchi yoshlar qobiliyatini tarbiyalashning joriy etilgan mezoni va tamoyillari ishlab chiqarish, fan va san'at rivoji uchun hozirgi zamon yoshlaridan ma'lum darajada takomillashgan qobiliyatlarni talab qiladi.

Qobiliyatlarni tarbiyalash ko'p jihatdan jamiyatning ijtimoiy xarakteriga, uning ma'naviy tizimiga bog'liqdir. Respublikamiz o'quv yurtlari «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qo'yilgan vazifalarni bajara borib, talabalar va o'quvchi yoshlarni qobiliyat va iste'dodlarini tarbiyalab, bu soha rivoji uchun

¹ B.M. Teplov. Psixologiya. -Toshkent: 1952-y., 205-206 betlar.

ta'limning zamonaviy yangi pedagogik texnologiya usullarni qo'llashmoqda, tarbiyaviy tizimni takomillashtirmoqda.

O'quvchi yoshlarning individual qobiliyatini o'stirishda barcha pedagogik imkoniyatlardan unumli foydalanib, bu sohada bir muncha ijobiy tajribalarni ham qo'lga kiritdek desak, mubolag'a bo'lmaydi.

«Hozirgi kunda ta'lim muassasalarini oldida ta'lim-tarbiyaviy sohada erishilgan ijobiy tajribalar orqali o'quvchilar qobiliyatini, iqtidorini ilmiy-amaliy asosda o'rganish, ularning psixologik qobiliyatlarini yanada rivojlantirish, ularning ruhiy olamini milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalash, takomillashtirish, o'quvchi yoshlar qobiliyatini jahon ta'lim andozalari talablariga javob beradigan darajada takomillashtirish vazifalari qo'yilmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quv muassasalarida bir butun mukammal ta'lim tizimini barpo etish, ta'lim islohotlarini yanada chuqurlashtirish, yangidan-yangi pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni o'quvchi yoshlar qobiliyati va iste'dodini shakllantirish uchun joriy etish, ta'limda pedagogik jamoa va har bir professor-o'qituvchining ilmiy salohiyatidan to'la foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Odam psixikasining eng muhim xususiyatlaridan yana bira kompensatsiya qobiliyatidir. Ya'ni kishining psixikasida bo'lgan bir imkoniyati o'rnnini bir qancha boshqa imkoniyatlar bilan to'ldirish mumkinligidir; demak, kishida biron qobiliyat yo'q bo'lsa, boshqa juda yaxshi o'sgan qobiliyatlar uning o'rnnini bosa oladi. Boshqacha aytganda, bir ishning bir xil darajada yaxshi bajarishning asosi odamdag'i turli qobiliyatlarning turlicha qo'shilishi bilan ham bo'lishi mumkin. Bu hol insondagi qobiliyatlarning haqiqatdan cheksiz o'sishiga imkon beradi!».

Xulosa qilib aytganda, istiqlol avlodining qobiliyatini tarbiyalash ko'p jihatdan o'zi yashayotgan jamiyatning xarakteriga, ijtimoiy tuzilishga, iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy, ilmiy vazifalarning tub mohiyatini anglashga bog'liqdir.

¹ Ta'lim muassasalarida milliy istiqlol g'oyasi asosida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar tajribasidan (Maqolalar to'plami). – Toshkent: 2003-yil.

15.2. Iste'dod va talant haqida tushuncha

Iste'dod va talant insondagi barcha ruhiy kuchlarning, xususan, aql-idrok, zehn-zakovat, tafakkur, xotira va diqqatning taraqqiy etishini, iroda hamda hissiy tuyg'ularning mustahkam bo'lishini talab etadi.

Albatta, jismonan va aqlan sog'lom har bir kishida yuqorida ko'rsatilgan ruhiy kuchlar bo'ladi. Ammo iste'dodli odamlarning zehni o'tkir, diqqati barqaror, xotirasi boy va mustahkam tafakkuri esa mantiqiy kuchga ega bo'ladi. Bunday kishi bilim va tajribani quruq to'plamasdan, balki mustaqil o'ylab, ijodiy, tanqidiy ishlab chiqadi, shundan foydalanib yangiliklar yaratadi. Shuning uchun iste'dodlilik darajasi jihatidan kishilar bir-birlaridan farq qiladilar. Talantli odamlar bilim va malakani tez va samarali o'zlashtiradilar hamda bundan amaliy foydalana biladilar. Iste'dodning eng yuqori darajasi geniallik va talantlilik deylidi.

Geniy deb shunday shaxslarga aytiladiki, ular ma'lum sohada tarixiy burilishni vujudga keltiradilar, insoniyat taraqqiyotiga yangilik kiritadilar, davlat, jamiyat miqyosida ular hal qilgan muammolar va yaratgan kashfiyotlar umumxalq manfaatiga xizmat qiladi, jamiyat taraqqiyoti qonunlarini kashf etadilar. Bu shaxslarning iste'dodli faoliyati natijasida turmushning hamma sohalarida juda katta o'zgarishlar paydo bo'ladi va insoniyat tarixi chinakam taraqqiyot sari qadam qo'yadi. Navoiy va Jomiyni biz genial shaxslar deymiz, A.Qodiriy, Fitrat, A.Qahhorni buyuk yozuvchi deymiz, chunki ularning ijodi o'zbek adabiyoti va madaniyatida yangi davr ochdi, ularning asarlari faqat o'zbek xalqi uchungina emas, balki hamma xalqlar uchun ham madaniy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'ladi. Ayniqsa, bugungi kunda milliy istiqlol ravnaqi, xalq farovonligi g'oyalari asosida vatanparvarlik, fidokorlik, milliy o'zlikni anglash, iftixon, g'urur, insonparvarlik, shukronalik his-tuyg'ularini tarbiyalashda ularning tarixiy-madaniy xizmatlari buyukdir.

Talant (yunoncha «talanton») «qimmatbaho, noyob irsiy tabiiy xislat» degan ma'noni anglatadi. Talant muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini

ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat individual xususiyatdir. Professor E.G'oziyev o'z asarida talantni shunday ta'riflaydi: «Talant mahoratning dastlabki sharti hisoblansa-da, lekin ular bir-biridan muayyan darajada tafovutlanadi. Talant katta, ijodiy va zo'r mehnat mahsulidir; demak, talantli deb shunday shaxslarga aytildik, aqli, ular zehni o'tkir, intellektual faoliyati kuchli, ijodiy yo'li ancha shakllangan, diqqat va irodalari mustahkam va barqaror bo'ladi. Ular serg'ayrat va ehtiros bilan ishlaydilar. Mehnatsevar va mehnatga juda layoqatli bo'ladilar, qo'ygan maqsadlariga erishadilar. Talantli shaxslar jamiyat, tabiat, fan taraqqiyotining istiqbolini ko'ra bilib, uning asosiy yo'llarini oldindan bashorat qila oladilar. Talantli kishilar odatda har tomonlama iste'dodli shaxslardir»¹.

Shu sababli talant bir qancha qobiliyat turlarini o'z ichiga oladi. Ammo bundan, talantli kishi barcha sohalarda ham barobar ijod qiladi, degan xulosa kelib chiqmaydi, ular muayyan bir sohada eng samarali va yuksak sifatli ijodiy ish qiladilar. Lekin boshqa ishlariga ham juda layoqatli bo'ladilar.

Talant va qobiliyat masalasida I.P.Pavlovning odamning maxsus oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ko'rsatmasi katta ahamiyatga egadir. Ya'ni odamdagagi oliy nerv faoliyatining ayrim hollarida birinchi yoki ikkinchi signal sistemasining ustun turishi I.P.Pavlovning odamlarni «badiiy va tafakkur» tiplariga ajratish uchun asos bo'ladidi. Ikkala signal sistemasi o'rtasidagi munosabatlarga xos xususiyatlar bu tiplarning uchiga chiqqan hollarida, ayniqsa, yaqqol ko'rindi: «badiiy tipda»gi odamlarda birinchi signal sistemasi yo'li bilan hosil bo'ladigan taassurotlarga sezgirlik, ayniqsa, kuchlidir: – sezgi organlari orqali hosil bo'ladigan bevosita taassurotlarning ko'pchiligi va yaqqolligi bu tipdagagi odamlar uchun xarakterli xususiyatdir. Ayniqsa, «tafakkur» tipidagi abstrakt odamlar fikrlashga ko'proq moyil bo'ladilar, bunda ikkala signal sistemasi barobar va bir-biriga mos holda ta'sir qiladi.

¹ E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. 2-tom. –Toshkent: 2002-yil, 36-bet.

Har kimda uning o'ziga xos bo'lgan biror talant namunasi bo'ladi. Uning bu talanti ma'lum sohada muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatishga imkon beradi. Har kishida bo'ladigan iste'dod, talant mumkin qadar tez va aniq yuzaga chiqishi uchun, eng muhimmi, kishining ko'p narsaga qiziqishi va o'zidagi qobiliyat, talant namunalarini har tomonlama o'stirishga harakat qilishidir. Bugun respublikamiz miqyosida «Milliy istiqlol g'oyasi» shiori ostida talaba yoshlar ongiga «iste'dod», «qobiliyat», «talant» kabi vositalar orqali singdirilayotgan fan asoslari ularni kelajakda yetuk kishilar bo'lib kamol topishida har tomonlama ko'mak bermoqda. Yoshlar uchun qobiliyatlariga qarab imkoniyatlar eshigi juda katta ochilgandir.

15.3. Professional qobiliyatning psixologik tahlili

«Shaxsda shakllanishi shart hisoblangan professional qobiliyat, u xoh ta'lif, xoh mehnat, xoh ijtimoiy ma'naviyat sohibi bo'lishidan qat'iy nazar, uning bilish jarayonlariga, aqliy xislatlariga, hissiy-irodaviy jabhalariga, sensamotor sohasiga, xarakteriologik xususiyatlariga muayyan talablar qo'yadi va ularning hamkorlikdagi sa'y-harakati tufayli professional qobiliyat shakllanishiga sharoit yaratadi». Avvalo professional qobiliyatlarni o'rganish kelajakda shakllanishi ma'lum bo'lgan maqsadga qaratilgan bo'lishi zarur.

O'quvchilarning professional qobiliyatlari butun pedagoglar jamoasi va barcha ta'lif-tarbiyaviy ish tizimi tomonidan har xil faoliyat turlarida hamda professional o'qitishning birinchi kunidan boshlangani ma'quldir. Professional qobiliyatlarning shakllanishiga o'quvchi o'quv predmetlariga qiziqishi, o'quv jarayonlarining samarali tashkil etilganligi yangi kerakli o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlanganligi, nazariy mashg'ulotlar va ishlab chiqarish mashqlarining samarali bo'lishi katta yordam beradi.

O'qituvchi o'quvchini fanga qanchalik ko'p qiziqtira olsa, unda o'quvchining professional qobiliyatlarini shakllantirish


¹ B.M.Teplov. Psixologiya. Sh.Boyburova tahriri ostida. –Toshkent: 1952-yil, 221-bet .

shunchalik oson bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini o'stirishda ularni maxsus «innovatsion» (yangi) pedagogik texnologiyalar va ishlab chiqarish ta'limi darslaridan olgan dastlabki taassurotlari ham, ayniqsa, katta ahamiyatga egadir.

Birinchi taassurotlar doimo xotirada uzoq saqlanadigan bo'ladi. O'quvchilar dars mashg'ulotlariga o'zlarini uchun aniqlab olishlari kerak bo'lgan ko'pgina ijodiy savollar bilan keladilar. Ilmga erishilgan muvaffaqiyat har qanday o'quvchini, ayniqsa, fanga mehr qo'ygan o'smir yigit va qizlarni ruhlantiradi. O'qishdagi ruhiy intilish o'z kuchi hamda qobiliyatlariga ishonch hosil qildiradi. Mustaqil ishga faoliylik va ijodkorlikni uyg'otadi. Shuning uchun o'qituvchilar professional qobiliyatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi: o'quvchilarning qiziqishlarini rag'batlantirish va intizomllilik, faoliylik, mustaqillikni tarbiyalashda ularni shunday o'qitishlari kerakki, bunda har bir o'quvchining muvaffaqiyati hamma narsadan ustun tursin.

Professor E. G'oziyevning ta'rifiga ko'ra, psixologiyada professional qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida tavsiflanadi va buning asosida bir insonning boshqasidan yaxshi deb tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlari yotadi.

25-jadval



Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifat kutish mumkin emas. Chunki insonlar o'z qobiliyatları va professional sifatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar. Binobarin, ular o'rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay bo'lishi mumkin.

Professional qobiliyatlarning sifat tasnifi shaxsning qaysi individual psixologik xususiyatlarni faoliyat muvaffaqiyatning majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdori tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarni shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkonini mavjudligini bildiradi. Ya'ni mazkur inson professional jihatdan boshqa odamlarga qaraganda bilimdan, imkoniyatdan nechog'li tez, yengil, puxta foydalana olishini namoyon qiladi.

Professional qobiliyat xususiyatlarning sifat jihatidan talqin qilinishi: birinchidan, maqsadga turlicha yo'llar orqali erishishga imkon beruvchi «O'zgaruvchan miqdor» toplashi tariqasidan; ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatining shaxs individual psixologik sifatlari (fazilatlari) murakkab majmuasi ko'rinishida gavdalana oladi.

Bu psixologik hodisa tahlili professional shaxs qobiliyatlarning muhim jahbalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, shaxsdagi bir xislatning boshqasi bosishi (kompensatsiya qilish, lotincha compensation – «o'rnini bosishi, muvofiqlashtirish» ma'nosini bildiradi) vujudga keladi. Bunda inson sabr-toqat, chidam bilan mehnat qilishi tufayli yuksak professional ko'rsatkichlarga erisha oladi

Rus psixologgi B.M.Teplov va uning shogirdlari o'z tadqiqot ishlarida oliy nerv faoliyati tiplarining xislatlari ta'siri tufayli odam professional qobiliyat tuzilishida qandaydir sifat xususiyatlarni aniqlashga urinishgan. Jumladan, nerv sistemasining alohida sezgirligi idrok faoliyatining o'ziga xos o'tkirligi ma'lum darajada professional qobiliyat nishonasi sifatida vujudga kelishi mumkin. Ta'kidlangan xususiyatlar oliy nerv faoliyati umumiyl tip sifatlariga va belgilariga mansubdir. Ammo professional qobiliyatning tabiiy asoslarini nerv sistemasining protsial (xususiy) deb nomlanadigan xususiyatlar bilan bog'lanuvchi farazlar ko'proq ehtimol darajasiga egadir.

Rus psixolog A.G.Kovolyov o'z tadqiqotlarida professional qobiliyatning tabiatini va tashxis qilish yo'llarini o'rganishga muvofiq bo'lgan.

Muallifning ta'rificha, professional qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyati talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan ilg'or psixologik xususiyatlar ansambl yoki sintezini tushunish kerak.

Psixologiya fanida professional qobiliyat to'g'risida gap ketganda 3 ta o'ziga xos kontseptsiya mavjudligi ta'kidlanadi.

Professorlar E. G'oziyev, A. Jabborovlar o'z asarlarida professional qobiliyatni analiz qilib, qobiliyat shaxsning biologik jihatdan determinlashgan, ya'ni biologik jihatdan bog'langan xususiyatlaridir, degan fikrni ilgari suradi.

Mualliflar mulohazalariga ko'ra, professional qobiliyatning tayanch xususiyati yumshoq ko'ngillik va ta'sirchanlikdir. Ta'sirchanlik deganda idrokning jonliligi va o'tkirligi, emotsional iltifotgo'ylikning naqadar kuchliligini tushunish kerak. Ular professional qobiliyat uchun yolg'iz ko'ra bilish qobiliyati kamlik qiladi, ko'rganlarni ijodiy qayta o'zgartira bilish, kuzatilayotgan narsani boshqa hayotiy taassurotlar bilan fikran bog'lay olish ham muhimdir, degan xulosani ilgari suradilar.

Professor M. G. Davletshin texnikaviy qobiliyat ustida uzoq yillar tadqiqot ishlari olib borgan yetakchi mutaxassis hisoblanadi.

Muallif texnikaviy qobiliyat deganda shaxsning individual psixik xususiyatlaridan tuzilgan shunday o'ziga xos professional birliklarni tushunadiki, u shaxsning texnikaviy faoliyatiga professional yaroqlilik darajasini va u bilan muvaffaqiyatlari ravishda shug'ullana olish qobiliyatini aniqlaydi. M. G. Davletshin an'anaviy yo'ldan borib, texnikaviy qobiliyatni 2 ta o'sha nomdag'i tipga ajratadi hamda professional qobiliyatning yetakchi tayanch xususiyatlarini o'zgarishsiz qoldiradi. Lekin boshqalardan farqli o'laroq, yetakchi xususiyatlar rivojlangan texnikaviy fikrlash va fazoviy tasavvurdan iboratdir, degan fikrni ilgari suradi.

Uning talqinicha, professional texnikaviy qobiliyatli shaxs bo'lish uchun unda:

- a) amaliy jihatdan fahm;
- b) texnik masalalarni tahlil qilish qobiliyatining ustunligi;
- v) narsalarni montaj qilib, qismlardan butun hosil qila olish qobiliyati bo'lishi shart.

«M.G.Davletshin texnikaviy qobiliyat ko'rsatkichlarini an'anaviy baholashni tan olgan (ko'z bilan chamalash, fazoviy tasavvur, professional tahlil, konstruktsiyalash qobiliyati) va o'zining original yondashuvini ishlab chiqqan.

Texnikaviy qobiliyat darajasini tashxis qo'yish uchun tekshirishlarda eksperimental masalalarning 9 ta seriyasidan unumli foydalana olgan»¹. Xulosa qilib aytganda, professional faoliyat shaxsdan juda ko'p bilim hamda malakani talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglayotgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'z faoliyatlarini va qobiliyatlarini boshqara bilish va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarni orttirib borishi shart.

«Professional bilimdonlik shu nuqtai nazardan shaxs umumiyl madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga diqqat kasbga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari, shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishini ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir»².

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qobiliyatning bilim, ko'nikma va malaka bilan bog'liqligi nimadan iborat?
2. O'quvchilar qobiliyatini shakllantirish usullari va yo'llari haqidagi fikringiz?
3. «Layoqat», «Iqtidor», «Qobiliyat», «Talant», «Daholik» tushunchalarining mohiyatini ochib bering va ularni bir-biri bilan taqqoslang, o'zaro bog'liqligini tushuntirib bering.

¹ E. G'oziyev. Umumiy psixologiya. Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. 2-kitob. -Toshkent: 2002-yil, 39-43 betlar.

² V. Karimova. Psixologiya. -Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002-yil, 85-bet.

4. Bir qobiliyatni boshqa qobiliyat bilan kompensatsiyalashuvini tushuntiring.
5. Professional qobiliyatni tushuntirib bering.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi. –T.: 1997.
2. V.M. Karimova, F. Akramova. Psixologiya. –Toshkent: 2000.
3. G‘.B. Shoumarov taqrizi ostida. Oila psixologiyasi. –T.: «Sharq», 2000.
4. E.G‘oziyev. Psixologiya. –T.: 1994.
5. Б.Қодиров. Способности и склонности. –Т.: «Фан», 1990.
6. N.Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. –Toshkent: «Yangi asr avlodи», 2007.

16.1.Ta'lism Samaradorligini oshirishning yangi bosqichida o'qitishning pedagogik - psixologik texnologiyalaridan foydalanishning mohiyati va muammolari

Ta'lism jarayonida o'quvchida fikr uyg'otish o'qituvchidan katta kuch va mahoratni talab etadi. To'g'ri fikrlash yaratuvchilik demakdir. Shuning uchun ham pedagogikada o'qitish jarayoni ikki tomonlama: o'quvchi tomonidan bajariladigan o'quv va o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati yig'indisidan iborat. Bu qoidani inkor qilmay, zamonaviy ta'lism mazmuni umuminsoniy va milliy tajribalar uyg'unligini taqozo etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'lism tushunchasiga milliy ta'limi yuqtai nazardan yondashib, quyidagicha ta'riflaydi: «Ta'lism O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi». Bu maqsadni amalga oshirish uchun ta'larning yangi modeli yaratildi. U o'zbek modelidir, uning keljakdag'i samaradorligi yurtboshimiz tomonidan ilmiy asoslab berildi. Modelni amaliyatga tadbiq etish o'quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida «o'quv tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash» uqtiriladi: uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalardan biri sifatida belgilanadi.

Bugungi kunga kelib pedagogik texnologiyaning nazariy asosini yaratish va amaliyatga tadbiq etish, birinchidan, an'anaviy o'qitish, yaratish va amaliyatga tadbiq etish, an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli «axborotli o'qitish» shaklida tavsiflanadi. Hozirgi kunda o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, nufuzli bilim beruvchi manbara aylanib borishi ta'kidlangan holda baholanmoqda.

Ikkinchidan, ilmiy texnik taraqqiyotning tezkor rivojlanish bosqichida axborotlarning keskin ko‘payib borishi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi, yoshlarni hayotga mukammal tayyorlash ta’lim tizimiga yangicha yondashish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Ushbu ishda ham biz ilmiy izlanishlarimiz natijasida to‘plagan materiallarni maktab psixologiyasining yoki xususiy metodikaning bir kursi misolida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo‘llarini ma’lum bir tizimda tushuntirishga harakat qildik.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda biz O‘zbekiston va chet el tajribasidan keng foydalanishga harakat qilganmiz.

Mamlakatimizda ta’lim jarayonida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar har bir ta’lim muassasasida ta’lim sohasini jadallashtirishni talab etadi, yangilikni joriy etish yo‘li esa har doim murakkab va uzoq. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, pedagogik texnologiya yaqin yillar ichida ta’limda yangilik kiritishning asosiy manbai bo‘lib qoladi.

Hozirgi davr o‘qituvchi va o‘quvchi oldiga katta talablar qo‘ymoqda. Bu talablarning eng asosiysi darsning samaradorligi, uning sifatliligi, o‘quvchilarning maktabdagagi va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlaridagi o‘quv mashg‘ulotlarida zarur bilimlarni egallab olishdir.

O‘quvchilarning asosiy mehnati – o‘qish. O‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘quvchilarni aql-idrok bilan mustaqil ishlashga o‘rgatish, ularni umumiylashtirish va maxsus, kurslardagi ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish zarur.

Ilg‘or pedagogik tajriba, darsda materialni yirik qismlargacha ajratib berish, o‘quvchilar uchun yangi narsalarni ko‘p marta ishlab chiqish o‘rinli ekanligini ko‘rsatadi. Bilimlarni mavzular bo‘yicha hisobga olish juda foydalidir.

Har bir o‘qituvchining o‘z ishiga ijodiy yondashuvi juda muhimdir. Bu o‘z-o‘zidan bo‘lib qolmaydi. Buning asosiy shartlaridan biri o‘quv ishining barcha maktab va o‘rtalik maxsus o‘quv yurtlari uchun yagona bo‘lgan Davlat ta’lim standarti (DTS) ni bajarishni mahalliy tashabbus bilan uyg‘unlashtirish,

ta'limning mazmunini, o'quvchi bilimi va malakalariga qo'yiladigan talablarni hamma joyda bir xil qo'yish zarur. Metodik ko'rsatmalar bajarish majburiy bo'lgan hujjatlar emas. Bular tavsya va maslahatlardir. Metodik qo'llanmalar, malaka oshirish institutlari, metodistlar, nozirlarga talab ana shundan kelib chiqib qo'yiladi.

O'qituvchining vazifasi – har bir o'quvchi ruhiyatiga mumkin qadar yaqindan yondashish. Uning qanday yashayotgani, nimalar bilan shug'ullanayotganini bilishdir. O'quvchini axloqan boy, odobli, ruhan tetik va barkamol qilib tarbiyalash uchun har biriga mos yondashuv kerak.

Maktab va o'rta maxsus o'quv yurtlarida «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda o'quvchilar ham o'z ulushlarini qo'shamdi.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab bergenligi tufayli ta'limning yangi modeli yaratildi.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bu modelni hayotga tadbiq etish tufayli turli jabhalarda ro'y berayotgan samaradorlik natijalari ro'y-rost ko'rsatib berildi. Bu model:

-ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va mamlakatimizda mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

- insonning hayotda o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;
- jamiyatda erkin fikrlovchi shaxsning mustaqil shakllanishiga olib keladi;

- jamiyatda potentsial kuchlarning ro'yobga chiqishida juda katta ahamiyat kasb etadi;

- fuqarolik jamiyatni qurishni ta'minlaydi, model vositasida dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishiladi.

Samaradorlik sari shijoat bilan qadam tashlash yo'llarida uchraydigan qiyinchiliklarni bosqichma-bosqich va izchil hal qilish masalalari nafaqat pedagogika nazariyasi va amaliyotchilarini harakatga keltiradi, balki jamiyatimizni to'liq pedagoglashtirish muammosini ijtimoiy buyurtma sifatida

keltirib chiqaradi. Jamiyatimiz har bir fuqarosini ta'lim-tarbiya asoslari bilan tanishtirish, yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga yetkazish jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash davr taqozosidir.

Pedagogik texnologiya (PT) shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida uch ming yillikda davlatimizning ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi. O'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchilarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi. Bilimdonlik asosida yotuvchi bosh g'oya tabiat va inson munosabatlarini anglab yetadigan avtoritar va soxta tafakkurlash usulidan voz kechgan sabr-bardoshli, qanoatli, o'zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash kabi barkamol inson sifatlarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu masalaning yechimi esa ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq.

Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi. Texnologiya yunoncha texnos – «san'at, hunar», logos – «fan» so'zlaridan tashkil topib, «mahorat fani» ma'nosini anglatadi. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jarayonini to'liq tasvirlab bera olmaydi. Texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan xom ashyoga bosqichma-bosqich ta'sir etib mahsulot yaratish borasidagi ishchi faoliyatidir. Buni pedagogik texnologiyaga (PT) ko'chirsak, o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatish va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan psixologik jarayondir.

Ta'rifdan ko'rindan, PT tushunchasida texnologiya jarayoni asos qilib olingan. PT ning bir qancha sinonimlari bor. Masalan, o'qitish texnologiyasi ta'lim metodikalarida ko'p ishlatiladi. U predmet, mavzu, savollar va o'quv materialini o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya asosida ifodalaydi.

Ta'lim metodikasi o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasini ishlab beradi. Uslubiyatning maqsadi fan, predmet mavzulariga oid nazariyalarni amaliyotga, o'qitishga ko'chiradi. Masalan, hududiy ishlab chiqarish

majmualari, uni joylashtirish omillarini pedagogik jarayonda qo'llash usullari va hokazo.

PT o'qitish jarayonida o'zaro bog'liq qismlarni tashkiliy jihatdan tartibga keltirib, ularni joriy etish va maqsadga erishishni ta'minlaydi. O'qituvchi kasbiy faoliyatni yangilab, ta'linda yakuniy natijani kafolatlaydi.

Yapon olimi B.Sakamoto «o'qitish texnologiyasi – o'qitishning maqbulligini ta'minlovchi yo'l-yo'riqlar tizimi bilan bog'liq bilimlar sohasi» ekanligini e'tirof etadi.

Professor E.G'oziyev, A. Jabborovlar texnologiyani: «Belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat», deb tushuntiradi. Ular zamonaviy o'qitish texnologiyasi haqida fikr yuritib, uni alohida fan sifatida qarash lozimligini uqtirib o'tadi.

PTni G.K. Selevko ham alohida fan deb e'tirof etib: «Pedagogik texnologiya o'qitishning birmuncha oqilona yo'llarini tadqiq qiluvchi fan sifatida ham, ta'linda qo'llaniladigan usullar, printsiplar, regulyativlar sifatida ham, real o'qitish jarayoni sifatida ham mavjuddir», – deydi. Olimning ta'kidlashicha, PT tushunchasi ta'lim amaliyotida uch darajada ishlataladi.

1. Umumpedagogik daraja: ma'lum mintaqqa, oliv, o'rta o'quv yurti, ma'lum o'qitish bosqichida, yaxlit ta'lim jarayonida tavsiflanadi (umumdidaktik, umumtarbiyaviy daraja).

2. Xususiy metodik daraja: «Xususiy metodika» ma'nosida qo'llaniladi. Ta'lim va tarbiyaning aniq mazmunini joriy etish metodlari, vositalari yig'indisi sifatida bir predmet, sinf, o'qituvchi doirasida qo'llaniladi (Fanlar o'qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi) (predmetli daraja).

3. Lokal (modulli) daraja: lokal texnologiya o'quv-tarbiya jarayonining ayrim qismlarini, xususiy ta'limiy va tarbiyaviy masalalar yechimini o'zida mujassamlashtiradi (alohida faoliyat turlari texnologiyasi tushunchalarini shakllantirish alohida shaxs sifatlarini tarbiyalash, dars texnologiyasi yangi bilimlarni egallash, mustaqil ishlash texnologiyasi va hokazo).

I.Ya. Lerner fikricha: «PT o'quvchilar harakatida aks etgan o'qitish natijalari orqali ishonchli, anglab olinadigan va aniqlanadigan maqsadni ifodalashni taqozo etadi».

V.I. Bespalko: «PT bu – o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lмаган holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirishning jarayoni loyihasidir», deb ta’riflab, ta’rif mazmunidagi ilmiy printsiplarni alohida ajratib ko‘rsatadi:

- PT o‘quvchilarda ma’lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanadi;
- loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o‘qituvchisidan katta pedagogik mahorat talab etmaydi;
- yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

PT tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta’riflarning xilma-xilligi, bir tomondan rivojlangan mamlakatlarda bu mavzuning u yoki bu darajada yechilganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan PTni amaliyatga joriy etishga bo‘lgan urinishlar natijasini ifodalaydi.

PT nazariyasi va amaliyotni bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган holda o‘rganib kelindi. Natijada, o‘qitish jarayonini takomillashtirishga yoki o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilg‘or metodikalar texnologiyalar darajasida ko‘tarila olmay, asta-sekin o‘z mavqeini yo‘qotib, pedagogika fanidan uzoqlashib ketdilar. Masalan, XX asr 60-yillari katta shov-shuvga sabab bo‘lgan «Dasturli ta’lim» («Programmirovannoye obuchenije») yoki 70-yillar «Shatalovchilik harakati»ni eslash kifoya.

Bugungi kunda mamlakatimizda mutaxassislarining ilmiy salohiyatini birlashtirish imkoniyatlari yetarli. Nazariya va amaliyot birligining ta’milanishi PTning aniq mohiyatini aniqlashga yo‘l ochadi:

Birinchidan, PT ta’lim jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos ravishda ma’lum pedagogik tizim (maktab, kollej, oliy o‘quv yurti) mavjud bo‘ladi. Bu tizimga uzlusiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta’sirini o‘tkazadi va ta’lim-tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi. Maqsad esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o‘z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'naliшgа burdi: «O'tmishtan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash». Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi. Unga xos holda pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir.

Ikkinchidan, fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib borayapti, auditoriyada o'qitish imkoniyatlari katta bo'lgan yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Ro'y berayotgan sifatiy o'zgarishlar shundan dalolat beradiki, endi o'rganishning birlamchi jarayonlari an'anaviy metodika va o'qitish vositalari domiga sig'may, o'qituvchining individual qobiliyatlariga mos kelmay qoladi. Yangi uslubchilarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan va o'zining ma'lum xususiyatlarini va hissiyotlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli audiovizualli vositalar mavjudki, ular yangi PTni real voqelikka aylantiradi.

PT mohiyati jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi. Boshqa texnologiyalar o'z xususiy sohasiga, metod vositalariga ega ma'lum material bilan ish ko'radi. PT inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hamimaga ham tushunarli bo'lмагan pedagogik jarayonni ifoda etish bilan ishlab chiqarish, biologik, axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos tomonlari ta'lim-tarbiya komponentlarini mujassamlashtirgandadir. PT boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzlusiz boyib bormoqda va an'anaviy jarayon hozirgi zamon tizimida juda qiyin kechayapti, haqiqiy kompyuterli PT o'zining ishlanmasini kutayapti: kompyuterning shu kundagi qo'llanishi ekstensivlik xolos, an'anaviy o'quv kurslari shunchaki ekran monitoriga joylashtirilayapti. PT va axborot texnologiyasi o'rtasidagi o'zaro munosabatni oydinlashtirish lozim. O'quv tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish tarixiy voqelik jarayonidir. Oddiy til bilan aytganda, ta'limda axborot texnologiyasi bu «o'quvchi-kompyuter» o'rtasidagi muloqotdir.

Ta'limni texnologiyalashtirish obyektiv jarayon bo'lib, uning zamonaviyligi esa ilmiy-texnik taraqqiyot yo'nalishi bilan belgilanadi. PTning o'ziga xos tomonlari va u bilan bog'liq vazifalar quyidagilar:

- ko'p bosqichli ta'lim tizimida PTning o'rnini asoslash va zaruriy tavsiyalar ishlab chiqish;
- zamonaviy iqtisodiyot, ekologiya, sanoat, tibbiyot kabi soha texnologiyalari bilan PTlarni muntazam ravishda yangilab borish va tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ularni qo'llash mezonlarini aniqlash;
- istiqbolli o'qitish vositalarini yaratish va ularga tayangan holda ilg'or PTlarni loyihalash, amaliyatga joriy etish, optimallashtirish va samarasini aniqlash;
- tegishli boshqaruv organlari tomonidan o'quv muassasalari faoliyatida PTlarni tatbiq etilishi darajasini nazorat qilib borish;
- respublikamizdagi oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar, maktab ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarni malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari bo'yicha yangi bilimlar tizimi bilan qurollantirishni tashkil etish;
- oliy o'quv yurtlari talabalari, ayniqlsa, mutaxassis-pedagog (iqtisodchi-pedagog, huquqshunos-pedagog, muhandis-pedagog)lar uchun PT nazariyasi bo'yicha 40 soat hajmida maxsus kurs joriy etish;
- respublikada faoliyat ko'rsatayotgan ijodkor o'qituvchilar ish uslublarini muntazam o'rganib borish va ular tomonidan yaratilgan metodikalarni PT lar darajasiga ko'tarish borasidagi ishlarni amalga oshirish;
- o'qituvchi faoliyatini PT qonuniyatlariga moslashtirish muammolari va hokazo.

Uchinchi ming yillikda ta'lim taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch o'qituvchining psixologik faoliyatini yangilash, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul tarzda ko'rishga, o'quvchi (talaba) yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

16.2. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi

Yangi o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilayapti: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy, mafkuraviy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya sohasining isloh qilinishi pedagogika-psixologiya fanini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endilikda kishilik jamiyatni tomonidan uzoq yillar davomida yaratilgan ta'lim-tarbiyaga oid tajribalarni o'rganish va tadqiq qilish ishlari keng yo'lga qo'yildi.

Endilikda mamlakatimizda istiqlol sharofati tufayli barcha fan sohalarini rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribalar asosida tahlil qilish va yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish va hayotga tadbiq etish davri keldi. Milliy dasturda ta'kidlanganidek, yaqin kelajakda «kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlikning xalqaro huquqiy bazasi yaratiladi, xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari ro'yobga chiqariladi, xalqaro ta'lim tizimlari rivojlantiriladi».

XX asrning 30-yillarida «pedagogik texnika» tushunchasi maxsus adabiyotlarda paydo bo'ldi va o'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga yo'naltirilgan usul va vositalar yig'indisi sifatida qaraldi. PT deb o'quv laboratoriya jihozlari bilan muomala qilishni o'rganish, ko'rsatmali vositalardan foydalanish tushuntirildi. O'tgan asrning 40-50-yillarida o'quv jarayonida o'qitishning texnika vositalarini joriy etish davri boshlandi. Ayniqsa, kino, radio, nazorat vositalari, ulardan foydalanish metodikasi PTga tenglashtirildi.

60-yillarning o'rtalaridan bu tushuncha mazmuni chet el pedagogik nashrlarida keng muhokamaga sabab bo'ldi. 1961 yildan AQSh da «Pedagogik texnologiya», 1964 yildan Angliyada «Pedagogik texnologiya va dasturli ta'lim», 1965 yildan Yaponiyada «Pedagogik texnologiya», 1971 yildan Italiyada «Pedagogik texnologiya» jurnallari chop etila boshlandi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, bu davrda PT ikki yo'nalishda muhokama qilindi va rivojlantirildi: birinchisi, o'quv jarayoniga

texnik vositalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi o'qitish texnologiyasi masalalarini, ya'ni o'quv materiallarni tahlil qilishdan tortib, ta'lif jarayonini turlicha nashrli va texnik vositalardan jamuljam foydalanilgan holda tizimli tashkil etishga qadar bo'lgan keng doiradagi muammolarni qamrab oladi.

O'zbekiston xalqi demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan izchil bormoqda. Kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lif ustuvorligi qaror topdi. O'quv-tarbiya jarayonini ilg'or PTlar bilan ta'minlash kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarish shartlaridan biridir.

Ta'limi texnologiyalashtirish bilan bog'liq omillar rus olimi S.G. Shalovalenko tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- texnikani bilish va mukammal egallash;
- audiovizual fond bilan tanish bo'lish;
- texnika vositalaridan foydalanish metodikasini egallash.

Bu yerda fikrning bироqlамалигі ко'зга ташланади.

Venger olimi L. Salan o'qitish texnologiyasi doirasini birmuncha kengaytiradi: rejalah, maqsad tahlili, o'quv-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, maqsad va mazmunga mos keladigan metod, vosita va materiallarni tanlash bevosita PTni loyihalashda o'qituvchi faoliyatiga xosligini ta'kidlashdir.

70-yillar oxiriga kelib chet ellarda texnika rivoji va ta'limi kompyuterlashtirish darajasiga bog'liq holda PT ikki jihatdan alohida tadqiq qilingan:

1. O'quv jarayoniga texnika vositalarini joriy qilish.
2. Amaliy masalalar yechimini topishda bilimlar tizimidan foydalanish. Masalan, Yaponiyada bu davrda olib borilgan tadqiqotlar o'quv jarayonini texnologiyalashtirishning birinchi yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan. PTning ikkinchi yo'nalishi nazariy didaktik jihatlari 80-yillarning boshida AQSH, Angliyada tadqiqot obyektiga aylandi.

80-yillarda PT mohiyatini oydinlashtirishga bo'lgan urinishlar Rossiya pedagog olimlarining diqqatini jalb eta boshladi. Akademik V.P. Bespalko tomonidan PTning ilmiy maktabi yaratildi: «PT amaliyotga joriy etiladigan ma'lum pedagogik tizim loyihasidir». Bugungi kunda ham ana shu kontsepsiya

pedagogik hamjamiyat tomonidan ta'limi texnologiyalarni loyihalash va rivojlantirishda foydalanib kelinmoqda.

PT mamlakatimiz ta'lim tizimida, qolaversa, pedagogik nashrlarda 1997 yil «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da dolzarb tadqiqot obyekti darajasiga ko'tarildi va ijtimoiy buyurtma sifatida yuzaga keldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan «Ma'rifat», «Xalq ta'lifi» kabi gazeta va jurnallarda turkum maqolalar paydo bo'ldi va unda PT tushunchasi mohiyati ta'rifi berilib, u ma'lum pedagogik tizim doirasida talqin etildi.

1. Falsafiy asosi bo'yicha (materializm, idealizm, dialektik, metafizik, insonparvar, noinsonparvar, antrosofiya, teosofiya, pragmatizm va boshqa).

2. Ruhiy rivojlanishning yetakchi omillari bo'yicha (biogenli, sotsiogenli, psixogenli, idealistik).

3. O'zlashtirish konsepsiysi bo'yicha (assotsiativ, reflektorli, rivojlantiruvchi bexevlorestik, geshtalttexnologiya, suggestiv, neyrolingvistik).

4. Shaxs tuzilmasiga yo'naltirilganlik bo'yicha (axborotli, operatsion, hayajonli-badiiy-axloqiy, o'z-o'zini rivojlantiruvchi, evristik va amaliy).

5. Mazmuni va tuzilishi xarakteri bo'yicha (ta'limi va tarbiyaviy, dunyoviy va diniy, umumta'lim va kasbga yo'naltirilgan, gumanitar va texnokratik hamda monotexnologiyalar va politexnologiyalar).

6. Tashkiliy shakllari bo'yicha (sinf-dars, muqobilli, akademik, yakka tartibli, guruhli, jamoa bo'lib o'qish usullari, tabaqlashtirilgan ta'lim).

7. Bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish turi bo'yicha (ma'ruzali-klassik o'qitish, audiovizualli texnik vositalar yordamida o'qitish: «repetitor tizimi», «dasturli ta'lim»).

8. Bolaga yondashish bo'yicha (avtoritar, diduktatsentrik, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar, hamkorlik texnologiyasi, erkin tarbiyalash texnologiyasi, ezoterik texnologiyalar).

9. Ustuvor metodlar bo'yicha (reproduktiv, tushuntirish-ko'rsatish, rivojlantiruvchi ta'lim, ijodiy dasturli ta'lim, dialogli, o'yinli ta'lim, o'z-o'zini o'qitish ta'limi, axborotli ta'lim).

10. Mavjud an'anaviy tizimlarni yangilash yo'nalishlari bo'yicha (munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish asosida; bolalar faoliyatini faollashtirish va jadallahshtirish asosida; tashkillashtirish va boshqarish samaradorligi asosida; o'quv materiallarini metodik va didaktik rekonstruksiyalash asosida; tabiatan monandlik, muqobililik texnologiyalari, mualliflik matabining yagona texnologiyasi).

11. Tahsil oluvchilar toifasi bo'yicha (ommaviy texnologiya, olg'a odimlovchi ta'lim, to'ldiruvchi o'zlashtirmovchilar bilan ishlash texnologiyalari, iqtidorlilar bilan ishlash texnologiyalari).

16.3. Pedagogik texnologiya loyihalari: ilmiy yondashuvlar va yechimlar

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida jamiyatning bor imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, kuchli intellektual va ma'naviy salohiyatini shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich bevosita ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish, yangi texnologiyalarni loyihalash va pedagogik amaliyotga tatbiq etish bilan uzviy bog'liqidir.

Yurtboshimiz I.A. Karimov Oliy Majlisning XVI sessiyasida «Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni nazorat ostiga olish zarur»ligini alohida ta'kidladilar. Olimlar va o'qituvchilar ilg'or PTlarni ishlab chikishga astoydil kirishishlari shart va ular bu ishga mas'uldir.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi asoslari

Modulli ta'lim dastlab AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish tizimida qo'llana boshlagan. Modulli ta'lim o'zining yetarli asoslanganligiga qaramay, u mazmun va yosh jihatidan hozirgacha tortishuv va fikrlar qarama-qarshiligiga uchrab kelayapti. Xorijiy mualliflar V.M.Goldshmit: «Modul deganda, aniq o'r ganilgan maqsadga erishishga yordamlashadigan yaxlit o'quv faoliyatini shakllantirishni tushunaman», desa, D.J. Rassel modul mohiyati o'quv materialining avtonom bo'laklarini

qurish to'g'risida faolroq fikrni aytadi. P.A. Yutsyavichenenning ko'rsatishicha: «Modulli o'qitish mohiyati shundan iboratki, o'rganuvchi qisman yoki to'liq mustaqil ravishda unga taklif etilayotgan harakatlarning maqsadli dasturini, axborotlar bankini va qo'yilgan didaktik maqsadga erishish bo'yicha metodik ko'rsatmani o'zida qamrab olgan individual o'quv dasturi bilan ishlashi mumkin. Bunda pedagogning vazifasi axborotli nazorat qilishdan tortib maslahatchi koordinatsiyalovchilikka qadar turlanishdan iborat bo'ladi».

Professor M.A. Choshanov ham keyingi fikrga qo'shilgan holda, fan rivojining hozirgi bosqichida modullilik tushunchasi metodologik mazmunga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlaydi.

Ta'limiy tizimda muammoli ta'lim berish ancha-muncha tadqiq etilgan. U o'rganuvchilarning fikrlash faoliyatini bir muncha faollashtiradi, ularda muammoning yechimiga yondashishni o'ziga xos shakllantirib, ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Bu ta'sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlari muammoli vaziyatlar va ularning yechimini tuzish bir necha variantlarda amalga oshiriladi. Muammoli ta'lim bo'yicha A.M. Matyushkin, M.I. Mahmudov, I.Ya. Lerner kabi olimlar o'z nazariyalarini yaratganlar.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatolarni izlab topishga qartilgan. Maqsadga muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratiladi. U o'zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi.

1. Bilihga oid xatolar. Bu xatolar bilimlar tadrijiy jarayonida olimlar tomonidan yo'l qo'yiladi. O'quv jarayonida bu xatolardan foydalanib, o'quvchilarda borliqni tanqidiy mushohadalash, tahlil qilish va o'z xatolarini to'g'rilash ko'nikmalarini shakllantiradi hamda o'quv predmeti, fanga bo'lgan munosabati o'zgaradi: o'rganayotgan o'quv predmeti o'quvchilar oldida tayyor haqiqatlar yig'indisi sifatida emas, balki g'oyalalar va odamlarning tarixiy dramasi tarzida, ijtimoiy məktəb va yo'nalishlar kurashi tarzida, odat va yangilanish qarama-qarshiligi sifatida turadi.

2. Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq: o'rganish xatolari ko'p hollarda o'qitish xatolari natijasidir.

3. O'quv xatolari maxsus tashxislovchi jadvallarda har bir muammoli modul uchun guruhanadi va keyinchalik kuchli ta'sir etuvchi vositalar sifatida foydalilanadi. Agar an'anaviy o'qitishda bilmaslikdan bilihga o'tish standartli vaziyatlarni qo'llash bilan chegaralansa, muammoli-modulli o'qitishda o'quvchining rivojlanish doirasi yangi bilimlarni yuzaki o'zlashtirish va noto'g'ri qo'llashga olib keladigan tanqidiy vaziyatlarni xatolar sohasigacha kengaytiriladi. Bunday sharoitda bilmaslikdan bilihga o'tish sohasi o'rganuvchi uchun asosiy muammoga aylanmaydi, balki tabiiy zveno bo'lib qoladi, ularning dolzarb rivojlanish mintaqasiga aylandi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasining yetakchi sifat belgisi bu egiluvchanlik hisoblanadi. Zamonaviy yuqori texnologiyani ishlab chiqarishda egiluvchan avtomatlashtirilgan tizim muhim sanalgan kabi, hozir ham, kelajakda ham PT samaradorligi ko'p jihatdan uning ilmiy- texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgaruvchan sharoitga olish va zudlik bilan ta'sir etish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Egiluvchanlik tuzilmasi mazmunli va texnologik holda bo'lishi mumkin.

Tuzilmali egiluvchanlik qator holatlar bilan ta'minlanadi: muammoli-modulli tuzilmasining safarbarligi, muammoli-modulli dastur pog'onaligi, egiluvchan jadval loyihasining mavjudligi va ko'p vazifali o'quv xonalarining jihozlanganlik imkoniyatlari va boshqa.

Mazmunli egiluvchanlik, birinchi navbatda, ta'lim mazmunini tabaqlashtirish va integratsiyalash imkoniyatlarida namoyon bo'ladi. Bunday imkoniyatning o'zi taklif etilayotgan texnologiyada o'quv materialining blok va moduli tamoyil asosida saralanish evaziga vujudga keladi.

Texnologik egiluvchanlik muammoli-modulli ta'lim jarayonining quyidagi jihatni bilan tavsiflanadi: o'qitish metodlarining variantligi, nazorat va baholash tizimining egiluvchanligi, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yakka tartibda tashkil etish va boshqa.

M.A.Choshanovning ta'kidlashicha, kasb maktablarida o'qitish jarayonini muammoli-modulli asosga o'tkazish quyidagilarga imkon beradi:

- o'quv materialining muammoli-modullarini guruhlash yo'li bilan kursni to'liq qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlarni ishlab chiqishni ta'minlaydigan dialektik birlikda integratsiyalash va tabaqalashtirishni amalga oshirish;

- bilim darajasiga bog'liq holda o'quvchi-talabalarning u yoki bu muammoli-modulli dastur variantini mustaqil tanlashi va ularning dastur bo'y lab individual siljish sur'atining ta'minlanishi;

- muammoli modullardan pedagogik dasturli vositalarini yaratish uchun stsenariylar sifatida foydalanish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishda o'qituvchi ishida maslahatchi-koordinatsiyalovchi vazifasiga urg'uni ko'chirish;

- o'quv materialining bayon qilish tezligi va o'zlashtirish darajasiga putur yetkazmagan holda o'qitish metodlari va shakllari majmuasiga moslik asosida kursni qisqartirish.

Shu bilan birgalikda, opponentlar tomonidan muammoli-modulli o'qitishning qator kamchiliklari ko'rsatildi, ular: ta'lim jarayonining bo'laklarga bo'linganligi, ya'ni o'quvchilarning mustaqil ishlari salmog'i birmuncha katta; o'quv predmetining yaxlitligi va mantig'ini inkor etish; o'quvchi-talabalarni tayyorlash torligi: o'qitish kursining bog'liq bo'limgan muammolar yoki masalalar seriyasiga qadar qisqarishi; umumlashmaga ziyon yetkazadigan xususiy aniq ko'nikmalarnigina shakllantirishi; muammoli modullarni tayyorlash va mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlikning ko'p mehnat talab qilishi.

Sanab o'tilgan kamchiliklarning ko'pligi modulli o'qitish texnologiyasining o'rnatish bosqichida bir muncha aniq sezilsa-da, asta-sekinlik bilan tekislanib boradi. Shuni eslatish joizki, u yoki bu texnologiyani «toza» holda joriy qilish mumkin emas. Xohlaymizmi yoki yo'qmi – o'quv jarayonini tashkil etishning an'anaviy yondashuviga va mayjud didaktik jarayonga tayanishga to'g'ri keladi.

Ta'lim mazmunini muammoli-modulli loyihalash quyidagi asosiy tayanchlardan iborat bo'ladi:

- bilish faoliyatining fundamental metodlari doirasida kursni joy-joyiga qo'yib tuzish;

- tayanch muammoli modullarning mazmunini aniqlash. Saralashning muhim sharti bilish faoliyati metodlarining printsipli mazmuni hisoblanib, umummadaniy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu o'qitishning tayanch mazmuniga oid quyidagi mezonlarni hisobga olishni taqozo etadi;

fundamental, uzviylik, uzlucksizlik va ta'limni insonparvarlashtirish;

- yechimi bilish faoliyati metodlarining mosini qo'llashni talab etadigan yirik kasbiy-amaliy muammolarni turli guruh kasblarning o'ziga xosligini hisobga olib ajratish;

- ixtisosli va darajali tabaqalashtirishni ta'minlashga yo'naltirilgan o'zgaruvchan modullarining mazmunini tanlash va hajmini aniqlash, shuningdek, muammoli-modulli dasturlarning turli to'liq, qisqargan va chuqurlashtirilgan variantlari bo'yicha o'quvchi-talabalarning yakka tartibda olg'a siljishi uchun sharoitlar yaratish. Muammoli modullarni qo'llash ko'lami quyidagi tartibotlarni qamrab oladi: tizimli, avtonom va integratsiyalashgan. Tizimli tartibot muammoli modullardan mustaqil kurs doirasida foydalanishni taqozo etadi. Avtonom ma'lumot moduli sifatida boshqa fanlar doirasida, integratsiyalangan integrativ kurs doirasida qo'llanishi lozim.

Shunday qilib, muammoli modulli o'qitish texnologiyasining mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: o'quvchi-talabalarning talab etilgan darajada bilimdonligiga erishish uchun o'quv materiali mazmunini yirik tuzilmalash, unga mos holda o'qitish metodlari, vositalari va shakllarni tanlash amalga oshirilib, ular o'quvchi-talabalarni to'liq, qisqargan yoki chuqurlashgan o'qitish variantlarini mustaqil tanlash va o'tishga yo'naltiriladi. Mualliflarning ta'kidlashicha, muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi bo'yicha 70 foiz o'quv materiali yuqori darajada o'zlashtirilgan va aniq o'rnatilgan kamponentlik darajani kafolatli ta'minlagan.

16.4. Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi

Muammoli ta'lif dastlab AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarning oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish tizimida qo'llanila boshlangan. Modulli ta'lif o'zining yetarli asoslanganiga qaramay, u mazmun va yosh jihatidan hozirgacha tortishuv va fikrlar qaramaqshiliga uchrab kelayapti. Xorijiy mualliflar V.M.Goldshmit: «Model deganda aniq o'rganilgan maqsadga erishishga yordamlashadigan yaxlit o'kuv faoliyatini shakllantirish tushuniladi», desa, D.J.Rassel model mohiyati o'quv materiallarini avtonom bo'laklarini qurish to'g'risida faolroq fikrni aytadi. Professor M. A. Choshanov ham keyingi fikrga qo'shilgan holda fan rivojining hozirgi bosqichida modullilik tushunchasi metodologik mazmunga ega bo'layotganligini alohida ta'kidlaydi.

Muammoli o'qitishning ta'limi tizimida muammoli ta'lif berish ancha-muncha tadqiq etilgan. U o'rganuvchanlikning fikrlash faoliyatini bir muncha faollashtiradi, ularda muammoning yechimiga yondashishni shakllantirib, ijodiy tafakkurni rivojlanadiradi. Bu ta'sir intellektual qiyinlashuvning maxsus vaziyatlar va ularning yechimini tuzish bir necha yondashishining variantlarida amalga oshiriladi.

Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasida asosiy diqqat xatolarni izlab topish maqsadida, muvofiq tarzda tuzilgan maxsus vaziyatlar tizimi orqali o'rganuvchilarga tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan. U o'zida xatoliklarning uch asosiy guruhini birlashtiradi. 1. Bilishga oid xatolar. Bilimlar tarixiy jarayonida bu xatolardan foydalanib, o'quvchilarda borliqni tanqidiy mushohadalash, tahlil qilish va o'z xatolarini to'g'rilash fanga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi. 2. Metodik xatolar o'quv xatolari bilan o'zaro bog'liq. 3. O'rganish xatolari ko'p hollarda o'qitish xatolari natijasidir.

16.5. O'quv materiallarining belgi modellari asosida ta'limi jadallashtirish texnologiyasi

Donsk ochiq universiteti professori V.F. Shatalov o'qitishni jadallashtirish texnologiyasini ishlab chiqdi va amaliyotga

tadbiq etib, an'anaviy sinf-dars o'qitish usulining ochilmagan qirralarini ko'rsatib berdi.

Bu texnologiyada ta'lif maqsadlari:

- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- har qanday individual qobiliyatli bolalarning barchasini o'qitish;
- tezlashgan o'qitish (umumiy o'rta hajmni 9-yilgacha o'qitish).

Printsiplari:

- ko'p marta takrorlash, majburiy bosqichli nazorat, yirik bloklar bilan o'rganish: faoliyatining dinamik yaxlitligi, tayanch signallari, harakatlarning mo'ljalli asoslari;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv;
- insonparvarlik (barcha bolalar iqtidorli);
- o'quv vaziyatlarining tafovutsizligi, tuzatish uchun istiqbollarning ochiqligi, muvaffaqiyatning o'sib borishi;
- ta'lif va tarbiyaning uzviyiligi.

Mazmunning o'ziga xos jihatlari:

- o'quv materiali yirik hajmda kiritiladi;
- material bloklar bo'yicha joylashtiriladi;
- o'quv materiali tayanch sxema-konspekt ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

V.F.Shatalov texnologiyasining asosiy g'oyasi darsda o'quvchilarning yalpi faolligini ta'minlaydigan o'quv faoliyati tizimi yaratiladi. O'quv faoliyatining andozasi asosida tayanch ko'rsatmali chizmalar yotadi.

Tayanch – mo'ljalli harakatlar asosi, bolaning ichki aqliy faoliyatini tashqi ko'rinishda tashkil etish usuli.

Tayanch signal assotsiativ ramz (belgi, so'z, rasm, chizma, shakl va boshqalar) bo'lib, ma'lum fikriy ma'noni bildiradi.

Mantiqiy tayanch konspekti qisqacha shartli matn ko'rinishidagi tayanchli signallar tizimi bo'lib, yaxlit o'quv materialining o'zaro bog'liq elementlari sifatida tushunchalar, faktlar, g'oyalar tizimining ko'rsatmali konstruktsiyasini o'zida aks ettiradi.

Mantiqiy tayanch konspektlar o'quvchilarning asosiy nazariy bilimlarini, ta'lif sifatini oshiradi. Mantiqiy tayanch konspekt

ma'ruza, seminar shaklida olib boriladigan iqtisodiy geografiya darslarida juda qo'l keladi. Bu darslarda ma'ruza – amaliyot – maslahat – seminar – anjuman – munozara – suhbat tarzida mavzuning yangi bilimlar berish qismida olib borilib o'quvchilarning umumiy tushuncha qonuniyatlarini, sabab-oqibat aloqalarini o'zlashtirishi osonlashadi.

Mantiqiy tayanch konsept o'quv materiali grafik tarzda mantiqiy tarkibda jarayonlar bayon qilinadi. Mantiqiy tayanch konsept o'quvchilarda o'quv materiali haqida ko'rgazmali aniq tasavvur beradi.

Beriladigan o'quv materiallari ma'lum bir tizimda yaxlit qilib beriladi. Materialarning asosiy qismlari bir-birlari bilan mantiqiy bog'langan, ma'ruza mazmuniga mos uni o'quvchilar o'zlashtirishga qismlarni yaxlit holda tasavvur qilishi asosiy va xususiy aloqalarni iqtisodiy geografik jarayonning kechishida faktlar xarakterlanib, hodisa va jarayonning mazmuni ochiladi.

Mantiqiy tayanch konsepti tayyorlashda o'qituvchi mantiqiy to'ldiruvchi ma'lumotlar chizmada qiziqarli faktlar bilan boyitilib, amaliy tarzda beriladi. Tasvir miqyosida bo'lishi, qisqartma so'zlardan foydalanish, grafik, diagramma, strelka belgilaridan foydalanish mumkin.

O'qituvchi rangli bo'rlar bilan mantiqiy tayanch konseptlarini doskaga chizib ko'rsatib boradi. O'quvchilar esa doskadan ko'chirib oladilar yoki o'qituvchi mantiqiy tayanch konseptini darsga chizilgan tayyor holda olib kirishi mumkin. O'quvchilar konseptini ko'chirayotganda, ularning his qilish organlari tafakkur bilan bir joyga qaratilgan bo'ladi.

Xulosalash qismida ma'ruzaning asosiy joylari yana bir takrorlanadi, umumiy xulosalar chiqariladi.

Mantiqiy tayanch konsepti ayrim joylarini uyg'a vazifa qilib berish mumkin va u darslikdagi materiallar bilan to'ldiriladi.

Bu texnologiyada o'qituvchi mehnati asosiy mavqeni egal-laydi va bu mehnatga o'quvchilar ayrim hollardagina (nazorat, maslahat, yordam) jalb etiladi. Tayanch signallari yordamida o'qitish jarayoni qator bosqichlardan iborat:


1. Sinfda o'qitish: mavzu o'qituvchi tomonidan odatdagidek sind doskasi yonida (bo'r, latta yordamida) tushuntiriladi, keyin

esa tayanch konspektlar asosida mavzuni tushuntirish takrorlanadi. O'quvchilarning o'z konspektlari ustida mustaqil ishlashi ta'minlanadi va frontal tarzda bilimlar mustahkamlanadi.

2. Uyda mustaqil ishlash: tayanch konspekt dagi kodlashtirish o'quv materillarini o'quvchi darslik yordamida oydinlashtiradi.

3. Nazorat va baholash: mavzu bo'yicha o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari tashqi nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish yordamida tekshiriladi. Nazorat shakli: tayanch konspekti bo'yicha yozma, mustaqil ish, og'zaki so'rov, juftli-o'zaro nazorat, guruhli-o'zaro nazorat.

V. F. Shatalov bo'yicha o'qitishni tashkil etish texnologiyasi



Muallifning boy tajribasi. «Tayanch signallari varaqasi» asosida tashkil etilgan o'quv-bilish faoliyati o'quvchilarning yuqori ko'rsatkichga erishishini, shubhasiz, ta'minlaydi, o'quvchi olgan baho bilimlarni hisobga olish varaqasida qayd etiladi va u xohlagan vaqtida qayta tayyorlanib, o'z bahosini tuzatishi mumkin. Demak, bu texnologiya ochiq istiqbolli printsipni ta'minlagan holda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtaida nizo tug'dirmaydi.

16.5. O'quv maqsadlari taksonomiyasi

Ta'limiyl uchlik – «Maqsad – jarayon (vosita) – natija»ning o'rta bo'g'iniga o'zbekistonlik va rossiyalik olimlar ko'proq e'tibor ko'rsatishgan bo'lsa, amerikalik pedagoglar bu zanjirning ikki chetidagi xalqasini chuqur tadqiq qilishgan. Ayniqsa,

Chikago universiteti professori Benjamen Blum rahbarligida o'tgan asrning 50-yillarida «O'quv maqsadi taksonomiyasi» kontseptsiyasining yaratilishi klassik tadqiqot sifatida e'tirof etildi va u bugun ham o'zining qiymatini yo'qtgani yo'q.

«Taksonomiya» atamasi yunoncha taxis (tartib bo'yicha joylashuv) va nomos (qonun) so'zlaridan iborat bo'lib, obyektlarni o'zaro aloqadorlik asosida tasniflash va tizimlashtirish ma'nosini anglatadi. Blum taksonomiyasi o'quv faoliyatining turli sohalarini qamrab oladi: kognitiv (bilish), affektiv (hissiy-qadriyatli), psixomotor (harakat)li.

1. Kognitiv soha. Bunga mavjud bilimlarni qayta tafakkurlash, ularni o'zlashtirilgan harakat usullari bilan chog'ishtirish, ya'ni g'oyalar tuzish zaruratiga tegishli o'quv maqsadlari kiritiladi. Ular o'qituvchining kundalik faoliyati uchun kerakli hisoblanib, o'quv dasturi va darsliklarda o'z ifodasini topadi.

2. Affektiv soha. Bunga qiziqish va moyilliklarni shakllantirish, u yoki bu sezgilar ta'sirida hayajonlanish, munosabatni shakllantirish, uni faoliyat davomida anglash va yuzaga chiqarish maqsadlari kiradi. Boshqacha qilib aytganda, obyektiv borliqqa bo'lgan hayajonli-shaxsiy munosabatlarni shakllantirish maqsadlari bu sohaning asosini tashkil qiladi.

3. Psixomotorli soha. Bunga u yoki bu motorli, manipulyativ faoliyat turlarini, asab muskullarini markazlashtirish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq maqsadlar kiritiladi.

Blum taksonomiyasi quyidagi to'rt printsip asosida qurilgan:

- amaliy: o'qituvchi-amaliyotchi uchun taksonomiya samarali qurol bo'lishi, o'zida maqsadlar iyerarxiyasini ifodalashi lozim;

- psixologik: taksonomiya zamонавиј psixologiya fani yutuqlariga tayanishi lozim;

- mantiqiy taksonomiya mantiqiy tugallangan va muayyan ichki tuzilmaga ega bo'lishi lozim;

- obyektivlik: maqsadlar iyerarxiyasi ularning qadriyatlar iyerarxiyasini belgilaydi.

Ana shu printsiplarga tayanilgan holda o'quv faoliyatining yuqorida ta'kidlangan turlari bo'yicha o'quv maqsadlari taksonomiyasi yaratildi.

Ma'lumki, PTning o'ziga xos xususiyati oldindan o'rnatilgan maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayonini loyihalash va amalga oshirishdir. Ta'limni maqsadga ketma-ket yo'naltirish asosi tezkor aloqa hisoblanib, o'quv jarayonining barcha bo'g'inlariga kirib boradi. Shu boisdan ta'limga texnologik yondashuvda quyidagilar ajralib turadi:

- maqsadlarni o'rnatish va ularni mumkin qadar aniqlashtirish (bu bosqichga o'qituvchi birinchi darajali ahamiyat beradi);


butun o'qish jarayonini o'quv maqsadlariga qat'ian qaratish;

- o'quv maqsadlarini mo'ljallash va shu tariqa natijalarni qo'lga kiritishga butun o'quv davomiyligini yo'naltirish;

- joriy natijalarni baholash, o'rnatilgan maqsadlarga erishish borasida o'qitish jarayonini tuzatish;

- natijalarni yakuniy baholash.

O'quv jarayonini texnologik jihatdan qurishning mohiyati aniq belgilangan maqsadlar sari harakatlanish hisoblanadi. Quyida bugungi kunda birmuncha keng tarqalgan B. Blum tizimining kognitiv sohasi bo'yicha o'quv maqsadlari taksonomiyasini keltiramiz. U o'zida olti toifadagi asosiy o'quv maqsadlarini qamrab oladi: bilish, anglash, qo'llash, tahlil, sintez va baholash.



1. Bilish. Bu darajada o'quv materiallarining asosiy unsurlarini eslash, tushunib yetish va qayta tiklashga yo'naltirilgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Bu darajadagi maqsadga uch toifadagi bilimlarni shakllantirishni kiritish mumkin:

- xususiyatli bilimlar (muddatlar, faktlar, sonlar, atamalar, nomlar);

mulohazali bilimlar (yo'nalishlar, mezonlar, sinflar, toifalar);

- muayyan bilimlar (yo'nalishlar, mezonlar, sinflar, toifalar);

- abstrakt bilimlar (printsiplar, aksiomalar, teoremlar, umumlashmalar, nazariyalar, tuzilmalar).

2. Anglash. Bu daraja, o'zida uch toifadagi o'quv maqsadlarini mujassamlashtiradi.

ko'chirish (ya'ni vaziyatlarni o'rganishda bilimlarni qo'llash ko'nikmasi);

- interpretatsiya (masalan, hisoblashda qo'lga kiritilgan natijani og'zaki tushuntirib berish);

- ekstropolyatsiya (masalan, egallangan bilimlarni o'xshash vaziyatlarga ko'chirish ko'nikmasi).

3. Qo'llash. Bu daraja asosan, o'quvchida amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

- bilimlarni amaliyotga qo'llash qobiliyati;

- tushunchalarni qo'llash;

- algoritmlarni qo'llash;

- nazariyalarni qo'llash va hokazo.

4. Tahlil. Bu daraja o'quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo'yicha aniqlashtiradi:

- unsurlar tahlili (butunni qismlarga bo'lish, ajratish);

- munosabatlar tahlili (unsurlar o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish);

- tamoyillar tahlili (unsurlarni tizimlashtirish).

5. Sintezlash. Bu daraja «alohida qismlardan yaxlitini tuzish» ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilaydi:

g'oysalar sintezi (masalan, muammo yechimi bo'yicha bildirilgan g'oysalarning umumlashishi);

- mulohazalar sintezi (masalan, shaxs sifatlarining shakllanganlik darajalari, mezonlarini ishlab chiqish);

tuzilma sintezi (obyekt ko'rinishi chizmasi, koordinat yordamida funktsiyani ifodalash).

6. Baholash. Bu toifa muayyan maqsad uchun u yoki bu materiallarning ahamiyatini baholash ko'nikmalarini nazarda tutadi. O'quvchi mulohazasi aniq mezonlarga tayanishi zarur. Baholash sifatida ichki bilish va ishonchlar (argumentlash, mantiq) hamda tashqi mezonlar (qoida, me'yor)ga tayaniladi. Mezonlarni o'quvchining o'zi aniqlashi yoki tashqi tomondan berilishi mumkin. Bu daraja oldingi toifalar bo'yicha o'quv natijalariga erishganligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

Shunday qilib, har qanday o'quv predmeti maqsadlarini ushbu taksonomiya asosida aniqlashtirish mumkin. Buning uchun o'quv predmetlarining mavzu (bo'lim)lari vertikal ustunga yoziladi. O'quvchilarning aqliy faoliyati turlari esa gorizontal ustunga qayd etiladi. Ular mantiqiy asosda ma'lum chorrahada kesishadi va joriy o'quv maqsadiga erishish darajasi (bilish, aniqlash, qo'llash, tahlil) aniqlashtiriladi.

Maxsus adabiyotlarda Blum taksonomiyasining turlicha modifikatsiyalari keltiriladi. Gap shundaki, bu taksonomiya, shubhasiz, afzalliklarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ba'zi bir nuqsonlardan ham holi emas. Inchunun, kognitiv sohasi bo'yicha o'quv maqsadlarini tizimlashtirishga da'vo qilinayotgan taksonomiya bilish tuzilmasining qabullash, tafakkur, xotira kabi darajalarida qaralmagan, ba'zi bir o'quv maqsadlari aqliy faoliyatning turlicha darajalarida takrorlanadi. Shunga qaramasdan, o'quv maqsadlarini fan mavzulari bo'yicha tasniflash o'qituvchiga o'z xususiy pedagogik faoliyatini to'g'ri belgilashga, o'quvchilarning nafaqat ichki holatini ifodalashga, balki shaxs sifatida shakllanishiga katta imkoniyat tug'diradi.

16.6. O'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi

Bugun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ijodiy pedagogikaga, ijodkor o'qituvchiga ehtiyoj nihoyatda ortib bormoqda. Bir-biridan ajoyib maktablar qurilishi, o'quv xonalari esa zamonaviy uslubda jihozlanishi mumkin. Yangi o'quv darsliklarini nashr qilishi mumkin, lekin bularning hammasi hali yetarli emas. Maktabga haqiqiy pedagog, o'qituvchi kirib kelgandagina ular jonlanadi, ijodiy pedagogikaning mash'alasi uchqunlanadi, pedagogik nazariya va tizimlar, ko'rgazmali qo'llanmalar harakatga keladi. Bugun ta'lim muassasalariga ijodkor o'qituvchilar kerak. Prezidentimiz: «Zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiylarning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak», deganda fidokor pedagoglarni nazarda tutgan edi.

Ijodiy pedagogik faoliyat bu – inson shaxsini, uning dunyoqarashini, ishonchini, ongini, xulqini shakllantirishga bo'ysundirilgan cheksiz masalalarni yechish jarayonidir. Psixologik-

pedagogik adabiyotlardagi pedagogik faoliyat turlari (ta'lif beruvchi, tashkilotchilik, kommunikativ va boshqa) qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Shu bilan birgalikda, pedagogik faoliyat muntazam o'zgaruvchan, yangilanuvchan, rivojlanuvchanligi bilan ajralib turadi: unga ijtimoiy buyurtma uzlusiz ta'sir ko'rsatadi.

O'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi ham bevosita o'qituvchidan ijodiy faoliyatni, qolaversa, ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soha bilimlarini talab etadi. Madomiki, texnologiya mavjud ekan, uni ta'lif-tarbiyaga singdirish shart ekan, bu jarayon qayerda kechishi mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Javob aniq: u, shaksiz, pedagogik korxonada pedagogik ishlab chiqarish jarayonida ro'y beradi. Taniqli pedagoglardan biri ta'kidlaganidek: «Bizning pedagogik ishlab chiqarish hech qachon texnologik mantiq bo'yicha qurilmagan, aksincha, har doim axloqiy va'z (nasihat) mantig'i bo'yicha qurilgan. Shu sababdan ta'linda ishlab chiqarishning muhim bo'limlari shunchalik ishtiroksiz qolayapti». Ushbu faslning vujudga kelish sabablaridan biri ham ana shunday holatdir.

Endilikda pedagogik atamalar tarkibiga «texnologiya», «operatsiya» (amal), «ishlash qobiliyati», «texnik nazorat», «dopusk» (o'lcham farqi) kabi qator tushunchalarni kiritish, ularning pedagogik talqinini yaratish va bevosita o'qitish jarayonida qo'llash kundalik zaruriyatga aylanmog'i darkor. Zamonaviy o'qituvchi faoliyati bilimlarni uzatuvchi oddiy metodist sifatida emas, balki «O'qituvchi texnolog» nuqtai nazaridan baholanishi kerak.

Texnologiya bu – shaxsni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish qonunlarini o'zida jo qiladigan va yakuniy natijani ta'minlaydigan pedagogik faoliyatdir. «Texnologiya» tushunchasi regulyativ (tartibga solib turuvchi) ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, erkin ijod qilishga undaydi:

- samarador o'quv-bilish faoliyatining asoslarini topish;
- uni ekstensiv (kuch, vaqt, resurs, yo'qotishga olib keladigan samarasiz) asosidan ko'ra intensiv (jadal), mumkin qadar ilmiy asosda qurish;
- talab etilgan natijalarni kafolatlaydigan ilm-fan va tajriba yutuqlaridan foydalanish;

- o'qitish davomida tuzatishlar ehtimolini loyihalash metodiga tayangan holda yo'qotish;
- ta'lim jarayonini yuqori darajada axborotlashtirish va zaruriy harakatlarni algoritmlash;
- texnik vositalarni yaratish, ulardan foydalanish metodikasini o'zlashtirish va boshqalar.

Texnologiya murakkab jarayon sifatida qator o'qitish bosqichlaridan, o'z navbatida bu bosqichlarning har biri o'ziga xos amallardan iborat bo'ladi.

Amal – o'qituvchining sinfda mavzu bo'yicha o'quv elementlarini tushuntirish borasidagi bajargan ishlari yig'indisi bo'lib, o'qitish jarayonining shu bosqichida tugallangan qismini tashkil etadi. Agar o'quv predmetining har bir mavzusi alohida bosqich hisoblansa, shu mavzu bo'yicha o'quv elementlarining har biriga alohida amal sifatida qaralishi mumkin. Amal texnologiya asosini tashkil etib, ta'lim maqsadini rejalashtirishda va amalgalashishda e'tiborga olinadigan asosiy element hisoblanadi. Amallar bir qator usullardan iborat bo'lib, ularning har biri harakatlarga bo'linadi. Boshqacha qilib aytganda, biror bir o'quv elementini tushuntirish uchun o'qituvchi samarali ta'lim vositalari, metodlaridan foydalanish davomida u yoki bu algoritmik harakatni maqsadga muvofiq holda aniq bajaradi.

16.7. Pedagogik texnologiya prinsiplari

PT loyihalari va ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq holda foydalanish ma'lum bir qonuniyatlargacha asoslanadi. Bu asoslar PTning o'ziga xos tamoyillarini ifoda etadi va metodikadan farqli tomonlarini ko'rsatib beradi. Boshqacha aytganda, ular pedagogik prinsiplar deb atalishi mumkin. Prinsip lotincha so'zdan olingan bo'lib, «asos», «dastlabki holat», «boshqaruvchi g'oya», «umumlashgan talab» kabi ma'nolarni anglatadi. Uni olimlar turlicha talqin qiladilar: V.I. Zagvyazinskiy – «didaktik holat tavsiyasi», M.A. Danilov – «o'qitishning me'yoriy asosi», I.I. Kobilyatskiy – «umumiy talab», I.Ya. Lerner – «didaktik maqsadga erishishning usullari» va hokazo.

PT prinsiplari deganda loyihalangan o'quv-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yuqori natijalarga erishish uchun rioya qilinadigan umumiy me'yorlar va talablarni tushunamiz (N. Saidahmedov).

PT prinsiplarini aniqlashda quyidagi holatlar e'tiborga olinadi:

- mavjud jamiyat talablariga mos keladigan ta'lim-tarbiya maqsadi;

- didaktik jarayonning obyektiv qonuniyatları;

ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan shart-sharoitlar.

PTni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ham tuzilishi va mohiyati jihatdan **yaxlitlik prinsipi**ga assoslanadi. Bu prinsip texnologiya loyihasi yaratilayotganda pedagogik tizimining barcha elementlarini o'zaro ta'siri ostida bo'lismeni va o'zaro bog'liqligini e'tiborga olish lozim.

Yaxlitlik prinsipi PTni tashkil etuvchi elementlardan birini yangilab yoki o'zgartirib, qolganlariga tegmaslikni, qayta qurmaslikni inkor etadi. Masalan, ta'lim maqsadini o'zgartirib, uning mazmunini yoki o'qitish jarayonini eskicha qoldirish mumkin emas.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida chuqur o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilayapti:

- ta'lim-tarbiya maqsadi yangilandi, erkin fikrlaydigan fuqaro, barkamol inson shaxsini shakllantirish;

- ijtimoiy buyurtma o'z navbatida ta'lim mazmunini tubdan yangilashni, yangi o'quv dastur va darsliklar yaratish ehtiyojini keltirib chiqaradi;

ta'lim-tarbiyaning yangi mazmuni, axborotlarni o'quvchilarga ma'lum vaqt doirasida yetkazish jarayonini tezlashtiruvchi vositalarni talab qiladi. Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan olimlarimiz oldiga pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish dolzarb vazifa qilib qo'yilayapti.

PT maqsadli ta'lim-tarbiya jarayonini tavsiflaydi. Agar an'anaviy pedagogikada ko'zlangan maqsad muammofiga nazariyachilar tomonidan va amaliyotda ham kam e'tibor qaratilgan bo'lsa, PTda bu markaziy muammo hisoblanadi va uning ikki jihatni ajratiladi:

1. Tashxislanadigan maqsadli ta'lim va o'quv materialini o'zlashtirish sifatini obyektiv nazorat qilish.

2. Umumiy holda shaxsnı rivojlantirish.

PT o'quv-tarbiya jarayonini oldindan loyihalash va keyingi bosqichda bu loyihani sinfdá amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bu oldindan loyihalash printsipidir. Hamma ham loyiha muallifi bo'lavermaydi. O'qituvchi esa «pedagog-texnologiya» sohibi bo'lishi uchun uning didaktik qonuniyatlarini bilishi va unga tayanishi kerak. Bu esa o'qituvchidan ijodkorlikni talab etadi. Loyihalanayotgan texnologiya dars mavzusiga ajratilgan vaqt doirasida joriy etiladi. O'quv vaqtı PTni oldindan qurishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi va o'qituvchi uni hisobga olishi shart. Loyihalanayotgan didaktik jarayon sind o'qituvchilarining o'zlashtirish darajasiga mos kelishi, hamma uchun tushunarli bo'lishi juda ham muhimdir. Shundagina yakuniy natija qo'lga kiritiladi.

Yakuniy natijaning kafolatlanishi PTning yana bir muhim printsipidir. Bu tushuncha aslida nisbiy xarakterga ega, chunki tuzilgan texnologiya amalga oshirilgach, yaxshimi yoki yomonmi, qandaydir ma'lum bir natijalar berishi, o'quvchilarning o'quv materiallarini turli darajada o'zlashtirib olishlari tabiiy.

Zamonaviy ishlab chiqarish o'zida egiluvchan avtomatlash-tirilgan tizimni mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Texnologiyalar almashuvchanlik xususiyatiga ega: zarurat tug'ilsa, yangi mahsulot turiga mos holda ishchi o'rinnari qayta tashkil etilib, texnologik jarayon tuzilmasi zudlik bilan o'zgartiriladi. Texnologiyaning bu sifat ko'rsatkichi egiluvchanlik deb yuritiladi.

Egiluvchanlik yangi PTlarga xos asosiy printsip hisoblanadi; u PTning qo'llanilish sohalarini ta'lim mazmuni hajmiga mos holda kengaytiradi. Mavzu bo'yicha loyihalanayotgan texnologiya fan bo'lishlari chegarasida egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. O'qituvchi kam kuch va kam vaqt sarfi evaziga fan mavzulari bo'yicha didaktik jarayon tuzilmasini tashxisli maqsadga muvofiq tarzda almashtira olishi yoki qaytadan loyihalashi mumkin. **Egiluvchanlik prinsipi** asosida

yaratilgan PTlar ta'lim bosqichlarining turlari uchun ham qo'l keladi. Bu yerda fan mavzulari soni bo'yicha o'quv elementi soni va ular mazmunining hajmi jihatidan o'zgaradi.

PT sifat ko'rsatkichlari asosiy mazmuni quyidagilar bo'yicha aniqlanadi:

1. **Zamonaviylik.** Ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajribada tekshirilgan didaktikaga oid yangiliklar, faol metodlar va shakllar, tartib-qoidalarni joriy etish majburiyligi Milliy dastur g'oyasidir. Ta'limning taraqqiyot darajasi uning mazmuniga kiritilayotgan fan-texnika yangiliklari bilan tavsiflanadi. Pedagogik jarayonda sustkashlikka, harakatsizlikka yo'l qo'yish mumkin emas, aks holda ta'lim inqirozga uchraydi. Shuning uchun ham ta'lim mazmunini uzlusiz yangilab borish PTning asosiy shartlaridan biridir. O'quv dasturlaridagi ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati kam bo'lgan tarixiy materiallarni chiqarib tashlash, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlari, xulosalar chiqarishi, o'quv materiallarni o'zlashtirish jarayonining yengillashishi, egallagan bilimlarini amaliyotga qo'llay olish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. O'quv materiallari tuzilishida fanlararo aloqani tig'izlashtirib ixchamlashtirish imkonи beriladi. Shu bilan o'quv vaqtini tejab, o'quvchilar o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmini kamaytirishga olib keladi.

2. **Ilmiylik.** Ta'limning didaktik masalalarini belgilashga fanning abstraktsion pog'onalaridan to'g'ri foydalanish hisobiga erishiladi. O'qitish nazariyasi va o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirish texnikasini doimiy ravishda rivojlantirish shart. Shundagina zamonaviylik to'g'risida ijobjiy fikrlar aytish mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim-tarbiya jarayonini uzlusiz tadqiq qilish, uning natijalarini amaliyotda qo'llash zarurligini nazarda tutadi.

O'qitish texnologiyasi ta'limni ilmiy asosda takomillashtirish, birinchi galda u yoki bu yechimning qimmati to'g'risidagi xususiy fikrga emas, balki qabul qilinayotgan yechimlarining ilmiy dalillarga tayanishini belgilaydi.

3. **O'quv jarayonini maqbullashtirish** kam kuch sarfi evaziga o'qituvchining o'quvchini o'qitish maqsadiga erishishidir. Bu esa ta'lim jarayoni uchun eng ma'qul sharoit yaratishni,

loyihalanayotgan didaktik jarayon bosqichlariga o'qitish metodlarini, shakllarini, texnik vositalarni tanlash, belgilangan mavzu maqsadiga muvofiq tarzda va o'quv miqdorini hisobga oлган holda amalga oshirish kerakligini talab etadi. Albatta, bu talab: o'qitish jarayoni qayerda kechayapti, o'qituvchining kasb mahorati, imkoniyatlari qanday, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'lif mazmuni to'g'ri keladimi – shu kabi qator savollarga javob topish kerakligini uqtiradi.

4. **O'qituvchi va o'quvchining dasturli faoliyati** o'quv jarayonidagi jami ortiqcha harakatlarni yo'qotishga, yuqori hamjihatlikni ta'minlashga va pirovardida ko'zlangan yakuniy natijalarни qo'lga kiritishga intilishni ifodalaydi. Didaktik jarayonni loyihalandashda o'qituvchi «texnolog» sifatida faoliyat ko'rsatadi: har bir darsda ta'lif maqsadini aniq o'rnatishi, o'tilayotgan o'quv materiallari mazmunini saralashda o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyati darajalarini, fanni, bayon qilishning ilmiy tilini hisobga olishi kerak; va nihoyat, tashkiliy shakllarning mosini tanlab, belgilangan vaqt doirasida samarali didaktik jarayonni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich talabiga mos holda o'quvchi bilish faoliyatini amalga oshirish uchun unga oldindan alohida tayyorgarlik ko'rishi kerak bo'ladi. Umuman, o'quv jarayoniga oldindan ishlov bermasdan, yakuniy natijalarning ta'lif maqsadiga mos kelishni chamalamasdan, shuningdek, o'qitish davomida yuzaga keladigan noqulay holatlarga bog'liq holda boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmasdan turib, o'quv jarayonini texnologiyalashtirish mumkin emas.

5. **Axborot texnologiyasi** va texnik vositalar, samaradorlik, didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy PTning eng asosiy belgilaridir. Milliy dasturda o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg'u berilgan. Biroq axborot vositalari (kompyuter, elektron aloqa, radio, televiedeniye)dan foydalanish darjasini ikki omil bilan aniqlanadi.

1. O'quv jarayoni uchun axborot vositalari samara beradigan mavzuni aniqlaydigan didaktik materiallarni ishlab chiqish.

2. O'qituvchilarning o'z amaliy faoliyati mobaynida texnik vositalar va didaktik materialdan metodik jihatdan to'g'ri

foydalana olish tayyorgarligini tekshirish. Axborotli ta'lim jarayoni oldindan pedagogik loyihalashtirilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish istiqbolli yo'naliishlardan biri va PTning shug'ullanishi lozim bo'lgan sohasidir.

6. O'quv jarayonining zamonaviy moddiy-texnik bazasiga ega bo'lishi PTning navbatdagi sifat belgisidir. O'qituvchi va o'quvchilararning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun yangi baza yaratish, uning tarkibiy tuzilishini loyihalash ham nazariy va emperik tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi. Masalan: quvvatli texnika-texnologiyalardan foydalanish qator me'moriy yechimlarni o'quv binosi loyihalanayotgandayoq hisobga olinishi, tegishli qulay sharoitlar (iqlim, yorug'lik, mebel va hokazo) bilan ta'minlanishini taqozo etadi. Auditoriyadan tortib nashriyot bazasigacha ta'lim vositalari tarkibiga kirib, ularsiz zamonaviy texnologiyalarni tasavvur qilib bo'lmaydi.

7. O'quv-tarbiya jarayoni natijalarini obyektiv nazorat qilish va sifatli baholash PTning o'z oldiga qo'ygan natijaviy maqsadidir. Jahon pedagoglar uyushmasi tomonidan tan olingan ikki nazorat turi mavjud: obyektiv va subyektiv. Subyektiv usulda bilim va ko'nikmalarni tekshirish o'quvchi oldiga qo'yilgan savolga olinadigan javobni topishdan hosil qilingan taassurot ostida o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va o'quvchi javobi hech qanday o'lchov va sifat mezoni bilan taqqos-lanmaydi. Masalan, imtihon savollariga og'zaki javob berishni baholash yoki yozma ishlarni tekshirish subyektiv nazoratdir, sababi baholash sifatining obyektivligiga qo'yilgan talablar oldindan shakllantirilgan o'lchov bilan solishtirilmaydi.

Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish va baholashning obyektiv usulida o'qituvchi o'z hukmini o'quvchining javobi, amaliy harakatini belgilangan ta'lim maqsadiga mos holda ma'lum usullar yordamida aniqlagan sifat mezonlarini aks ettiruvchi o'lchovlar bilan solishtirish asosida qabul qiladi.

Subyektiv nazorat qilishda nafaqat mulohaza qilish va baholash aniqligi yo'qoladi, balki bo'lajak mutaxassis shaxsini shakllantirishda tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'yish mumkin. Masalan: o'quvchining baholash to'g'ri qo'yilganini inkor etishi

yondashishni yuzaga keltiradi. Afsuski, uzoq yillar davomida o'quvchilar bilimini subyektiv usulda nazorat qilib keldik. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida har doim ham ijobiy munosabatlarni shakllantirishga kafolat bo'la olmaydi.

Test – obyektiv nazorat qilish usuli bo'lib, bugun amaliyotda keng qo'llanilayapti. Testga bir qator talablar qo'yilib, ular ichida eng asosiyları: moslik (adekvatlilik), oddiylik, aniqlik va muayyanlikdir.

Moslik. Testning mosligi deganda test topshiriqlarining o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar mazmun-ma'no doirasi bilan to'liq ravishda va aniq mos kelishi tushuniladi. Testning mazmunan mosligi dastlab nazariy tahlil (ekspertiza) orqali, so'ngra esa eksperimental usulda tekshirib ko'rildi. Nazariy tahlil davomida testning mazmuni o'quv dasturi va o'quv qo'llanmasi bilan taqqoslanib, uning to'g'ri yoki noto'g'ri tuzilganligi haqidagi xulosaga kelinadi. Bu borada o'qituvchi faoliylik ko'rsatib, har bir fandan tuzilgan testni komissiya ko'riganidan o'tkazishi kerak. Aks holda, moslik talabi chegarasidan chiqib ketish mumkin.

Aniqlik. Testni loyihalashda ularning aniqlik darajasiga alohida e'tibor qaratish kerak. O'quvchi testni o'qishi bilan darhol qaysi faoliyatni bajarish zarurligini, qanday bilimlarni va qaysi hajmda namoyish qilish chegarasini chuqur anglab olishi kerak. Testning aniqlik darajasini ta'minlash uchun ular ketma-ket seriyali eksperimentlar yordamida tekshirilib ko'rildi.

Oddiylik. Bu talab test mazmunida mumkin qadar topshiriqlarning ifodalаниш faoliyat turiga qarab sodda va to'g'ri chiziqli holatda bo'lishini e'tirof etadi. Buning uchun test topshiriqlari ma'lum doira chegarasida yechilishi mumkin bo'lgan masalalardan tashkil topishi kerak. Agar bir topshiriqning o'zida yechimini kutayotgan bir necha masalalar mavjud bo'lsa, u holda biz o'quvchi uchun sun'iy qiyinchilik tug'diramiz. Chunki ular testda barcha savollarni anglab olishi va ularni xotirasida doimo saqlab turishi kerak, ulardan biriga javob berayotib, boshqalariga ham javob berishni unutmasligi kerak. Agar noma'lum sababga ko'ra savollarning birini unutsa va unga javob bermasa, bu hol o'quvchi biliminining noto'g'ri

baholanishiga sabab bo'lishi mumkin; aslida sababi e'tiborsizlik bo'lishiga qaramay, testlarni yechishda o'quvchilar faoliyatini mavzuga taalluqli bo'limgan savollar bilan chalg'itish va murakkablashtirish maqsadga muvosiq emas. Ularga oddiylik talabiga javob bera oladigan ketma-ket test taklif etilgani ma'qul.

Muayyanlik. Testga qo'yilgan bu talab uning bajarilish sifatini barcha ekspertlar (imtihon oluvchi, mutaxassis va hokazo) tomonidan baholashda qarama-qarshiliklar yuzaga kelmasligini taqozo etadi. Test tarkibida ishonchli ishllov berishga imkon bera oladigan, aniq va o'zgarmas natija olish mumkin bo'lgan alohida topshiriqlar ajratib ko'rsatilishi kerak. Test tuzishda ma'lum faoliyatni aks ettiradigan topshiriqlarni ifodalash bilan chegaralanmasdan, balki o'zida o'lchov tizimi va baholash sifatini mujassamlashtira olgan etalonni ishlab chiqish kerak.

O'quvchi faoliyatiga bajarish sifati bo'yicha xulosa chiqaruvchi bunday bo'linmalar testning muhim amallari deyiladi. Test amali deganda sinaluchching test shartiga binoan uni yechishda bajargan alohida harakati tushuniladi. Jiddiy amallar esa ma'lum predmet bo'yicha o'quvchi bilimini tekshirishning maqsadini aniq ifoda etuvchi amallardir. Testning bu amallari sonini ajratish va hisoblash uchun ularni tez topish maqsadida etalonda turli usullar bilan belgilanadi. Masalan, tartib raqami bilan ajratib ko'rsatish, qavs yordamida va hokazo.

O'qituvchilar bilimini baholash jarayonini obyektivlashtirish maqsadida topshiriqlarning yuqorida aytib o'tilgan talablarini hisobga olgan holda tabaqalashtirish zarur. Shu yo'l bilan ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Tabaqalashtirishda har bir o'quvchining ma'lum fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi e'tiborga olinadi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini to'rt turga bo'lib, shunga mos ravishda test topshiriqlari tayyorlanadi:

- birinchi darajali test – nomaxsus faoliyat;
- ikkinchi darajali test – algoritmlı faoliyat;
- uchinchi darajali test – mahsuldor ijodiy faoliyat;
- to'rtinchi darajali test – mahsuldor evristik faoliyat.

Topshiriqlarni tabaqalashtirishda bir necha ko'rsatkichlar e'tiborga olinishi kerak: jumladan, topshiriq hajmi, uni bajarish

uchun zarur bo'lgan fikrlash faoliyatining turi (qaytarish, bilimlarni qo'llash, o'quv muammosini yangi usulda yechish, qo'shimcha adabiyotlardan yangi ma'lumotlar olish, dasturlashtirilgan javoblarning mavjudligi yoki yo'qligi).

Dastlabki ikki guruh test shu bilan farqlanadiki, topshiriqlarni bajarish uchun nomaxsus faoliyat talab etiladi, xolos. Uchinchi, to'rtinchi darajali testlarni yechish uchun esa ijodiy xarakterga ega bo'lgan fikrlash faoliyatini, ya'ni ijodkorlikni namoyon qilish zarur. Bundan tashqari, birinchi, ikkinchi darajali test topshiriqlari murakkabligi jihatidan kam farq qiladigan masalalardan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda avtomatlashgan nazorat vositalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish PT shug'ullanishi lozim bulgan yo'nalishdir. Bu yo'nalishda Davlat test markazida katta tajribalar to'plandi va o'z axborotnomalarida ular bilan keng kitobxonlar ommasini tanishtirib bormoqda.

PT pedagogik va boshqa bir qator fanlar yutuqlari bilan bog'liq xususiy nazariyaga ega bo'lib, u birinchi galda o'quv-tarbiyaviy, ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgandir; faol metodlardan samarali foydalanishga asoslangan o'qituvchilarning dasturli faoliyatiga pedagogik texnalogiya zamin yaratadi.

16.8. Aqliy hujum

Aqliy hujum metodining mohiyati jamoa hamkorligi asosida muammoni yechish jarayonlarini vaqt bo'yicha bir qancha bosqichlarda ajratishdan iborat.

Dars jarayonida «Aqliy hujum»dan maqsadli foydalanish ijodiy, nostandard tafakkurlanishni rivojlantirish garovi hisoblanadi. «Aqliy hujum»ni uyushtirish birmuncha sodda bo'lib, undan ta'lim mazmunini o'zgartirish jarayonida foydalanish bilan birgalikda, ishlab chiqarish muammolarining yechimini topishda ham juda qo'l keladi. Dastlab guruh yig'iladi va ular oldiga muammo qo'yiladi. Bu muammoning yechimi to'g'risida barcha ishtirokchilar o'z fikrlarini bildiradilar. Bu bosqichda hech kimning o'zga kishi g'oyalariga «hujum» qilishi

yoki baholashga haqqi yo‘q. «Aqliy hujum» yo‘li bilan qisqa daqiqalarda o‘nlab g‘oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi. Aslida g‘oyalarni sonini qo‘lga kiritish asosiy maqsad emas, ular muammo yechimini oqilona ishlab chiqish uchungina asos bo‘ladilar. Bu metod shartlaridan biri hech qanday tashqi ta’sirsiz qatnashuvchilarning har biri faol ishtirokchi bo‘lishi kerak. Bildirilgan g‘oyalarning besh yoki oltitasigina asosiy hisoblanib, muammo yechimini topishga salohiyatlari imkoniyatlari yaratadi.

«Aqliy hujum»da quyidagilarga rioxha qilish kerak:

- olg‘a surilgan g‘oyalarni baholanmaydi va tanqid ostiga olinmaydi;
- ishning sifatiga emas, soniga e’tibor qaratiladi, g‘oyalarni ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi;
- istalgan g‘oyani mumkin qadar kengaytirish va rivojlantirishga harakat qilinadi;
- muammo yechimidan uzoq g‘oyalarni ham qo‘llab-quvvatlanadi;
- barcha g‘oyalarni yoki ularning asosiy mag‘zi (farazi) qayd etish yo‘li bilan yozib olinadi.
- hujumni o‘tkazish vaqtini aniqlanadi va unga rioxha qilinishi shart;
- berilgan savollarga qisqacha javob berish ko‘zda tutiladi.

Vazifikasi. «Aqliy hujum» qiyin vaziyatlardan qutilish choralarini topishga, muammoni ko‘rish chegarasini kengaytirishga, fikrlash bir xilligini yo‘qotishga va keng doirada tafakkur qilish imkoniyatini beradi. Eng asosiy muammolarni yechish jarayonida kurashish muhitidan ijodiy hamkorlik kayfiyatiga o‘tiladi, guruh (sinf) yanada jipslashadi.

Obyekti. Qo‘llanish maqsadiga ko‘ra bu metod universal hisoblanib, tadqiqotchilikda yangi muammoni yechishga imkon yaratadi, o‘qitish jarayonida o‘quv materiallarini tezkor o‘zlashtirishga qaratiladi, rivojlantirishda o‘z-o‘zini birmuncha samarali boshqarish asosida fikrlashni shakllantiradi.

Qo‘llanish usuli. «Aqliy hujum» ishtirokchilari oldiga qo‘yilgan muammo bo‘yicha har qanday mulohaza va takliflarni bildirishi mumkin. Aytilgan fikrlar yozib boriladi va ularning

mualliflari o‘z fikrlarini xotirasida qaytadan tiklash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Metodning samarasи: fikrlar xilmashilligi qaytadan tavsiflanadi va hujum davomida ular tanqid qilinmaydi, qaytadan ifodalanmaydi. «Aqliy hujum» tugagach, muammoni hal etish uchun muhimlik jihatiga ko‘ra yaxshi takliflarning eng zarurlariga tayaniladi.

Aslida bu metod mualliflari qomusiy olimlarimiz: Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi allomalar bo‘lib, ular o‘zlarini qiynagan muammolarni yechishda shu metodlardan keng foydalanishgan. Ular bu metodni «kengash», «mashvarat», «maslahat» deb atashgan. Sohibqiron Amir Temur sultanatning oldida turgan muammolarni yechishda mashvarat chaqirib, barcha saroy ahlining, vaziru ulamolarning, farzandlarining fikrlarini diqqat bilan eshitgan va ular asosida yagona hukm chiqargan. Bu holatlar ko‘proq harbiy yurishlar oldidan chaqirilgan mashvaratlarda namoyon bo‘ladi. Agar g‘anim ustiga lashkar tortmoqchi bo‘lsa: «...urush-yarashdan o‘rtaga so‘z tashlab, amirlarimning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so‘z ochsalar, uning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko‘rardim, agar urushga moyil bo‘lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko‘rardim, qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, shuni ixtiyor qilardim». («Temur tuzuklari», 1996) Bundan esa «G‘arbning Sharqdan o‘rgangan»ligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yangi pedagogik texnologiyalar haqida fikringiz.
2. Texnologiya sohasida ishlagan buyuk olimlar.
3. Pedagogik texnologiya konsepsiysi deganda nimani tushunasiz?
4. Ta’limni jadallashtirish texnologiyasi haqida tushuncha bering.
5. O‘qituvchi faoliyatining texnologiyalar uchunchanligi haqidagi fikringiz.
6. Pedagogik texnologiya prinsiplari haqida fikringiz.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar ro‘yxati

1. Беспалько В.П. Слагаемые педагогические технологии. –М.: «Педагогика», 1989.

2. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. –М.:1995.
3. Yo'ldoshev J.V. Yangi pedagogik texnologiyalar yo'nalishlari. «Xalq ta'limi» jurnali, 1999, 4-son.
4. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта. –М.: «Знаний», 1989.
5. Кларк М. Технология образования или педагогическая технология, перспективы. 1983, №2.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Qarshi: «Nasaf», 2000.
7. Saidahmedov N.S. O'qituvchining pedagogik tizimdagি faoliyati. «Xalq ta'limi» jurnali, 1993, 6-7-sonlar.
8. Saidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent: 2003.

O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

O'qituvchilik, murabbiylit – sharaflı kasb. Jamiyat o'z bag'rida barkamol, yetuk hozirgi zamon o'qituvchilar avlodini voyaga yetkazishga intilar ekan, bu sharaflı vazifani amalga oshirishda eng katta mas'uliyat yana pedagoglar zimmasiga tushadi.

Davlatimizning asosiy vazifasi hozirgi zamon yoshlaridan istiqlolimizning yuksak talablari darajasidagi bo'lg'usi o'qituvchilar tarkibini shakllantirishdir. O'qituvchi tabiatiga xos psixologik xususiyatlardan yana biri noyob qobiliyatga ega bo'lgan, favqulotda iste'dodli, mahoratli, hayotda mo'jizalar, kashfiyotlar yaratishga qodir ijodkor yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdir. Garchi buning imkonii o'qituvchilar uchun bir qadar qiyin bo'lsa-da, haqiqiy o'qituvchining bu sohada qilayotgan harakati hech qachon so'nmaydi. O'qituvchilarda o'z imkoniyati doirasida, ustun tushunchalarni bo'lg'usi o'qituvchilarga o'rgatish ehtiyoji doimo ularni o'ziga jalb qilaveradi. Shunday ekan, biz o'qituvchi psixologiyasi, uning keng ruhiy olami haqida nimalarni bilamiz? O'qituvchi psixologiyasi, ya'ni uning shaxsiy hamda kasbiy sifat va fazilatlari qanday bo'lishi lozim? Bo'lg'usi o'qituvchilarga, ularning o'qituvchilik qobiliyatlariga mos tushadigan qanday psixologik tavsiyalar bera olamiz? Shu narsa aniqki, mакtabda, darsda va darsdan tashqari holatlarda o'quvchilarga har tomonlama ijobiy ta'sir etishda o'qituvchining tarbiyaviy kuchidan qudratliroq kuch yo'qdir. U bolalarga o'zining fikrlari, so'z va iboralari, shaxsiy namunasi, kishilarga bo'lgan munosabati, aql-idroki, irodaviy namunasi bilan amaliy ta'sir etadi. Shuning uchun bo'lg'usi o'qituvchi: *birinchidan*, hayotda mehnat faoliyati sifatida o'qituvchilik kasbini tanlamoqchi bo'lsa, bu kasbga ongli ravishda yondashmoq va uni mustaqil o'rganish jarayonida o'zi hal qilmog'i lozim. Ya'ni o'zi yashayotgan hudud va viloyatning o'qituvchi kadrlarga bo'lgan ehtiyoji, tanlanadigan kasb talablariga bo'lg'usi o'qituvchining qiziqlishi, moyilligi, qobiliyati, sog'lig'ining anatomik-fisiologik jihatdan muvofiq kelishi, kuzatishlar davrida orttirilgan ainaliy

tajribasi, mehnat sharoiti, o'qituvchilik kasbi talab etadigan muhim psixologik omillar hisobga olinsagina bu kasbni ongli ravishda tanlagen deb hisoblash mumkin. *Ikkinchidan*, erkin kasb tanlash deganda, o'qituvchining bu sohaga tabiatan qiziqishi, tashabbuskorligi, ta'lim jarayonida to'la namoyon bo'lishi tushuniladi: ya'nı psixik jarayonlari: xotirasi, diqqati, nutqiy talaffuzining samarali ishlashi, tafakkurning mustaqil va moslashuvchan bo'lishi, emotsiyonal tuyg'u va irodaviy sifatlarning shakllanganligi, dadillik, sabr-toqat, qat'iyat, o'zini tuta bilish qobiliyati va shu kabilalar. *Uchinchidan*, o'qituvchilik kasbi kasb egasidan erkin fikrga ega bo'lishlikni, mushohada qobiliyatining, erkin so'z aytishga qodirligini, o'z intellektual intilishi va salohiyati, professional mahorati, irodaviy sifatlariga o'zi ongli ravishda baho berishini talab etadi. Bu jarayonda o'ziga-o'zi baho berish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Shuning uchun ham bo'lajak fan o'qituvchilarini maktab rahbarlarining shu sohada yillar davomida orttirgan tajribalariga amal qilishi muhim ahamiyatga egadir. *To'rtinchidan*, o'qituvchining pedagogik faoliyati jarayonida uning xulq-atvoriga, qiziqish-moyilligiga, xarakteriga, qobiliyati va o'qituvchilik mahorati qay darajada ekanligiga hammadan ko'ra ko'proq maktab rahbarlari va keng jamoatchilik xolisona fikr bildirishi mumkin. Bo'lajak o'qituvchi o'z kasbini ongli ravishda tanlashi kerak, degan gapning ijtimoiy mohiyati shundaki, o'qituvchi o'zining intellektual imkoniyatlarini jamiyatimiz ehtiyojlari, uning ma'naviy-axloqiy tamoyillari bilan taqqoslab ko'rishi zarur. Bunda faqat mustaqil respublikamizning bugungi kundagi ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olish bilan cheklanib qolmay, ta'lim tizimini Vatanimizning sotsial-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishga qaratilgan tadbirlarni ham nazardan qochirmaslik muhimdir. Bo'lg'usi o'qituvchi o'z ustida ishlashni, o'z professional faoliyatini, emotsiyonal va iroda kuchini shakllantirishni unutmasa, hech qachon kam bo'lmaydi, lekin bu ishni dastlab o'qituvchilik yillaridan boshlasa, samaradorligi yanada yaxshi bo'ladi.

Yuqorida bayon qilingan o'qituvchilik kasbiga tayyorgarlik davri, kasbni yanada takomillashtirishning to'rtta yo'nalishi

milliy omilni o'qituvchining faoliyatiga to'lar oq safarbar etishga yo'naltirilgan bo'ladi. Fan o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligining milliy-psixologik asoslarini o'rghanishimiz va tahlil qilishimiz bo'lg'usi o'qituvchilarni milliy o'ziga xoslikka tayyorlashni bir necha bosqichida amalga oshadigan psixologik jarayon sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. **Birinchi bosqichda** o'quv-tarbiya jarayonining milliy tamoyillari va milliy xarakteri haqida dastlabki amaliy tasavvurlar shakllantiriladi; kasbiy tayyorgarlik jarayonining obyekti va subyektiga xos, ta'lim va tarbiyaning mazmunidagi o'quv-tarbiya jarayoni sharoitidagi va boshqaruvdagagi milliylikning turli ko'rinishlari bilan tanishiladi. **Ikkinchi bosqichda** millatning etnopsixologik xususiyatlarini, milliy xarakteri, milliy qadriyatlari, milliy ongi va o'zini o'zi anglash, milliy estetikasi, milliy kechinma va kayfiyatlar, ijtimoiy turmush tarzini, hududning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini chuqurroq ilmiy-amaliy asosda o'rganilishi zarur bo'ladi. **Uchinchi bosqichda** pedagogik jihatdan milliy o'ziga xoslikni egallash va milliy o'zini o'zi anglash yuzaga kelishi lozim. Bunda:

- o'zining ijtimoiy, milliy va diniy mansubligi haqida yorqin tasavvurlarni shakllantirishi;
- milliy o'zini o'zi anglashning dunyoqarash komponentini kengaytirish;
- hissiy qadriyatlari komponentni hisobga olish va qo'llash;
- xulqning pedagogik maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan milliy stereotiplarining hosil bo'lishi (shakllanishi).

To'rtinchi bosqichda zaxiradagi imkoniyatlarni ilmiy-amaliy tahlil qilish va muayyan pedagogik jarayonda milliy omildan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini izlash malakalari shakllantiriladi.

O'qituvchi kasbiy tayyorgarligining to'rtinchi yo'naliishi ularning ongida madaniyat va fanning to'g'ri nisbatini shakllantirish bilan bog'liqdir. Bu vazifa o'qituvchining ma'naviy e'tiqodi va ishonchiga, shu jumladan, ilmiy qarashlariga ham hurmat hamda bag'rikenglikni tarbiyalashdir. Shunga qaramasdan, bugungi kunda ba'zi yoshlarning o'qituvchilik kasbini tanlashlarida va tanlagan kasbiga nomunosisib

holatlarning uchrashi, kasbiy shakllanishdagi sustkashliklar tanlash jarayonidagi kasbiy yo'naltirish va shaxsning qadriyat-lari o'rtasidagi munosabatlarning uyg'un shakllanmaganligidan deb aytishimiz mumkin.

Bo'lg'usi o'qituvchilarning haqiqiy kasb egasi bo'lib shakllanishlarida motivlar bilan ustanovkalar orasidagi bog'liqlik masalasi qaysidir ma'noda yetakchi o'rinn egallaydi.

Motivlar kasbga yo'naltiruvchi kuch hisoblansa, kasbiy yo'naltirishlar esa kasbning aniq va to'g'ri tanlangani, shaxsning kasbga *identifikatsiyalashganligi* (tenglashtirilishi) va boshqa jihatlari yuzasidan qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi.

Yuqorida biz to'g'ri kasb tanlash oson ish emasligi to'g'risida to'xtalib o'tdik. Prezidentimiz I.Karimov o'zining ma'ruzalaridan birida: «Yuqori malakali, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, hozirgi kun talablari asosida fikrlay oladigan yetuk o'qituvchi kadrlarni tayyorlash ham ijtimoiy-siyosiy, ham iqtisodiy muammolarni hal etishning «kaliti» hisoblanadi», deb e'tirof etishi, barcha sohalarda bo'lgani kabi o'qituvchilar tayyorlash sohasida ham katta muammolar o'z yechimini kutib turganiga ishora edi. Chunki, ziyrak, intellektual qobiliyati kuchli o'qituvchi o'ta sezgir bo'ladi; o'quvchilarning kayfiyatini, ruhiyatini, xohish va istaklarini oson anglaydi, qalbidan o'tkazadi. Mehribon o'qituvchining yuragi shogirdlarining ko'ksida uradi. Zamonamiz o'qituvchilari ana shu ma'naviy mukofotga loyiq bo'lishlari lozim.

17.1. O'qituvchining ma'naviy-siyosiy e'tiqodi

O'qituvchilik kasbi bugun yoki kechagina paydo bo'lgan emas, uning kelib chiqish tarixi olis o'tmish bilan bog'liq. Lekin hozirgi zamon o'qituvchisining ma'naviyati, siyosiy e'tiqodi qanday psixologik omillarda aniqroq ko'rindi? O'qituvchining qalbida qanday ruhiy olam yashaydi? Hech o'ylab ko'rganmisiz? Bu masala hozirgi zamon o'qituvchilari faoliyatida yechimini kutayotgan katta muammolardan biridir.

Keling, shu xususda batafsilroq mulohaza yuritaylik.

Birinchisi, o'qituvchilik kasbida siru san'at ko'p. Haqiqiy o'qituvchi o'zi tarbiyalagan yoki tarbiyalab ulgurmagan

shogirdlari ruhiyati bilan yashaydi. Shuning uchun ham o'qituvchi xalqining mehnat o'lchovi butunlay boshqacha. Uning qalbini hali hech kim kashf etmagan, sirli tubida istiqlol avlodining ruhiy kechinmalari, o'y-tashvishlari yashaydi. Eng qizig'i shundaki, butun borlig'i bilan ta'lim-tarbiya mehnatiga berilgan mohir o'qituvchilar tabiatida yillar mobaynida professional o'qituvchilik mahorati shakllanib boradi. Avval o'ziga sirli yoki qiyin tuyulgan ko'p narsalar, jumladan, psixologik xususiyatidagi *ojizlik* vaqt o'tishi bilan o'zgarib, uning o'rnini o'qituvchilik kasbining salohiyati, fikrlar kurashi, ijtimoiy-psixologik tasavvurlari uyg'unlashuvining mustaqillik natijalari, mas'uliyatlari egallaydi. Shu tariqa oddiy o'qituvchi o'z ovozi, o'z fikri, o'z mulohazalariga ega bo'lgan, istiqlol davri talab etgan o'qituvchiga aylanib boradi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning yaratilishi ta'lim sohasidagi alohida tarixiy bosqich hisoblanadi. Hayotga tadbiq etilgan dasturning diqqat markazida o'qituvchi shaxsini shakllantirish va uni «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy subyekti sifatida qabul qilinishi taqozo etiladi. Bu ulkan vazifani hal etish, maromiga yetkazish insonning psixologik omillari bilan bog'liq bo'lib, bunga psixologiya fanlarida asosiy o'rinni ajratilgan¹.

Uchinchidan, Prezidentimiz I. Karimov o'zining qator asarlari va ma'ruzalarida, turli chiqishlarida mustaqil huquqiy demokratik davlat barpo etish, jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, ta'lim islohotlarini jadallashtirishda o'qituvchi kadrlarning roli muhim ekanligini doimo ta'kidlab, bu masala hozirgi kunning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini doimo e'tirof etib kelmoqdalar. Darhaqiqat, har qanday davr va pedagogik tizimda tuzgan rejamiz, qonunlarimizning ro'yobga chiqishi, taraqqiyotimiz odimlari, qo'yingki, kelajak avlodlarimiz kayfiyatiga bog'liq barcha hayotiy narsalarning

¹ M.G. Davletshin. Oliy pedagogika o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Toshkent: 2000-y., 3-5 betlar.

ahvoli bugungi kunda maktablarimizda qanday o'qituvchilar ishlayotganiga bog'liqdir.

To'rtinchidan, maktabda mustaqil fikrlovchi o'qituvchilar jamoasini shakllantirish. Yuqori pedagogik bilimga ega bo'lgan, zamon talablariga javob beruvchi yosh o'qituvchilar ommasini tarbiyalash, ularni ma'naviy-siyosiy e'tiqodli, yuksak madaniyatli insonlar qilib shakllantirish oliv o'quv yurtlarining, har bir maktab o'qituvchilarining burchidir.

O'qituvchi ma'naviyatida mustahkam bilimni tarkib toptirish, uning e'tiqodga aylanishini ta'minlash orqali o'qituvchining o'z siyosiy yo'lidan qaytmasligi, turli ekstremistik oqimlarga qo'shilmasligi va milliy mafkuraviy g'oyalarni qo'l-lab-quvvatlashni yuzaga keltirish mumkin. Xullas, o'qituvchining vazifasi talabaga yaqinroq bo'lish, ularning haqiqiy ustoziga aylanishdan iboratdir. Hamkorlik pedagogikasi orqaligina yuqorida aytib o'tilgan maqsad va vazifalarni hal etish mumkin bo'ladi. Endi o'qituvchining ma'naviy-siyosiy e'tiqod motivi uning shaxsida shakllanib borishi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bunga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin bo'ladi.

E'tiqod tushunchasi kishi ongida chuqur o'rnashib qolgan va amalga oshirilishi shaxsning kundalik ehtiyojiga aylangan intilish, xatti-harakat va dunyoqarashlar tizimidir.

E'tiqod erkinligi o'qituvchi turmushining muayyan sharoitlari ta'sirida shaxsning amaliy hayoti, ijtimoiy faoliyati, janiyat ma'naviy boyliklarini egallash, muayyan axloq qoidalari va mezonlarini obdon o'zlashtirib olishga intilishi jarayonida paydo bo'ladi va shakllanadi. Bundan tashqari, e'tiqod erkinligi insonning shaxsiy huquq va erkinliklari ichida markaziy o'rinda turuvchi qadriyat ham hisoblanadi. Uni o'qituvchining ma'naviy olamini, dunyoqarashlarini belgilovchi, shakllantiruvchi asosiy omil deyish mumkin.

E'tiqod tushunchasi siyosiy, axloqiy, ilmiy, diniy kabi turlarga bo'linadi. Inson o'z hayotida shu turlardan biriga alohida ixlos qo'yishi, shu turni o'z turmush tarzi, xatti-harakatlari, orzu-maqsadlari, intilishlarini belgilovchi tamoyillar sifatida qabul qilishi mumkin.

E'tiqod erkinligi yaqin o'tmish istibdod tuzumi sharoitida nihoyatda bir tomonlama talqin qilinar va u faqat kommunistik g'oyalarga e'tiqod sifatida tushunilardi. Holbuki, borliqni idrok qilishda, unga o'z munosabatini bildirishda va shunga qarab xatti-harakat qilishda inson ongining benihoya turli imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Bunday fikrlardagi xilma-xillikni inkor etish va e'tiqod erkinligini bir qolipga, yagona mezonga solish o'qituvchi ruhiyatidagi tafakkur qonunlariga ziddir: u tafakkurning o'sishini, o'qituvchi salohiyatining shakllanishini chegaralab qo'yadi.

Mustaqil O'zbekiston o'z asosiy qonunini tayyorlashda va qabul qilishda tafakkurning shu xislatini va ilg'or mamlakatlar tarixiy tajribasini inobatga oldi. Respublika Konstitutsiyasining 29-moddasida bu ehtiyoj va hayot talabi o'z aksini topdi. 12-moddada «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot, siyosiy institutlar, masdkularlar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanadi» deyilgan. Ayni vaqtida, davlat fuqarolarda umumbashariy va milliy qadriyatlarga asoslangan yuksak e'tiqod tuyg'ularini tarbiyalashga ko'maklashadi. Ammo e'tiqod erkinligini mutlaq cheklanmagan deb tushunish noto'g'ri bo'ladi: u davlatning konstitutsiyaviy asoslariga va fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlariga qarshi qaratilmasligi kerak.

Shunday ekan, e'tiqod erkinligini talqin qilish va amaliyotga tatbiq etish mustaqil O'zbekistonda hal etilayotgan eng murakkab vazifalardan biridir. Buning boisi kommunistik e'tiqoddan mustaqillik e'tiqodiga ko'chishning ichki ziddiyatliligidadir. Milliy istiqlol e'tiqodini o'z ongining tarkibiy qismiga aylantirib ulgurmagan xalq 1917 yil oktyabr voqealaridan so'ng kommunistik e'tiqodning majburan ongiga joylashtirish mexanizmiga to'qnash keldi. Hukmron maskura va davlat tuzumi bizga yetmish yildan ortiq davr ichida «e'tiqod faqat markscha-leninchha bo'lishi mumkin» deb uqtirdi va bunday qarashni shubha ostiga oluvchilarni ayovsiz ta'qib ostiga olib keldi.

Demak, rivojlanib ulgurmagan milliy ongimiz va e'tiqodimiz kommunistik targ'ibot va tashviqot tazyiqida bir tomonlama shakllandi. Biz XX asrning oxirgi o'n yilligiga, mustaqillik

bo'sag'asiga noto'g'ri shakllangan e'tiqod bilan keldik. Afsuski. ko'pchilik odamlar istibdod davrida shakllangan e'tiqodlarini yagona to'g'ri va ilmiy e'tiqod deb biladilar. Haqiqiy erkin e'tiqod, huquqiy davlat, demokratik jamiyat nima ekanligini bilmagan va turmush tajribasida sinab ko'rmagan ba'zi bir g'o'r yoshlar mustaqillik arafasida va mustaqillik e'lon qilingandan so'ng tubdan o'zgargan yangi vaziyatda o'zlarini yo'qotib qo'ydilar, to'g'ri yo'l topolmadilar. O'zbekiston sharoitiga G'arb andozalaridagi siyosiy faoliyat turlarini kiritmoqchi bo'ldilar va o'z kuch hamda g'ayratlarini mitingbozlikka, namoyishkorlikka, majlisbozlikka, fitnachilik va ig'vegar-chilikka, eskirgan siyosiy ixtiloslarga sarfladilar.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining, ta'lim muassasalaridagi tajribali o'qituvchilarning yoshlari o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini to'g'ri tashkil etishlari va o'z vaqtida ko'rgan amaliy choralar jarayonning murakkablashib ketishiga yo'l bermadi. O'qituvchilarning yuqori ijtimoiy ongliligi ularning o'quvchilar, keng jamoatchilik orasida obro'sini oshirib bormoqda. Bu obro' o'quvchilarning o'qish faoliyatları va o'zlashtirishlarining yaxshilanishini ta'minlaydigan eng muhim psixologik omillardan biridir. Demak, o'qituvchining e'tiqodi uning shaxsiga xos bo'lgan bir qancha sifatlar aql-zakovati, irodasi, hissiyotlari, xarakteriga xos xususiyatlardan tarkib topadi. Bunday e'tiqodli xususiyatlar bilan shakllangan o'qituvchi muvaffaqiyatli ishlaydi va oz mehnat sarflab, katta natijalarga erishadi. Bu, albatta, tug'ma e'tiqod emas, balki e'tiqodning mehnat jarayonida shakllangan ko'rinishidir.

Bundan tashqari, bugungi kunda o'qituvchilarimizning ma'naviy-siyosiy e'tiqodi va barkamolligi o'zining amaliy natijalarini ko'rsatmoqda. Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, o'qituvchining ma'naviyati, aqliy-axloqiy va ruhiy balog'ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushuncha uning ma'naviyatidir. Bu eng avvalo, o'qituvchining mehribonligi, xalqiga muhabbat, vatanparvarlik kabi tuyg'ularida o'z ifodasini topadi.

MUNDARIJA

SO'ZBOSHI	3
BIRINCHI BOB. AMALIY PSIXOLOGIYANING PREDMETI, VAZIFALARI VA ILMIY-TADQIQOD METODLARI	6
1.1. Amaliy psixologiya haqida umumiy tushuncha	6
1.2. Amaliy psixologiya fanining muhim vazifalari	11
1.3. Amaliy psixologiyaning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni	13
1.4. Amaliy psixologiya fanining asosiy qonuniyatlari va ulardan foydalanish	15
1.5. Amaliy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari	19
1.6. Ta'lif jarayonida interfaol va innovatsion texnologiyalar metodidan foydalanish	30
IKKINCHI BOB. NERV SISTEMASINING TUZILISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARI FAOLIYATIDA BIOLOGIK-FIZIOLOGIK KO'RINISHLARI	35
2.1. Nerv sistemasining tuzilishi haqida umumiy tushuncha	35
2.2. Oliy nerv faoliyati haqida I.P.Pavlov ta'lomi va uning psixologiya fanida tutgan o'rni	41
2.3. Bosh miya po'stining analiz va sintez qilish faoliyati	45
2.4. Oliy nerv faoliyatining asosiy qonuniyatlari	50
2.5. Oliy nerv faoliyatining sistemalilik uslubida ishlashi	53
2.6. Inson ongi va uning tarixiy taraqqiyoti	55
UCHINCHI BOB. PSIXOLOGIYADA SHAXS VA UNING MUHIM MUAMMOLARI	58
3.1. Shaxs haqida tushuncha	58
3.2. Shaxsning dunyoqarashi, ehtiyojlari va e'tiqodi	63
3.3. Milliy psixologiyani rivojlantirish muhim ijtimoiy muammo sifatida	72
3.4. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi psixologik omillar	76
TO'RTINCHI BOB. PSIXIK JARAYONLAR YOKI SHAXSNING BILISH FAOLIYATLARI. DIQQAT	81
4.1. Diqqat haqida umumiy tushuncha	81
4.2. Diqqatning fiziologik asoslari va tashqi alomatlari	83
4.3. Diqqatning turlari va uning asosiy xususiyatlari	85

BESHINCHI BOB. SEZGILAR	95
5.1. Sezgilar. Ularning turlari, vazifalari va xususiyatlari	95
5.2. Adaptatsiya hodisasi va sezgi a'zolarining o'zaro ta'siri	106
5.3. Sezgilarning rivojlanishi	108
OLTINCHI BOB. IDROK	117
6.1. Idrok haqida umumiy tushuncha	117
6.2. Idroknинг fiziologik asoslari	119
6.3. Idrok qilish turlari	125
6.4. Idrok qilishning sifati va uni belgilovchi shartlar	132
6.5. Bolalarda idrok qilishning rivojlanishi	135
6.6. Idrok qilish jarayonida kuzata bilish va uning samaradorligi	137
YETTINCHI BOB. XOTIRA	142
7.1. Xotira to'g'risida umumiy tushuncha	142
7.2. Assotsiatsiya bog'lanishlari va xotiraning psixofiziologik asoslari	143
7.3. Xotira turlari	145
7.4. Xotiraning rivojlanishi	156
7.5. Xotirani tarbiyalash yo'llari	161
SAKKIZINCHI BOB. TAFAKKUR	165
8.1. Tafakkurning umumiy ta'rifi	165
8.2. Tafakkur turlari va aqlning muhim sifatlari	171
TO'QQIZINCHI BOB. NUTQ	185
9.1. Nutq haqida tushuncha	185
O'NINCHI BOB. XAYOL	197
10.1. Xayolning psixologik ta'rifi	197
10.2. Xayol turlari	198
10.3. O'quvchilar xayolini shakllantirish	201
10.4. Xayolning inson tanasidagi ruhiy jarayonlarga ta'siri	204
O'N BIRINCHI BOB. HISSIYOT	207
11.1. Hissiyotning umumiy ta'rifi	207
11.2. Emotsional holat va hissiy tuyg'ular	209
11.3. Hissiyotning fiziologik asoslari	213
O'N IKKINCHI BOB. IRODA	222
12.1. Irodaning ta'rifi	222
12.2. Iroda orqali qilinadigan ish-harakatlar	226
12.3. O'quvchilar irodasini o'stirish	228

O'N UCHINCHI BOB. TEMPERAMENT	235
13.1. Temperamentning qisqacha ta'rifi	235
13.2. Temperament turlari	238
13.3. Temperamentning fiziologik asoslari	241
13.4. Temperamentni tarbiyalash va rivojlantirish	243
O'N TO'RTINCHI BOB. XARAKTER	245
14.1. Xarakter to'g'risida umumiy tushuncha	245
14.2. Xarakter xislatlari	247
O'N BESHINCHI BOB. QOBILIYAT VA ISTE'DOD	255
15.1. Qobiliyat haqida umumiy tushuncha	255
15.2. Iste'dod va talant haqida tushuncha	260
15.3. Professional qobiliyatning psixologik tahlili	262
O'N OLTINCHI BOB	268
16.1.Ta'lim samaradorligini oshirishning yangi bosqichida o'qitishning pedagogik - psixologik texnologiyalaridan foydalananishning mohiyati va muammolari	268
16.2. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi	276
16.3. Pedagogik texnologiya loyihalari: ilmiy yondashuvlar va yechimlar	279
16.4. Muammoli-modulli o'qitish texnologiyasi	284
16.5. O'quv maqsadlari taksonomiyasi	287
16.6. O'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi	291
16.7. Pedagogik texnologiya prinsiplari	293
16.8. Aqliy hujum	301
O'N YETTINCHI BOB. O'QITUVCHI PSIXOLOGIYASI	305
17.1. O'qituvchining ma'naviy-siyosiy e'tiqodi	308

NARZULLA BOYMURODOV

AMALIY PSIXOLOGIYA

Muharrirlar:

**Ma'mura QUTLIYEVA
Amir XUDOYBERDI**

**Texnik muharrir
Vera DEMCHENKO**

**Badiiy muharrir
Bahriiddin BOZOROV**

**Musahhih
Ilhom QOSIMOV**

**Sahifalovchi
Feruza BOTIROVA**

Bosishga ruxsat etildi 17.02.2009. Bichimi 84x108 1/32
Bosma tobog'i 9,875. Shartli bosma tobog'i 16,59.
Garnitura «LexTimes Cyr+Uzb». Ofset qog'oz/
Adadi 500. Buyurtma 33.
Bahosi kelishilgan narxda

«Yangi asr avlod» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi 278-36-89;

Marketing bo'limi 128-78-43.

Faks 273-00-14, e-mail: yangiasravlod@mail.ru

5000 =



NARZULLA BOYMURODOV

1940-yilda Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanidagi Egizak qishlog'ida tug'ilgan. 1965-yili Toshkent Davlat pedagogika institutini tugatgan. Hozir Qarshi Davlat universitetida faoliyat ko'rsatmoqda. Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

«Kasb psixologiyasi», «Sohibqiron Amir Temurning ruhiy olami», «Rahbar psixologiyasi» nomli kitoblari chop qilingan.



ISBN 978-9943-08-271-7



9 789943 082717